

T. CHORIYEV, N. SAFAROVA,  
SH. ISTAMOVA

# O'ZBEK TILI



81.2873  
CH77

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

T.Choriyev, N.Safarova,  
Sh.Istamova

# O'zbek tili

5141600 - Bo'chlang'ich ta'lif usuliyoti, sport va  
tarbiyaviy ish hamda 5220100 - Filologiya ixtisosliklari  
bakalavr yo'naliishi bo'yicha 1-kurs tojik guruhi talabalarini  
uchun o'quv qo'llanma

Toshkent  
"IQTISOD-MOLIYA"  
2008



Taqrizchilar: ped. f. d. prof. M.Mahmudov,  
f. f. n. dots. B.Qilichev, S.Avezov

### Choriyev Tavakkal

**Ch77 O'zbek tili: 51416000**-Boshlang'ich ta'lif usuliyoti, sport va tarbiyaviy ish, 5220100 – Filologiya ixtisosliklari bakalavr yo'naliishi 1-bosqich tojik guruhi talabalari uchun o'quv qo'llanma./T. Choriyev, N.Safarova, Sh. Ismatova; Mas'ul muharrirlar: O.Safarov, Y.Azimov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 296 b.

I. Safarova Nigora II. Ismatova Shohida

Mas'ul muharrirlar: f. f. d. prof. O.Safarov,  
f. f. n. dots. Y.Azimov

Darslikda tovush tizimi, so'zshunoslik, lug'atshunoslik, morfologiya, sintaksis bo'limlari haqida ma'lumot berildi. Shu bo'limlarga aloqador ilmiy-nazariy tushunchalar, imlo qoidalari, matnni o'qish, mazmunini hikoya qilish, amaliy mashqlarni bajarish, og'zaki savollarga javob berish, test savollari, krossvordlar, topishmoqlar, lug'atlarning izohini o'rganish asosida amalga oshiriladi. Mavzularni o'zlashtirish mustaqil topshiriqlarni bajarish yo'li bilan mustahkamlanadi.

BBK 81.2я73

### Shartli qisqartmalar

A.N. – Alisher Navoiy	R.B. – Ramz Bobojon
A.O. – Abdulla Oripov	S.A. – Said Ahmad
H.X. – Halima Xudoyberdiyeva	S.A. – Sunatilla Anorboyev
M. – Mirmuhsin	S.M. – Sobir Mirvaliyev
M.I. – Mirzakalon Ismoiliy	T.M. – Tohir Malik
N.F. – Ne'mat Fayz	U.M. – Ulfat Mahkamov
N.A. – Ne'mat Aminov	V.S. – Vohid Sa'dulla
O. – Oybek	X.D. – Kurshid Davron
P.Q. – Pirimqul Qodirov	O'.H. – O'tkir Hoshimov
	Ch.A. – Chingiz Aytmatov

ISBN 978-9943-13-063-0

© "IQTISOD-MOLIYA", 2008

© T.Choriyev, N.Safarova, Sh.Istamova, 2008

## O‘zbek-u tojik - ikki tilda so‘zlaydigan bir xalqdir.

I.A. Karimov

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi istiqlol davrida tojikzabon o‘quvchilar uchun “O‘zbek tili” fani bo‘yicha yangi darslik yaratishga katta e’tibor bermoqda. Umumta’lim maktablarining V-XI sinflarida tojikzabon o‘quvchilar R.Tolipova, Q.Yo‘ldosheva, D.Qosimxo‘jayeva<sup>1</sup>, R.Tolipova, I.Tursunova, M.Ochilova<sup>2</sup>, X.Muhiddinova, M.Yusupova, N.Ikromova, G.Akramova<sup>3</sup>, A.Rafiyevlar<sup>4</sup> yaratgan darsliklar asosida “O‘zbek tili” fanini o‘rganmoqdalar.

Buxoro, Samarqand, Termiz davlat universitetlari hamda Toshkent viloyatidagi Angren davlat pedagogika institutining tojik bo‘limlari: 5141600 -Boshlang‘ich ta’lim usuliyoti, sport va tarbiyaviy ish, 5220100 -Filologiya ixtisosliklari bo‘yicha tojikzabon talabalar ta’lim oladilar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2005-o‘quv yilida tasdiqlangan namunaviy o‘quv rejasи bo‘yicha 5141600-Boshlang‘ich ta’lim usuliyoti, sport va tarbiyaviy ish bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha 1-kurs tojik guruhi talabalariga 76 soat miqdorida “O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot o‘tkaziladi. Mazkur rejadagi 76 soatdan 38 soati kuzgi va 38 soati bahorgi jarayonlarda o‘tiladi. Shu bilan birga, 1-semestrda 22 soat, 2-semestrda 24 soat mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari belgilangan. Amaliy mashg‘ulot, mustaqil ta’limni maqsadli va samarali o‘tkazishda, albatta, tojikzabon talabalar uchun “O‘zbek tili” fani o‘quv qo‘llanmasi zaruriy manba sanaladi.

Biz tomonimizdan yaratilgan darslikda “O‘zbek tili” fanining tovush tizimi (fonetika), so‘zshunoslik (leksikologiya), lug‘atshunoslik (leksikografiya), morfologiya, sintaksis, imlo bo‘limlariga aloqador bo‘lgan ma’lumotlar 38 ta mavzu

1. Tolipova R, Yo‘ldosheva II, Qosimxo‘jayeva D. O‘zbek tili. Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. To‘dirilgan uchinchchi nashri. – Toshkent: „Sharq”, 2005, 192 bet.

2. Tolipova R., Tursunova I., Ochilova M. O‘zbek tili. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. To‘dirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: „Sharq”, 2005, 144 bet.

3. Muhiddinova X., Yusupova M., Ikromova N., Akramova G. O‘zbek tili. Ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarining 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006, 128 bet.

4. Rafiyev A. O‘zbek tili. Ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarining 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006, 144 bet; Rafiyev A. O‘zbek tili. Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarining 11-sinf uchun darslik. – Toshkent: 2005, “O‘qituvchi”, 112 bet.

misolida yoritildi. Mavzularning o'rganilishi matnni o'qish, mazmunini aytib berish, suhbat tashkil qilish, dialog usulida fikr bayon qilish bilan boshlanadi. Mantiqiy, ijodiy mashqlar va mavzuga oid atamalar keltirilgan. Mavzu savol va testlar bilan mustahkamlangan. Tavsiya etilgan mustaqil topshiriqlar mavzuni ongli o'rganishda yaqindan yordam beradi.

Bo'limlardan tashqari rasmiy hujjatlar: tarjimayi hol, hisobot, bayonnoma, taqriz namunasi hamda shu hujjatlarni yozishda, tajribani o'rganishda tavsiyalar, o'qish va yod olish uchun matnlar: maqol, ertak, doston, tez aytish, qiziqmachoq, alla, hikmatli so'z, she'r namunalari; og'zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi matnlar: dialog, monolog namunalari; tarjimonlik mahorati va malaka oshirish uchun matnlar: o'zbekcha matnlar (tojikchaga o'girish uchun), tojikcha matnlar (o'zbekchaga o'girish uchun); lingvistik (lisoniy) tahlil: fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlillar namunasi va tahlil uchun misollar; ma'nosi qiyin so'zlar lug'ati, o'zbekcha-tojikcha so'zlar lug'ati; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'quv qo'llanmada o'z aksini topgan.

Rasm va tasvirlar mustaqil, ijodiy fikrlash va ishlashda imkoniyat yaratса, mavzuga aloqador grammatik topishmoqlar va ularning javobi hozirjavoblikka, krossvordlar esa xotira va tafakkurni charxlashga yo'naltirilgan.

**"O'zbek tili"** o'quv qo'llanmasi bakalavr 5141600 – Boshlang'ich ta'lim usuliyoti, sport va tarbiyaviy ish bakalavr yo'nalishi o'quv rejası (Namunaviy reja 2005-yilda tasdiqlangan), 5220100 – Filologiya bakalavr yo'nalishi 2004-yilda tasdiqlangan namunaviy o'quv rejasida belgilangan 76 soat amaliy mashg'ulot asosida yozildi. Hozirgi kun talabidan kelib chiqib, Respublikamizda **"Ta'lim to'g'risida"** gi Qonun hamda **"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"**ni hayotga tatbiq etish, bakalavriat bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish uchun o'quv qo'llanma asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

O'quv qo'llanmaning "Kirish", "Fonetika", "Leksikologiya", "Sintaksis", "Imlo", "Ma'nosi tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati", "O'zbekcha-tojikcha so'zlar lug'ati" bo'limlarini filologiya fanlari nomzodi, dotsent **T.R. Choriyev**, "Leksikografiya" bo'limini filologiya fanlari nomzodi **N.O. Safarova**, "Morfologiya", "Lingvistik tahlil" bo'limlarini o'qituvchi **Sh.M. Istamova** yozdilar.

O'quv qo'llanmaning "O'qish va yod olish uchun matnlar", "Og'zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi matnlar" hamda "Tarjimonlik mahoratini shakllantirish va malakani oshirish uchun matnlar" bo'limlarini dotsent **T.R. Choriyev** va filologiya fanlari nomzodi **N.O. Safarovalar** hamkorlikda tartib berdilar.

## 1-MAVZU. O'ZBEK TILI VA UNING QISQACHA TARIXI

(Забони ўзбекӣ ва таърихи муҳтасари он)

**1-mashq.** She'rni o'qing, mazmunini aytib bering. O'zbek tili va uning tarixi haqida nimalarni bilishingizni aytning.

### Til

Har tilni biluv emdi bani Odama jondur,  
Til vositayi robitayi olamiyondur.

G'ayri tilni bilgali sa'y aylangiz, yoshlar,  
Kim ilm-u hunarlar kaliti andin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka oni g'ayrat eting, foydaga kondur.

Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,  
Onda o'qig'onlar bari yaktoyi zamondur.

Zor o'lmasin onlar haqi til bilmay Avazdek,  
Til bilmaganidin aning bag'ri to'la qondur.

### Avaz O'tar

**Bilib oling!** O'zbek tili tarixi insonning paydo bo'lishiga taqaladi. O'zbek tili oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi. Dunyo bo'yicha 25 ta turkiy til mavjud. Ular quyidagilar: o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, turk, tatar, uyg'ur, boshqird, chuvash, yoqut, qorachoy, bolqor, tuva, oltoy turklari, xakas, gagauz, shor, qo'miq, oyrot, no'g'oy, qrim, tofa, karagas. Bu tillarda jahonda 200 mln aholi so'zlaydi. Qadimgi turkiy tilda yozilgan yodgorliklar bizgacha yetib kelgan. Ular quyidagilar: "Oltin yoruq", "O'rxun-Enasoy yodgorliklari" (VI-VII asrlar), Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" (XI asr), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asari (XI asr) va boshqalar. O'zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi. Bu davrda xorazmlik Abulqosim Zamaxshariy tilga bag'ishlab "Muqaddimat ul-adab", arab tilining grammatiskasi haqida "Al-Mufassal" asarlarini yaratdi. XV asrda umumxalq o'zbek adabiy tili (eski o'zbek adabiy) paydo bo'ldi. O'zbek adabiy tilining taraqqiyotida Alisher Navoiyning

xizmati juda ham katta. U til masalalariga bag‘ishlab “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini yozdi.

O‘zbek tilida 3 xil lahja bor:

1. **Qarluq lahjası.** Bu lahja, asosan, shahar shevalarini o‘z ichiga oladi.
2. **Qipchoq lahjası.** Bu lahjada so‘zlovchilar O‘zbekistonning barcha viloyatlarida istiqomat qiladilar.

3. **O‘g‘uz lahjası.** Bu lahja Janubiy Xorazmdagi bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi turk (usmonli), ozarbayjon, turkman tillariga asos bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga Farg‘ona va Toshkent shevalari asos qilib olingan.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili – o‘zbek tilidir. 1989-yil 21-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida” gi qonun qabul qilindi. 1995-yil 21-dekabrda bu qonunga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi. Yangi tahrirdagi qonun 24 moddadan iborat.

**2-mashq. “Til bilgan - el biladi”** mavzusida savol-javob o‘tkazing va shu asosda dialog tuzing.

**3-mashq. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”** gi qonunning yangi tahriridan keltirilgan moddalarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

Mazmun va mohiyatini izohlab aytинг.

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

**2-modda.** O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**4-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududiga yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

**5-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruqlar zich yashaydigan joylarda esa – ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta’minlanadi.

**6-modda.** O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rtta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

**9-modda.** Davlat hokimiyyati va boshqaruva organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

**16-modda.** Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

**17-modda.** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

**18-modda.** Pochta-telegraf jo‘natmalar’ davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra – boshqa tilda amalga oshiriladi.

**20-modda.** Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjunesi berilishi mumkin.

**24-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusummat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

**4-mashq.** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

### Til

Deyarli barcha maxluqlarda til bor. U issiq-sovuqni, ta’m-mazani biluvchi, ovqatlanishda ishtirok etuvchi a’zo. Odamda esa bulardan tashqari nutq tovushlarini hosil qiladi, ya’ni insonning so‘zlash qobiliyati til orqali amalga oshadi.

Yer yuzida qancha millat, xalq, elat, qabila bo‘lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo‘q. Xalqsiz esa til ham bo‘lmaydi. Bular egizak tushunchalardir, birini boshqasidan ayirib bo‘lmaydi. Ular ayirib qo‘yilsa, ikkisi ham o‘zligini yo‘qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo‘silib ketadi, uning tili esa o‘lik tilga aylanadi. Kezi kelganda shuni aytib o‘tish lozimki, birgina til so‘zi misolida ham tilimizning naqadar boy va serjilo ekanini yaqqol ko‘rish mumkin.

Yer yuzidagi barcha xalqlarning tillari, ularda millionlab odam gaplashadimi yoki atigi bir-ikki ming kishi so‘zlashadimi, bundan qat’iy nazar o‘zları uchun aziz va keraklidir. Tilni “kam sonli elat gaplashar ekan” deb kamsitib yoki bo‘lmasa, “ko‘p sonli millatning tili ekan” deb ulug‘lab bo‘lmaydi. Bunda sonning ko‘p yoki ozligini mezon qilib bo‘lmaydi. Har kimniki o‘ziga, oy bo‘lib ko‘rinadi ko‘ziga-da! Lekin dunyoda juda taraqqiy etgan, boy jahon tillari ham bor, endi tetapoya qilayotgan tillar ham yo‘q emas. Bu o‘sha tillarning sohibi bo‘lmish millat yoki elatlarning tadrijiy ravnaqi, bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, kishilik jamiyatining qaysi bir taraqqiyot bosqichida ekanı, iqtisodi, madaniyati, fani va ma’naviyati hamda shu kabi omillarga bog‘liq, albatta. Bizningcha, loaqal birgina Ona allasi mavjud bo‘lgan til ham yashashga haqlidir (“Vatan tuyg‘usi” kitobidan).

**5-mashq.** O‘zbek tili haqidagi tojikcha ma’lumotni o‘qing va uni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Аз оилаи забонҳои туркӣ, дар Ҷумҳурии Ўзбекистон, Тоҷикистон, Қирғизистон, дар Афғонистон ва Ҳитой паҳн шудааст. Ба забони ӯзбекӣ наздиқ аст; дар асоси забони қадимаи ӯзбекӣ забони ҳозираи ӯзбекӣ ба вучуд омадааст. Забони ӯзбекӣ адабиёти бой дорад. То соли 1927 ӯзбекҳо аз алифбои арабӣ истифода мебурданд, аз соли 1927 то соли 1940 алифбои лотинӣ ҷорӣ буд; соли 1940 ҳати онҳо дар асоси алифбои кириллиӣ, аз соли 1993 то айни замон алифбои лотинӣ тартиб дода шуд.

**6-mashq.** Maqollarni o'qing, mazmunini tushuntiring.

1. Til bilgan – el biladi.
2. Tilni ko‘p bilgan, ko‘pni bilar,  
Tilni oz bilgan, o‘zini bilar.
3. Ko‘p til bilgan – el kezar.
4. Til bilgan – yo‘l topar.
5. Tilga e’tibor – elga e’tibor.
6. Til – dil kaliti.
7. Tiling birla ko‘nglingni bir tut.
8. Odob boshi – til.
9. Til – millat ko‘zgusi.

**7-mashq.** Matnni o'qing, mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan aytib bering. Gap qaysi tillar va nima haqda ekanligini aniqlang.

Tojik va o‘zbek xalqlari azal-azaldan bir yurtda yashab, hamfikr va hamnafaslikda ijod qilib kelmoqdalar. Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy, Sadriddin Ayniy bilan Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom bilan Mirzo Tursunzodalarining hamkorliklari fikrimizning dalilidir. Har ikkala tilning lug‘at tarkibiga nazar solsak, unda talay o‘zlashma so‘zlarni ko‘ramizki, ularning bir qismini mushtarak so‘zlar tashkil etadi. Bunday so‘zlar o‘zlashma so‘zlar sanalsa-da, biroq ular ikki tilning lug‘at tarkibini boyitib, nutqning rang-barangligini yuzaga keltiradi.

Ikki va undan ortiq tillarda bir xil ma’noni anglatuvchi so‘z mushtarak ma’noli so‘z deyiladi. “Mushtarak” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, umumiy degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da shu ma’noda va “ko‘pchilikka taalluqli, o‘rtadagi” ma’nolarida, “Фарҳангӣ забони тоҷикӣ» да «аз они якчанд қас, он чи қи ҷанд қас дар он баҳра ва саҳм доранд, умумӣ, шарқӣ» ma’nolarida izohlangэн.

Tojik va o‘zbek tillari ikki cilaga mansub. Birinchisi hind-yevropa, ikkinchisi esa oltoy tillari oilasining turkiy tillar guruhiга kiradi. Shunga qaramay, bir-birining leksik qatlamida anchagina tojikcha va o‘zbekcha so‘zlar o‘zlashgan:

1. **Oftob** so‘zi. Bu so‘z fors-tojikcha. O‘zbek tilidagi ekvivalenti **quyosh** so‘zi. **Oftob** va **quyosh** so‘zları o‘zbek tilida ma’nodosh so‘zlar sanaladi.

Mushtarakligi shundaki, oftob so'zi tojik va o'zbek tilida "bizning Galaktikada joylashgan va o'z atrofida aylanuvchi, hamma planetalarga yorug'lik va issiqlik berib turadigan, qizg'in gaz holidagi yumaloq yoritqich" ma'nosini ifodalaydi. "**O'zbek tilining izohli lug'ati**" da **oftob** so'zini alohida ko'rinishda hamda oftoba (obdasta), oftobachi (oftoba tutuvchi shaxs), oftobi (oftobda quritilgan mevalar), oftobli (oftobli kungay), oftobparast (kungaboboqar), oftobparastlik (oftobparast), oftobro'y (oftobro'ya, kungay), oftobro'ya (quyoshga qaragan), oftobtig'a (oftob nuri tik tushib turadigan yer), oftobchuvoq (bahorgi ta'sir kuchi kam, yoqimli oftob ), oftobshuvoq (oftobchuvoq) o'zakdosh so'zlar tarkibida berilgan. Oftobachi, oftobparast, oftobro'ya tojik tilidan o'zbek tilida o'zgarmagan shakl va ko'rinishda aynan ko'chgan. -chi, -li, -lik qo'shimchalari hamda chuvoq, shuvoq so'zları qo'shilib o'zbekcha tus olgan. "**Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at**" da yuqorida so'zlardan oftoba, oftobparast, oftobro' so'zlarini ko'ramiz. Aytish mumkinki, oftob so'zi Alisher Navoiy davridan oldin o'zbek adabiy tiliga kirgan, keyinchalik har ikkala tilda mushtaraklik xususiyatini paydo qilgan. Shuning uchun bugungi kunda oftob so'zini o'zbek adiblari quyosh so'zi o'rnida qo'llaydilar.

**2. Bayroq** so'zi. Bu o'zbekcha so'z bo'lib, tojik tilidagi **alam, durafsh** (diravsh), **yalav, livo, parcham** so'zlarining dominanti. Ma'nodosh so'zlarga nisbatan so'zlashuv nutqida ko'proq qo'llanadi.

**3. Qishloq** so'zi. Tojikcha **deha, rusto** so'zlarining ma'nodoshi. Tojik tilining so'zlashuv nutqida faol so'z sanaladi.

### Atamalar lug'ati

1. Til – забон
2. Oltoy oilasi – оилаи олтой
3. Turkiy tillar guruhi – гурӯҳи забонҳои туркӣ
4. Qadimgi turk tili – забони қадимаи туркӣ
5. Adabiy til – забони адабӣ
6. O'zbek adabiy tili – забони адабии узбекӣ
7. O'zbek adabiy tili – шева
8. Lahja – лаҳҷа
9. Qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalari – лаҳҷаҳои қарлук, қипчок, угуз
10. O'rxun - Enasoy yodgorliklari – ёдгорлиҳои Ӯрхун - Энасоя ,

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. O'zbek tili qaysi oila va tillar turkumiga mansub?
2. Qadimgi turkiy tilda yozilgan yodgorliklardan qaysilari bizgacha yetib kelgan?
3. O'zbek tili qachondan boshlab mustaqil til sifatida shakllangan?
4. Umumuxalq o'zbek adabiy tili (eski o'zbek adabiy til) nechanchi asrda paydo bo'lgan?
5. O'zbek adabiy tilining asoschisi kim?
6. Tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan "**Muhokamat ul-lug'atayn'** asarini kim yozgan?
7. O'zbek tilining qanday lahjalari bor?
8. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi shevalar asos qilib olingan?
9. O'zbekiston Respublikasining davlat tili qaysi til?
10. "**O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida**" gi qonunining yangi tahriri necha moddadan iborat?
11. Tojik tili qaysi oila va tillar guruhiiga mansub?

### **Test**

- 1. O'zbek tili qaysi til oilasi va guruhiiga mansub?**  
A) hind-yevropa oilasining tohar guruhiiga  
B) oltoy oilasining turkiy guruhiiga  
C) eron oilasining hind-yevropa guruhiiga  
D) turk oilasining chig'atoy guruhiiga
- 2. Quyidagi tillardan qaysi biri oltoy tillari oilasiga mansub?**  
A) yapon tillari tarmog'i      C) eron tillari tarmog'i  
B) turkiy tillar tarmog'i      D) mo'g'ul tillari tarmogi
- 3. Qadimgi turkiy til qaysi davrgacha qo'llangan?**  
A) X asrgacha      C) VIII asrgacha  
B) XV asrgacha      D) miloddan oldingi davrdan XII asrgacha
- 4. Eski o'zbek adabiy tili qaysi davrda shakllangan?**  
A) X-XI asrlarda      C) XIII asrda  
B) XI- XII asrlarda      D) XIV asrda
- 5. Dunyodagi xalqaro tillar qaysi qatordagি javobda aks etgan?**  
A) ingliz, fransuz, rus, ispan, arab, xitoy tillari  
B) o'zbek, usmonli turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, rus tillari  
C) ingliz, nemis, yapon, italyan, polyak, rus tillari  
D) lotin, hind, eron, xitoy, rus, ingliz tillari

**6. XI asrda grammatikaga oid asar yozgan mashhur vatandoshimiz kim?**

- A) Yusuf Xos Hojib                    C) Abulqosim Zamaxshariy  
B) Mahmud Qoshg'ariy                D) Abu Bakr Narshaxiy

**7. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi shevalar asos qilib olingan?**

- A) Andijon - Shahrixon              C) Toshkent - Guliston  
B) Xorazm - Urganch                D) Farg'ona - Toshkent

**8. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi**

Konstitutsiyamizning nechanchi moddasida o'z aksini topgan?

- A) 3-moddasida                        C) 1-moddasida  
B) 5-moddasida                        D) 4-moddasida

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” mavzusida kursdoshlaringiz bilan suhbatalshing va dialog matnini tayyorlang.

2. 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrir bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida” gi qonundan 7,8,13,15,19- moddalarni daftaringizga ko'chirib yozing.

3. Tojik tili va uning tarixi haqida o'zbek tilida qisqacha ma'lumot yozib keling.

4. Shoir Abdulla Oripovning “O'zbekistonim, senga” she'rini o'qing va uni yodlang.

**O'zbekistonim, senga**

Aylayin qalbimni tortiq nurli bo'stonim, senga,  
Sen vatandirsan, fidodir tanda bu jonim senga.  
Bebahosan, asragayman gavharim, deb men seni,  
Sen qarog' bo'lsang agarda, sadqa mujgonim senga.  
Sendan ayru dam uzundir, lahzalar ham yilga teng,  
Bir umrga lek barobardir kerak onim senga.  
Har bir aqling bitta yulduz, kavkabistonim o'zing,  
To hayotdirman, charog'im, shu'layi shonim senga.  
Yor-u do'stlar jam bo'libdir, to'y qilur o'zbek elim,  
Men degayman xush kelibsani, do'st-u mehmonim, senga.  
Xizmatingga shay erurman, mehnatingda ham o'zim,  
Baxtiyorman, sarf etolmas borki imkonim senga.  
Dilda orim sen uchundir, qo'lda torim sen uchun,  
Qayda bo'lsam talpinurman, O'zbekistonim, senga.

## 2-MAVZU. O'ZBEK TILI YOZUVLARI. LOTIN ALIFBOSI

(Хатҳои забони ўзбеки. Алифбои лотинӣ)

**8-mashq.** Yozuvlар haqidagi ma'lumotlarni o'qing. **Piktografik, ideografik, logogramma, iyeroglifik** yozuvlар haqidagi ma'lumotlarni daftaringizga ko'chirib yozing. O'zbek tili yozuvlari xususida fikr bildirib, dialog matnini tayyorlang.

Yozuv jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan biridir. Insoniyat tomonida yaratilgan buyuk kashfiyotlardan hisoblanmish yozuv o'zining bugungi taraqqiyot darajasiga erishguncha necha ming yillar o'tgan.

Har bir narsaning rivojlanish, taraqqiyot bosqichlari bo'lgani kabi, yozuv ham bir necha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Dastlabki yozuv shartli ravishda buyum yozuvi deb nomlangan. Buyum yozuvi vaqt o'tishi bilan piktografik – rasm yozuvi bilan almashgan. Bunday yozuvda har bir rasm ma'lum ma'no ifodalagan. Asrlar o'tib, rasm yozuvi o'z o'mmini ideografik tushuncha yozuviga bo'shatib berdi. Bunday yozuvda har bir turdag'i tushunchalarga ma'lum ramziy shakllar tanlangan. Belgilar logogrammalar deb ham ataladi. Logogrammaning piktogrammadan farqi shundaki, u so'zning ma'nosini izohlaydi. Piktogramma esa buyumning o'zini aks ettiradi. Shunga ko'ra, logogramma buyum shakli bo'lmay, u so'z ma'nosini aks ettiruvchi shartli belgidir. Logografik yozuvning ancha mukammallahgan shakli iyeroglifik yozuvdir. U muqaddas yozuv ma'nosini anglatadi. Fonografik tovush yozuvining dastlabki ko'rinishlari – bo'g'inlab o'qiluvchi yozuv paydo bo'ldi va bu yozuv tovush yozuvining kelib chiqishi uchun asos bo'ldi. Fonografik yozuvda har bir tovush bir harf bilan ifodalanadi.

Harf-tovush yozuvi hozirgi vaqtida butun dunyoda foydalilanayotgan to'rt xil yozuv tizimidan iborat bo'lib, ular lotin yozuvi, arab yozuvi, hind yozuvi va kirill yozuvlaridir. Harf-tovush yozuvining kelib chiqishi Misr, Finikiya va Gretsianing uzoq o'tmishiga borib taqaladi.

Finikiy yozuvi bilan miloddan oldingi XII-X asrlarga oid manbalar yozib qoldirilgan. Keyinchalik oromiy yozuvi paydo bo'lgan va uning asosida yahudiy, suriya, eron, arab yozuvlari yuzaga keldi. Eron yozuvi uyg'ur, mo'g'ul, buryat yozuvlarining paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan.

Miloddan oldingi 403-yildan boshlab grek alifbosi qo'llana boshlangan. Grek yozuvi asosida lotin, kirill, gruzin, arman va boshqa alifbolar yaratilgan.

O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixi davomida oromiy, yunon (grek), karoshta, sug'diy, xorazmiy, kushon, eftalit,

pahlaviy, suriya, hind, turk-runiy (dulbarjin), moniy, braxma, uyg‘ur, arab, lotin va kirill yozuvlarida ish yuritib keldi.

Turk-runiy yoki dulbarjin hamda uyg‘ur yozuvlari turkiy xalqlar ijod qilgan alifbolar hisoblanadi. Dulbarjin yozuvi 41 harfdan iborat bo‘lib, ulardan beshtasi unli tovushlarni, qolganlari undosh tovushlarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklar Enasoy (hozirgi Yenisey, Rossiya) va O‘rxun (Mo‘g‘uliston) daryolari bo‘ylaridan topilganligi uchun ilmiy adabiyotlarda “O‘rxun-Enasoy yodgorliklari yozuvi” nomi bilan ham mashhurdir. Bu alifbodagi matnlar yuqorida pastga yoki o‘ngdan chapga qarab yozilgan va shunday o‘qilgan. Yuqorida pastga qarab yozilganda harflar chap yoniga yotqizilgan va satrlar ham o‘ngdan boshlangan (Mardonqul Boltayevning “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi” kitobidan).

*Bilib oling!* O‘zbekistonda lotin harflariga asoslangan o‘zbek alifbosi qo‘llanishining ikki davri bor: O‘zbekiston Respublikasi tashkil topganidan so‘ng 1926-1940- yillargacha bo‘lgan birinchi davr ; O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingandan (1991-yil 31-avgust) keyingi ikkinchi davr. 1993-yil 2-sentabrda bo‘lib o‘tgan O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi” **31 harf va 1ta tutuq belgisi (apostrof)** bilan tasdiqlangan. Mazkur alifboga 1995-yil 6-may Oliy Kengash qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan. Shundan so‘ng alifboda harflar soni **29 ta bo‘lib qolgan**. Ularning **6 tasi unli, 23 tasi undosh harflar** sanaladi. **Sh, Ch, Ng** harf birikmalari undosh tovushlar sirasiga kiradi. Alifboda harflar tartibi quyidagicha: **Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O‘o‘, G‘g‘, Sh, Ch, Ng.**

Alifbodagi harflar qo‘llanish o‘rniga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: yozma va bosma harflar. Yozma harflarni yozishda qo‘l harakati uzlusiz uzilmaydi. Ayrim harflarning o‘zida tutashtiruvchi unsuri yo‘q. Bunda yordamchi unsur yozuv vaqtida qo‘shiladi. Yozma kichik harflar yozilishiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi: Ikki chiziq oralig‘iga yoziladigan harflar, ikki chiziqning yuqorisiga ko‘tarib yoziladigan harflar, ikki chiziqning ostiga tushirib yoziladigan harflar, qatorning ustiga ko‘tarib va ostiga tushirib yoziladigan harflar. Tutashtirilishiga ko‘ra uch guruhga: yuqori qismidan tutashtiriladi, pastki qismidan tutashtiriladi, o‘rta qismidan tutashtiriladi. Yozma bosh harflar tutashtirilishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: tutashtiruvchi unsurli bosh harflar, tutashtiruvchi unsursiz harflar.

Lotin alifbosidagi **29 harf** ko‘rinishiga ko‘ra davlat o‘lchami (standarti) dagi bosma hamda yozma harflar guruhini tashkil etadi.

**9-mashq.** Quyida berilgan so‘z va so‘z birikmalarini harflarning tutashtirilish qoidalariga rioya qilib daftaringizga ko‘chirib yozing.

Talaba, bakalavr, magistr, aspirant, fan nomzodi, dotsent, fan doktori, professor, akademik, rektor, prorektor, dekan, dekan muovini, kafedra mudiri, kotiba, birinchi kurs talabasi, o'zbek tili darsi, lotin yozuvi, birinchi jarayon, ikkinchi jarayon, reyting nazoratlari, joriy nazorat, yakuniy nazorat, mustaqil ta'lif, kasaba uyushma qo'mitasi, o'quv bo'limi, ilmiy bo'lim, shartnoma bo'limi, ma'naviyat va ma'rifat xonasasi, darsxona.

**10-mashq.** Matnni o'qing, mazmunini ayтиб bering. “**Kitob aql qal'asidir**” degan fikrni qanday tushunasiz? Qanday yozuvlarda yozilgan kitoblarni bilasiz? O'qigan kitobingiz haqida qisqacha ma'lumot bering.

Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat-u balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'aqliy ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor, na gina. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi, yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, ayrim odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilm-u hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham: “**Kitob aql qal'asidir**” deganlar (Muhammad Jabalrudiy ijodidan).


**11-mashq.** Jadvalda ko'rsatilgan alifbo harflariga qarab yozma kichik va katta harflarni yozish va tutashtirilishiga ko'ra guruhlarga tasniflab yozing.

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	Аа	a	Qq	Ҷ	qe
Bb	Бб	be	Rr	ґ	re
Dd	Дд	de	Ss	҂	se
Ee	Ее	e	Tt	҆	te
Ff	Ғғ	fe	Uu	Ӯ	u
Gg	҃	ge	Vv	Ӯ	ve
Hh	Ҳҳ	he	Xx	Ҋ	xe
Ii	Ӣӣ	i	Yy	Ӣ	ye
Jj	ҖҖ	je	Zz	Ҋ	ze
Kk	҄	ke	O'o'	Ӧ	o'
Ll	Ӆ	le	G`g	Ӯ	g'e
Mm	Ӎ	me	Sh sh	Ӯ	she
Nn	Ңң	ne	Ch ch	Ӯ	che
Oo	Ӧ	o	Ng ng	Ӯ	Nge
Pp	Ӫ	pe			

**12-mashq.** Lotin tili haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing, o'z so'zingiz bilan mazmunini o'zbek tilida aytib bering.

Забони мурда; гурӯҳи романий оилаи забонҳои ҳиндуавропой. Аз асри VI то эраи мо дар асоси шеваи Рим, ки забони қабилаҳои лотинӣ буд, ҳамчун забони хатдор ба вучуд омадааст. Аз сабаби маҳв шудани бисёр шеваҳо забони лотинӣ аввал дар тамоми Европа паҳн мешавад, vale пас аз инқизози империяи Рим аз асри V то эраи мо сар карда, забони лотинӣ робитаи худро бо дигар қисмҳояш суст мекунад ва дар натиҷаи ба якчанд забонҳои романӣ чудо мегардад. Мавҷудияти ин забон бо забонҳои дигари романӣ то асрҳои XV-XVI ҳамчун забони хаттии динӣ, илмӣ ва ҷун забони гуфтутгӯни олимон, духтурҳо, ҳуқуқшиносҳо, ки зуллisonайн (дузабона) буданд, давом мекунад. Аммо инкишофи забонҳои дигари адабиии романӣ дар асрҳои XV-XVI ба он оварда расонд, ки забони лотинӣ аз истифода монд ва он забон аз байн рафта, ба забони мурда табдил ёфт. Аз асри XVI ин ҷониб (то ҳозир) забони лотинӣ ҷун забони динӣ, тиббя ва баъзе илмҳои дигар истифода бурда мешаваду ҳалос.

**13-mashq.** O'zbekiston xaritasini diqqat bilan ko'zdan kechiring. Xaritada O'zbekiston Respublikasining qaysi viloyatlarini ko'rganligingizni aiting. Qadimgi yozuvlar va qazilmalar, asosan, qaysi shaharlardan topilgan?



**14-mashq.** Shoir Sulton Jo'raning "Kimning xati chiroyli" nomli she'rini o'qing, mazmunini ifodalovchi asosiy so'z va so'z birikmalarini ajratib yozing va yod oling.

## **Kimning xati chiroyli**

Solishtirib ko‘raylik,  
Kimning xati chiroyli ?  
Qani oching daftarni,  
Menikiday xat bormi ?  
Ko‘ring hamma harfimni  
Qiziqtirar har kimni:  
Harfim aniq, go‘zal - hush,  
Qiynalmay mumkin o‘qish.  
Daftardagi chiziq sim,  
Va undagi har so‘zim -  
Qaldirg‘ochdek tizilgan.  
U yozilgan tez-ildam.  
Harflar bo‘lib bo‘ysara,  
Doim menga bo‘ysunar.  
“Qiyshaymang har tomonga!”

Deb beraman komanda.  
Soat o‘qiday biram,  
Tep-tekis yurar perom.  
Va bo‘yab hammayoqni,  
Tomizmayman siyohni.  
O‘tirishim to‘g‘ri, soz,  
Qoidaga juda mos.  
Ko‘kragimni men sira  
O‘tirganim yo‘q tirab!  
Chiroyli yoz, yozsang xat!  
Chunki bu ham zo‘r san’at ...  
Biz ham bo‘laylik hatto  
Alisher kabi xattot.  
Shuning uchun lozim, shart  
Husnixatga muhabbat ...

**15-mashq. “Oliy o‘quv yurti talabasining burchi va mas’uliyati”**  
mavzusida o‘zaro fikr almashib matn tuzing.

### **Atamalar lug‘ati**

1. Yozuv – хат
2. Alifbo – алифбо
3. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi – алифбони лотиня асоси забони узбеки
- 4 Piktografik, ideografik, logogramma, iyeroglifik yozuvlar – хатҳои пиктография, идеография, логограммавӣ, иероглифи
5. Tutashtirilish – пайваст кардан
6. Bosma harflar – ҳарфҳои чопи
7. Yozma harflar – ҳарфҳои дастнавис
8. Katta va kichik harflar – ҳарфҳои калон ва хурд
9. Apostrof – аломати болосатри ба шакли вергул
10. Tutuq belgisi – аломати сакта
11. Chiziq – хат
12. Yuqori qism – қисми бойой
13. Pastki qism – қисми поёни
14. O‘rta qism – қисми миёна

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qadim zamonlarda insonlar qanday yozuvlarni ixtiro etganlar ?
2. Qanday yozuvda har bir rasm ma'lum ma'no ifodalagan ?
3. Piktografik-rasm yozuvidan so'ng qanday yozuv paydo bo'lgan ?
4. Finikiy yozuvidan so'ng qanday yozuv yuzaga kelgan ?
5. O'zbek xalqining qanday yozuvlari bo'lgan ?
6. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi" qonuni qachon va kim tomon tasdiqlangan ?
7. "Lotin yozuviga asolangan o'zbek alifbosi" da nechta harf bor? Tartib bilan aytинг.
8. Alifbodagi harflar qo'llanishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi ?
9. Qaysi harflarni yozishda qo'l harakati uzilmaydi ?
10. Yozma kichik harflar yozilishi hamda tutashtirilishiha ko'ra necha guruhga bo'linadi ?
11. Lotin alifbosidagi qaysi harf ko'rinish va yozilish jihatidan kirill alifbosidagi ba'zi bir harflarga o'xshaydi ?
12. Lotin tili va lotin yozuvi tushunchalari o'rtasida qanday farq bor?
13. O'zbek tili fani qaysi yozuv bilan o'rgatiladi?
14. Hozirgi tojik adabiy tili qaysi yozuvda ish ko'radi?
15. Alifbe va alifbo deganda nimani tushunasiz? Mazkur so'zlarning ma'no jihatdan farqini aytинг.

### Test

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi qonuni qachon qabul qilingan va unda nechta harfdan iborat alifbo joriy etilgan?


- A) 1993-yil 2-sentabrda, 31 harf va 1 tutuq belgisi
- B) 1940-yilda, 33 ta harf va 2 ta belgi.
- C) 1929-yilda, 35 ta harf
- D) 1995-yil 6-mayda, 29 harf

2. Lotin alifbosi asosidagi ilk o'zbek yozuvidan xalqimiz qachondan boshlab foydalangan?

- A) 1930-yildan
- C) 1926-yildan
- B) 1993-yildan
- D) 1940-yildan

3. Qadimiylar yozuvlardan bo'lgan dulbarjin yozuvi yana qanday nom bilan ataladi?

- A) Uyg'ur yozuvi
- C) Sug'd yozuvi
- B) O'rxun yozuvi
- D) Arab yozuvi



**4. Quyidagi tillardan qaysi biri o'lik tillar sirasiga kiradi?**

- A) uyg'ur tili                    C) yoqut tili  
B) lotin tili                    D) arab tili

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi katta va kichik yozma harflarni tartib bilan husnixat daftarida uch qatordan yozing.

2. Kirillchadagi bilan yangi alifboda “ “ “ - tutuq belgisiz qo'llanadigan so'zlarni qiyoslab 25 tasini yozing.

3. Ng harf birikmasi va n +g harflari qo'shilmasidan iborat so'zlarni toping va farqlab ikki ustunga ajratgan tarzda yozing.

4. 30 ta so'zdan tarkib topgan matn tuzing. Shu matnni bosma va yozma harflar bilan chiroyligi yozing.

5. Ilm haqidagi she'riy parchalarni o'qing. **"Bilim-aql chiroqi"** mavzusida insho yozing. Matnni yozishda ilm haqida biladigan hikmatli so'zlar, bayt, maqollarni qo'llang. **"Bilimlar kuni"** bayrami sentabr oyining nechanchi kuni respublika miqyosida tantanali nishonlanadi?

Bilim – qaytarish va takrorlash mevasidir.

**Abu Rayhon Beruniy**

Jahon ilmiki bu kun menga yod erur,

Anga barcha jahl ahli ustod erur.

**Alisher Navoiy**

Ilm andoq ganji nafe'dur bani odamgakim,

Kimda ul bo'lsa, ikki olam bo'lur obod ano.

**Muhammad Rizo Ogahiy**

Ishlari dars-u saboq, ilm-u adab takrordur,

Ofarin, ming ofarin, bu ilm bir asrordur.

**Nodim Namangoniy**

## FONETIKA (TOVISH TIZIMI)

(Овозиниоси)

*Bilib oling!* Fonetika (grekcha “phone” – “tovush”) tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, bo‘g‘in va urg‘u kabi hodisalarni o‘rganuvchi bo‘limidir.

Қисми забониниоси, ки тарзҳои ба вучуд омадан, хусусиятҳои акустикии таркиби овозҳо, таснифот, роҳҳои тағйирёбӣ ва роли онҳоро дар забон аз нуқтаи назари таърихи пайдоиш ва хусусиятҳои ҳозираашон меомӯзад.

## 3-MAVZU. TOVUSH VA HARF

(Овоз ва ҳарф)

**16-mashq.** Matnni o‘qing, mazmunini tushuntirib bering. Gap nima haqda ekanini aytинг. **“O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka”** mavzusida o‘zaro suhbat tashkil qiling hamda tovush va harflar talaffuziga e’tibor bering.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatları tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullas, Vatanining tarixini bilishni istaydi.

Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiylar va tabariuk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rk-u fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bu go‘yo kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka doir o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir (I.A. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” kitobidan).

**Bilib oling!** Inson talaffuz qiladigan tovushlar **nutq tovushlari** deyiladi.

Nutq tovushlari nutq a'zolari ishtirokida hosil qilinadi. Nutq a'zolariga o'pka, bo'g'iz, tovush parchalari, og'iz bo'shlig'i, til, lablar va burun bo'shlig'i kiradi. Qaysi nutq a'zosi ishtirok etishiga ko'ra nutq tovushlari lab tovushlari (**b, p, n, v, f**), til oldi (**t, l, s, z, d, sh, ch, dj, n, r**), til o'rta (**y**), til orqa (**g, k, ng**), chuqr til orqa tovushlari (**q, g', x**) va bo'g'iz (**h**) tovushi singari guruhlarga bo'linadi.

Tovushning yozuvdag'i ifodasi **harf** deyiladi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida 30 tovush **29** ta harf bilan beriladi: Aa-a, Bb-be, Dd-de, Ee-e, Ff-fe, Gg-ge, Hh-he, Ii-i, Jj-je, Kk-ke, Ll-le, Mm-me, Nn-ne, Oo-o, Pp-pe, Qq-qe, Rr-re, Ss-se, Tt-te, Uu-u, Vv-ve, Xx-xe, Yy-ye, Zz-ze, O'o'-o', G'g'-g'e, Sh sh-she, Ch ch-che, Ng ng-nge.

**17-mashq.** Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflarni tartibi bilan yoddan aytинг. Har bir harfni alohida-alohida talaffuz qiling. Qaysi harfning talaffuzi tojikcha talaffuzga yaqin ekan?

**18-mashq.** Jadvaldag'i ma'lumotlarni o'qing, gap nima xususida ekanini aytинг.

Harflar		Harflarning o'xshash jihatlari
Lotin alifbosida	Kirill alifbosida	
Aa	Аа	Bu harf til oldi, lablashmagan, keng unli tovushni ifodalaydi. Kirill va lotin yozuviga asoslangan alifbolarimizda shaklan bir xil ko'rinishga ega. Katta "A" harfi keyingi harfga belbog'i orqali, kichik "a" esa pastki ilmog'i orgali tutashtiriladi.
Oo	Оо	Bu harf til orqa, lablashmagan, keng unli tovushni ifodalaydi. U ham kirill va lotin yozuviga asoslangan alifbolarimizda bir xil ko'rinishga ega. "O" harfining katta shakli keyingi harfga o'zining pastki qismidan, kichik "o" harfi esa yuqori qismidan tutashtiriladi.
Ee	Ҷә	Bu harf til oldi, lablashmagan, o'rta-keng unli tovushni ifodalaydi. Kirill alifbosida (y+e) tovush birikmasini ifodalovchi "е" harfi bilan shakldosh bo'lib, talaffuz jihatidan esa farq qiladi. Kirill alifbosidagi "ә" harfining vazifasini bajaradi. Bu harfning kattasi ham, kichigi ham pastki tugash qismidan tutashtiriladi.
Kk	Ққ	Bu harf ikki alifboda ham bir-biriga o'xshash. Faqtgina kichik shakli bosma va yozma holda ozgina farqli, xolos, Bu harf til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Katta va kichik shakllari pastki tugallanish qismidan keyingi harflarga tutashtiriladi.
Mm	Мм	"M" harfi lab-lab, burun, sonor, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Katta bosma va yozma shakllari kirill alifbosidagidek.

**19-mashq.** Tojik alifbosidagi “je” tovushini ifodalaydigan so‘zlar tarkibida “ч” va “ж” harflari berilgan. Shu harflar o‘rnida lotin alifbosidagi “Jj” harfini qo‘yib talaffuz qiling. Tojik tilidagi “ч” va “ж” harflari o‘zbek tilida qaysi tovushni ifodalaydi?

Чавзо, чавоб, чавохир, чадвал, журнアル, жанр, биржа, чадид, чазм, чазо, чаллод, чамол, чанчол, чараён, чарима, часур, чафо, чаҳл, чаҳон, чаҳоннамо, чигар, чилва, чим, чоиз, чой, чонон, чудо, аждар, аждод, абчад, авч, ачирик, вучуд.

**20-mashq.** Jadvalning chap va o‘ng tomonidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling. Yozish va talaffuz jihatlaridan farqli xususiyatlarini ayting.

O‘zbekcha talaffuz	Tojikcha talaffuz
Jomiy	Чоми
Navoiy	Навои
Tabiiy	Табии
Kutubxonा	Китобхона
Munosabat	Муносибат
Hovli	Ҳавли
Hovuz	Ҳавз
Deraza	Тиреза
Mavzu	Мавзӯъ
Jo‘ja	Ҷуча
Tojik	Точик
Abrishim	Абрешим
Adabiyotshunos	Адабиётшинос
Suhbat	Сүхбат
Gugurt	Гугирт
Mushohada	Мушоҳида
Guruh	Гурӯҳ

**21-mashq.** Quyidagi so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing hamda qo‘sh harflar nechta tovush bildirganini ayting.

Alla, aqlii, shaddod, baquvvat, dakki, ellik, ikki, g‘irrom, battol, attor, diqqat, hujjat, jarroh, mujassam, izzat, bayonnomा, mustaqillik, muhabbat, muattar, qulattirmoq, ummat, ummon, yetti.

**22-mashq.** So‘zlarning har birini alohida-alohida talaffuz qiling. Talaffuz vaqtida nimaga e’tbor bergenligingizni ayting.

Konstitutsiya, litsey, kollej, institut, universitet, muvaffaqiyat, taalluq, taajjub, muammo, shaffof, ushshoq, favvora, taassuf, taassurot, muddao, mufassallik,

mudofaa, muhoraba, mushkullashtirmoq, attestatsiya, komissiya, quvontirmoq, quvvatlantirmoq, to'xtattirmoq, uddaburonlik, xatti-harakat, xat-xabar, xayrma'zur, xayr-ehson, yetim-yesir, yor-do'st, zeb-ziynat.

**23-mashq.** Sh, ch, ng harf birikmalarining bosma, yozma katta va kichik shakllarini chiroqli yozishni mashq qiling.

**24-mashq.** "Test-adolat mezoni" mavzusida o'zaro fikr almashtirib matn tuzing.

### Atamalar lug'ati

1. Tovush — овоз
2. Harf — ҳарф
3. Nutq tovushlari — овозҳои нутқ
4. Nutq a'zolari — аъзоҳои нутқ
5. O'pka — ўпка
6. Bo'g'iz — ҳалқ
7. Tovush parchalar — парчаҳои овоз
8. Og'iz bo'shlig'i — холигии даҳон
9. Lablar — лабҳо
10. Burun - биня
11. Burun bo'shlig'i — холигии биня
12. Til o'rta — миёна забони
13. Til orqa — паси забони
14. Chuqur til orqa tovushlari — овозҳои чуқури паси забони
15. Bo'giz tovushi — овози ҳалқи
16. Harf birikmalari — ҳарфҳои таркиби

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Tovush nima?
2. Harf nima?
3. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida nechta harf va tovush bor?
4. Harf nimani tashkil etadi?
5. Sh, ch, ng harflari qanday ataladi?
6. Lotin alifbosida nechta birkma harf bor?
7. Qaysi tojik alifbosidagi harf o'zbek alifbosidagi "Jj" harfi o'rnida ishlatalidi?

### Test

**1. Qaysi qatordagi so'zlarda "ng" bir tovushni ifodalamoqda?**

- |                               |                            |
|-------------------------------|----------------------------|
| A) tanga, jang, menga         | C) durang, nonga           |
| B) zang, ko'ndalang, ingramoq | D) kongress, menga, singil |

2. Lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosida nechta harflar birikmasi bor?

- |         |         |
|---------|---------|
| A) 5 ta | C) 4 ta |
| B) 3 ta | D) 2 ta |

3. "Ng" bin tovushni ifodalangan so'zlarni belgilang.

- |                   |                   |
|-------------------|-------------------|
| A) tungi, unga    | C) yongan, singil |
| B) tongi, piangiz | D) B va C         |

4. O'zbek tilidagi qaysi tovush arab, fors-tojik tili ta'sirida paydo bo'lgan?

- |       |      |
|-------|------|
| A) s  | C) d |
| B) ng | D) f |

5. Qaysi qatordagi so'zlarda harf to'rtta, tovush beshta?

- |                  |                 |
|------------------|-----------------|
| A) yashil, buyuk | C) da'vo, qal'a |
| B) tongi, ta na  | D) so'ng, bong  |

6. Qaysi tovushlar talaffuz qilinganda havoning bir qismi burun bo'shlig'idan chiqadi?

- |               |              |
|---------------|--------------|
| A) v, f, b, n | C) ng, x, o' |
| B) m, n, ng   | D) q, g', h  |

7. Nutq tovushlarini hosil qilishda qaysi nutq organlari faol qatnashadi?

- |   |  |
|---|--|
| A) lablar, til va tish                              |  |
| B) lablar, tovush psychalari va burun bo'shlig'i    |  |
| C) tovush psychalari, og'iz bo'shlig'i, til va tish |  |
| D) o'pka, kekirdak, og'iz bo'shlig'i va til         |  |

8. Sirg'aluvchi tovushlar ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- |             |            |
|-------------|------------|
| A) sh, j, q | C) m, n, h |
| B) s, z, j  | D) b, t, f |

### Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. Yahyo, Yunus, Yusuf, Yo'ldosh, Yodgor, Yormat, Yorqin, Yorqinoy, Yo'lchi, Yulduz, Madiyor, Baxtiyor, Ixtiyor, Shodiyor, Xudoyor, Doniyor, Qandiyor, Xudoyberdi, Choriyev, Hamroyev, Savriyev, Sanoyev, Robiya so'zlarini chiroyli va bexato yozing. Ya, yu, yo harf va tovushlari xususida fikr bildiring.

2. 25 ta so'zdan tarkib topgan matn tuzing. O'sha matnni husnixat va yozuv talablari asosida yozing.

3. Shoir O'lmas Jamolning "O'zbeg-u tojik elim" nomli shir-u shakar tarzida yozilgan she'rini o'qing va uni yod oling. She'rda qaysi millat vakillarining

do'stligi tarannum etilgan? Do'st va do'stlik degan tushunchani siz qanday tushunasiz? Sizning do'stingiz bormi? Ular qaysi millat vakillari. Shu haqda qisqacha ma'lumot yozing.

### O'zbeg–u tojik elim

O'zbeg–u tojik elim toji sari yakdigarand,  
Du aziz farzandi yak mulku padar yak modarand.  
Ul biri oltin uzukdir, ham javohir ko'zлari,  
Bingary, payvandi yak obu gilu yak gavharand.  
Hazrati Jomiy, Navoiy – mehrining sarchashmasi,  
Dar suxango'i tovonoyandu bas afsungarand.  
Ne balolar boshidan dovrug' solib o'tganda ham,  
Do'stiro hamchu ganji bebaho meparvarand.  
E'tiqod, mehr–u vafo bobida g'oyat benazir,  
Dar samoi ma'rifat har du duraxshon axtarand.  
Oqibat bayrog'ini, do'stim, qo'lingdan bermagil,  
In livoro to jahon boqist, boham mebarand.

## 4-MAVZU. UNLI TOVUSHLAR

(Овоэхой садонок)

**25-mashq.** Gaplarni o'qing, daftaringizga ko'chirib yozing. "Mafkura", "bayroq", "o'tnish", "kuchli" so'zlarida mavjud bo'lgan a va o, u va o' unli tovushlarini ovoz chiqarib talaffuz qiling.

1. Mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi. 2. Ma'naviyatimiz qo'llimizda yengilmas kuchga aylansin. 3. Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchlidir. 4. Mafkura – o'tmisht va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir. 5. Millatning, xalqning hamjihatligi taraqqiyot garovidir. 6. Ongli turmush – jamiyat hayotining bosh mezoni. 7. Maqsadimiz – erkin shaxsni tarbiyalash. 8. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sati. 9. Jaholat – ma'rifatning kushandasasi. 10. Jahonga o'z so'zimizni aytaylik. 11. G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin (I.A. Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni–xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin" nomli kitobidan)

**Bilib oling!** O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishi natijasida hosil bo'ladigan tovushlarga unli tovushlar deyiladi.

Unli tovushlar sof ovozdan (undan) iborat. Ular jami oltita: **a, o, u, e, i, u.** Unli harflar bo'g'inlar sonini belgilaydi.

**26-mashq.** So'zlarda tushirib qoldirilgan unli tovushlarni nuqtalar o'rniga qo'yib daftaringizga yozing. Unli tovushlar haqida nimalar bilsangiz aytинг.

1. Yaxsh.l.k qilmoq – yom.n falokatlardan asr.ydi. 2. .glonim, oila rahbari erkakdir. 3. Mehnatd. s.nalg.n – eld. aziz. 4. T.l bilgan el b.l.di. 5. Avv.l .yla k.y.n s.yla. 6. O'zbek.st.n – oz.d va ob.d vat.n. 7. Ins.nning od.bi s.l.mdan b.l.n.r.

**27-mashq.** O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i haqidagi ma’lumotni o‘qing hamda quyidagi savollarga javob bering.

**O‘zbekiston Respublikasining  
Davlat bayrog‘i**



O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i 1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘tkazilgan VII sessiyasida tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i o‘z ramzi bilan hozirgi O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan davlatlarning tarixiy an‘analariga borib taqaladi va respublikaning milliy-madaniy an‘analarini hisobga oladi.

**1. Bayroqdagি moviy rang** tiriklik mazmunini aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham moviy rangda edi.

**2. Bayroqdagи oq rang** muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang ezgu niyatlar, ichki go‘zallikka intilishning timsolidir.

**3. Yashil rang** – tabiatning yangilanish ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

**4. Qizil chiziqlar** vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

**5. Navqiron yarimoy tasviri** bizning tarixiy an‘analarimizga bog‘liq. Ayni paytda u qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

**6. Yulduzlar** barcha xalqlar uchun ruhiy, ilohiy timsol sanalgan. O‘zbekiston Respublikasining Davlar bayrog‘idagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an‘analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqador. Bizning o‘n ikki yulduzga bo‘lgan e’tiborimiz O‘zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida “Nujum ilmi” taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog‘imizdagi on ikki yulduz tasvirini o‘zbek xalqi ma’daniyatining qadiiniyligi, uning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

## Savollar

1. O'zbekiston Respublikasi bayrog'i, gerbi va madhiyasi qachon qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ida qanday rang va tasvirlar o'z aksini topgan?
1. Yashil rang nimani ifodalaydi?
2. Qizil chiziqlar nimaning ramzi?
3. Yarimoy va yulduzlar nimani bildiradi?

**28-mashq.** Nuqtalar o'rniga unli tovushlarni qo'yib o'qing. Unli tovushlar yordamida turli xil so'zlarni hosil qiling va gap tuzing.

G . l , k . l , k . l , k . n , k . r , t . p , t . r , b . l , z . r , t . n .

**Namuna:** gul – go'l – gal – gil.

1. Sadbarg guli muattar ekan.
2. Qancha tushuntirsang ham o'zini go'llikka soladi.
3. Bu gal omad unga kulib boqdi.
4. Inson gildan yaralgan.

**29-mashq.** Matnni o'qing, “O'z uyingni o'zing asra” mavzusida savol-javob asosida o'zaro fikr almashtiring.

Maqsad degani – xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi barnisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'ururi-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug' vorligi, hayotiyligi va haqqoniyiliqi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni-xalq, millatni - millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin (I.A. Karimov).

## KROSSVORD

B	.	h	.				
	.	r	.	k			
.	l	ch	.				
X	.	r	m	.			
.	p	.	l	s	.	n	
K	.	v	.				
.	l	m	.				
.	n	.	r				
.	z	.	m				
.	l	x	.				
.	r	.					

Bo'sh katakchalarغا kerakli unli harflarni qo'yib, ho'l mevalar nomini hosil qiling.

**30-mashq:** “Kuntug‘mish” dostonidan keltirilgan parchani o‘qib mazmunini o‘z so‘zlarigiz bilan aytib bering.

Do‘rmon viloyatida Kuntug‘mish degan polvon bo‘lib, uning Oppoqoy degan singlisi bor ekan. Zangar degan shahar podshosi Buraxonning ikkita vaziri bor edi: Shoир vazir, Toir vazir. Kunlardan bir kuni Shoир vazir qizli bo‘ladi, ismini Xolbeka deb qo‘yadi. Toir vazir o‘g‘illi bo‘lib, ismini Xolmo‘min deb qo‘yadi. Xolmo‘minning onasi bo‘lib, ikkala farzandini Xolbekaning onasi emizib katta qiladi, bular emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lib qoladilar. Xolbeka o‘n to‘rt yoshdan o‘tgandan so‘ng uning husni zeboligini eshitgan podshoh va xonzodlar sovchi qo‘yadilar. Xolbeka shart qo‘yadi: “Har kimki meni olaman deb kelsa, nard o‘yinini qo‘yaman, yutsa tegaman”. Hech kim uni yengolmaydi. Podshoh Buraxon o‘zi sovchi yuboradi. Xolbeka o‘z gapida turib oladi. Buraxon a‘yonlarining maslahatiga ko‘ra, qizning baxtini bog‘lab, Xolbeka degan ismni aytishni taqiqlab qo‘yadi.

Bir kuni Xolbeka tushida Kuntug‘mishni, Kuntug‘mish Xolbekani ko‘rib, bir-birlarini sevib qoladilar. Xolbeka dardini Bahragul degan kaniziga aytadi. Kanizi suratkash olib kelgach, Xolbeka o‘z suratini chizziradi. Sirti tilla bilan qoplangan sandiqqa suratni, bir tola sochini, arzi yozilgan qog‘ozni solib, uni qulflab, kalitini sandiqqa bog‘lab, daryoga oqizadi. Kuntug‘mish qirq yigit bilan daryoning yoqasida ov qilib yurganda sanduqni ko‘rib qoladi. Yigitlari sandiqning tishini, Kuntug‘mish ichidagini oladi. Kuntug‘mish sandiq ichidagini ko‘rib, bir ishqiga yuz ishq qo‘shiladi. Xolbekaning ishqida Zangar sari otlanadi. Doston qahramonlari juda ko‘p sarguzashtlarni boshlaridan kechirib, o‘z muhabbatlariga va murod - maqsadlariga yetishadilar.

**31-mashq.** Birgina tovush bilan farq qiladigan so‘zlarni yonma-yon holatda daftaringizga yozing va ma’nosini tushuntiring.

Kuz, tong, tin, tona, botmoq, so‘ra, kin, bayt, xona, ko‘ra, din, sho‘ra, qayt, ber, bo‘z, solmoq, jo‘ra, dong, so‘z, fin, olmoq, chin, payt, shona, qotmoq, cho‘z, g‘o‘ra, sher, sinmoq, tinmoq, bong, ong.

Namuna: kuz, suz, buz, juz.

**32-mashq.** Matnni o‘qing, mazmunini aytib bering. “*Ustozim sabog‘i – hayotim rahnamosi*” mavzusi bo‘yicha insho rejasini tuzing.

### Aflatunning o‘z shogirdiga qilgan nasihatি

U quyidagicha buyuradi:

– Hamma ilm payidan bo‘lib, qalbing ham, ko‘zing ham doimo bedor bo‘lsin, uyqu va oromni o‘ylab bugungi ishni ertaga qoldirma, uyquga yotishdan oldin o‘tkazgan kuning haqida sarhisob qil, shu kuni sendan qanday xato sodir bo‘ldi yoki shu kuni sen yaxshi narsalardan nimani o‘rganding, shu haqda o‘yla. Badbaxt

shunday kishiki, ishining oqibatini o'ylamaydi, gunoh ishlardan o'zini tiymaydi. Dunyoda lazzat topsa, boshi osmonga yetib shod bo'ladigan, birorta qayg'uga duch kelsa, hammadan ko'ra ko'proq faryod ko'taradigan olimni olim deb hisoblama. Barchani birdek sev, serjahl bo'lma. Jahlingni sochaversang, bora-bora u sening odatingga aylanib qoladi. Bugun sening oldingga muhtoj bo'lib kelsa, uning hojatini chiqarishni ertaga qoldirma. Birok kishi birorta baloga duchor bo'lsa, unga ko'mak qo'lini cho'z, har kimning gapini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini bilmay turib, tekshirmay turib, hukm chiqarma. Dunyoda hikmatdan foydaliroq narsa yo'q. Hakim shunday kishiki, uning so'zi bilan qiladigan ishlari bir bo'ladi. Qaysi ishda bo'lmasin, sustkashlik qilma, yaxshilik qilishda chegara bor deb o'ylama! Hakimlar hikmatini yod ol, mol-dunyo hirsini ko'nglingdan quv, yoqimli odoblardan ko'z yumma, barcha ishlarni o'z aqlingga quloq solib, chamlab, so'ng amalgalashir, tuban ishlarga qo'il urma, hamma bilan gaplashganda ham kamtarlikni qo'ldan berma. Birovni xor sanama, hamisha adolatni o'zingga shior qil! (Abulbarakot Qodiriy ijodidan)

### **33-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

- |   |   |
|---|---|
| 1. Bordir olti xil tovush,<br>Ular cho'zib aytilar.<br>So'z tuzilmas ularsiz<br>O'ylang, balkim toparsiz? | 2. Bir xil unli tovushlar<br>Qo'sh holda qo'llanadi.<br>Mutolaa qilganlar<br>Uni oson topadi? |
|---|---|

**34-mashq.** Unli tovushlar haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing. O'zbek tilidagi ma'lumot bilan qiyoslab, unli tovushlarning o'xshash va farqli tomonlari xususida fikr bildiring.

Садонокҳо танҳо аз овоз иборат буда, мувофиқи артикулятсия ба чунин гурӯҳҳо чудо мешаванд:

1. Дараҷаи бардошти забон: садонокҳои бардошти боло: и, ў, у; бардошти миёна: ә, о; бардошти поён: а.

2. Ҷои бардошти забон (ҳаракати уфуқӣ, горизонтални забон); садонокҳои қатори пеш: а, и, ә; қатори миёна: ў; қатори ақиб: о, у.

3. Аз ҷиҳати иштироки лабҳо: садонокҳои лабӣ: о, у, ў; ғайрилабӣ: и, ә, а

Садонокҳо аз ҷиҳати кушодашавии даҳон (ба дараҷаи бардошташавии забон алоқаманд аст) вобаста ба ҷиҳати акустики фароҳ (а), нимфароҳ (о, ә, ў) ва танг (и, у) мешаванд.

Садонокҳо метавонанд пурӯвват (заданок) ва камӯвват (безада) шаванд. Аз ин рӯ, онҳо дар вақти заданокӣ нисбат дароэтар ва ҳангоми безада будан нисбатан кӯтоҳтар талаффуз карда мешаванд.

**35-mashq.** Rasmni diqqat bilan ko‘zdan kechiring. Buxoro Arki haqida o‘z fikringizni aytинг.



### **Atamalar lug‘ati**

1. Unli – садонок
2. Unli tovush – овозҳои садонок
3. Unli harf – ҳарфҳои садонок
4. Fonema – фонема

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Unli tovush deb nimaga aytildi?
2. Unli tovushning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Tovush va harf xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i, gerbi va madhiyasi qachon qabul qilingan?
5. O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ida qanday rang va tasvirlar o‘z aksini topgan?
6. O‘n to‘rt yoshli sohibjamol Xolbeka sovchi yuborgan podshoh va xonzodlar oldiga qanday shart qo‘yadi?
7. Kuntug‘mish qirq yigitи bilan daryoning yoqasida ov qilib yurganda daryoda nimani ko‘radi va uning ichidan nimani oladi?
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida nechta unli harf bor?
9. Qaysi unli harfning talaffuzi tojikcha talaffuzga o‘xshaydi?
10. O‘zbek va tojik tillaridagi unli tovushlarning o‘xshash jihatlari nimalarda?

Test



**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. Boshqa kitoblardan unli tovushlar haqida berilgan ma'lumotlarni o'qing va bu haqda qisqacha ma'lumot yozing.
  2. "O'zbek tilining imlo lug“ati” kitobidan unli harflar imlosiga oid qismini o'qing.
  3. "Yonma-yon keladigan unlilar imlosi" ni "O'zbek tilining imlo lug“ati” kitobidan ko'chiring.
  4. "Milliy mafkura – millatni birlashtiruvchi bayroqdir" mavzusida guruhlar orasida "Topqirlar bellashuvi" ni tashkil qilib, o'zaro fikr almashtiring.
  5. Shoir Abdulla Oripovning "Muallim" she'rini o'qing va yod oling.

Muallim

Muallim haqida so‘zim ushbudir:  
Muallim kamolot ichra ko‘zgudir.  
O‘qidim Geradot, tarixni ko‘p bor,  
Forobiy, Danteni takror va takror.  
Barini o‘qidim, lol qoldi aqlim,  
Bariga ustozsan o‘zing, muallim  
Alisher qalbiga solgan sehr-fayz  
Sensan, ey muallim, ustoz Abul-Lays  
Qutluq xonadonda qutlug‘ kalom bu,  
Hamid Olimjon bu, G‘afur G‘ulom bu.  
Buyuk Temur sendan topgandir ta‘lim,  
Sen shundoq, aziz zot, aziz muallim  
Rost aytSAM, o‘zingsan eng avval daho,  
Sen hayot ganjida durru bebaho,  
Ulug‘ ayyomingda she‘riy kalom bu,  
Shogirdlar nomidan qutlug‘ salom bu.

## 5-MAVZU. UNDOSH TOVUSHLAR

(Овоэхон ҳамсаđо)

**36-mashq.** Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlar talaffuziga e'tibor bering. Ajratilgan so'zlardagi g' undosh harfini g undosh harfi bilan almashtirib so'zlarni daftaringizda yozing. "Ovrupa" so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida qanday talaffuz qilinadi va yoziladi?

Xayyom o'zining ruboysi bilan Ovrupada, Amerikada juda katta shuhrat olg'an, ulug' hurmat ko'rgan bir sharq shoiridir. Ovrupada, Amerikada uni tekshirib kitoblar yozilg'an, ruboysi bilan tarjima qiling'an, bu tarjimalarning eng yaxshisi, hatto o'z go'zalligi bilan Ovrupa, Amerikada Xayyomning shuhratig'a sabab bo'lg'ani milodiy 1883 da o'lg'an Fitsjeraldning inglizcha tarjimasidir (Abdurauf Fitratning "Tanlangan asarlar" kitobidan, II jild).

**37-mashq.** Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan undosh harflarni qo'yib, so'zlarni daftaringizda yozing. O'zingiz yozgan undosh harflarni talaffuz qilib ko'ring. Ular qaysi jihatdan unli harflardan farqlanadi?

Ma' . aviyat, ma'ri . at, rey . ing, na . orat, . urs, guru . , . ino, . avat, ta . aba, u.toz, oyinno . a, su . , . il, ga ., isti . lol, shudri .

**Bilib oling!** O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida yoki bo'g'izda to'siqqa uchrashidan hosil bo'lgan tovushlar undosh tovushlar sanaladi.

Undosh tovushlar shovqin va ovozdan iborat bo'ladi. O'zbek tilida 23 ta undosh tovush bor: b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, h, ch, sh, k, g, x, ng.

Undosh tovushlar shovqin va ovozning ishtirokiga ko'ra ikki guruuhga ajraladi: **jarangli** va **jarangsiz**. Undosh tovushlar quyidagi uch xususiyatiga ko'ra tasniflanadi:

1. **Paydo bo'lish o'rniga ko'ra:** a) **lab undoshlari:** lab-lab: b, p, m; lab-tish: f, v; b) **til undoshlari:** til oldi: d, t, n, l, r, ch, j, s, sh, z; til o'rta: y; til orqa: g, k, ng; chuqur til: k, g, x; v) **bo'g'iz undoshi:** h.

2. **Paydo bo'lish usuliga ko'ra:** a) **portlovchi:** b, p, d, t, k, q, g; b) sirg'aluvchi: v, f, s, z, x, sh, j, g, h; v) **qorishiq:** j, ch; g) **portlovchi-sirg'aluvchi** (sonorlar): m, n, ng (burun tovushlari), l (yon tovush), r (titroq tovush). 3. **Shovqin va ovozning ishtirokiga ko'ra:** a) **jarangli:** b, v, g, d, j, z, g, y, m, n, l, r, ng; b) **jarangsiz:** p, f, k, t, sh, ch, s, x, h, k.

**38-mashq.** Quyida berilgan undosh harflarni jarangli va jarangsiz guruhlarga ajratib yozing.

J, y, b, v, g, t, f, h, ch, sh, k, g, k, l, m, n, p, r, s, x, ng, d, z.

**39-mashq.** м, н, р, к, л, ф, к, с, х, г undosh tovushlarni ovoz chiqarib birgalikda talaffuz qiling. Talaffuzingizni jadvalni ikkinchi qismida berilgan unli tovush talaffuzi bilan taqqoslang. Qaysi talaffuz to‘g’ri ekanligini aytинг.

мे	ЭМ
не	ЭН
ре	РЕ
ке	КА
ле	ЭЛ
фе	ЭФ
се	ЭС
хе	ХА
ге	ГА

**40-mashq.** O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi haqidagi ma’lumotni o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.

### O‘zbekiston respublikasining Davlat gerbi



O‘zbekiston respublikasining Davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida tasdiqlangan.

O‘zbekiston respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiylar uzoqlab turgan quyosh tasviridan hamda o‘ng tomonida bug‘doy boshoqlari, so‘l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iborat. Gerbning yuqori qismida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir. Gerb markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Xumo qushi qanotlarini yozib turubdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga “O‘zbekiston” so‘zi bitilgan.

**“Gerb”** so‘zining tarixi haqida qisqacha ma’lumot:

**“Gerb”** so‘zi nemischa “erbo” so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan O‘g‘uzxon davrida ham turkcha “tamg‘a” so‘zi aynan shu ma’noni bildirar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy **“Tanlangan tarixlar”** nomli kitobida shahodat berishicha, O‘g‘uzxon o‘z mol-mulkini o‘g‘illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo‘lib, in’om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o‘zlarining xonlik tamg‘alariga ega edi.


### Savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi qachon qabul qilingan?
2. Gerbda nimalar tasvirlangan?
3. Har bir tasvir qanday tavsiflanadi?

**41-mashq.** Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosini o‘qing va daftarchangizga ko‘chirib yozing.

- 1) baland, Samarqand, poyezd; do‘s, artist, g‘isht kabi so‘zlarda **d, t, ba’zan** aytimsa ham, yoziladi.
- 2) metall, gramm, kilovatt, kongress kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi.

### KROSSVORD



Tushirib qoldirilgan harflarni bo‘sh katakchalarga qo‘yib, poliz ekinlari mahsulotlari nomini hosil qiling.

**42-mashq.** She'riy parchani o'qing va yodlang. "Pok", "far", "sar", "dastgir", "pir" so'zlarini o'zbekchaga tarjima qiling. So'zlarda nechta jarangli va jarangsiz undosh tovushlar mayjudligini aytинг.

Ul safo aqli pok farjomni,  
Pokfarjom pok far Jomiy.  
Ul yaqin sari dastgir manga,  
Qibla-vu ustod-u pir manga.

Alisher Navoiy

**43-mashq.** Topishmoqni o'qing va javobini toping.

1. Bir xil harflar yonma-yon  
Bo'lib tursa namoyon,  
Farqi yo'q bir-biridan,  
Afti, bo'yi-bastidan?

2. Bir so'zda bir xil undosh,  
Ketma-ket qator kelar.  
Misol topib aytninglar,  
Ular qanday tovushlar?

3. O'pkadan chiqqan havo  
Og'zimiz bo'shilig'ida  
To'siqlarga uchrashar,  
Ko'p tovush hosil qilar?

**44-mashq.** Undosh tovushlar haqidagi tojikcha nazariy ma'lumotni o'qing va uni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Овозҳое, ки танҳо аз шавшув ё садою шавшув иборат буда, дар даҳон ба монеаҳон гуногуни ҳавои аз шуш бароянда ва органҳои нутқ дучор гардида, ба вуҷуд меояд, ҳамсадо ном дорад.

Миқдори ҳамсадоҳо дар забони тоҷики 24-то аст: б, в, г, д, ж, з, я, к, л, м, н, п, р, с, т, ф, ҳ, ч, ш, Ҷ, Ғ, Ӣ, Ҳ, ҶҶ.

Ҳамсадоҳо ҳичро намесозанд. Дар соҳтани овозҳои ҳамсадо узвҳои гуногуни нутқ иштирок мекунанд. Вобаста ба иштироко узвҳо ҳамсадоҳо ба гурӯҳҳои лаби (п, б, м, в, ф), нӯғизабонӣ (т, д, з, с, ж, ш, ч, Ҷ, Ӣ, Ӣ, ҶҶ), баянизабонӣ (я), бехизабонӣ (к, ғ), забончагӣ (ҳ, Ҷ, ҶҶ) ва ҳалқияи (ҶҶ, Ҳ) чудо мешаванд.

Овозҳои м ва и ҳамсадоҳои димоғӣ ном доранд, зоро дар тавлиди онҳо ковокии димоғ ҳам ширкат дорад.

**45-mashq.** Rasmni diqqat bilan ko‘zdan kechiring va quyidagi savollarga javob bering.



1. Qaysi binoning rasmi?
2. U qaysi shaharda joylashgan?
3. Mazkur bino haqida nima deya olasiz?

#### **Atamalar lug‘ati**

1. Undosh – ҳамсадо
2. Undosh tovushlar – овозҳои ҳамсадо
3. Undosh harflar – ҳарфҳои ҳамсадо
4. Qo‘sish undosh – ҳамсадон шадда
5. Lab undoshlari – ҳамсадоҳои лаби
6. Til undoshlari – ҳамсадоҳои забони
7. Bo‘g‘iz undoshi – ҳамсадон ҳалқи

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Qanday tovushlar undosh tovushlar deyiladi?
2. O‘zbek tilida nechta undosh tovush bor?
3. Jarangli undosh tovushlar deyilganda qanday tovushlarni tushunasiz?
4. Jarangsiz undosh harflarni aytинг va unga ta’rif bering?
5. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning farqi nimada?

## Test

1. O‘zbek adabiy tilida necha undosh tovush mavjud va ular yozuvda necha harf bilan ifodalanadi?

- A) 27 ta tovush 27 ta harf      C) 23 ta tovush 25 ta harf  
B) 23 ta tovush 23 ta harf      D) 29 ta harf 23 ta tovush

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan undosh tovushlar yozuvda necha harf vositasida ifodalanadi?

- A) 23 harf      C) 24 harf  
B) 22 harf      D) 29 harf

3. Qo‘sh undoshlarning biri tushirilganda o‘zga ma’no ifodalovchi so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) karra, arra, kalla      C) tilla, qattiq, ushshoq  
B) avval, alla, balli      D) naqqosh, taassurot, izzat

4. Q tovushining paydo bo‘lish o‘rni ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) labda      C) bo‘g‘izda  
B) til orqada      D) burunda

5. Tilning old qismida hosil bo‘ladigan undosh tovushlarni belgilang.

- A) v, f      C) d, t  
B) b, p      D) q

6. Tilning eng orqa qismida hosil bo‘ladigan undosh tovushlar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) q, x      C) h, g  
B) r, k      D) j, z

7. Qaysi undosh tovush lablar bir-biriga yaqinlashganda oradagi tirkishdan sirg‘alib chiqadi?

- A) d      C) v  
B) s      D) p

8. Qaysi undosh tovush pastki lab bilan ustki tish orasida hosil bo‘ladi?

- A) a      C) r  
B) s      D) f

### Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1.“O‘lkamizning oltin kuz fasli” mavzusida 60-70 so‘zdan tarkib topgan tavsifiy matn yozing. Matndan 10 ta ochiq bo‘g‘inli so‘zni tanlab, ularni bo‘g‘inlarga ajrating.

2. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” kitobidan undosh harflar imlosi qismini o‘qing.

3. “Lotin alifbosi” sarlavhali ma’lumotni O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 5-jildidan daftaringizga ko‘chirib yozing. Yozgan ma’lumotingizni 2-darsda o‘tilgan ma’lumot bilan taqqoslang. O‘xshash va farqli tomonlarini aytинг.

## 6-MAVZU. JARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSHLAR

(Ҳамсадоҳои ҷарангдор ва бечараңг)

**46-mashq.** “Hikmat” matnini o‘qing, mazmunini aytинг. “Saxiy”, “olijanob”, “chiroyli”, “shirin”, “muattar” so‘zlarini daftaringizga ko‘chirib yozing. So‘zlardagi jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni aniqlang.

### Hikmat

Saxiy va oljianob kishilar bilan suhbatdosh bo‘lmoq kishida yoqimli fe’l va chiroyli xislatlarga rag’bat uyg’otadi. Yomon fe’lli va fasod tabiatli kishilar bilan suhbat esa yoqimsiz sifat va qabih illatlarga yetaklaydi. Yomonlar bilan yaxshilar suhbatli orasidagi farq va ular bilan qilingan suhbat ta’siri xuddi shamol kabitdir. Shamol yomon joydan o‘tib qolsa, badbo‘y hidarlari olib keladi. Agar shirin hidli joylardan o‘tib qolsa, muattar islarni keltiradi.

### Bayt:

Har kimning bor ekan tanida joni,  
Kim bilan so‘zlashsa, ta’siri urar.  
Yomonlik bo‘lmasa, kimning af’oli,  
Doim yaxshi bilan xush suhbat qurar! (Majididdin Xavofiy ijodidan)

**Bilib oling!** Jarangli undoshlar tarkibida qisman bo‘lsa-da, ovoz qatnashgan shovqinli tovushlar: **b, v, g, d, j, z, g, y, m, n, l, r, ng** jarangli undoshlarni tashkil etadi.

Jarangsiz undoshlar esa faqat shovqinning o‘zidangina iborat bo‘lgan, tarkibida ovoz mutlaqo ishtirok etmaydigan tovushlardir. Jarangsiz undosh tovushlar: **p, f, k, t, sh, ch, s, h, x, k**.

**47-mashq.** Quyida berilgan jarangli-jarangsiz undoshlar juftiga e’tibor bering. Qaysi bir harfning jufti yo‘qligini aniqlang.

1. **Jarangli:** b, v, z, g, d, j, y, l, m, n, ng, g‘ - -

2. **Jarangsiz:** p, f, s, k, t, ch, q, sh, - - - - - h, x

**48-mashq.** “Xotirani sinash” o‘yinini tashkil qilib, o‘zbek va tojik tillaridagi jarangli undosh harflarni navbat bilan yoningizda o‘tirgan talabaga aytинг. Tinglagan talaba esa eshitgan harflarini aytsin. Keyin u jarangsiz undosh harflarni sizga aytsin. Shu tartibda o‘yinni davom ettirib, bir-biringizdan jarangli va jarangsiz undosh harflarning juftini so‘rang.

**49-mashq.** Quyidagi savollarga javob berib, universitetingiz haqida ma'lumot bering.



1. Universitetingiz qayerda joylashgan?
2. Universitetingizning nomi nima?
3. Universitet kutubxonasiga kirib kitob olganimisiz?
4. Universitetning qaysi binosida va nechanchi qavatida qiroatxona joylashgan?
5. Siz tahsil olayotgan universitet binosi ko'rinishi Buxoro davlat universiteti binosidan qanday farqlanadi?

**50-mashq.** Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing. O'zbek tilidagi ma'lumot bilan qiyoslab, jarangli va jarangsiz undoshlar xususida o'z fikringizni aytинг.

Овозҳои ҳамсадо чарангдор ва бечаранг мешавад.

Ҳамсадое, ки бо чаранг (лаҳи) талаффуз мешаванд, чарангдор ва ҳамсадое, ки бечаранг талаффуз мешаванд, бечаранг ном доранд.

Ҳамсадоҳои чарангдор сездаҳтоянд : б, в, д, з, ж, ч, г, ф, м, н, л, р, й.

Ҳамсадоҳои бечаранг ёздаҳтоянд: п, ф, т, с, ш, ҷ, к, ҳ, қ, Ҷ, Ӯ, Ҳ.

Чарангдории ҳамсадоҳоро ларзиши садопардаҳо, ки аз таъсири фишори ҳавои аз шуш бароянда ба амал меояд, ҳосил мекунад. Дар талаффузи ҳамсадоҳои бечаранг садопардаҳо намеларзанд.

Ҳамсадоҳои чарангноки м, н, л, р, й ва бечарангги қ, Ҷ, Ӯ, Ҳ чуфт надоранд.

Ҳамсадоҳои чарангноку бечаранг ҳамеша як хел талаффуз намешаванд.

Ҳамсадоҳои чарангдор дар охир ва мобайни калима, пеш аз ҳамсадоҳои бечаранг талаффуз мешаванд. Ҳамсадоҳои бечаранг пеш аз чарангнокҳои ҳамсоя тобиши чарангдор пайдо мекунанд.

**51-mashq.** Topishmoqlarni o‘qing va javobini toping.

1. Jarangli tovushlarning  
Jarangsiz juftlari bor,  
Toping, ularning qanday  
Bir-biridan farqi bor?
2. Tovushlarni tushirar,  
Almashtirar, orttirar.  
Qaysi fanning qonuni  
Tovushni o‘zgartirar?
3. Tovushlar bor ovozdoru jarangdor,  
Kishiga bag‘ishlar xushruhlik, mador.  
Jarangli tovushni aysak ovozsiz,  
Ular eshitilar gohi jarangsiz?

**52-mashq.** Jarangli va jarangsiz tovushlar haqidagi imloviy qoidani o‘qing, namunaga qarab ular ishtirokida so‘zlar yozing hamda talaffuz va yozilish jihatlardan farqini ayting.

So‘z oxirida **b-p**, **d-t**, **z-s** singari jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi farq yo‘qolib, bir xil jarangsiz undosh tovush holida talaffuz etiladi, lekin **b**, **d**, **z** yoziladi.  
**Namuna:** bob – bop ...

**53-mashq.** Jadvalning bo‘s sh katakchalariga so‘zlar yozib, jarangli va jarangsiz jufti bor undosh harflarni talaffuz qiling.

T/r	Jarangli tovushlar	So'zlar	Jarangsiz tovushlar	So'zlar
1.	b		p	
2.	v		f	
3.	z		s	
4.	g		k	
5.	d		t	
6.	j		ch	
7.	g'		q	

#### Atamalar lug‘ati

1. Jarangli undosh tovushlar – ҳамсадоҳи ҷарангдор
2. Jarangsiz undosh tovushlar – ҳамсадоҳи беҷаранг
3. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning jufti – ҷуфти ҳамсадоҳон ҷарангдор ва беҷаранг
4. Shovqinli undoshlar – ҳамсадоҳи шавшувдор

#### **Mayzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Undosh tovushlar shovqinga ko‘ra necha guruhgaga bo‘linadi?
  2. Qanday undoshlarga jarangli undoshlar deyiladi?
  3. Jarangli va jarangsiz undoshlarning farqi nimada?
  4. Qaysi harflarni jarangli va qaysi harflar jarangsiz sanaladi?
  5. Qaysi undosh harflarning jufti bor?
  6. Hozirgi adabiy tojik tilida nechta undosh tovush bor?

Test

- 1. Qaysi qatordagi so‘zlarda faqat jarangli undoshlar bor?**

A) pastak, ko‘ksulton, ko‘lmak      C) zag‘izg‘on, maydon, jadval  
B) bardosh, ko‘klam, badnafs      D) paxsa, sukut, sochiq

**2. Qaysi qatordagi so‘zlarda faqat jarangsiz undoshlar bor?**

A) gilos, rayhon, gulkaram      C) ziynat, ko‘hlik, libos  
B) sochpopuk, shafqat, ko‘kat      D) ko‘makdosh, inson, ko‘rgazma

**3. Dublaj, ekipaj, garaj so‘zlaridagi j ning jarangsiz jufti qaysi tovush?**

A) b      C) sh  
B) sh      D) z

**4. Qaysi so‘zlar faqat jarangli undoshlardan iborat?**

A) ko‘ylak      C) jadval  
B) maydon      D) va‘zxon

**5. Tarkibida unli tovushlar bilan birga faqat jarangsiz undoshlar irok etgan so‘zlar qatorini toping.**

A) bayon, vazmin, go‘zal      C) ko‘chat, hijichoq, sath  
B) bayt, dehqon, ibrat      D) alifbe, andisha, dahshat

**6. Qaysi qatordagi so‘zlarning jarangli undoshlari jarangsiz juftiga antirilsa, boshqa so‘zlar kelib chiqadi?**

A) zo‘r, zambil, beva      C) did, jo‘ja, bibi  
B) go‘ja, jag:jag‘      D) gugurt, gazak, guvala.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. Ikki ustunga ajratilgan holatda jarangli va jarangsiz jufti bor undosh harflar ishtirokidagi so'zlarga misollar yozing.
  2. "O'zbek tilining imlo lug'ati" kitobidan undosh harflar imlosi haqidagi ma'lumotni o'qing, jarangli va jarangsiz undosh harflar imlosiga taalluqli ma'lumotni daftaringizga ko'chiring.
  3. Shoira Halima Xudoyberdiyevaning "Vatan bayrog'i" she'rini o'qing va yod oling.

### Vatan bayrog‘i

Yurt bayrog‘in har joygamas,  
Ko‘nglingga ek. Ko‘ksingni o‘y.  
Ishlov bergen, yumshatib tur,  
Ildiz otsin, ko‘tarsin bo‘y.  
To bu bayroq, Vatan, nurlar  
Ich-ichingga ketsin kirib,  
Toki g‘anim – vatanxo‘rlar,  
Olołmasinlar sug‘urib.  
Shunday o‘rgat qulni, xonni,  
Uchmas qush ham uchar bo‘lsin.  
To bayroqdan oldin jonni,  
Bermak oson kechar bo‘lsin.

## 7-MAVZU. BO'GIN VA URG'U

(Хичо ва зада)

**54-mashq.** “Hikmat” matnnini o‘qing. Gap nima haqda ekanini ayting.  
“**Hunarsiz kishi quruq savlatdir**” degan naqlni qanday tushunasiz? O‘zingiz  
qanday hunarni egallagansiz?

### Hikmat

Har kimning zari bo‘lmasa-da, ammo hunari bo‘lsa, dunyoda hech bir xavf-xatari  
bo‘lmaydi. Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog‘i kerak. Hunarsiz kishi  
quruq savlatdir. Quruq savlat qotib turgan suratga o‘xshaydi. Sen suratga boq, u odamga  
o‘xshasa-da, joni bo‘lmaydi. Daraxt shoxi mevasiz bo‘lsa, kiyikning shoxlaridan nima  
farqi bor. Qalam garchi cho‘p bo‘lsa-da, ilm-u hunarni oshkor qilgani uchun aziddir.  
Oyna esa go‘zallar yuzi tufayli qo‘lda yuradi. Sen Abu Jahl tarvuzini ko‘r, shirin tarvuzlar  
kabi chiroylidir. Ammo achchiq bo‘lgani uchun qiymati yo‘q.

Behunar odam emas, mol-u zari bo‘lganda ham,

Bo‘limg‘ay eshak odam anga libos yopganda ham.

(Muhammad Javhar Zamindor ijodidan)

**55-mashq.** Quyida berilgan so‘zlarni o‘qing, ochiq va yopiq bo‘g‘inli so‘zlarni  
alohida-alohida yozing.

Quyosh, dehqon, bilimli, sirg‘aluvchi, portlovchi, shovqinli, talaba, undosh,  
unli, singil, ko‘ngil, shabada, musaffo, o‘rtoq, qishloq, mahalla, lola, bola, tokzor,  
maosh, toza, shamdon, istiqlol.

**56-mashq.** Rasm asosida “**Vatanimning oq oltini**” mavzusida fikr bildirib,  
guruqlar orasida savol-javob musobaqasini tashkil qiling.



**Bilib oling!** Bir havo zarbi bilan aytildigan tovushlar birikmasiga bo‘g‘in deyiladi.

Agar bo‘g‘in unli bilan tugasa, **ochiq bo‘g‘in** deyiladi: bo-la, mu-ho-ka-ma.

Agar bo‘g‘in undosh bilan tugasa, **yopiq bo‘g‘in** deyiladi: mak-tab, bog‘-bon.

Bo‘g‘in bitta unli tovushdan ham tarkib topishi mumkin: o-na, mu-to-la-a.

Bo‘g‘inlar soni har doim unli harflar soniga teng bo‘ladi.

Ikki unli va undoshning ketma-ket kelishi o‘zbek tili uchun xos emas.

So‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytishiga urg‘u deyiladi: makta'b, bola', bog‘bo'n .

Urg‘u faqat unli tovushga tushadi.

Urg‘u ikki xil bo‘ladi:

1. So‘z **urg‘usi**. So‘zdagi ayrim tovushning kuchliroq aytishi.

2. **Gap urg‘usi**. Gapdagi biror so‘zning kuchliroq aytishi: Bugun **maktabga** bordim.

Maktabga **bugun** bordim.

Bugun **maktabga** bordim.

**Urg‘u ma’no farqlaydi:**

qatla'ma (harakat)	qatlama' (ovqat)
ho'zir (payt ravishi)	hozi'r (sifat, "tayyor" so‘zining sinonimi)
yigitcha' (kichaytirish ma'nosida)	yigi'tcha (bir yigitdek (ishladi))

**57-mashq.** Ikki va uch bo‘g‘indan tarkib topgan 20 ta so‘z yozing. Ularning har birini bo‘g‘inlarga ajrating.

**58-mashq.** Quyida berilgan so‘zlarning urg‘usini aniqlang.

O‘qish, yozish, sariq, sakkiz, serharakat, ishchi, ilmli, imzo, talaba, student, professor, punktuatsiya, sintaksis, kafedra, bog‘bon, ma‘rifat, yog‘du, shudring, sahiy.

**59-mashq.** Jadvalning ikki ustuniga yozilgan so‘zlarni o‘qing, urg‘ular o‘rnini aniqlab, ma’no jihatdan farqini aytинг. Bo‘sш katakchalarni misollar bilan to‘ldiring.

Qushcha (urg‘u a unlisida)

Olma (urg‘u a unlisida)

Bog‘lar (urg‘u a unlisida)

qushcha (urg‘u u unlisida)

Olma (urg‘u o unlisida)

Bog‘lar (urg‘u o unlisida)

**60-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping. Biladigan topishmoqlaringizni aytib, javobini yoningizda o'tirgan talabadan so'rang hamda o'sha so'zning bo'g'ini, urg'usini aniqlang.

1. Har kun yerga tushadi  
Ikkita sara parda:  
Ikki rangda ikkovi,  
Oq parda, qora parda.  
Tushganda qora parda.  
Oq parda bekinadi.  
Oqi tushsa agarda,  
Qorasi chekinadi.
2. Shakli o'xshar o'roqqa,  
Doim tutar so'roqqa.
3. Zuv-zuv borar, zuv-zuv kelar,  
Doston o'qir, g'alvir to'qir.
4. Gulsiz meva qiladi,  
Ko'p yesang - til shiladi;  
G'ip-g'ildirak oy kulcha,  
Bu nima, kim biladi?

**61-mashq.** Bo'g'in va urg'u haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing. Mazmunini o'zbek tilida aytib bering. Hozirgi tojik adabiy tilida urg'u, asosan, so'zlarning qaysi bo'g'inida qo'llanadi?

**Зада.** Бо ёрии воситаҳои гуногуни фонетикӣ (пурӯзват, дарозтар, қашишноктар кардани овоз) ба таври маҳсус ҷудо қардани ҳичоҳои алоҳидай қалима ё қалимае дар таркиби синтагма ва ё синтагмае дар таркиби ҷумла мебошад.

**Зада** ҳелҳои гуногун дорад ва ҷои воқеъшавиаш ба ҳусусияти забонҳо вобаста аст. Дар забони тоҷикӣ зада бештар (қарип дар ҳамаи исмҳо, сифатҳо, шумораҳо, бештари феълҳо) ба охирни қалимаҳо меафтад. Бо вуҷуди ин, вобаста ба мақсадҳои гуногун тағйир ёфтани ҷои зада мушоҳида мешавад. Зада ҳелҳои гуногуни зеринро дар бар мегирад: задаи қалимагӣ, задаи мантиқӣ.

**Ҳичо.** Аз нуқтаи назари физиологӣ (пайдоиш) овозе ё якчанд овозҳое, ки бо як тарзи талаффуз, бо як хориҷшавии ҳавои даҳан, нафасбарорӣ гуфта мешавад. Аз нуқтаи назари акустики (тарзи садонокӣ, оҳангнокӣ) як қисми нутқ, ки дар он овоз аз ҷиҳати заданокии ҳуд нисбат ба овози ҳамсояни пеш ё пас фарқ карда меистад. Аз ҳамин ҷиҳат ҳичо гуногун мешавад: ҳичои заданок, ҳичои безазда; ҳичои баста, ҳичои күшод; ҳичои пеш аз зада, ҳичои пас аз зада; ҳичои дароз ва ҳичои кӯтоҳ.

Дар забони тоҷикӣ аксари қалимаҳо дар ҳичои охирӣ зада доранд.

**62-mashq.** Tarjimayi hol haqidagi ma'lumotni o'qing va o'zingizning tarjimayi holingizni o'zbek tilida yozing.

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. Tarjimayi hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimayi holda ayrim qismlarning bo'lishi shart.

**Tarjimayi holning asosiy zaruriy qismlari:**

1. Hujjatning nomi (Tarjimayi hol).
2. Matn:
  - a) muallif familiyasi, ismi va otasining ismi;
  - b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi;
  - d) millat, ijtimoiy kelib chiqishi;
  - e) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi);
  - f) ma'lumoti (qayerda, qanday o'quv yurtini tugatilgani va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi);
  - g) ish faoliyatining turlari;
  - q) oxirgi ish joyi va lavozimi;
  - i) mukofot va rag'batlantirish;
  - j) jamoat ishlarida ishtiroki;
  - k) oilaviy ahvoli va oila a'zolari;
  - l) pasport ma'lumotlari;
  - m) turar joyi (uy adresi), telefon.
3. Sana.
4. Imzo.

Tarjimayi hol oddiy qog'ozga, ayrim hollarda, ya'ni ishga, o'qishga kirishda maxsus bosma ish qog'ozlariga qo'llda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo'lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi.

Barcha ma'lumotlar tadrijiylik (xronologiya) asosida, aniq sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko'rsatilgan holda) beriladi. Tarjimayi hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsin ("Ish yuritish" kitobidan).

## Tarjimayi hol namunasi

### TARJIMAYI HOL

Men Oxunjon Safarov 1940-yil 18-fevralda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Dodbog'ni qishlog'ida o'qituvchi oilasida tug'ildim.

Otam To'rayev Safar (1910-1974), ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 40 yil qishloq maktabida o'qituvchilik qilgan; onam Hamroyeva Muazzama (1920-2005) 37 yil boshlang'ich maktabda o'qituvchilik qilgan. Ukalarim Omonjon (qishloq xo'jalik fanlari nomzodi), A'lamjon (geologiya-minerologiya fanlari nomzodi), Iskandar, G'olib, Nozim va singillarim Gulandom, Muhabbatlar ottonamiz kasbini davom ettirishmoqda. Qaynotam Rahimov Azim (1925-1997) Sovet Ittifoqi Qahramoni bo'lgan. Qaynonam Sharipova Saida (1927-2002) uzoq yillar maktabda o'qituvchilik qilgan.

Men 1946-56-yillarda Abu Ali Ibn Sino nomidagi o'rta maktabda, 1956-61-yillarda Buxoro davlat pedinstitutining tarix-filologiya fakultetida o'qidim. Uni imtiyozli diplom bilan tugatib, bir yil qishloq maktabida, 1962-yildan hozirgacha Buxoro davlat universitetida boshlang'ich pedagogika va psixologiya kafedrasida oddiy o'qituvchilikdan professorlikkacha bo'lgan ilmiy-pedagogik yo'lni o'tadim. 1971-yilda SamDU ilmiy kengashida "Shukur Sa'dulla – bolalar adibi" mavzusida nomzodlik va 1986-yilda O'zRFAsi TAI ilmiy kengashida "O'zbek bolalar poetik folklorining janr tarkibi va badiiyati" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladim.

1975-yilda dotsentlik va 1989-yilda professorlik unvoniga erishdim. 1973-yilda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi va 1984-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindim. 2006-yilda Antik dunyo tarixi Xalqaro Ilmiy Akademiyasi akademigi etib saylandim. Bu oraliqda 1977-79-yillarda musiqa-pedagogika fakulteti dekani, 1988-2005-yillarda (surunkasiga 18 yil) folklor va yangi o'zbek adabiyoti (1988-2001-yillarda o'zbek adabiyoti) kafedrasи mudiri etib saylandim.

Hozirgacha 39 kitobim (shulardan 4 tasi darslik, 20 tasi ilmiy risola va monografiya), 460 tacha maqolam bosilib chiqqan. Men, asosan, o'zbek bolalar folklori va adabiyotining to'plovchisi va tadqiqotchisi sifatida faoliyat ko'rsatib "Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari" (1983), "Boychechak" (1984), "O'zbek bolalar poetik folklori" (1985), uch tomlik "O'zbek folklori boychechaklari" (1989-91), "Alla-yo-allla" (1999), "To'y muborak yor-yor" (2000), "Buxorocha" va "Mavrigi taronalari" (2005), "Bo'zlardan uchgan g'azal-ay" (2004), shuningdek, "Bolalik kuychisi" (1978), "O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon" (1989), "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2003), "To'ra Mirzayev" (2000) va "Oila manaviyati" (1998) kabi tadqiqotlarni yaratdim. Hozir 6 kitobdan

iborat “Buxoro folklori namunalari” to‘plami ustida ishlayapman. “O‘zbek folklori javohirlari” kitobim ingliz tilida (M.Peterson tarjimasida) “Buxoro davlat universiteti” kitobim o‘zbek, rus, ingliz va arab tillarida bosilgan.

Istiqlol yillarda buxorolik qatag‘on qurbanlaridan bo‘lgan Abdurauf Fitratning hovlisini aniqlash, uning uy-muzeyini tashkil etishda, Ahmad Donish shajarasini, uy-hovlisini va biografiyasiga oid noma’lum nuktalarini aniqlashda, Muhammad Husayn Akkas merosini yig‘ish va ularning xotiralarini e’zozlashda, Buxoro viloyati va shahri hokimliklari huzuridagi Til va toponimik komissiyalarining a’zosi va rahbari sifatida sobiq tuzum sharoitida Buxoro shahrining qadimiyligi qismidagi zo‘rlab ruschalahtirilgan 229 ta ko‘cha va guzarning asl tarixiy nomlarini qayta tiklashda baqadri hol hissa qo‘shtim.

Mening bevosita rahbarligimda 7 nafar fan nomzodi va bir nafar fan doktori yetishdi. Yana 2 shogirdim nomzodlik ishlari himoyasiga chog‘langanmoqda. 2003-2005-yillar O‘zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK eksperti vazifasida faoliyat ko‘satdim.

Ayni kunlarda BuxDUning Til va adabiyot kafedrasini boshqarish bilan birga yoshlarga folklor va adabiyotdan saboq berib, ularni istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalab kelmoqdaman.

2007-yil 17-yanvar

Oxunjon Safarov

### Atamalar lug‘ati

1. Bo‘g‘in-ҳичо
2. Ochiq bo‘g‘in – ҳичон күшод
3. Yopiq bo‘g‘in – ҳичон баста
4. Bo‘g‘inlar soni – миқдори ҳичоҳо
5. Urg‘u – зада
6. So‘z urg‘usi – задаи қалимагӣ
7. Gap urg‘usi – задаи ҷумла

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Bo‘g‘in nima?
2. Bo‘g‘inning qanday turlari bor?
3. Ochiq bo‘g‘in nima?
4. Yopiq bo‘g‘in nima?
5. Urg‘u nima?
6. Urg‘uning qanday turlari bor?
7. So‘z urg‘usi bilan gap urg‘usi o‘zaro nimasi bilan farqlanadi?
8. Nutq ohangdorligi, ta’sirchanligi, aniqligini nima belgilaydi?

## Test

**1. Ochiq bo‘g‘inli so‘zlar qatorini aniqlang.**

- A) g‘o‘ - za, ba - ra - ka, i - bo - ra
- B) a - ra - va, a - shu - la, il - ga - ri
- C) i - lo - va, o - lim, an - di - sha
- D) i - jod, iz - za, ru - bob

**2. Yopiq bo‘g‘inli so‘zlar qatorini aniqlang.**

- A) gu - li, so - at, pesh - voz
- B) yu - bor, ham - dam, ol - ma
- C) os - mon, mak - tab, tok - zor
- D) qu - loq, so - ya, jang

**3. Qaysi qatorda bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi buzilgan?**

- A) ko‘ - ngil
- C) men - ga
- B) si - ngil
- D) ing - liz

**4. Bir tovushdan iborat bo‘g‘in mavjud bo‘lgan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar qatorini aniqlang.**

- A) baraka, daraja, ma’naviyat
- B) musaffo, tomoshabin, shartnoma
- C) muomala, ijodiy, mudofaa
- D) bepoyon, donishmand, shahzoda

**5. Qaysi qatordagi so‘zlarda urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushadi?**

- A) polvon, mehnat, najot
- B) mukofot, zimiston, vatandosh
- C) radio, kofe, traktor
- D) albatta, afsuski, fonetika

**6. Quyidagi gaplarning qaysi birida “men bugun” iborasi mantiqiy urg‘u bilan qo‘llangan?**

- A) men bugun qiziq voqealarni ko‘rdim.
- B) qiziq voqealarni men bugun ko‘rdim.
- C) bugun men qiziq voqealarni ko‘rdim.
- D) bugun qiziq voqealarni men ko‘rdim.

**7. Urg‘u yordamida so‘z ma’nolarini farqlash mumkin bo‘lgan qatorni aniqlang.**

- A) yangi, yigitcha, qishloqcha
- B) surma, kitob, hovli
- C) fizik, chog‘lar, mudir
- D) olma, anjir, muhit

## **8. Yopiq bo‘g‘inlaridan biri faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so‘zni belgilang.**

- |           |           |
|-----------|-----------|
| A) ko‘cha | C) sunbul |
| B) paxta  | D) kitob  |

### **Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “Til – millat ko‘zgusi” mavzusida kursdosh talabalaringiz bilan suhbatlashing va dialog matnini tayyorlang.
2. Ochiq va yopiq bo‘g‘inlarga 15 tadan so‘z yozing.
3. O‘qigan asarlariningizdan 30-40 so‘zdan tarkib topgan matn tanlang, matndan bir nechta so‘zni tanlab, urg‘u o‘rnini ko‘rsating.
4. She’rdagi so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qing va urg‘uli ohangdor tovushlarga e’tibor bering.

**Ing‘a ... Ing‘a ... Men – bu men**

(Yangi tug‘ilgan chaqaloq she’ri)

Ing‘a – ing‘a, men – bu men ...

Assalom, yorug‘ olam.

Bag‘ring och, keldim kulib,

Tilayver qutlug‘ qadam.

Ing‘a-ing‘a, men – bu men ...

Assalom, jonim onam.

Joniman jahoningni,

Tortig‘ing menga olam!

Ing‘a-ing‘a, men – bu men ...

Assalom aziz otam.

Kutganing o‘g‘il bo‘ldim.

O‘chmagay sen yoqqan sham!

Ing‘a-ing‘a, men – bu men ...

Ing‘amdan kulgay jahon.

Ing‘amdan to‘lgay jahon

Va oshkor bahor har on.

Ing‘a-ing‘a, men – bu men ...

Assalom, ey hur Vatan!

Posboning bo‘lib keldim,

Shu jonim senga payvand.

Ing'a – ing'a, men – bu men ...  
Quchog'in – onam bag'ri!  
Ulg'aytir chektirmay g'am,  
Ko'rmayin birov qahrin.

Ing'a – ing'a, men – bu men ...  
Bag'ringga-ku keldim man.  
Vale, endi qo'rqaman  
Senga sig'may qolishdan!

Oxunjon Safarov

## LEKSIKOLOGIYA (SO'ZSHUNOSLIK) (Калимашиноси)

**Bilib oling!** Leksikologiya lotincha “lexsis” – so‘z, “logos” – fan so‘zlaridan olingen bo‘lib, tilning lug‘at boyligini, so‘zning lug‘aviy ma’nosini o‘rganuvchi bo‘limdir. O‘zbek tilida ishlatiladigan so‘zlarning hammasi o‘zbek tilining lug‘at boyligini hosil qiladi va leksikani tashkil etadi.

Кисми забоншиноси, ки ба омӯхтани таркиби лугавии забон машғул мешавад.

### 8-MAVZU. SHAKLDOSH SO‘ZLAR (Калимаҳои ҳамшакл (омоним))

**63-mashq.** Gaplarni o‘qing, tarkibida **devon, band, do‘l** shakldosh so‘zлari mavjud bo‘lgan gaplarni daftaringizga ko‘chiring. So‘zlar qanday ma’nolarni bildirganini aytинг.

1. Fanlarning foydasi ular yordamida oltin va kumushlarni qo‘lga kiritishda emas, balki ular tufayli zarur narsalarga erishishdadir. 2. Kecha yoqqan do‘l ekinlarning talay qismini urib ketdi. 3. Birovning dilini xushnud qilish komil kishilar ishi, dil og‘ritish esa johil kishilar ishidir. 4. Hamma o‘z ishi bilan mashg‘ul, har kim o‘z o‘yi bilan band. 5. U qo‘schiqning oxirini bilmagani uchun bo‘lsa kerak, shu bandni hadeb takror qilardi. 6. Ardasher o‘tmishning dono kishilaridan biri edi. 7. Men maktabda hofiz devonidan saboq o‘qirdim. 8. Notinch ko‘ngilga shirin uyqu kelmaydi. 9. Devonda yonboshlab yotgan Abbasxon Sa‘diyning hurmatiga qimirlab qo‘ydi. Abusaid Mirzo davrida devonda ishloveli mayda vazirlardan edi. 10. Gul kabi bevaqt g‘uncha ochib noz qilma, bulbul kabi beparda nag‘ma-yu ovoz qilma!

**64-mashq.** **Pand, chang, bahr** shakldosh so‘zlarining tubandagi ma’nolarda qo‘llagan holda gap tuzing.

Dengiz, daryo; vazn, o‘lchov; ulush, naf, manfaat; qiziqish, havas, huzur-halovat; nasihat; aldash; to‘zon, gard, g‘ubor; musiqa asbobi.

**Bilib oling!** Shakldosh (omonim) lar talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlardir: **qovoq** – ko‘zning qovog‘i, o‘simlik; **suzmoq** – suvda suzmoq, oshni suzmoq.

Omonimiyaning quyidagi turlari mavjud: 1. **Lug‘aviy omonimiya**: tuz, ot, yara, shim, son, un, olma, kul. 2. **Frazeologik omonimiya**: joni chiqdi, boshga ko‘tardi.


3. **Grammatik omonimiya**: - ma qo‘shimchasi: sifat yasaydi (qaynatma sho‘rva), ot yasovchi (tugma), fe'lning bo‘lishsiz shaklini (borma, kelma) yasaydi. Omonimlar har xil so‘z turkumlariga oid bo‘lishi mumkin: ot – ism (**ot so‘z turkumi**), ot – harakat (**fe'l so‘z turkumi**).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida **omonim** so‘zi o‘rnida “**shakldosh so‘z**” atamasi qo‘llaniladi. Umumiy tilshunoslikda esa “**shakldosh so‘z**” o‘rnida omonim so‘zi ishlataladi. Tojik tilida **omonim** so‘zi o‘rnida “**kalimahoi hamshakl**” ko‘proq qo‘llaniladi. Omonim, shakldosh so‘z va kalimahoi hamshakl bir xil ma’noni anglatuvchi so‘z va atama sanaladi.

**65-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan shakldosh so‘zlarning ma’nosini izohlang.

1. O‘zbekiston **davlat** bayrog‘i yuksaklarda hilpirasin. 2. Mustaqillik biz uchun eng katta **davlat**. 3. Yoshligimda tush mahallari badiiy kitob o‘qishni yaxshi ko‘rar edim. 4. Azganushjon, Azganush, bir nafas yonimga tush. 5. Muallim o‘quvchiga dedi: “Inshoni mazmunli va chiroyli yoz!”. 6. Yoz – o‘tadi soz. 7. Bu yil bog‘imizda olma, nok, chilonjiyda serob bo‘ldi. 8. Oltin olma, duo ol!

**66-mashq.** Rasmni diqqat bilan ko‘zdan kechiring. Samarqand shahri va tarixiy obidalari xususida o‘qigan va biladigan ma’lumotlaringizni aytинг.



**67-mashq.** Topishmoqni o'qing va javobini toping.

Jamoamizdir **terma**  
Xom paxtalarni **terma**  
Bunda ikki "terma" bor

Bir-biridan farqi bor  
Toping, qanday farqi bor?

**68-mashq.** Omonim haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing va mazmunini o'zbek tilida tushuntiring.

Калимаҳое, ки таркиби овозиашон якхелаю маъноҳои гуногун дошта, ба айни як ҳиссаи нутқ мансуб мебошанд.

Омонимҳо пурра ва нопурра мешаванд:

Омонимҳои пурра — калимаҳое, ки аз рӯи шакли асли (бе ҳеч аффикс) ба ҳам монанд мебошанд: **най** — растани, **най** — асбоби мусиқӣ.

Омонимҳои нопурра — калимаҳое, ки дар натиҷаи қабули ягон шакли морфологӣ ба ҳамдигар монанд шудаанд:

Гуфтам: "Давои дарди диламро хате навис",

Гуфтам: "Давот чун бинвисам, давот нест".

**69-mashq.** Quyidagi shakldosh so'zlarni ma'nolar izohi bilan lug'at daftaringizga ko'chirib yozing.

1. **Tor** – ip, rishta; cholg'u asbobi; eni nisbatan kichik.
  2. **Tok** – uzum o'simligi; elektr zaryadlarining harakati, elektr quvvati.
  3. **Dog'** – qaynash darajasida qizdirilgan, isitilgan; kuydiruvchi og'riq, alam; asli – "qizdirgan ta'm yoki to'kilish va bosishdan hosil bo'ladigan iz".
  4. **Dam** – havo; temirchilik atamasi; lahma, nafas; bir marta nafas olish va chiqarishga ketadigan vaqt; bog'lovchi (dam ..., dam ... dam ).
  5. **Burun** – hidlash organi; geografiya atamasi; ilgari, avval.
  6. **Kul** – biror narsaning yonishi natijasida hosil bo'ladigan qoramtil mineral kukun; zavq-shavqni, xursandlikni bildiruvchi tovushlar chiqarmoq.
  7. **Bo'y** – uzunlik o'lchami; hid, is.
- 70-mashq.** Tojik tilidagi shakldosh so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.  
Shona, gul, pul, nay, sir, sud, tok, may, xor, shast, band.

#### Atamalar lug'ati

1. Leksikologiya – лексикология
2. So'zshunoslik – калимашиноси
3. Leksika – лексика, калима, лугат
4. Lug'aviy ma'no – маънои лугавӣ

5. Lug‘at boyligi – богираин лугат
6. Shakldcsh so‘z – калимаи ҳамшакл
7. Omonim – омоним
8. Lug‘aviy omonim – омоними лугавӣ
9. Frazeologik omonimiya – омоними фразеологӣ
10. Grammatik omonimiya – омоними грамматикий
11. Har xil ma’no – маънини якхела
12. Talaffuz va yozilishi bir – талаффузаш ва навишти якхела
13. Omoleksema – калимаи шаклан якхела
14. Omoifoda – ифодаи ҳамшабеҳ
15. Ekvivalent – қарина (эквивалент)
16. Omofon – овоз садоҳои якхела
17. Omoforma – шакли якхела

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Leksikologiya so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma’no anglatadi?
2. Leksikologiya (so‘zshunoslik) nimani o‘rgatadi ?
3. Shakldosh so‘zlarni ta’riflang.
4. Shakldosh so‘zlar ma’nosini qanday farqlash mumkin?
5. Lug‘aviy omonimiya nima? So‘zlar misolida tushuntiring?
6. Frazeologik omonimiya nima?
7. Grammatik omonimiya asosini nima tashkil etadi?
8. Shakldosh so‘zlarga qo‘srimchalar qo’shilganda shakldoshlik saqlanadimi?

### Test

- 1. So‘zlar qaysi xususiyatiga ko‘ra sinonim, omonim, antonimlarga ajraladi?**
  - A) bir yoki birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishiga ko‘ra
  - B) tuzilishiga ko‘ra
  - C) shakl va talaffuziga ko‘ra
  - D) shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra
- 2. Omonim so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.**
  - A) tort, dangasa, tanho
  - B) yot, yoq, yon
  - C) g‘amsiz, tong, och
  - D) muzlar, noma, pul

## Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. **Bog'**, **un**, **chek**, **yot**, o't shakldosh so'zlar ishtirokida gap tuzing va ularning ma'nosini aniqlang.
2. "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" dan beshta shakldosh so'z tanlab, tafsiloti bilan daftaringizga ko'chirib yozing.
3. Tuyuqlarni ifodali o'qing va yod oling. Shakldosh so'zlarni topib, ma'nolarini tushuntiring.

Olmani sundi nigorim, ol dedi,  
Olma birlan bu ko'ngulni ol, dedi.  
So'rsam ersa olmasining rangini  
Ne so'rarsen, olma rangi ol dedi.

Charxi kajraftor elidin **yozamen**,  
Chiqmadir hijron qishidin **yoza men**.  
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,  
Har necha ul shahga qulluq **yozamen**.

Ko'nglima har yonki boqsam, dog'i bor,  
Har necha dardimni ersam, dog'i bor.  
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,  
Biz sori bo'ldi firoqing dog'i bor.

**Lutfiy**

## 9-MAVZU. MA'NODOSH SO'ZLAR

(Калимаҳои ҳаммаъно (сионим))

**71-mashq.** Matnni o'qing, mazmunini aytib bering. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshini yozing. “**Buxoro tarixini bilasizmi?**” mavzusida o'zaro suhbat, savol-javob tashkil qiling.

Buxoro – asrlar davomida **ulkan** Sharqning ilm-u ma'rifat va madaniyat markazlaridan biri sifatida **jahonga** dong'i ketgan qadimiy shahar. U o't mishda savdo-sotiq, madaniy aloqalar jihatidan Markaziy Osiyoning mashhur Balx, Hirot, Marv (Mariy), Samarcand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Choch-Shosh (Toshkent) va Xiva (Xorazm) shaharlari qatoridan joy olgan.

O'rta asrlarda Buxoro Movarounnahrning yirik savdo-sotiq hunarmandchilik va ma'muriy markazlaridan biri bo'lib, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog'langan qadimiy xalqaro savdo yo'li – “**Buyuk ipak yo'li**” ana shu shahar orqali o'tgan. Mashhur jahongirlarning zafarli yurishlarida harb yo'li sifatida ham xizmat qilgan bu qadimgi karvon yo'li o't mishda “**Oltin yo'l**”, “**Shoh roh**”, ya'ni “**Shoh yo'li**” nomlari bilan ham shuhrat topgan.

Bu davrda Buxoro O'rta Osiyo va O'rta Sharqda ilm-fan, ma'rifat va madaniyatning markazlaridan biriga aylanib, mazkur shaharda diniy va dunyoviy ilmlar (tabobat, fiqh, tarix, faroviz, riyoziyot, handasa va hokazo) rivoj topgan. Bu yerda mashhur **mutafakkir** olim va adiblar Abu Havsi Kabir, Imom Ismoil Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Abu Bakr Narshaxiy, Abu Abdulla Rudakiy, Daqiqiy, Xo'ja Bahouvaddin Naqshband, Abdurahmon Mushfiqiy, Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar ham yashab ijod etganlar. Turli davrlar bino qilingan o'nlab madrasalarda minglab talabalar ilm olgan. XV asrda Mirzo Ulug'bek tomonidan Buxoroda qurdirlig'an madrasa darvozasiga hatto arabcha “**Ilm olish har bir musulmon ayol-u erkaklarning burchidir**” degan hadis quyma yozuvda bitilgan.

Asrlar davomida Buxoroning dong'i O'rta Osiyoning yirik ma'muriy markazi sifatida ham taralgan. Bu shahar Buxorxudotlar (IV-VII), Somoniylar (IX-X asr), Shayboniyilar xonardonlari tomonidan davlat poytaxti sifatida muttasil obod etilgan. O'zbeklar davlati – Buxoro xonligi (XVI asr), Ashtarxoniyilar (XVII-XVIII asr), Mang'itlar (XIX-XX asr boshi) tomonidan idora etilgan. Buxoro amirligi hamda Buxoro Xalq Respublikasi (1920-1924-yil) ning poytaxti bo'lgan.

O'z tarixi jarayonida Buxoro O'rta Osiyoda qad ko'targan ko'pgina shaharlar singari bir necha bor tashqi dushman hujumiga bardosh bergen. Istilochilar asoratiga tushib, qonli janglar maydoniga va ozodlik qo'zg'olonlari markaziga aylangan. Inqirozga yuz tutib, vayron bo'lgan, biroq o'z joyidan bir qarich ham siljimay, qayta-qayta tiklanib obod bo'lgan.

**72-mashq.** Quyidagi so'zlar silsilasidan **ovoz**, **nur**, **nuqson**, **bahs**, **osmon** so'zlarining ma'nodoshini topib, jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gap tuzing.

Munozara, mubohasa shu'la, tovush, un, yog'du, ziyo, sado, sas, nido, ayb, nuqs, ko'k, samo, falak, qusur, gardun, tortishuv, kamchilik.

t/r	Dominant (asosiy) so'z	Ma'nodosh so'z	Misol
1.	<b>Ovoz</b>		1. Bola avval un chiqarmay chidashga harakat qildi. 2. - Mana majlis ochiq. Kim gapiradi? Hech kim dan sado chiqmadi. 3. 4.
2.	<b>Nur</b>		1. Quyoshning ilk nurlari bilan aholi ko'chaga chiqdi. 2. 3.
3.	<b>Nuqson</b>		1. Nihoyat u zerikdi, ko'zguga o'zini unday qilib soldi, bunday qilib soldi va "Husnida hech qanday nuqs yo'qligi" ga qanoat hosil qildi, shekilli, ko'zguni qaytib joyiga qo'ydi. 2. 3. 4.
4.	<b>Bahs</b>		1. Shu ikki fikr attrofida munozara juda qizib ketdi. 2. 3. 4.
5.	<b>Osmon</b>		1. 2.

**73-mashq.** Lug‘at daftaringizga ma’nodosh so‘zlarni ko‘chirib yozing. Dominantini aniqlab, tagiga chizing.

Aniq, ochiq, ravshan, yaqqol, yorqin; batafsil, mufassal, mukammal, to‘la, to‘liq; belgi, nishon, nishona, alomat; vatan, yurt, el, diyor; vaqt, payt, zamon, fursat, mahal, choq, kez, kezak, mavrid, palla, muddat; dunyo, jahon, olam, koinot; inoq, aql, qadrdon, totuv, ittifoq; maqsad, niyat, muddao, murod, qasd; salomlashmoq, so‘rashmoq, ko‘rishmoq, omonlashmoq; sodiq, sadoqatli, vafodor, fidokor; taxmin, tusmol, chama, faraz; toza, ozoda, pok, pokiza, sof, musaffo; qiyin, mushkul, mahol, og‘ir, mashaqqatli, sermashaqqat, dushvor; qobiliyat, layoqat, iste’dod, talant, salohiyat; hurmat, izzat, ehtirom; husn, chiroy, ko‘rk.

**74-mashq.** Bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor so‘zlar qaysi so‘zning ma’nodoshi sanaladi? O‘sha so‘zni aytинг va daftaringizga ko‘chiring. Ma’nodosh so‘zlarning tafsiloti bilan tanishing. Ijobiy va salbiy bo‘yodkorlikka ega ma’nodosh so‘zlarni tubandagi gaplardan aniqlab ko‘rsating:

Bu so‘zlar kishi boshining “old qismi, old tomoni” ma’nolarini ifodalaganda o‘zaro birlashadi. **Bet** – ma’nosи qo‘llanishiga ko‘ra yuz so‘ziga yaqin bo‘lib, unga nisbatan biroz salbiy ottenkaga ega. **Aft** – bet so‘ziga nisbatan salbiy ma’noga ega. **Bashara** so‘zida salbiy ma’no aft so‘zidagiga nisbatan ham kuchli. **Turq** so‘zida salbiy ma’no bashara so‘zidagiga nisbatan ham kuchli. **Chehra** – ijobjiy ma’noga ega. **Jamol** so‘zida ijobjiy ma’no chehra so‘zidagiga nisbatan kuchli bo‘lib, asosan, poetik uslubga xoslikni anglatadi. **Jamol-husn-chiroy** ma’nolarida ham qo‘llanadi. **Uzor, oraz, ruxsor** – eskirgan kitobiy so‘zlardir.

1. Uning hamisha naqsh olmadek qizarib turadigan yumaloq yuzlari oqarib ketgan edi. 2. – Hayosiz !! – Sherbekning ko‘ziga Xo‘jabekovning afti nabs tomayotgandek jirkanchli bo‘lib ko‘rinib ketdi. 3. Orazingni, ey mahvash, bog‘ aro namoyon qil. 4. Muncha latif-u muncha soz lola uzorini ko‘ring. 5. – Hu, o‘l, turqing qursin.

**75-mashq.** Ma’nodosh frazeologik so‘z birikmalarini ajratib, daftaringizga ko‘chirib yozing va ma’nolarini aytинг.

Bir yoqadan bosh chiqarmoq – bir jon-bir tan bo‘lmoq; ko‘ngli bo‘sh – ko‘ngli qattiq; boshi osmonga yetdi – teriga sig‘may qoldi, “lom-mim” demaslik- damni chiqarmaslik; turmush qurmoq – boshni qovushtirmoq; dam olmoq – hordiq chiqarmoq; dimog‘ini choq qilmoq – bag‘rini ochmoq; ko‘z ochib yunguncha – “hash-pash” deguncha; payini qirqmoq – oyog‘iga bolta urmoq; til qisiq - til uzun, til qichitmoq – tilni qichishtirmoq; turmushga chiqmoq - erga tegmoq; fikrga tolmoq, fe‘li keng – fe‘li tor; xayolga cho‘mmoq, pinakka ketmoq, chehrasi ochiq, boshga ko‘tarmoq, dilga tugmoq, boshda danak chaqmoq, yer bilan bitta bo‘lmoq, og‘zi qulog‘iga yetdi, jigar bag‘ri ezildi, yo‘lga ko‘z tutmoq, oq bilan qorani ajratmoq.

**Namuna:** boshi osmonga yetdi – terisiga sig‘may qoldi (xursand bo‘lmoq, cheksiz xursandchilik ma’nosida).

**76-mashq.** Topishmoqni o‘qing va javobini toping.

So‘zlar borki, garchi har xil ko‘rar ko‘z,  
Ma’nolari bir-biriga yaqin so‘z?

**77-mashq.** Sinonim haqidagi tojikcha ma’lumotni o‘qing va mazmunini o‘zbek tilida aytинг.

Калимаҳое, ки аз чиҳати таркиби овозӣ (шаклан) ҳар хела буда, як маъно ё маъноҳои ба ҳамдигар наздиқро ифода мекунанд. Синонимҳо, чун қоида, ба айни як ҳиссаси нутқи тааллуқ доранд ва ҳамчун воҳидҳои нутқи яқдигарро ивазкунанда ба ҳисоб мераванд. Онҳо баробари умумият маъной доштан, аз ягон чиҳат (дараҷаи истеъмолӣ ё хусусиятҳои услубӣ, ҳеч набошад, обуранги бадеяй) фарқ карда меистанд.

**78-mashq.** Guruh (kurs)da o‘tkazilgan majlis bayonnomasi, bayonnomadan ko‘chirmani yozing. O‘zingiz yozgan bayonnomasi, ko‘chirmani yig‘ilish kotibasi yozgan bayonnomasi bilan taqqoslab ko‘ring. Xato va kamchiliklarini bartaraf qiling.

### Atamalar lug‘ati

1. Ma’nodosh so‘z – калимаи ҳаммаъно
2. Sinonim – синоним, муродиф
3. Lug‘aviy sinonim – муродифоти лугавӣ
4. Dominant (asosiy so‘z) – доменант (сарсила)
5. Ijobiy ma’no – маънои мусбат
6. Salbiy ma’no – маънои манғӣ
7. Leksik dublet – калка
8. Frazeologik sinonim – муродифоти синонимӣ
9. Morfologik sinonim – муродифоти сарфи (морфологӣ)
10. Sintaktik sinonim – муродифоти наҳвӣ (синтаксисӣ)
11. Ottenka – маъно
12. Salbiy ma’no – маънои манғӣ
13. Ijobiy ma’no – маънои эҷобӣ
- 14. Grammatik birliklar – воҳидҳои грамматикий
15. Sintaktik birliklar – воҳидҳои синтаксисӣ (наҳвӣ)
16. Hissiy bo‘yoq – таъсирбажии ҳиссӣ
17. Uslubiy bo‘yoq – ҷилои услубӣ

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qanday so‘zlar ma’nodosh so‘z deyiladi ?
2. Ma’nodosh so‘zlarning qanday guruhlari mayjud ?
3. Lug‘aviy sinonimiya nima ?
4. Frazeologik sinonimiyani qanday tushunasiz ?
5. Morfologik va sintaktik sinonimiya nima ?
6. Ma’nodosh so‘zlarning asosiy so‘zi tilshunoslikda qaysi istiloh bilan ifodalanadi ?  
7. Ma’nodosh so‘zlarning ijobiy va salbiy ma’nolari, asosan, nimalarda yaqqol namoyon bo‘ladi ?  
8. 1963-yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti chop etgan “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati” da nechta ma’nodosh so‘zning tafsiloti berilgan ?  
9. “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati” qanday prinsiplarga ko‘ra tuzilgan ?

### Test

1. **Shakli har xil, ammo ma’nolari bir-biriga yaqin so‘zlar nima deb aytildi?**  
A) shakldosh so‘z                    C) qarama-qarshi so‘z  
B) ma’nodosh so‘z                    D) bir va ko‘p ma’noli so‘zlar
2. **Ma’nodosh so‘zlar berilgan qatorni toping.**  
A) lazzatli, laziz, xushta’m, shirin, totli, ta’mli, xushxo‘r  
B) oq-qora, shirin-achchiq, aqli-aqlsiz  
C) olma, anor, qovoq, non, tuz  
D) mustaqillik, istiqlol, oynoma, ro‘znama
3. **Bahs so‘zining ma’nodoshini aniqlang.**  
A) tovush, un, sado, sas, nido            C) ayb, nuqs, qusur, kamchilik  
B) shu’la, yog‘du, ziyo                    D) tortishuv, munozara, mubohasa
4. **“Lom-mim” demaslik – damni chiqarmaslik frazeologik birikmasi ma’nodosh so‘zlarning qaysi turini tashkil etadi ?**  
A) lug‘aviy sinonimiyani                    C) morfologik sinonimiyani  
B) frazeologik sinonimiyani                D) sintaktik sinonimiyani
5. **1963-yilda nashr qilingan “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati” dagi ma’nodosh so‘zlarning miqdori ko‘rsatilgan to‘g‘ri javobni toping:**  
A) 1700 dan ortiq                            C) 90000  
B) 1800 ga yaqin so‘z                      D) 2500

6. Lug‘at maqolalari quydagicha tuzilgan: avval sinonimik qatordagi so‘zlarning birlashtiruvchi ma’nosini ko‘rsatilib, so‘ng har bir sinonimning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Birlashtiruvchi ma’no hamda farqli belgi-xususiyatlar misollar vositasida tasdiqlangan bu lug‘at nomini aniqlang:

- A) O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati      C) O'zbek tilining izohli lug'ati  
B) O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati    D) O'zbek tilining imlo lug'ati

7. Quyidagi sinonimik qatordagidan so'zlarning gavsi biri esklirgan?

7. Quyidagi sinonimik qatordagi so‘zlarning qaysi biri eskirgan?



8. Quyidagi sinonimik qatorga mansub so‘zlarning qaysi biri ko‘chma ma’noda?



## 9. Sinonim sıfatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) xavfli, xavotirli, qo'rqinchli, barakali
  - B) xayrlashmoq, xabarlashmoq, xushlamoq, vidolashmoq
  - C) sabab, vaj, bahona, bois
  - D) taxmin, tusmol, taslim, faraz

#### **10. Sinonim iboralar qo'llangan qatorni aniqlang.**

- A) Yog' tushsa yalagudek, toza, orasta.  
B) Do'ppisini osmonga otmoq, og'zi qulog'ida, og'zining tanobi qochgan.  
C) Suvga tushgan bo'lka nondek, qo'y og'zidan cho'p olmag'an, yerga ursa ko'kka sakraydi.  
D) Yulduzni benaryon urmoq, tegirmonga tushsa butun chigmoq, uddaburon.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “O’zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati”dan mazali, uyat so‘zlarining ma’nodoshlarini toping va o’sha so‘zlar tafsilotini yozing.

2. "Katta" so'zining ma'nodoshini eslab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

3. Badiiy asardan 30-40 so'zdan iborat matn tanlab, undagi ma'nodosh so'zlarni ajratib ko'rsating.

4. Mavzu yuzasidan 5 ta test tuzing.

5. She'riy parchani o'qing, tojikcha "xoma" so'zining o'zbek tilidagi ma'nodoshini aytin.

Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,  
Erur fiqh-u hadis-u so‘ngra tafsir.  
Chu takmil o‘ldi bu uch ilm, sen, bil,  
Yana har ilm maylin qilma, yo qil.

Alisher Navoiy

## 10-MAVZU. ZID MA'NOLI SO'ZLAR

(Калимаҳои зидмаъно (антоним))

**79-mashq.** “**Tabiatni muhofaza qilish – burchimiz**” mavzusida yozgan matnni o‘qing. Zid ma’noli so‘zlarni ajratib, ro‘parasida ekvivalentini yozing. Tabiatga mehr-muhabbat va munosabatingizni yoningizda o‘tirgan talaba bilan birgalikda dialog tarzida bayon eting.

Tabiat va inson munosabati – g‘oyatda qadimiylar hamda doimiy jarayon. Inson dunyoga kelibdiki, tabiat bag‘rida yashaydi. Odam tabiatdan qancha uzoqlashsa, ruhan undan o‘shancha yupunlashadi, yovuzlik hislariga ko‘proq mag‘lub bo‘ladi. Tabiat quchog‘i inson uchun ham, hayvon uchun ham ochiq. Biroq odam qavmi tabiatga ba‘zan hayvon ham qilmaydigan yovuzliklarni ravo ko‘radi. Bu – razolat. Bu Vatan, xalq, insoniyatga nisbatan berahmlikdir. Bular to‘g‘risida o‘ylarkansan, xayol beixtiyor zamonlar qariga yetaklaydi. O‘tmish zamonlarda odamlar daraxtlarga sig‘inishgan. Bitta daraxtning kasallanishini ayrim qabila yoki elatlar katta fojiaday qabul etganlar. Ularning tasavvurida daraxtning shoxini sindirish – uning joniga qiynoq solish hisoblangan... Demak, bizning qadimgi ajodolarimiz uchun tabiat muqaddas hisoblangan. Ammo biz-chi? Biz unga qanday munosabatda bo‘layotirmiz? Albatta, bu savolga bugungi avlod ijobjiy javob bera olmaydi. Aks holda, bir necha asrlik voqealarga guvoh chinorlarni biz mehribon va dono bobolarimizni sevganday suyub, ularning sirli shivirlari ma’nosini chuqurroq anglardik. Kallaklanayotgan tutlar oldidan beparvo o‘tib ketavermasdik. Kuzgi bog‘lar holati yuraklarni boshqacha iztiroblarga to‘ldirardi. Quriyotgan Orolning dardini aritish uchun so‘z bilangina kurashmasdik. Loqaydlik – ma’naviy ko‘rlik ekanini teranroq tushunardik.

“Tabiat bilan til top, shunda hech vaqt kambag‘ allashmaysan. Seni odamlarning fikr-mulohazalari emas, tabiat badavlat qiladi “, – deydi yunon faylasuflaridan biri. Chindan ham, tabiatga yaqinlik kishini ham jismonan, ham ruhan go‘zallashtiradi, boyitadi. Axir dili tabiatga bog‘lanmaganlar bag‘ritosh kimsalar emasmi?! Hissiz qalblarga go‘zallik ruhi qanday singishi mumkin?! Bahorning ko‘tarinki ohanglari, kuzning hazin va yupatuvchi musiqasiga loqayd ko‘ngillarda quvонч va dard fayzi nima qilinsin?!

Tabiat – bizning uyimiz. Daraxtlar – birodarlarimiz. Biri – og‘a. Biri – do‘st. Uyi vayron bo‘lgan, birodarlar o‘lgan kimsa – g‘arib, notavon gado. Uning kelajagi

yo‘q. Uning ertasi tumanli, xatarli. O‘z maskani haqida qayg‘urish - ertangi kundan umidvor har bir kishining burchi. Demak, bizning burchimiz. Ana shu buyuk tuyg‘usi butun insoniyat qalbini bezovta qilib turmog‘i lozim. Hayot, tiriklik manbayi bo‘lgan tabiatga nisbatan loqaydlik – jinoyat. Ana shunday jinoyatning oldini olish uchun kurashish esa kelajakning bezavolligi, barkamolligiga kafolatdir (N.A foqovaning “Insho yozishni o‘rganing” kitobidan).

**Bilib oling!** Antonimlar – bir-biriga zid ma’no bildiruvchi so‘zlar. Zid ma’noli so‘zlarning quyidagi turlari mavjud: 1. **Lug‘aviy zid ma’noli so‘zlar.** Bu turdagи antonimlar so‘zlar doirasida bo‘ladi: oq-qora, baland – past kabilar. Ular bir xil so‘z turkumlariga oid bo‘ladi: novcha – pakana, saxiy – baxil, bo‘shang – olg‘ir (sifat), yaxshilik – yomonlik (ot), tez – sekin (ravish), keldi – ketdi (fe’l). 2. **Kontekstual (shartli) zid ma’noli so‘zlar.** Bu turdagи zid ma’noli so‘zlar nutqdan tashqari hech qanday zid ma’no anglatmay, faqat matnning o‘zida antonimlik hosil qiladi. Masalan: **O‘tga ham, suvga ham o‘zini uradi.** Do‘st achitib gapirar, dushman **kuldirib.** Bu matndagi o‘t - suv, achitib – kuldirib so‘zları faqat matnda zid ma’noli so‘zlardir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida antonim so‘zi o‘rnida “**zid ma’noli so‘z**” atamasi qo‘llaniladi. Umumiyl tilshunoslikda esa “**zid ma’noli so‘z**” o‘rnida **antonim** so‘zi ishlataladi. Tojik tilida **antonim** so‘zi o‘rnida “**kalimahoi zidma’no**” so‘zi ko‘proq qo‘llaniladi. Antonim, zid ma’noli so‘z, kalimahoi zidma’no so‘zları bir xil ma’no anglatuvchi so‘z va atamalar sanaladi.

**80-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan zid ma’noli so‘zlarning ma’nosiga e’tibor berib maqollar mazmunini tushuntiring. Antonimga misol bo‘la oladigan maqollarni aytинг.

**Yaxshi** oshini yeydi,  
**Yomon** boshini.

O‘zga yurtda **shoh** bo‘lguncha,  
O‘z yurtingda **gado** bo‘l.

Elga **qo‘shilgan** moy yutar,  
Eldan **ayrilgan** qon yutar.

**Yaxshi** yigit yurt tuzar,  
**Yomon** yigit yurt buzar.

**Bolali** uy – xandon,  
**Bolasiz** uy zindon.

**Arzon** beillat bo‘lmas,  
**Qimmat** – behikmat.

**81-mashq.** Quyidagi zid ma’noli so‘zlarni tojik tiliga tarjima qilib, o‘zbekcha ekvivalentlarini yozing.

Uzoq – yaqin, shirin – achchiq, oq – qora, quyi – yuqori, baland – past, yorug‘ – qarong‘u, yaxshi – yomon, mazmunli – mazmunsiz, botir – qo‘rqoq, egri – to‘g‘ri, uzun – qisqa, toza – kir.

**82-mashq.** She'riy parchalarni o'qing, ulardagi zid ma'noli so'zlarni aniqlab daftaringizga ko'chiring. Ular zid ma'noli so'zlarning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Sen qalbimga qayg'ular ekding,  
Shodlik bo'lib ko'kardi ul his.  
Ko'zlarimga tun bo'lib cho'kdining,  
So'zlarimga yoyildi kunduz.

Oydin Hojiyeva

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,  
Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.

Cho'lpón

**83-mashq.** Tubandagi zid ma'noli so'zlarning qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlab, ularni jadvalga to'g'ri joylashtiring.

Katta – kichik, baland – past, beri – nari, uzoq – yaqin, botirlik – kambag‘allik, Sharq – g‘arb, kengaymoq – toraymoq, ko‘paymoq – ozaymoq, issiq – sovuq, yosh – qari, saxiy–xasis, kecha – kunduz, tez – sekin, bilimli – bilimsiz, ilmli – ilmsiz, ko‘p – oz, achchiq – shirin, sekinlashmoq – tezlashmoq, sog‘aymoq – kasal bo‘lmoq, aqlli – beaql, baxtli – baxtsiz, asta – sekin.

**84-mashq.** Antonim haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing, mazmunini o'zbek tilida aytib bering.

Калимаҳо, ки дар ифодай маъно ба ҳамдигар зид мебошанд. Антонимҳо дар ҳиссаҳои нутқ ҷой доранд. Антонимҳои ҳақиқӣ калимаҳои гуногунрешаи зидмаъноянд, ки бештар ба ифодаҳои сифат ва ҳолат вабаста кор фармуда мешаванд. Антонимҳо дар нутқ чун воситаи хуби ифодай тазод васеъ кор фармуда мешаванд. Ҳатто номи асарҳои бадеӣ шуда меоянд.

**85-mashq.** O'zakli zid ma'noli so'zlarni ko'chiring. O'zak va qo'shimchalarni shartli belgilar bilan ajratib ko'rsating. Qo'shimchalarining qaysi biri tojik tilidan o'zbek tiliga kirganini ayting.

Asosli – asossiz, axloqli – axloqsiz, ahamiyatli – ahamiyatsiz, bamaslahat – bemaslahat, bama'ni – bema'ni, barqaror – beqaror, baxtli – baxtsiz, bevafo – vafodor, begunoh – gunohkor, bemaza – mazali, beg'araz – g'arazli, bilimli – bilimsiz, burdli – burdsiz, insofli – insofsiz, irodali – irodasiz, kuchli – kuchsiz, basavlat – savlatsiz, sadoqatlari – sadoqatsiz, g'ayratsiz – serg'ayrat, itoatsiz – itoatkor, suvli – suvsiz, xabardor – bexabar.

**86-mashq.** Matnni o'qing va mazmunini ayting. Kontekstual (shartli) zid ma'noli so'zlarni ajratib ko'rsating.

Odamning barakali va badavlat bo'lishi uchun kasb-u hunaridan qimmatroq mato yo'q va ulug'lik hamda saodat osmoni uchun esa qobiliyatdan yorqinroq yulduz yo'qdir. Hunar suvi bilan sug'orilgan kishi go'yoki meva va soyasi yo'q quruq daraxtga o'xshaydi. Yoki hid va rangdan holi gulga monanddir. Darhaqiqat, bu firdavsmonand gulshanning rayhonlari hididan dimog'ini muattar qilgan kishi xilma-xil kamyob lazzatlani ne'matlardan bahramand bo'ladi. Bu ne'matning yoqimli mayidan bir jur'a totmagan kishi doimo baxtsizlik va ojizlik bilan og'rib, xumor bo'lib yuradi. Ko'p azob va uqubatlar yukini yelkasida ko'tarib yurishga majbur bo'ladi. Bilim va haqiqat bog'ining bog'bonlari kasb-u hunarsiz kishilarni jamiyatning razil va pastkash kishilari deb hisoblaganlar. Kasb-u kamolsiz kishini muhabbati hech bir dildan joy topmaydi va hech kim kasb-u hunarsiz kishiga yordam qo'lini cho'zmaydi.

Hunar bilan hayot naxlin egallaganlarga,  
Saodat xazinasi kaliti tuyassardir.

(Barxurdor ibn Mahmud ijodidan)

**87-mashq.** Tubandagi so'zlarni lug'at daftaringizda ko'chiring, ular ishtirotida gap tuzing.

Test, reyting, kompyuter, printer, kserokopiya, skaner, monitoring, fayl, fayl papka, sayt, internet, avizo, audit, broker, diler, konsalting, lizing, menejer, menejment.

**88-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

- |   |   |
|---|---|
| 1. Biri biriga qarshi,<br>Ham ma'nosi, ham o'zi.<br>Biroq yashar yonma-yon,<br>Ham qishi-yu ham yozi? | 2. Katta-kichik, yaxshi-yomon,<br>Qanday sifat? Toping chaqqon. |
|---|---|

Atamalar lug'ati

1. Zid ma'noli so'zlar – қалимаҳои зидмаъно
  2. Antonim – антоним
  3. Lug'aviy antonim – антоними луғавӣ
  4. Kontekstual (shartli) antonim – антоними контекстуали (шартӣ)
  5. O'zakdosh antonimlar – антонимҳои ҳамреша
  6. Frazeologik antonimlar – антонимҳои фразеологӣ
  7. Qarama-qarshi ma'no – маънои зид (муқобил маъно)

#### **Mayzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Qanday so‘zlar zid ma’noli so‘zlar deb aytildi ?
  2. Antonim so‘zining lug‘aviy ma’nosini nima ?
  3. Antonimning qaysi turi nutqdan tashqari hech qanday zid ma’no anglatmay, faqat matnning o‘zida antonimlik hosil qiladi ?
  4. O‘zakdosh antonimlar qanday so‘zlardan tarkib topadi ?
  5. Frazeologik antonimning asosini qanday iboralar tashkil etadi?
  6. “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”ning muallif-tuzuvchisi kim ?
  7. “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”da nechta zid ma’noli so‘z tavsiflangan ?
  8. Zid ma’noli so‘zlar qaysi jihatdan ma’nodosh so‘zlardan farqlanadi?

Test

- 1. Bir-biriga zid ma’no bildiruvchi so‘zlar nima deyiladi ?**

A) antonim                    C) omonim  
B) sinonim                    D) paronim

**2. Antonimlar berilgan qatorni aniqlang.**

A) ruxsat bermoq – taqiqlamoq, savodli – savodsiz, ilik – ilk  
B) sho‘x – yuvosh, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, dovon – devon.  
C) kamtar, ishchan, epchil, erinmoq – ko‘zlamoq, tez-tez, shodlik – g‘am  
D) erinchoq – g‘ayratli, temsa tebranmas – epchil.

**3. Quyidagi antonim justliklarning qaysi birida salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan so‘z bor ?**

A) yaxshi – yomon                    C) chiroyli – badbashara  
B) shirin – bemaza                    D) xursand – xafa

**4. Leksik antonimlar berilgan qatorni toping.**

A) xursand va dili siyoh                    C) oqko‘ngil va ichi qora  
B) yupqa va qalin                            D) ishladi va ishlamadi

**5. Qaysi qatorda ot antonimlar mavjud ?**

A) keldi – ketdi    B) savol – javob    C) oq – qora    D) o‘y – xayol

**6. Antonimlar berilgan qatordi aniqlang.**

A) kech, xayr, kul, tuz    C) suyuq, quyuq, yirik, mayda

B) qarash, boqish, nigoh    D) bahs, tortishuv, munozara, mubohasa

**7. Frazeologik antonimlarni aniqlang.**

A) yerga urmoq, ko‘kka ko‘tarmoq    B) achchiq, shirin

C) beqiyos, mislsiz    D) katta ketmoq, katta gapirmoq

**8. “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” tuzuvchisining ism-u sharifi qaysi qatorda ko‘rsatilgan ?**

A) Sh.Rahmatullaev, N.Mamatov, R.Shukurov

B) A.Hojiyev

C) Sh.Rahmatullaev, A.Hojiyev

D) M.Mirzayev, E.Begmatov

**9. Ushbu ma’lumot qaysi lug‘atda yozilganini aytинг:** “Bu lug‘at hozirgi o‘zbek tilidagi antonimlarning dastlabki lug‘ati bo‘lib, unda 495 antonim guruhgа birlashuvchi 1800 ga yaqin antonimik juftlik tasvirlangan. Antonimik munosabat leksik ma’nolararo belgilanib, antonimlarning ma’nosи ta’riflangan va misollar keltirilgan. Ayni vaqtda har bir antonim ostida, agar mavjud bo‘lsa, sinonimi ham keltirilgan. Lug‘atning kirish qismida antonimlarning tabiatи, turlari va o‘xhash til hodisalaridan farqi haqida qisqacha ma’lumot berilgan”.

A) “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” da

B) “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati” da

C) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da

D) “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” da

**Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”dan **hajm, maza** ma’nolarini bildiruvchi zid ma’noli so‘zlardan 10 ta namuna tanlab yozing.

2. O‘nta ma’nodosh so‘z tanlang hamda ular ishtirokida gap tuzing.

3. Zid ma’noli so‘zga misol bo‘ladigan o‘n beshta maqol yozing.

## **11-MAVZU. BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR**

(**Калимаҳои яқмаъно ва сеरмаъно**)

**89-mashq.** Matnni o‘qing, gap nima haqda ekanini aytib bering. Salomlashish qoida va odoblariga rioya qilishingizni aiting. O‘zingiz yana qanday salomlashish odoblarini bilasiz?

### **Salom berish odobi haqida**

Agar necha xil vaziyatda salom berish kerak, deb so‘rasalar, yetti xil sharoitda, deb aytgil. Birinchidan, tariqat birodarini ko‘rganda, salom berish shart. Ikkinchidan, yo‘lda yurganda, odamlarga salom berish kerak. Uchinchidan, birodarining eshigiga yetganda, salom berish joiz. To‘rtinchidan, o‘tirishlar, yig‘inlarga borganda, jamoaga salom berish lozim. Beshinchidan, agar bir yerda o‘tirgan bo‘lsang va o‘rningdan turib ketadigan bo‘lsang, qolganlarga “salom” de – buni xayrlashuv salomi deydiilar. Oltinchidan, qabristonga yaqinlashganda salom berish kerak. Yettinchidan, o‘z uyingga kirganda xonardon ahliga salom berishing kerak.

Agar qanday sharoitda salom bermaslik kerak, deb so‘rasalar; olti xil vaziyatda, deb javob bergil. Avval hammomda yuvinayotganda, ikkinchi, hojatxonada o‘tirganda, uchinchi, Qur‘on o‘qiyotganda; to‘rtinchi, nomahram xotinlarga; beshinchi, namoz o‘qib turgan odamga ...


Agar salom berish odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita deb aytgil: birinchidan, salom beruvchi kishi pok bo‘lishi kerak, ikkinchidan, suvoriy kishi yayov odama salom bersin, uchinchi, yoshi kichik odam yoshi ulug‘roqqa salom bersin, to‘rtinchi, salom berayotgan odamning chehrasi ochiq va xursand bo‘lsin, beshinchi, ishora yoki imo (boshni qimirlatib, qo‘lni ko‘krakka qo‘yib) emas, balki ovoz chiqarib: “*As salomu alayka*” yoki: “*salomu alayk*” desin va agar jamoat bo‘lsa, “*As salomu alaykum*” deb aytsin. Yettinchidan, ikki kishi bir-biriga yaqinlashganda, qo‘l berib ko‘rishsin, bu odobga kiradi.

Agar salomga javob berish odobi qaysi, deb so‘rasalar, buning ham yettita sharti bor, deb ayt: birinchidan, salomga xursand bo‘lib alek olsin. Ikkinchidan, salom berganga rahmat desin. Uchinchidan, agar islom millatiga mansub bo‘lman odam salom berganda ham hurmat ko‘rsatib, alek olsin. To‘rtinchidan, salomga alek oluvchi ham tahoratl, pok bo‘lsin. Beshinchidan, ko‘p odamlar turgan bo‘lsa, oralaridan bir kishi salomga javob qaytarsa yetarlidir. Oltinchidan, salomga ishorat bilan emas, ovoz chiqarib alek olish zarur. Yettinchidan, salomga alek olganda, salom bergen kishi buni eshitishi lozim.


Agar salomning fazilati nimada, deb so'rasalar, aytgil: taqdim etish va zudlik bilan javob qaytarishdir (Husayn Voiz Koshifyning "Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" kitobidan).

**90-mashq.** "Sinkveyr" usulida bir ma'noli "ona" so'zi bilan to'ldirilgan jadvalni diqqat bilan ko'zdan kechiring. Ikkinchisi jadvalning bo'sh katakchalarini "ota" so'ziga tegishli, ma'no bildiruvchi so'zlar bilan to'ldiring.

**1-jadval**



**2-jadval**



**Bilib oling!** Ayrim so'zlar bir ma'noni, ba'zilari ko'p ma'noni bildiradi. Masalan: chumchuq, ravish, daraxt so'zleri birligina ma'noni ifodalaydi. Bunday so'zlar bir ma'noli (monosemantik) so'zlar deb yuritiladi. Bir ma'noli so'zlar: non, daftar (umumiste'moldagi leksika), ega, kesim, tonna (atamalar), rom, bigiz, mix (kasb-hunar so'zleri). Birdan ortiq ma'noni anglatgan so'zlarga ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar deb kiritiladi: ko'z – odamning ko'zi (o'z ma'nosida), uzukning ko'zi (ko'chma ma'noda), yog'ochning ko'zi (ko'chma ma'noda), ishning ko'zi (ko'chma ma'noda); quloq – odamning qulog'i, qozonning qulog'i.

**91-mashq.** Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni guruhlarga ajratib yozing.

Fonetika, leksikologiya, morfologiya, boshga tushgan, boshi berk ko'cha, bosh barmoq, bir boshdan, hikoya, doston, ko'z tashlamoq, ko'z yoshi qilmoq, ko'zdan kechirmoq, ertak, topishmoq, til, non, choy, tuz, sabzi, piyoz, yog', gugurt, to'r, bog', bosh, yelim, qog'oz, daftар, chizg'ich, o'chirg'ich, bo'r, jun, oltin, mis, kumush, gaz.

**92-mashq.** Bir ma'noli "qo'l" so'zi bilan yuzaga kelgan ko'p ma'no bildiruvchi so'zlarni aniqlang, ular ishtirokida gap tuzing.

qo'li gul, qo'l ostida, qo'li egri, qo'l bermoq, qo'l kelmoq, qo'l siltamoq, qo'l tegizmoq, qo'lni qo'ltiqqa tiqmoq, oyoqni qo'lga olib, besh qo'lni og'izga urmoq, qo'lni qo'lga bermoq.

**93-mashq.** Ko'p ma'noli so'zlarga oid tojik tilidagi tubandagi ma'lumotni o'qing va uni o'zbek tiliga tarjima qiling.

**Сермаъной (полисемия).** Дар худи як калима мавҷуд будани якчанд маъноҳои ба ҳамдигар алоқаманде, ки дар натиҷаи инкишофи маънои аслии айни ҳамон калима ба вуҷуд омадаанд.

Сермаъной бо роҳҳои гуногун ба вуҷуд моёяд, ки инро дар маҷоз, синекдоҳа дидан мумкин аст.

**94-mashq.** Rasmga qarab mevalar nomini o'zbek tilida ayting. Tojikcha nomi bilan solishtirib, ularning ma'no bildirish jihatidan qaysi guruhg'a kirishini aniqlang.



**95-mashq.** Quyidagi topishmoqlarni o'qing, javobini toping. Topgan javob bilan krossvordning bo'sh katakchalarini sonlardan keyin to'g'ri joylashtiring. Qanday qushlarning nomi bir yoxud ko'p ma'noli so'zligini izohlang.

1. Bir qushchani qilsam tanqid,  
Qarang, menga qilar taqlid.  
Gapiradi shunday taqlid,  
Top-chi, qaysi qush u?

2. Tarnov tumshuq, qamish oyoq,  
Kiygan to'ni mayin oppoq.  
Nog'orasin chalib tak-tak,  
Bahordan-chi berar darak.

3. Kasbi doim taqir-tuqur,  
Qayda ilon ko'rsa, cho'qir.

4. Rangi har xil: kulrang, oq,  
Oyoqlari yung paypoq.  
Yerda yuradi asta,  
Suvda suzadi usta.

5. Sekin-sekin yo'rg'asi,  
Og'zida baxmal to'rvasi.


6. Boshi taroq, dumi o'roq.

7. Atlas ko'yak qanoti,  
Xushxabarchi odati.

8. Kichkina bir qush o'zi,  
Judayam o'tkir ko'zi.  
Qurt terib u daraxtdan,  
Asrar turli xil darddan.

9. Yoz, kuzbo'yil chirqillab,  
Don tashiydi pirillab.

## KROSSVORD



### Atamalar lug‘ati

1. So‘z – калима
2. Bir ma’noli so‘zlar – калимаҳои якмаъно
3. Ko‘p ma’noli so‘zlar – калимаҳои сермаъно
4. Semantika – маъно
- 5 Monosemantik (a) – якмано
6. Polisemantik (a) – сермаъно
7. Polisemiya – сермаъной

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qanday so‘zlar bir ma’noli so‘zlar deyiladi?
2. Ko‘p ma’noli so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
3. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar bir-biridan qaysi jihatdan farqlanadi?
4. Ko‘p ma’noli so‘zlar qanday ma’nolar anglatadi?
5. Qanday so‘zlar faqat bir ma’noni bildiradi?

### Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar haqida boshqa kitoblarda berilgan ma'lumotni o‘qing, nazariy ma'lumotni daftaringizga ko‘chirib yozing.
2. 8 ta turli xil ma’noni bildiruvchi so‘z tanlang, ular ishtirokida gap tuzing hamda ma’nolarini aniqlang.
3. Ikki-uch so‘z misolida omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘zaro farqini oydinlashtiring.
4. “Bizning oilamiz” mavzusi bo‘yicha suhbat matnini tayyorlab keling.

## 12-MAVZU. O'Z VA O'ZLASHMA SO'ZLAR

(Калимаҳои худӣ ва вомӣ иқтибосӣ)

96-mashq. “Hikmat” ni o‘qing, o‘z va o‘zlashma so‘zlarni topib jadvalni to‘ldiring.

### Hikmat

Ey aziz! Bilginki, haqiqiy suhbat odamning qalbiga qarab bo‘ladi, ya’ni odamni dilida birovning dilidan yo‘l ochilmaguncha ikki kishining orasida haqiqiy suhbat, muhabbat va payvandlik hosil bo‘lmaydi. Shuning uchun donolar: “Dildan dilga yo‘l bor”,—degan maqol to‘qishgan. Dil dilni topgandagina ular bir-birining ahvoliga tushunadi, shundagina haqiqiy suhbat, sof do‘stlik paydo bo‘ladi. Jaloliddin Rumiy o‘z masnaviyalarida pokiza suhbatni quyidagicha ta’riflagan.

### Nazm

Yaxshilarning suhbatin ko‘nglingga sol,  
Hech yomonning suhbatin qilma xayol!  
Ko‘r, qizil gul bog‘ ichin xandon qilur,  
Mard kishi nomardni ham inson qilur.  
Garchi sen bo‘lsang agar marmar kabi,  
Yaxshi birla bo‘lgaysen gavhar kabi!

(Muhammad Jabalrudiy ijodidan)

### Jadval

O‘zbekcha so‘zlar	Fors-tojikcha so‘zlar	Arabcha so‘zlar
Och	Dil	Qalb

97-mashq. Quyida berilgan o‘zbekcha, tojikcha, arabcha, ruscha so‘zlarni guruhlarga ajratib yozing.

Совға, тӯхфа, туман, ноҳия, тӯй, маросим, тупроқ, хок, ватан, дәҳқон, барзгар, қашоварз, ўлка, кишвар, диёр, қайроқ, қаймоқ, қундоқ, келин, арӯс, қайчӣ, миқрӯз, байроқ, парчам, ливо, қуш, куч, қувват, омад, баҳт, таҳт, осмон, фалак, гардун, қилич, саиф, шамшер, ўқитувчи, муаллим, устоз, мураббий, тарбиячӣ, эълон, табассум, кулги, ханда, ақл, илм, билим, панд, ҳикмат, андарз, республика, чумҳурият, қонун, устав, буйруқ, приказ, стол, қалам, китоб, стул, партя,

доска, талаба, студент, дошишү, дарс, мавзу, тема, бино, қават, топширик, супориш, шуур, онг, тил, забон, хотира, мафкура, миллат, халқ, маърифат.

**98-mashq.** Uch tilda yozilgan rasmiy hujjatlar nomini o'qing va lug'at daftaringizga ko'chirib yozing. Umumta'lim maktabida "O'zbek tili" fanini o'rGANISH jarayonida qanday rasmiy hujjatlarning yozilishi va to'ldirilishini o'rgangansiz?

O'zbekcha nomi	Tojikcha nomi	Ruscha nomi
Ariza	Ариза	Заявление
Tarjimayi hol	Тарҷимаи ҳол	Автобиография
Shaxsiy varaqা	Шахсиятнома	Личный листок
Tilxat	Забонҳат	Расписка
Tushumtirish xati	Забонҳат	Объяснительная записка
E'lон	Эълон, барқия	Объявление
Tavsifnomा	Тавсифнома	Характеристика
Tavsiyanomа	Тавсиянома	Рекомендация
Ma'lumotnomа	Маълумотнома, тасдиқнома	Справка
Bayonnoma	Суратмағис, қарор	Протокол
Bayonnomadan ko'chirma	Нусха аз қарор	Выписка из протокола
Hisobot	Ҳисобот	Отчёт
Dalolatnomа	Таййиднома, идданома	Акт
Sharhnomа	Қарордод, шартнома, ахднома	Договор
Telegramma	Барқия, телеграм	Телеграмма
Taklifnomа	Даъватнома	Пригласительный
Mehnat daftarchasi	Дафтарчан мекнати	Трудовая книжка
Biuyiq	Амр	Приказ
Diplom	Диплом	Диплом

**Bilib oling!** O'zbek tilidagi barcha so'zlar quyidagi ikki qatlamga bo'linadi:

**1.O'z qatlam.**

**2.O'zlashma qatlam.**

**O'z qatlam** – asli umumturkiy va o'zbekcha so'zlar bo'lib, shu so'zlar asosida hamda o'zbekcha affiks bilan boshqa tillardan yasalgan so'zlardir.

O'z qatlamning turi va belgilari:

**1. Umumturkiy so'zlar.** Belgilari: asosan bir bo'g'inli bo'ladi (bosh, tosh, men, sen ...); undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi; ikki bo'g'inli so'zlar asosan ochiq bo'g'inlardan tuziladi (a-ka, o-ta, bo-la ...); birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'in unli bilan boshlanmaydi; **x, ts, f, dj** harflari qatnashmaydi; ayirish va yumshatish belgilari ishlatilmaydi; so'z boshida **r, l, v** tovushlari qo'llanmaydi.

**2. O'zbekcha so'zlar.** Belgilari: umumturkiy so'zlarga o'zbekcha so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi ( bosh - la, te-rim - chi ...); boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga o'zbekcha so'z yasovchi qo'shimchalardan qo'shish bilan hosil qilinadi (traktor - chi, mard - lik, madaniyat - li ...)

**O'zlashgan qatlam** – o'zbek tiliga qardosh bo'lmagan tillardan o'zlashgan so'zlardir.

O'zbek tilida fors-tojik, arab, rus tillaridan o'zlashgan so'zlar ko'p:

Fors-tojik tilidan	Barg, go'sht, ostob, serob, kamtar, xaridor, xonardon, dasta, agar, pokiza, bahor, daraxt, gul, bemor, g'isht, shogird, mehribon, baho, mirob ...
Arab tilidan	Maktab, kitob, shoir, a'lo, mutolaa, inson, xulq, ma'no, adabiyot, madaniyat, qonun, avlod, ma'naviyat, ma'rifat ...
Rus-yevropa tillaridan	Advokat, traktor, stol, konsert, stul, palto, parta, mashina, zavod, fabrika, teatr ...

**99-mashq.** Namunaga qarab o'zlashgan so'zlar negizida yasalgan o'zbekcha va tojikcha o'zlashmalar negizida yasalgan o'zbekcha so'zlarning o'zak va qo'shimchalarini aniq ko'rsating.

Adabiyotchi, toshqalam, otameros, bag'ishlov, ogohlantiruv, hamdamlashuv, va'daboz, ijodkor, qalam haqi, kinosolnomma, odimlovchi, zamondosh, jondosh, hushyorlanmoq, suxanbozlik, zargarlik, ohangdosh, shaharlارaro, bog'bon.

**Namuna:** adabiyotchi – adabiyot (arabcha so'z) + – chi (qo'shimcha). Aslida o'zbek tilining qo'shimchasi. Bu qo'shimcha tojik tilida ham uchraydi. O'zbek va tojik tillarida bir xil ma'no va vazifa bajaradi ).




**100-mashq.** O'z va o'zlashma so'zlar haqida tojikcha ma'lumotni o'qib, mazmunini o'zbek tilida aytib bering.

**Калимаҳои ҳуда.** Калимаҳои асосии забони муайян, ки ҳаммаи онҳо аз ибтидо ба таркиби лугавии он забон дохил шудаанд; калимаҳои аслии забон.

**Калимаҳои иқтибосӣ.** Калимаҳое, ки аз дигар забонҳо гирифта шудаанд. Калимаҳои дигар забонҳо дар асоси муносабатҳои савдо, сиёсат, маданият аз забони дигар ҳалқҳо дар асоси эҳтиёҷоти табиии забон қабул карда мешаванд.

**101-mashq.** Jadvalda berilgan ma'lumot bilan tanishib, o'zbek adabiy tilining o'z va o'zlashma qatlamlari xususida o'z fikringizni aytинг.



**102-mashq.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqidagi ma’lumot va undan tanlangan moddalarni o‘qing. Kafolat, huquq, mas’uliyatlar haqida gapiring. “Konstitutsiya – hayotimiz qomusi” mavzusida matn tuzing. **Konstitutsiya, qomus, muqaddima, bo‘lim, bob, modda** so‘zlarini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan toping.

Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining O‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan. 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko‘ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003-yil 24-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo‘srimchalar kiritilgan. **Konstitutsiya muqaddima, olti bo‘lim:** Asosiy prinsiplar (birinchi bo‘lim), Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinligi va burchlari (ikkinchi bo‘lim), Jamiyat va shaxs (uchinchchi bo‘lim), Ma’muriyat-huquq va davlat tuzilishi (to‘rtinchi bo‘lim), Davlat va hokimiyatning tashkil etilishi (beschinchi bo‘lim), Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi (oltinchi bo‘lim); yigirma olti bobdan iborat: Davlat suvereniteti (I bob), Xalq hokimiyatchiligi (II bob), Konstitutsiya va qonunning ustunligi (III bob), Tashqi siyosat (IV bob), Umumiy qoidalar (V bob), Fuqarolik (VI bob), Shaxsiy huquq va erkinlik (VII bob), Siyosiy huquqlar (IX bob), Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (X bob), Fuqarolarning burchlari (XI bob), Jamiyatning iqtisodiy negizlari (XII bob), Jamoa birlashmalari (XIII bob), Oila (XIV bob), Ommaviy axborot vositalari (XV bob), O‘zbekiston Respublikasining mamuriy-hududiy tuzilishi (XVI bob), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (XVII bob), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (XVIII bob), O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti (XIX bob), Vazirlar Mahkamasi (XX bob), Mahalliy davlat hokimiyat asoslari (XXI bob), O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiysi (XXII bob), Saylov tizimi (XXIII bob), Prokuratura (XXIV bob), Moliya va kredit (XXV bob), Mudofaa va xavfsizlik (XXVI bob). Bularning barchasi **128 moddada** ifodalangan.

**Konstitutsiya** so‘zi lotincha bo‘lib, davlatning ijtimoiy va davlat tuzumini, saylov tizimini, davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyatini, fuqarolarning huquqlari va burchlarini belgilab beruvchi asosiy qonun ma’nosini anglatadi.

**Qonun** – arabcha so‘z. Davlat hokimiysi tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida. Boshqa ma’noda qonun obyektiv borliqda turli hodisalar o‘rtasida kishi ongi va ixtiyoridan tashqarida hamisha mavjud bo‘lgan zaruriy bog‘lanish, munosabat majmuyi. Bajarilishi shart, majburiy bo‘lgan norma, qoida tusiga kirgan talab, topshiriq. Bir dinda qabul qilingan axloq va rasm-rusum qoidalari tizim ma’nosini bildiradi.

**Modda** arabcha so‘z bo‘lib, rasmiy hujjat, majmua, matn, qonun va shu kabilarning raqam yoki harf bilan ajratilgan mustaqil bo‘limi hamda budjet yoki biror moliiyaviy hujjatning daromad manbayi va xarajat qismlarini ko‘rsatuvchi bo‘limlari ma’nosini bildiradi.

**Bob** arabcha so‘z bo‘lib, uning asl va ko‘chma ma’nolari bor. Asl ma’noda kitob, asar, maqola va shu kabilarning ayrim qismi, fasli hamda bobi, jihatni ma’nolarini, ko‘chma ma’noda esa davr, sahifa ma’nosini anglatadi.

**Qomus** so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, mukammal, to‘liq lug‘at degan ma’noni bildiradi. Ko‘chma ma’noda esa, hayotning yoki bilimning biror sohasiga oid to‘liq asar; majmua.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tubandagi moddalarini o‘qib, mazmuni va mohiyatini aytib bering:

**40-modda.** O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududiga istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

**41-modda.** Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiyligi ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

**52-modda.** O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tishga majburdirlar.

**59-modda.** Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a’zo bo‘lish ixtiyoriydir.

**65-modda.** Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

**103-mashq.** She’rni ifodaligi o‘qing. **Shoir Miraziz A’zam** nima uchun uni “**Til darsi**” deb nomlanganini izohlang. Shoir qo’llagan gruzincha va o‘zbekcha so‘zlarining tojikcha muqobilini toping.

### Til darsi

– Gruzin tilini bilasizmi? – dedi.

– Gruzin tilini bilmayman, – dedim.

– Gruzin tilini o‘rgataymi? – dedi.

– O‘rgat, – dedim.

Keyin: – Oting nima? – dedim,

– Siala, – dedi.

– Qishlog‘ingning oti nima? - dedim.

– Pokachiri, – dedi.

Voy tavba ...

Antiqa ekan bu Pokachirisi.

Bolalari ham antiqa.

Qizchalari ham ...

– Bizda akani “dzma” deydi.

– Bizda dzmani “aka” deydi.

– Bizda opani “da” deydi.

– Bizda dani “opa” deydi.

Bir lahzada Sialadan to‘rtta so‘zni o‘rgandim.

Bir lahzada Siala ham to‘rtta so‘zni o‘rgandi.

– Bizda qo‘lni “xelebi” deydi.

– Bizda xelebini “qo‘l” deydi.

– Bizda oyoqni “fexebi” deydi.

– Bizda fexebini “oyoq” deydi.

– Bizda menni “me” deydi.

Senni esa “shen” deydi.

– Bizda meni “men” deydi.

Shenni esa “sen” deydi.

– Bizda kitobni “signi” deydi

Voy tavba ...

Juda qiziq ekan bu “signi” si.

Bizda signini “kitob” deydi ...

... Biz Siala bilan

Katta avtobusda kelardik

Tbilisining qoq o‘rtasidan ...

– Bizda uyni “saxli” deydi,

Xalqni esa “xalxi” deydi.

– Bizda ... – dedim ...

– Lekin shu payt:

– Do‘stlar, – dedi yo‘lboshlovchi, –

Qarshingizda “Iveriya” mehmonxonasi ...

Siala ketdi Pokachiriga ...

Men ketdim “Iveriya” ga,

Keyin

O‘zbekistonga.

Lekin qulog‘imda qoldi

So‘zlarning qo‘ng‘irog‘i,

Ko‘zlarimda

“Bildingizmi” deganday

Ko‘zlarining jaўdirashi,

So‘z ohangida soch tolalarining silkinishlari ...

Bolalar!

Siz shunday qilasizmi hech?  
Sizning shahrингизга, qishlog‘ингизга  
Mehmon kelsa agar uzoq ellardan,  
Siz o‘zbek tilini o‘rgatasizmi?  
O‘zbek so‘zларining jarangini  
Mehmon qulog\*ida yangratasizmi?

### Atamalar lug‘ati

1. Qatlam – қабат
2. O‘z qatlam – қабати хеш (худа)
3. O‘zlashma qatlam – қабати ғайрихеш (ғайрихуда)
4. O‘zlashgan so‘zlar – қалимаҳои иқтибосшуда, қалимаҳои вомӣ
5. Ichki manba – манбаи дохили
6. Tashqi manba – манбаи ғайридохиля (беруна)

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O‘z va o‘zlashma qatlam deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbek tilining leksik qatlamini qanday so‘zlar tashkil etadi?
3. O‘zbek tili qanday so‘zlar hisobiga boyib borgan ?
4. So‘zлarning tarixi va qaysi tilga mansubligini aniqlash bilan tilshunoslik fanining qaysi bo‘limi shug‘ullanadi?
5. 1981-yilda chop etilgan 60000 so‘zdan tarkib topgan 2 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da fors-tojikcha, arabcha, ruscha so‘zlar qanday shartli qisqartma, belgi bilan ko‘rsatilgan?
6. 1969-yilda nashr qilingan 90000 so‘zdan iborat bo‘lgan 2 jildli “Фарҳангӣ забони тоҷики” da o‘zbekcha, arabcha, ruscha so‘zlar qanday shartli qisqartma, belgi bilan belgilangan?

### Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. Tilshunos olim Ernest Begmatovning 1985-yili “Fan” nashriyotida chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari” monografiyasini o‘qib, undagi o‘z va o‘zlashma qatlam haqidagi ma‘lumotlarni daftaringizga yozib oling.
2. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan fors-tojikcha, arabcha, ruscha so‘zlarni tanlab yozing. Ularning shartli qisqartma, belgilar bilan ko‘rsatganligi haqida fikr bildiring.
3. “Фарҳангӣ забони тоҷики” dan Қ harfi qatorida yozilgan o‘zbekcha so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida “Qomusimiz – baxtimiz” mavzusida bayon yozing.

## LUG'ATSHUNOSLIK (LEKSIKOGRAFIYA)

(Лугатшиносӣ (лексикография))

*Bilib oling!* Leksikografiya – leksikologiyaning lug'at tuzish bilan shug'ullanadigan bo'limidir. Leksikografiya – grekcha so'z bo'lib, leksika "lug'at"; grafiya "yozaman" ma'nosini bildiradi. Қисми забоншиносӣ, ки масъалаҳон наэариявии тартиб додани лугатжоро меомӯзад.

### 13-MAVZU. LUG'AT VA UNING TURLARI

(Лугат ва ҳелҳои он)

**104-mashq.** Matnni o'qing, mazmunini o'z so'zingiz bilan aytib bering. "Voiz", "va'z", "va'zxon", "notiq", "suxanvar", "suxandon" so'zlarning ma'nosini "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan aniqlang.

**Nasihatgo'y va va'zxonlar to'g'risida**

Voiz haq so'zini targ'ib qilishi, payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi haq va payg'ambar yo'liga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq – musofirni yo'ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi – uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da'vat etganiga o'xshash bir narsadir.

Uyqusida so'zlagan kasal odamdir,

Unga qulqoq osgan esa tentakdir.

Va'z murshidlar - pirlar, hushyor kishilarning ishidir va ularning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Avvalo, uning o'zi bir yo'lga tushib olgan bo'lishi, keyin esa boshqa odamlarni o'sha tomon boshlab borishi kerak. Yo'lga bilmay kirgan yo'qoladi va maqsadidan boshqa yerga yetadi.

Va'zxon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin; to'la kirgan odam esa yengil tortib, holi qaytsin. Voiz olim va halol ish ko'ruchchi bo'lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo'ladi.

Agar u boshqalarga buyursa-yu, o'zi qilmasa, uning so'zлari hech kimga ta'sir etmaydi va foyda keltirmaydi. O'z yordamchilari orqali nasihat qiluvchi voiz – o'zi qolib, shogirdini kuylatuvchi qo'shiqchidir.

**Qit'a:**

Dastyorsiz so'z ayta olmaydigan voiz

Dastyorning qulidir, u qahni kuylovchi qo'shiqchi emas.

(Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan).

**105-mashq. Lug'at, lug'atchi, lug'atchilik, leksikograf, leksikografik, leksikografiya so'zlarini "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan toping hamda izohlarini daftaringizga ko'chiring.**


**Bilib oling!** So'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan va imlosi, tarixi yoki izohlari bo'lgan kitob lug'atdir.

Lug'at ikki xil bo'ladi:

**1. Filologik (lingvistik) lug'atlar.** Bu turdag'i lug'atlar bir yoki ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli lug'atlarga: «Izohli lug'at», «Sinonim so'zlar lug'ati», «Omonim so'zlar lug'ati», «Imlo lug'ati», «Frazeologik lug'at» kabilalar kiradi. «O'zbek tilining izohli lug'ati» 1981-yilda yaratilgan, 2 jilddan iborat. Mazkur lug'atda 60000 so'z izohi berilgan. Ana shu lug'at qayta ishlaniib, to'ldirilib 2007-yil 80000 ming so'zdan iborat holda qayta nashr qilinmoqda.

Ko'p tilli lug'atlarga: ruscha-o'zbekcha, tojikcha-o'zbekcha yoxud aksincha, ruscha-o'zbekcha-inglizcha, tojikcha-ruscha-o'zbekcha kabi lug'atlar kiradi.

**2. Qomusiy (ensiklopedik) lug'atlar.** qomusiy lug'atlarda turli tarixiy oqealar, geografik nomlar, fan-madaniyat, arboblar haqida ma'lumot beriladi.



**106-mashq.** Filologik lug‘atlar haqidagi ma’lumotlarni o‘qib, lug‘atlardan birini tanlab varaqlab chiqing. So‘ng o‘z fikringizni o‘sha lug‘at haqida aytning.

Filologik (lingvistik) lug‘atlar maqsad va mundarijasiga ko‘ra xilma-xil bo‘ladi:

**1. Bir tilli lug‘atlar.** Bunday lug‘atlar ham, o‘z navbatida, maqsadi va mundarijasiga ko‘ra bir necha ko‘rinishga ega:

a) imlo lug‘atlari: “Imlo lug‘ati” (1949, 1970, 1992), “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (1976, 1995, 2000), “Лугати имлои забони адабии тоҷик” (1974), “Лугати имло” (1991), “Лугати мухтасари имлои забони адабии тоҷик” (1991) bunday lug‘atlarda so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi asoslanadi;

b) izohli lug‘atlari. Bularda tildagi so‘zlarga izohli tavsif beriladi. Masalan. 2 tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 1981-yilda yaratilgan bu lug‘atda 60000 so‘z izohi berilgan. Hozir u mukammallashtirilib, 80 ming so‘z izohidan iborat 4 jiddli tarzda nashrga tayyorlanmoqda. 2 jiddli “Фарҳанги забони тоҷики” (1969). Bi lug‘atda 90000 ming so‘z izohlangan, “Фарҳанги Ҷаҳонгирӣ ҳамчун сарчашмаи лексикографияи тоҷику форс” (1973), “Лугати нимтағсилии тоҷикий барои забони адабии тоҷик” (1976), 3 жилдли “Ғиёс ул-луғот” (1987, 1988), “Чароги ҳидоят” (1992), “Тӯҳфат ул-аҳбоб” (1992), 2 жилдли “Бурҳони қотеъ” (1993), “Мунтахаб ул-луғот” (2003) va hokazo;


v) ters yoki chappa lug‘atlari. Bunda so‘zlar teskaridan o‘qiladigan qilib yoziladi va she’riyatda qofiya tanlashni qulaylashtirishga mo‘ljallangan: R.Qo‘ng‘urov, A.Tixonovlarning “O‘zbek tilining chappa lug‘ati” (1968) va hokazo;

g) bir ijodkor leksik boyligini ifodalovchi izohli lug‘atlari: 1 va 4 jildlik “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”, “Фарҳанги ашъори Рӯдакӣ”, 2 jildli “Фарҳанги осори Ҷомъ” (1983, 1984), “Фарҳанги мухтасари “Шоҳнома” (1992), “Лугатномай осори С.Аяни” (1978) va boshqa.

Izohli lug‘atlarning bilim sohalariga taalluqli tubandagi namunalari mavjud: tilshunoslik sohasida: “Internatsional so‘zlar lug‘ati” (1962), “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (1963, 1974), “O‘zbek tilidagi ruscha-internatsional o‘zlashtirma so‘zlar izohli lug‘ati” (1965, 1972), “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” (1971), “Paronimlar lug‘ati” (1974), “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” (1977), “O‘zbek tili morfemik lug‘ati” (1977), “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati” (1977), “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (1978), “O‘zbekcha-ruscha aforizmlar lug‘ati” (1978), “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” (1980), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981), “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” (1984), “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” (1984), “O‘zbek tilining atama lug‘ati”, 2 jiddli “Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷики” (1963), 3 жилдли “Фарҳанги зарбулмасал ва афоризмҳои тоҷикию форсӣ” (1975-1978), “Лугати русӣ-тоҷикии терминҳои бинокорӣ” (1982), “Лугати мухтасари терминҳои ҳарбии

руси-точкىй барои тайёрии ибтидоии ҳарбя” (1983), “Лугати терминҳои забоншиноси” (1983), “Фарҳанги ибораҳои ҳалқӣ” (1988), “Лугати мухтасари лаҳҷаи Буҳоро” (1989), “Лугати синонимҳои забони тоҷикӣ” (1993), “Лугати мухтасари истилоҳи забоншиноси” (2002); **tarixshunoslik sohasida**: “Tarixdan qisqacha izohli lug‘at” (1977), “Tarix terminlari izohli lug‘ati” (1978); **adabiyotshunoslik sohasida**: “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at” (1960), “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”, “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” (1970), “O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug‘ati” (1980), “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at” (1983), shuningdek, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod va boshqa sohalardagi izohli lug‘atlar; **terminologik lug‘atlar**: A.Hojiyevning “O‘zbek tilshunosligi terminlari izohli lug‘ati”; toponimik lug‘atlar, paremiologik lug‘atlar so‘z ma’no jilolarini ifodalovchi chastotali lug‘atlar va hokazo.

**107-mashq.** Tasvirda nimani va kimlarni ko‘rganingizni ayting. Siz yashayotgan maskanda qanday ishlab chiqarish korxonalari bor? Shu haqda ma’lumot bering.



**108-mashq.** O‘zbek tilidagi qomusiy lug‘atlar haqidagi ma’lumotni o‘qing, sizni qiziqtiradigan mavzuni tubandagi lug‘atlarning biridan toping.

Qomusiy lug‘atlar lug‘atchilikning yuksak namunasi sanaladi. U millatning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasi darajasini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda qomusiy lug‘at yaratish harakati sho‘rolar zamonida yuzaga kelgandi. O‘shanda 1971-1985-yillarda ilk bor 14 томли “O‘zbek sho‘ro (sovet) ensiklopediyasi” yaratilgandi. Biroq u sho‘ro mafkurasiga to‘yintirilganligidan istiqlol g‘alabasidan so‘ng qisqa muddatda – 2000-2006-yillarda 12 томли “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” yaratildi.

Endilikda kishilik bilimlarining turli sohalariga bag‘ishlangan qomuslar yaratila boshlandi. Chunonchi, O‘zbekistonda “O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi” (1997), “Uy-ro‘zg‘or ensiklopediyasi” (1979, 1982, 1986), “Xotin-qizlar ensiklopediyasi” (1999), “Bolalar ensiklopediyasi” (2000), “Falsafa qomusiy lug‘at” (2004), “Islom ensiklopediyasi” (2004) va Tojikistonda 3 jildli “Энциклопедия адабиёт ва санъат” (1988, 1989, 2004) shular jumlasidandir.

Qomuslarning bolalarga bag‘ishlangan “Yosh adabiyotshunoslar qomusi”, “Yosh tilshunoslar qomusi”, “Yosh geograflar qomusi”, “Yosh fizik ensiklopedik lug‘ati” (1989), “Yosh matematik qomusiy lug‘ati” (1991), shuningdek, ayrim yozuvchilar va shoirlar ijodiyotiga bag‘ishlangan “A.S. Pushkin ensiklopediyasi” kabi namunalari ham bor. O‘zbekistonda adabiyotshunoslar shu xilda “Alisher Navoiy qomusi” ni yaratish ustida izlanmoqdalar.

### **O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi**

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi universal ensiklopediya bo‘lib, unda umumbashariy materiallar, tushunchalar, jahonshumul voqeа-hodisalar haqidagi maqolalar keng o‘rin olgan. Unda jahondagi barcha davlatlar to‘g‘risida kompleks maqolalar berilib, ularning mustaqil O‘zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy-siyosiy, madaniy aloqalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Ensiklopediyada O‘zbekistonning eng qadimgi davrlardan boshlab, to hozirgi kungacha bo‘lgan tarixi, uning tabiatni, hayvonot va nabotot olami, ijtimoiy-siyosiy hayoti, iqtisodi, fani, texnikasi, adabiyoti va san‘ati, me’morchiligi va musiqasi, teatr va kinosi, xalq ta’limi va matbuoti, fizkultura va sporti, dini va urf-odatlari keng aks etgan.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida hamma zamонлар ва xalqlarga mansub mashhur shaxslar, ilm-fanning turli sohalariga tegishli allomalar, adabiyot va san‘at namoyandalari, taniqli siyosat va davlat arboblari haqida maqolalar berilgan.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 12 jiddan iborat bo‘lib, unda qariyb 60 ming maqola, 12 mingdan ziyod surat va bezaklar, 1000 ga yaqin xarita, jumladan, 150 rangli xarita berilgan.

### **Bolalar ensiklopediyasi**

Ushbu bir jildli nashr mustaqillik yillarda bolalarga mo‘ljallab tayyorlangan dastlabki qomusdir. Lotin alifbosida chop etilgan mazkur kitobga tabiat, jamiyat hodisalari, ijtimoiy, iqtisodiy hayot masalalari haqida bolalarbop tilda hikoya qiluvchi maqolalar kiritilgan.

Shuningdek, ilm-fan, texnika, yangi texnologiya masalalari, xalq xo‘jaligining sanoat va qishloq xo‘jalik singari tarmoqlariga oid tushunchalarni yorituvchi

maqolalar ham o‘rin olgan. Yosh kitobxon undan o‘zini qiziqtiruvchi juda ko‘p savollarga javob topadi.

Ensiklopediyaga kiritilgan maqolalar kichik yoshdag'i maktab o‘quvchilarini dunyoqarashini shakllantirishda, ularni vatanparvarlik, milliy-ma’naviy an'analar ruhida tarbiyalashda yordam beradi.

Ensiklopediya 650 dan ziyod maqola alifbo tartibida berilgan. Kitob tajribali rassomlar tomonidan chiroyli bezatilgan. Undan 500 ga yaqin rasmlar, rangli suratlар o‘rin olgan.

Ensiklopediya 2000-yilda “Sog‘lom avlod uchun” yili munosabati bilan 10000 nusxada nashr etilgan.

### Xotin-qizlar ensiklopediyasi

Ushbu bir jidli ensiklopediya ayollarga bag‘ishlangan. Unda qiz bolaning dunyoga kelishidan boshlab, uni tarbiyalab o‘stirish, balog‘at yoshiga yetguniga qadar ichki va tashqi dunyosida yuz beradigan o‘zgarishlar, qiz bolani oila qurishga tayyorlash, er-xotinlik munosabatlari, ro‘zg‘or tashvishlari, keljak baxti, oilani yaxshilash, ruhiy muhit, muhabbat va vafo masalalari o‘rin olgan.

Kitob 9 bo‘limdan iborat. Har bir bo‘limda xotin-qizlar hayotida muayyan o‘rin va ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar guruhlarga ajratib, izchil yoritilgan. Kitobning ijodkorlari o‘zbek ayollari bilishlari lozim bo‘lgan umumbashariy masalalarning eng muhimlarini tanlab olar ekanlar, imkon doirasida har bir mavzuda sharqona, o‘zbekona odatlarimizdan kelib chiqqan holda fikr yuritganlar.

Kitobning uslubi ayol bilan ayolning chin dildan, samimiy suhbatni tarzida qurilgan.

Ensiklopediya 1999-yilda “Ayollar yili” munosabati bilan 10000 nusxada nashr etilgan.

**109-mashq.** “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 5-jildining 249-betidan leksikografiya haqidagi ma’lumotni o‘qing va mazmunini bayon eting.

**110-mashq.** “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” dan “Bosh harflar imlosi” bo‘limini o‘qib, imloviy qoidalarning ahamiyati, mohiyati xususida fikr bildiring.

**111-mashq.** “Falsafa qomusiy lug‘at” dan “botiniylik va zohiriylilik” haqidagi ma’lumotni o‘qing. Botiniy va zohiriyligi go‘zallik, botiniy va zohiriyligi nutq, so‘zning botiniy va zohiriyligi ma’nosi deganda nimani tushunasiz? Bu xususda o‘z fikringiz yoxud o‘qigan ma’lumotlaringizni aytинг.

Botiniylik-zohiriylilik – insonning ichki, qalb, ko‘nglidagi hissiyotlari va ularni sirtqi tomonidan, tashqi ko‘rinishda ifodalananishi. Inson tashqi tomonidan qarib, nochor ko‘rinsa-da, uning bu hissiyoti, qalbi, ko‘ngli niroyatda nozik va ma’naviy boy bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha, sirtdan qaraganda, kam-ko‘stsiz, salobatli ko‘ringan kishi hissiyotsiz, qalbi ko‘r bo‘lishi mumkin. B. insonga ilohiy baxsh etilgan ne’mat, u buyuk kishilarning zohiriyligi faoliyatlarida yorqin ifodasini topgan.

### **Atamalar lug‘ati**

1. Lug‘at – лугат
2. Leksikografiya – лексикография
3. Lingvistik lug‘at – лугати лингвистики
4. Filologik lug‘at – лугати филология
5. Qomusiy lug‘at – лугати қомуси
6. Ensiklopedik lug‘at – лугати энциклопедий
7. Ters lug‘ati – лугати чапа
8. Toponimik lug‘at – лугати топоними
9. Paremiologik lug‘at – лугати паремиологии
10. Terminologik lug‘at – лугати истилоҳи
11. Etimologik lug‘at – лугати этимологии
12. Imlo lug‘ati – лугати имло
13. Sinonimik lug‘at – лугати синонимий
14. Antonimik lug‘at – лугати антонимий
15. Morfemik lug‘at – лугати морфемикий
16. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – лугати тафсирии забони ўзбекий

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Leksikografiya nima?
2. Leksikografiya tilshunoslik fanining qanday bo‘limi sanaladi?
3. Lug‘atlarning qanday guruhrarini bilasiz?
4. Qomusiy (ensiklopedik) lug‘at qanday xususiyatlarga ega?
5. Qanday ensiklopedik lug‘atlardan foydalangansiz?
6. Filologik lug‘atlar qanday lug‘atlar?
7. Filologik lug‘atlarning qanday turlarini bilasiz?
8. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da nechta so‘zning izohi berilgan?

### **Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” dan o‘zingizning ona shahrinig haqidagi ma’lumotni topib daftaringizga ko‘chirib oling.
2. Kutubxonaga kirib, o‘zbek tilidagi filologik lug‘atlardan birini tanlang, o‘sha lug‘at haqidagi ma’lumot yozing.
3. Alpoz-alfoz, omonim-anonim, bob-bop, davo-da’vo so‘zlarini “Paronimlar lug‘ati” dan izohi bilan daftaringizga ko‘chiring.
4. “O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi” da “O‘zbek yozuvii” sarlavhasi ostida oromiy, sug‘d, pahlaviy, O‘rxun-Enasoy, uyg‘ur, arab, lotin va kirill yozuvlariga oid ma’lumotlarni o‘qing va yozuvlar haqidagi o‘z fikringizni aytинг.

## 14-MAVZU. BIR TILLI VA IKKI TILLI LUG'ATLAR

(Лұғатхон яқзабона ва дүзабона)

**112-mashq.** Afsanani o'qing, mazmunini aytинг. “Dunyo”, “fasl”, “uzun”, “qish”, “yoz” sozларини o'zbek va tojik tillardagi lug'atlardan topib, izohini daftaringizga ko'chiring. Qish faslini tavsiflab matn tuzing.

### Qish nega yozdan uzun?

Dunyoni yaratib bo'lgach, Xudo odamdan so'rabdi: “Yil fasllarining qaysi birini uzunroq qilay? Qishnimi yoki yoznimi?” Odam unga: “Buni mening do'stlarim Ot bilan ho'kizdan so'rang! Ular nima deyishsa, men roziman”, – debdi.

Birinchi bo'lib Xudo Otdan so'rabdi: “Sen qanday bo'lishini xohlarding? Qish yozdan uzunroq bo'lsinmi yoki yoz qishdan uzunroq bo'lsinmi?”. “Men, – deb javob beribdi Ot, – yozning qishdan uzunroq bo'lishini xohlardim. Negaki, qishda tuyoqlarim juda sovuq yeysi”.

Endi Xudo ho'kizdan so'rabdi: “Sen nima deysan? Faslning qaysi birini uzaytirib, qaysi bi'ni qisqartiray?” Ho'kiz: “Qishni uzaytira qol, yozda issiqliqdan burnimning uchi terlaydi”, – debdi.

Xudo ho'kiz aytganiday qilibdi: qish uzun, yoz qisqa bo'libdi.

Ho'kizning javobidan xabardor topgan Ot juda achchiqlanib ketibdi. U ho'kizning tumshug'iga bir tezib tishlarini sindirib yuboribdi. Ho'kiz ham bo'sh kelmabdi. U otning biqiniga shunaqangi suzibdiki, Otning o't pufagini yorib yuboribdi.

Shu-shu, qariylar otning o't pufagi, qora molning old tishi yo'q deyishadigan bo'lishibdi.

**Bilib oling!** Bundan oldingi darsimizda aytgan o'zbek va tojik tillardagi filologik lug'atlar bir tilli lug'atlar sanaladi.

**Ko'p tilli lug'atlar.** Bunday lug'atlarda bir tilga oid tushuncha ikki, uch, ba'zan to'rt tildagi muqobilari bilan beriladi va asosan, til o'rganish hamda tarjima ishlarida asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ko'p tilli lug'atning ilk namunasi buyuk vatandoshimiz va be'akror leksikograf Mahmud Zamaxshariy tuzgan edi. Uning 1137-yilda tugatgan “Mucaddimat ul-adab” (“Adabiyotga kirish”) lug'ati 4 tilli bo'lib, forsiy so'z, chig'atoy, mo'g'ul va turk tillaridagi muqobilari bilan beriladi. Jahan lug'atshunosligi o'shandan beri Mahmud Zamaxshariyning lug'atni alifbe asosida tartib berishi an'anasiiga amal qilib keladi. Ikki tomlı “Ruscha – o'zbekcha” (1983-84), “O'zbek – ruscha lug'at” (1959 va 1988), “Ruscha – tojikcha lug'at” (1985),

shuningdek, inglizcha – ruscha – o'zbekcha; nemischa – o'zbekcha; o'zbekcha – tojikcha; arabcha – o'zbekcha lug'atlar ham shunday xususiyatga ega. XIX asr oxiri va XX asr 1-choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'at rivoj topib, o'nlab ruscha – o'zbekcha, o'zbekcha – ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib nashr ettirilgan. V.I. Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884-1912-yillar mobaynida bir necha marta nashr etilgan “*русско-сартовский и сартовского – русский словарь*” (Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha lug'at), Ashurali Zohiriy tomonidan 1927-yilda tuzilib, nashr ettirilgan 2 jildli “*Ruscha – o'zbekcha mukammal lug'at*” keyingi davrlarda O'zbekistonda yaratilgan ikki tilli lug'atlar uchun asos bo'ldi. Ayniqsa, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgan mustaqillik yillarda o'zbek lug'atchiligi yanada shiddatli rivojlanish pallasiga kirdi. Bu davrda lug'atchilikning yangidan yangi ko'rinishlari paydo bo'la boshladи. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida lug'atchilikni tartibga soluvchi maxsus Atamalar qo'mitasi tuzildi. Qo'mita qisqa muddatda qator xayrli ishlarni amalga oshirdi. Natijada hozirgi kungacha 10 ga yaqin xorijiy til bilan o'zbekcha qiyoslovchi xilma-xil tarjima lug'atlari, fan sohalariga oid 100 dan ziyod lug'at bir, ikki va uch tilli terminologik lug'atlar tuzildi. XX asr o'zbek lug'atchiligi rivojiga A. Zohiriy, A. Qodiriy, Y.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z. Ma'rufov, Sh.T. Rahmatullayev, N. Mamatov, A. Hojiyev, T. Alikulov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar.

**113-mashq.** Quyidagi fors-tojikcha so'zlarni “*O'zbek tilining izohli lug'ati*” dan toping. So'zlarning shakli va ma'nosi qanday berilganligi hamda izohlanganligini aytинг.

Ro'znama, abr, band, bozor, gard, sergul, xushnud, xushovoz, hamshahar, hushyor.

**114-mashq.** Quyidagi so'zlarni “*Фарҳанги забони тоҷики*” dan toping hamda qaysi tilga mansubligini aytинг.

Tuman, urdu, chaqmoq, yurish, yag'mo, qayroq, qamchin, qorovul, quroq.

**115-mashq.** “*O'zbekcha – tojikcha – ruscha lug'at*” haqida ma'lumot bering. So'zlarni lug'at daftaringizga ko'chiring.

Adovat	адоват	вражда
Asr	сад сол, аср	век, столетие
Bayram	ид, чашн	праздник
Bayroq	байрак, либо, парчам	знамя
Bekat	исттоҳ	остановка транспорта
Belgi	нишона, аломат	знак, отметка
Dazmol	дарзмол	утюг
Yotoqxona	хобгоҳ	общежитие
Ko'zgu	оина	зеркало
Ko'ngil	дил, қалб	сердце, душа
Muhokama	муҳокима	обсуждение

**116-mashq.** “O‘zbekcha – ruscha – forscha so‘zlashgich” yoxud “O‘zbekcha – ruscha – arabcha so‘zlashgich” lug‘atlaridan savdo, pul birliklari, vaqt, kun, hafta, oylarning nomlarini bildiruvchi so‘zlarni o‘qing. Lug‘atni yopib, xotirangizda qolgan izohlarni aytинг.

**117-mashq.** Quyidagi frazeologik birikmalarni o‘qing, ma’nosini “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” dan toping. Ma’nosini nazarda tutib, ular ishtirokida 5-6ta gap tuzing.

Til biriktirmoq, tilga kelmoq, tilga kirmoq, tilga olinmoq, til degan bir qarich, tili bir quloch, tilga tushmoq, tilni tishlamoq, tilni uzun qilmoq, tilni qismoq, tilni qichitmoq, tili uzun, tili chiqdi, tili qisildi, tili qisiq, til tegizmoq.

**118-mashq.** “Paronimlar lug‘ati” dan “artikl-artikul”, “atoqli-otoqli” paronim so‘zlarining izohi bilan daftaringizga ko‘chirib yozing. Artikl so‘zi tojik tilida yana qanday nom bilan aytildi? Tojik tilidagi paronim so‘zlardan aytинг.

#### **Artikl - Artikul**

**Artikl** – ba’zi tillarda ot oldidan qo‘llanadigan grammatik ko‘rsatkich.

Artikllar ot bilan qo‘shilib bir so‘zdek aytildi. (“Fransuz tili” darsligi)

**Artikul** – mahsulot yoki tovarning xili, turi, tipi.

Boya men kirganda gap allaqanday artikul to‘g‘risida borardi. (Said Ahmad)

#### **Atoqli – Otoqli**

**Atoqli:** atoqli ot -gram. Biror predmetga maxsus qo‘yilgan nom.

Otlar atoqli ot va turdosh otlarga bo‘linadi. (“O‘zbek tili” darsligi)

**Otoqli** – dong taratgan, ko‘zga ko‘ringan, mashhur. Otoqli olim.

O‘zbek xalqining otoqli yozuvchilaridan biri Oybekdir.

#### **Atamalar lug‘ati**

1. Bir tilli lug‘at – лугати язабона
2. Ikki tilli lug‘at – лугати дузабона

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Turkistonda ikki tilli lug‘atlar soni qachon ko‘paydi va rivoj topdi?
2. “Ruscha – sartcha va sartcha – ruscha lug‘at” ilk bor qachon nashr qilingan?
3. O‘zbekistonda ikki tilli lug‘atлarni yaratishda qaysi lug‘atlar asos bo‘lgan?
4. Lug‘at tuzish bilan shug‘ullangan tilshunos olimlardan kimlarni bilasiz?
5. Bir tilli va ikki tilli lug‘atлarning farqi nimada?

## **Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. O'zbek tilida yozilgan lug'atlarning nomi, muallif-tuzuvchilarning ism-sharifi, nashr yili va jildini bexato va ko'proq yozishga harakat qiling.
2. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan lotin, lotinlashtirmoq, lotincha so'zlarini toping hamda izohini lug'at daftaringizga ko'chiring.
3. "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" dan tanlangan paremalarni o'qib, mazmunini aytning va yod oling. Lug'at haqida ma'lumot tayyorlang.

Aql bilan ish tut, naql bilan el kut!  
Aql boshdan chiqar, oltin – toshdan.  
Ahil ishlasang – ish unar, har mushkul oson bo'lar.  
Basharning ozodligi – dunyoning obodligi.  
Bahsdan ham bahs tug'iladi.  
Befoyda so'zni aytma, foydali so'zdan qaytma!  
Bilimsiz birni yiqar, bilimli – mingni.  
Do'stdan molini ayamagan – eldan jonini ayamas.  
Kishining hurmati – tilda, qadrati – qo'lda.  
Ona yurting – oltin beshiging.

## GRAMMATIKA (Грамматика)

*Bilib oling!* Grammatika tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning grammatik qurilishiga xos qonun-qoidalarni tekshiradi.

Grammatika ikki qismdan iborat:

### 1. Morfologiya 2. Sintaksis

Morfologiya (grekcha *morphe* – shakl va *logos* – so‘z) so‘z turkumlari haqidagi ta’limot bo‘lib, u so‘z turkumlari va ularga xos grammatik kategoriyalarni o‘rganadi.

Қисми грамматике, ки оид ба соҳт, таркиби қалима, шаклҳои тағйирёбии қалима, роҳҳои ифодай маънини грамматики, инчунин дар бораи ҳиссаҳои нутқ ва роҳҳои қалимасозии онҳо маълумот медиҳад. Морфология ва синтаксис якчоя грамматикаро ташкил медиҳад.

### 15-MAVZU. SO‘Z TURKUMLARI

( Ҳиссаҳои нутқ )

**119-mashq.** Matnni o‘qing, yordamchi hamda alohida so‘zlar guruhiга mansub so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing. Xalqimiz nima sababdan nonni hamma ne’matlar ichida eng azizi deb biladi?

#### Nonni e’zozlash

Mashhur olim va podshoh Mirzo Ulug‘bek kunlardan bir kun o‘z amaldorlari bilan safarga ketayotgan ekan.

Ulug‘bekning nigohi yo‘l yoqasida yotgan non burdasiga tusharkan, darrov otdan tushadi va nonni olib qo‘yniga soladi. Vazir: “Nega bizga buyurmay, o‘zingiz otdan tushdingiz?” – deb so‘raydi. Ulug‘bek: “Nonni dastlab men ko‘rdim, uni yerdan olishni birovga buyurish nonga nisbatan hurmatsizlik bo‘ldi”, – deb javob bergen ekan.

Darhaqiqat, xalqimiz – xoh shoh bo‘lsin, xoh gado – nonni azaldan hurmat qiladi, uni hamma narsadan afzal, aziz deb biladi. Udum va an’analaramizga binoan hatto nonni dasturxonga teskari qo‘ymaydilar, uning ustiga boshqa narsa qo‘yish ham mumkin emas. Nonning ustidan xatlab o‘tish gunoh sanaladi. Bularning barchasi nonni e’zozlash, isrof etmaslikdan kelib chiqqan yaxshi odatlardir (“Hamrohim” nomli to‘plamdan ).

**120-mashq.** Mustaqil leksik ma'no ifodalay oladigan so'zlarni topib, ularga so'roq bering, yordamchi so'zlardan farqini aytинг.

1. Inson moli va nasabi bilan emas, ilmi va odobi bilan sharaflanadi. 2. Beshikdan qabrgacha ilm izla. 3. Hayo doimo yaxshilik keltiradi. 4. Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi axloqdir. 5. Qaysi birlaringda jahl va g'azab qo'zisa, darhol sukul saqlashga o'tsin. 6. Dunyodan o'tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod eting. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar. 7. Jannat onalar oyog'i ostidadir. 8. Avval onangga, yana onangga va yana onangga, so'ngra otangga yaxshilik qil. 9. Yolg'on ishlatib bir-birlaringizga tuhmat qilmanglar. 10. Qabr ustida o'tirgandan cho'g'da o'tirib, kiyim kiyib, badanga yetib borgani yaxshiroqdir. 11. Har xil yamoqlari bo'lsa-da, o'z kiyimingizni kiyaganingiz birovdan omonatga kiyim olib kiyganingizdan yaxshiroqdir. 12. Lagandagi taomni atrofidan yenglar, o'rtasidan yemanglar, chunki baraka o'rtasiga tushadi ("Hadis" kitobidan).

**Bilib oling!** Tildagi so'zlarning umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra ma'lum guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. So'z turkumlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

	Turlari	№	Nomi	Izoh
I	Mustaqil so'z turkumlari	1. 2. 3. 4. 5. 6.	Ot Sifat Son Olmosh Fe'l Ravish	Mustaqil lug'aviy ma'noga ega; gap bo'lgan (ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) vazifasida keladi; ma'lum so'roqqa javob bo'ladi.
II	Yordamchi so'z turkumlari	7. 8. 9.	Ko makchi Bog'lovchi Yuklama	Mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydi; gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi; so'roqqa javob bo'lmaydi.
III	Alovida olingen so'z turkumlari	10. 11. 12.	Taqlid so'zlar Modal so'zlar Undov so'zlar	Mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydi; Gap bo'lagi vazifasida kela oladi. Gapda biror so'roqqa javob bo'ladi.

**121-mashq.** Jadvalning bo'sh katakchalarini misol yozib to'ldiring. Yozilgan misollarning savollarini aniqlang.

**122-mashq.** Abu Ali ibn Sinoning tubandagi fors-tojikcha ruboysiining O'zbekiston Xalq shoirlari Erkin Vohidov va Jamol Kamol tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarini o'zaro solishtiring. Ulardagi poetik leksikaga xos farqlarni tahlil qiling hamda tarjimalardagi o'zbekcha – tojikcha so'zlarni aniqlang.

Күфри чу мане газофу осон набувад,  
Маҳкамтар аз имони ман имони набувад,  
Дар даҳр чу ман якеву он ҳам кофири  
Пас дар ҳама даҳо як мусулмон набувад.

Синтез

Erkin Vohidov tarijimasi:

Mening kufrim ayblarga dilimdan o'zga sulton yo'q.  
Bu olamda mening pokiza imonimdek imon yo'q.  
Zamon ahli aro tanho musulmon men edim, e voh,  
Agar kofir esam men ham, bu dunyoda musulmon yo'q.

#### **Jamol Kamol tarjimasi:**

Kufrimni ayon aylamak oson bo'lmas,  
Olamda imonim kabi imon bo'lmas.  
Dahr ichra yagonamen, manam kofir esam,  
Bas, ushbu jahonda bir musulmon bo'lmas.

**123-mashq.** So'z turkumlarining har bir so'roqlariga javob bo'ladigan misol yozing va ularning o'zaro farqlarini aytинг.

### **Atamalar lug'ati**

1. So'z tukumlari – ҳиссаҳои нутқ
2. Mustaqil so'z turkumlari – ҳиссаҳои мустақилмаъно
3. Yordamchi so'z turkumlari – ҳиссаҳои номустақили нутқ
4. Alohidida olingan so'z turkumlari – ҳиссаҳои нутқи алоҳида гирифташуда
5. Ot – исм
6. Sifat – сифат
7. Son – шумора
8. Olmosh – чонишин
9. Fe'l – феъл
10. Ravish – зарф
11. Ko'makchi – пешванд ва пасванд
12. Bog'lovchi – пайванҷак
13. Yuklama – ҳиссача
14. Taqlid so'zlar – қалимаҳои тақлиди
15. Modal so'zlar – қалимаҳои модалий
16. Undov so'zlar – қалимаҳои амри

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Tilshunoslikning grammatika bo'limi necha qismga bo'linadi?
2. So'z turkumlarini o'rGANUVCHI bo'lim nomini aytинг.
3. Morfologiya so'zi qanday ma'no anglatadi?
4. So'z turkumlari deb nimaga aytildi?
5. Nima sababdan so'zlar mustaqil, yordamchi kabi guruhlarga bo'linadi?
6. Mustaqil so'zlar deganda nimani tushunasiz?
7. Mustaqil so'z turkumlarini sanab bering.
8. Yordamchi so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Yordamchi so'z turkumlari qaysilar?
10. Alohidida olingan so'zlar guruhi qanday xususiyatlari bilan mustaqil va yordamchi so'zlardan farq qiladi? Ular qaysilar?

### **Test**

- 1. Grammatika bo'limining qismlari to'g'ri berilgan qatorni toping.**
- |                              |                             |
|------------------------------|-----------------------------|
| A) morfemika, morfologiya    | C) sintaksis, leksikologiya |
| B) morfologiya, frazeologiya | D) morfologiya, sintaksis   |

**2. So‘z turkumlarini o‘rganuvchi bo‘lim nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) leksikologiya      C) morfologiya  
B) sintaksis            D) morfemika

**3. Mustaqil so‘zlarga xos xususiyatlар to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.**

- A) mustaqil leksik ma’no ifodalaydi, gapda biror bo‘lak vazifasida kela olmaydi.  
B) leksik ma’no ifodalarnaydi, gapda so‘zлarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi.  
C) nisbiy mustaqil ma’no ifodalab, gapda biror bo‘lak vazifasini bajaradi.  
D) mustaqil ma’no ifodalaydi, ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, gap bo‘lagi vazifasida kela oladi.

**4. Mustaqil so‘zlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) ona, gul, xuddi, yomg‘ir, o‘qimoq, ichmoq, lekin, va  
B) osmon, falak, koinot, kulmoq, jilmaymoq, qizil, ikkinchi  
C) hamda, ammo, yig‘ladi, er, tak-tuk, yalt-yult, soch  
D) tom, uy, beka, biroq, voy, kimsa, faqat

**5. Yordamchi so‘zlarning xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.**

- A) mustaqil ma’no ifodalaydi, yakka holda gap bo‘lagi vazifasida keladi, so‘roqqa javob bo‘lmaydi  
B) mustaqil ma’no ifodalamaydi, so‘roqqa javob bo‘lmaydi, yakka holda gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi.  
C) mustaqil ma’no ifodalamaydi, so‘roqqa javob bo‘ladi, gapda yakka holda biror bo‘lak vazifasini bajaradi.  
D) mustaqil ma’no ifodalaydi, yakka holda gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi, so‘roqqa javob bo‘ladi.

**6. Mustaqil so‘z turkumlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) ot, sifat, fe’l, bog‘lovchi, olmosh, ravish  
B) ot, sifat, fe’l, olmosh, ko‘makchi, ravish  
C) ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish  
D) ot, yuklama, ko‘makchi, ravish, fe’l, olmosh

**7. Yordamchi so‘z turkumlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) ko‘makchi, sifat, bog‘lovchi      C) yuklama, ravish, fe’l  
B) bog‘lovchi, fe’l, yuklama          D) ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama

**8. Mustaqil ma’no anglatmaydigan so‘zlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) ona, keldi, bog‘lamoq, bilan, uchun, biroq  
B) kabi, yanglig‘, bilan, va, ammo, axir  
C) faqat, hatto, goh-goh, kurash, dam-dam, sayin  
D) hatto, tezroq, yangicha, hattoki, kino, qadar

## Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. “Bizning mahallamiz” mavzusida matn tuzing. Mustaqil so‘zlarni tartib bilan yozib, qaysi so‘roqqa javob bo‘lganini ayting.
2. Tuzgan matningizni yangi mashg‘ulot boshlanishidan oldin o‘qib bering.
3. Shoir Cho‘lponning “Xalq” she’rini o‘qing va yod oling.

### Xalq

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,  
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir ...  
Xalq qo‘zg‘alsaga kuch yo‘qdir kim, to‘xtatsin,  
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin.  
Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi ...

Xalq istagi: ozod bo‘lsin bu o‘lka,  
Ketsin uning boshidagi ko‘lanka.  
Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,  
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar,  
Yo‘qliknida, ochliknida yo‘q etar,  
O‘z yurtini har narsaga to‘q etar ...

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,  
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

## 16-MAVZU. OT SO‘Z TURKUMI (Исм)

**124-mashq.** Matnni o‘qing. So‘roq orqali shaxs nomi bildiruvchi ot so‘z turkumini aniqlang. Imom Ismoil Buxoriyning “Al-Jomi’ as-sahih” asaridan yod olgan hadislaringizni aytинг.

Imom Ismoil Buxoriyning 4 jilddan iborat “Al-Jomi’ as-sahih” nomli hadislar to‘plami musulmonlar uchun Qur’oni Karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi. Bu asarning to‘liq nomi “Al-Jomi’ as-sahih al-musnad min hadysi Rasululloh sallallohu alayhi va salam va sunanihi va ayyomig‘i” yoki tarixchi Badruddin al-Ayniyning yozishicha, “Al-Jomi’ al-musnad as-sahih al-muxtasar min umuri Rasululloh sallallohu alayhi va salam va sunanihi va ayyimihi” bo‘lsa-da, qisqacha “Al-Jomi’ as-sahih” yoxud “Sahiyh al-Buxoriy” nomi bilan mashhurdir. Ushbu asarning ta’lif etilishi sabablari xususida ulamolar turli dalillarni keltirishadi. Masalan, Ibrohim ibn Ma’hil an-Nasafiyning aytishlaricha, Imom Ismoil Buxoriy bunday degan ekanlar: “Bir kuni biz Is’hoq ibn Roqvayhning huzurlarida bo‘lgandik. Shunda ul kishi: “Birortangiz Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning hadislarini muxtasar sahib to‘plam qilsangiz edi! – dedilar. Bu gap mening qalbimga chuqur o‘rnashib qolib, o‘sha kunda “Al-Jomi’ as-sahih” nomli kitobimni yozishga kirishdim”. Tarixchi An-Navaviy keltirgan dalilga ko‘ra esa Imom al-Buxoriy bunday degan ekanlar: “Tushimda Payg‘ambar alayhissalomni ko‘rdim. Shunda men ul zotning qarshilarida turib, yelpig‘ich bilan muborak yuzlaridan nimanidir haydayapman. Men bu tushim ma’nosini ta’birchilardan so‘rasam, ular: “Siz Payg‘ambar alayhissalom hovlilarini yolg‘ondan tozalaysiz”, – deyishdi. Mana shu gap mening zimmamga “Al-Jomi’ as-sahih” ni yozmoqni yukladi”.

Imom Ismoil Buxoriy g‘oyatda taqvodor va pokiza inson bo‘lib, Muhammad alayhissalomning sahib hadislarini to‘plashga katta mas’uliyat va halollik bilan yondashganlar. Shu boisdan ham allomaning o‘zlari: “Kitobimga, tahorat qilib ikki rak‘at namoz o‘qimay turib, bironqa ham hadis kiritmaganman”, – deb ta’kidlaydilar (Uvatov Ubaydullaning “Buyuk muhaddislar” kitobidan).

**Bilib oling!** Predmetlik ma’nosini ifodalaydigan so‘zlar turkumi ot deyiladi. Ot kim? ( ota, aka, Gulnoza, singil ) nima? (suv, gul, tosh ) qayer? ( maktab, dala, ko‘cha) so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Predmetlik ma'nosи tirik mavjudotlar ( kishi, qush, chumoli, asalari kabi), yer va osmonga oid narsalar (yer, quyosh, tog', daryo, tuproq kabi), o'simliklar (paxta, gul, arpa kabi), voqeа-hodisa, xususiyat va munosabat (to'y, yig'in, kurash, shodlik, muhabbat, samimiyyat kabi ), o'tin va vaqt (yoz, bahor, joy, pastlik ) kabilarning nomini ifoda qiluvchi so'zlarni o'zida birlashtiradi.

Ot egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi, birlik va ko'plikda ishlataladi: kitob – kitobim – kitoblar – kitoblarni.

Ba'zi otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda so'z o'zagida o'zgarish ro'y beradi: o'rtoq – o'rtog'ing, og'iz – og'zi, o'tin – o'rnim, singil – singlim...

Otlar gapda ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, shuningdek, undalma bo'lib keladi.

**Ega:** Opam parrandachilik fermasida ishlaydi.

**Kesim:** O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat.

**Aniqlovchi:** Mehnatning tagi rohat.

**To'ldiruvchi:** Bugungi ishni ertaga qo'yma!

**Hol:** Bahorda tog'lar yam-yashil o't va alvon lolalarga burkanadi.

**Undalma:** Yoshlar, vatanimiz kelajagi sizning qo'lingizda!

125-mashq. Abdulla Oripovning "O'zbegin tojik bilan" she'rini o'qing. G'oyasini sharhlang. O'zbek va tojik xalqlari do'stligi tarixidan bilganlaringizni so'zlab bering. Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

### O'zbegin tojik bilan

Do'st-u qardoshdir azaldan

O'zbegin tojik bilan,

Ikkisi bir bayt g'azaldan

O'zbegin tojik bilan.

Qay yo'sin aylay qiyos men

Bul shirin do'stlik so'zin,

Totlidir boldan, asaldan,

O'zbegin tojik bilan.

Baxtga yor doim Navoiy toki

Jomiy bor ekan.

Biz ular qo'ygan tamaldan,

O'zbegin tojik bilan.

Fahm etib boqsang agarda,

Biz qo'sha sayyoramiz,

Bu Ali so'zlar Zuhaldan,

O'zbegin tojik bilan.

Bir egatning boshi sen-u  
 Bir egatning boshi men,  
 Yer ekib tinmas qamaldan,  
 O'zbegin tojik bilan.  
 Bul qadrdon ikki do'stga  
 Xohishimdir, to abad  
 Topsa bir ma'no masaldan,  
 O'zbegin tojik bilan.

**126-mashq.** Ot so'z turkumiga taalluqli so'zlarni toping. Egalik qo'shimchasi qo'shilgach, o'zagida o'zgarish ro'y bergan otlarni izohlang.

1. O'mimdan turib eshikni ochsam, o'g'lim o'rtog'i bilan qulog'i-burni qizargan holda kulib turardi. 2. Qishlog'imiz yildan yilga go'zallahib boryapti. 3. Qizning o'shandagi nidosi hali ham Tohirning qulog'iga eshitilib turganday bo'ladi. 4. U karvonlarga qo'shilib yurib, iloji bo'lgan joydan Robiyani qidirdi, "singlim edi", deb so'roqladi, ammoy hech qayerdan daragini topolmadi. 5. Olacha to'ni ham, oyog'idagi chang bosgan chorig'i ham yirtilib ketgan novcha biryigit ko'zlarini yaltirab, kulimsirab, unga qarab yurdi. 6. Tohirning yoshligi va baquvvatligi ustun kelib, asta-sekin tuzalib ketgan edi. 7. Istagim shul, o'chmasin yongan chirog'ing. 8. Yulduzday nur sochsin chashming, qarog'ing. 9. Magar chinor bo'lsang, chinordek yasha, bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing. 10. Tohir bundan uch yil oldin Quvasoy ko'prigini buzib, yov qo'shiniga katta talafot kelitrgan... 11. Tohirming sherigi xurjunidan o'ram qilingan arqon oldi. 12. Cho'qmor zarbidan jarohatlangan bilagi qattiq og'riyotganini mavlono Fazliddin qorong'i bir hibxonada yolg'iz o'zi qolganda sezdi (Pirimqul Qodirov ijodidan).

**127-mashq.** Rasmga qarab sarlavha tanlang. Nima? nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan otlarni aniqlang.



**128-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi turkumga oidligini aniqlang va gapda qanday bo'lak vazifasida kelganini ayting.

1. Bashorat shosha-pisha sandal chetiga o'tirdi (U.Q.). 2. Oyim fabrikada tukuvchi. 3. Yomg'irli tun saroyni chulg'ab olgan (P.Q.). 4. Kunning ikinchi yarmida Navoiy kutubxonasiga borishdi (M.). 5. Mo'rildan chiqqan tutunlar erinibgina osmonga o'rlaydi (N.F.). 6. Dugonam kitob do'konidan qiziqarli kitoblar sotib oldi. 7. Oyog'imni qo'lga olib bostirmaga yugurdim (U.X.). 8. U otining bo'shashib, majolsizlanib borayotganligini allaqachon sezaboshlagandi (Ch.A.). 9. Ko'cha tomondan bolalarning quvnoq qiyqirqlari keldi (T.M.). 10. Balki aqlingni ham yashirmoqdasan. 11. Go'zal ko'zlarining yashirgan misol... (R.B.)

**129-mashq.** Shunday gap yozingki, ot so'z turkumi ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol vazifasida kelgan bo'lsin.

**130-mashq.** Ot so'z turkumi haqida tojikcha ma'lumotni o'qing va mazmunini o'zbek tilida ayting.

Ҳиссаи мустақили нутқе, ки ифода мекунад: а) маъноҳои предметӣ ва предметонидашударо: китоб, корд, даст, дустӣ, сурхӣ (аломати семантика); б) якчо бо маъноҳои предметӣ категорияҳои грамматикиро: шумора, ҷондору бечон, коинкрути асбракт, ҳосу чинс, муайяну номуайянӣ (аломати морфологӣ). Исм дар чумла мубтадо, ҳабар, пуркунанда, муайянкунанда, ҳол (аломати синтаксисӣ) шуда меояд.

**131-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

1. Ma'nosida narsa nomi, 3. Qismlari birdan ortiq,  
Ham kim? nima? so'rog'i. Bir ma'noni bildirar.

2. Atash bor ma'nosida, 4. Atoqli, turdosh holda  
Bosh harf bor imlosida? Nutqimizda qo'llanar?

5. Mehnatsevarlik  
Bu – farovonlik.  
Odamsevarlik.  
Qanday so'z bo'lar?  
O'ylab topaylik.

#### Atamalar lug'ati

1. Ot – исм  
2. So'roq – савол  
3. Kim? – қио՞?

5. Nima? – чи՞?  
6. Nimalar? – чиҳо?

7. Egalik va kelishik qo'shimchalari – бандакҷонишиҳои шахси-соҳиби  
8. Ot so'z turkumining sintaktik vazifasi – вазифаи синтаксисии исм

- |                                |                               |
|--------------------------------|-------------------------------|
| 9. Ega – мубтадо               | 12. To‘ldiruvchi – пуркунанда |
| 10. Kesiн – хабар              | 13. Hol – ҳол                 |
| 11. Aniqlovchi – муайянкунаида | 14. Undalma – ҳиссача         |

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Tilshunoslikning grammatika bo‘limi necha qismidan iborat?
2. Morfologiya so‘zining ma’nosini aytинг. U nimani o‘rganadi?
3. So‘z turkumlari deb nimaga aytildi?
4. So‘z turkumlari nechta?
5. So‘z turkumlari necha guruhni tashkil etadi?
6. Qanday so‘zlar ot turkumiga kiradi?
7. Otlar qaysi gap bo‘laklari vazifasida keladi?
8. Otarga egalik qo‘srimchasi qo’shilganda o‘zakda qanday o‘zgarish ro‘y beradi?

### **Test**

- 1. Ot so‘z turkumining ta’rifi to‘g‘ri berilgan qatorni toping.**
  - A) narsa va hodisalarining nomini bildirib, kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladigan mustaqil so‘z turkumiga ot deyiladi.
  - B) predmetlik ma’nosini ifodalab kim? nima? qaer? so‘roqlariga javob bo‘ladigan yordamchi so‘z turkumi ot deyiladi.
  - C) predmetning belgisini ifodalab, kim? nima? so‘roqlariga javob bo‘ladigan mustaqil so‘z turkumi ot deyiladi.
  - D) predmetning sonini bildirib, qancha? necha? so‘roqlariga javob bo‘ladigan mustaqil so‘z turkumiga ot deyiladi.
- 2. Ot turkumiga oid so‘zlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.**
  - A) yaxshilik, havo, suv, ancha, qo‘lla, birinchi.
  - B) bormoq, olomon, falak, yaxshi, gulzor, sersuv.
  - C) kitob, armon, quvnoq, o‘quv, bog‘bon, nonushta.
  - D) farishta, yog‘du, yo‘lbars, daftар, olim, o‘quvchi.
- 3. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.**
  - A) tuya, xo‘roz, choynak, aka, amaki, guldon.
  - B) odam, kola, uka, telefon, kompyuter, surat.
  - C) opa, aka, Gulnora, rektor, singil, qizaloq.
  - D) yulduz, sayyora, yer, tog‘a, Salim, Nodira.
- 4. Nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.**
  - A) daryo, gul, tosh, telefon, yulduz, opam, buvim.
  - B) suv, qozon, bog‘, piyoz, ovqat, yulduz, surat.
  - C) tog‘, dengiz, ko‘l, qayiq, baliq, singil.
  - D) anhor, kitob, Karim, o‘rdak, g‘oz, ko‘ylak.

**5. Egalik qo'shimchasi qo'llangan gapni toping.**

- A) qo'ng'iroq chalindi va xonaga o'qituvchi kirib keldi.
- B) Nurxon, darsni tayyorladingmi?
- C) Yangi yilingiz muborak bo'lisin!
- D) Shu payt telefon jiringladi.

**6. Egalik qo'shimchalari qo'shilganda o'zagida o'zgarish yuz bergen so'zlar mavjud bo'lgan qatorni toping.**

- A) Alimardon qayrilib qaraguncha, boshqa odamlar o'zini o'rabi oldi.
- B) U quchog'iga to'lib, ko'z o'ngini to'sib qolgan gullarni qayerga qo'yishini bilmas, shu topda oyog'ining tagigacha gulga to'lib ketgan edi.
- C) Parda yopilgandan keyin gullarni konferansye qizga topshirdi-da, tor yo'lakdan o'tib hovliga chiqdi.
- D) Zaldagi katta qandil uchdi. Chekka-chekkadagi eshiklar ustida yonib turgan qizil chiroqlargina qoldi.

**7. Gapda ega vazifasida kelgan otni toping.**

- A) Alimardon torini ko'ksiga bosib, tomoshabinlarga zimdan qarab qo'ydi.
- B) U ana shunday o'ylar bilan yo'lga otlandi.
- C) Qora Lochininning bo'yning osilib, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladim.
- D) Chuqur yaqiniga sandiqday-sandiqday ikkita xarsangtoshni yumalatib keltirib o'rnattdi.

**8. Qaysi gapda ot turkumiga oid so'z kesim bo'lib kelgan?**

- A) U savdogarga buyurib ziyofat bo'ladigan joydan nariroqqa kattagina chuqur qazdirdi.
- B) Dugonamning singlisi shahardan o'n chaqirim naridagi fabrikada tikuvchi.
- C) Nevarasi kelganda malika Bayda daryo bo'yidagi marmar qo'shiqning nimqorong'i ichki xonasida xastalar day shiftga tikilib yotardi.
- D) Qora Lochin yarmi tuproqqa to'lgan okopga o'mganini berib tizzaladi.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “Do'st bilan obod uying” mavzusida insho yozing.
2. Insho matnidagi ot so'z turkumiga mansub so'zlarni tojik tilidagi muqobili bilan lug'at tarzida yozing.

3. Ruboiyisaro Umar Xayyomning fors-tojikcha ruboiylarini hamda o'zbekcha tarjimasini yod oling. O'zbekcha tarjimasidan ot so'z turkumini aniqlab, keyingi tojik tilidagi ruboyni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Асрори азалро на ту дониву на ман

В-ин ҳарфи муаммо на ту хониву на ман.

Ҳаст аз паси парда гуфтутгӯи ман ту,

Чун парда барафтад, на ту мониву на ман.

### **Jamol Kamol tarjimasi**

Asrori azalni san-u man bilmasmiz,  
Bu harfi chigalni san-u man bilmasmiz.  
Har nechaki so'zladik, dedik parda osha,  
Chu pardaki tushdi, san-u man bilmasmiz ...

\*\*

Гар бода хүри, ту бо хирадмандон хүр,  
Ё бе санами лоларухи хандон хүр.  
Бисёр махүр, вирд макун, фош масоз,  
Андак хүр гаҳ-гаҳ хүру пинҳон хүр.

### **Jamol Kamol tarjimasi**

May ichsang, uni oqil-u dono bila ich,  
Yo nozli sanam, bir guli ra'no bila ich.  
Oz-oz ich-u, gah-gah ich-u, pinhona simir  
Ko'p ichma, ruju aylama, ma'no bila ich ...

\*\*\*

Мақсуд зи ҷумла оғариниш моем,  
Дар ҷашми хирад ҷавҳари биниш моем.  
Ин доираи ҷаҳон чу ангуштарест,  
Бе ҳеч шаке нақшу нигинаш моем.

## **17-MAVZU. ATOQLI, TURDOSH, ANIQ VA MAVHUM OTLAR** (Исмҳон хос, чинс, мушаххас ва номушаххас)

**132-mashq.** Matnni o‘qing. Shaxs va shaharlar nomini bildiruvchi atoqli otlarni ikki ustunga ajratib yozing. Gap kim va nima haqda ekanini aytинг. O‘zingiz mutasavvuf Ahmad Yassaviy haqida yana nimalarni bilasiz?

Hijriy beshinchi asrda Eronning Hamadon shahrida tug‘ilgan Yusuf Hamadoniy degan bir odam diniy ilmlarni o‘rganib, katta shuhurat egasi bo‘lgach, tasavvufga ham berilgan edi. Mana shul mulla-mutasavvuf Marv, Buxoro, Samarkent (Samarqand) shaharlariда xonaqohlar qurub shayxlik qila boshlaydi. Bizning Ahmad Yassaviyimiz ham mana shul Yusuf Hamadoniyning muridi, uchunchi xalifasidir.

Ahmad Yassaviy, bir rivoyatga ko‘ra Yassi (bugungi Turkiston) shahrida, bir rivoyatga ko‘ra Sayramda tug‘ilgan. Uning qachon tug‘ilishi ma’lum emas. Biroq vafotining hijriy 562 da bo‘lganini hamda “Devoni hikmat” idagi shu:


**To‘rt yuz yildan keyin chiqib ummat bo‘lgay,**

**Necha yillar yurub xalqqa xizmat qilg‘ay.**

baytini nazarda tutib, har holda uning hijriy to‘rtinchи asrning ikkinchi yarmida tug‘ilganiga hukm qilish mumkin.

Yassaviyning otasi Shayx Ibrohim ismli eshon bo‘lub, u yoshligida o‘lgan. Yatim qolgan Yassaviy u zamonning mashhur shayxlaridan Arslonbobodan (boshang‘ich tarbiya) olgan. Arslonbob o‘lgandan keyin bizning Yassaviy pir izlab Buxoroga kelgan, yuqorida yozganimiz Yusuf Hamadoniya uchrab, shunga murid bo‘lgan. Yusuf Hamadoniy o‘lgandan so‘ng uchinchi xalfasi bo‘lib shayxlik qilgan. Bir ozdan so‘ng Buxoro shayxligini Yusuf Hamadoniyning to‘rtinchи xalfasi bo‘lgan Abduxoliq G‘ijduvoniya topshirib, o‘zi Yassiga qaytgan. Onda dala xalqidan ko‘b murid yig‘ib, xonaqoh ochib shayxlik qilgan. Yassaviyning fors adabiyoti vazn va uslubida emas, turk milliy vaznida, xalq adabiyoti uslubida yozgani mana shul Yassiga qaytib dala xalqidan muridlar to‘planganidan keyin boshlangan bo‘lsa kerak. Yassaviy oltmis uch yoshiga kirgach, xonaqohda yer osti (dan) bir chillaxona qozdirib, shunga kirgan va dunyodan aloqasini kesgan kabi ko‘runub shayxlikni davom ettirgan ham shunda o‘lgan. Vafoti hijriy 562 nchi yillardir (Abdurauf Fitratning “Tanlangan asarlari” kitobidan, II jild).

**133-mashq.** Rasm asosida “**Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni!**” mavzusida milliy armiyamiz haqida so‘zlang va fikringizni bildiring.



*Bilib oling!* Otlar ma'no jihatdan ikki turga bo'linadi:

1. Atoqli otlar    2. Turdosh otlar

**Atoqli otlar** – shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan nomlardir. Atoqli otlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Kishilarning ismi, familiyasi, tahallusi: Alisher, Rustam, Foniy
2. Geografik nomlar: Buxoro, Pomir, Amudaryo
3. Turli tashkilot, korxona nomlari: "Kamolot" jamg'armasi", "Mashhura" korxonasi
4. Planeta va yulduzlarning nomlari: Mars, Zuhra, Yupiter
5. Gazeta va jurnal, tarixiy hodisa va asar nomlari: "Ma'rifat", "Adabiyot va san'at", "Xalq so'zi", "Ma'rifat nuri", "Ovozi tojik", "Buxoroyi sharif" gazetasi, "O'zbek tili va adabiyoti", "Boshlang'ich ta'lif", "Tafakkur" jurnali, "O'tkan kunlar" romani
6. Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar: Olapar, Qashqa, Boychibor  
Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi.

Atoqli otlarning katta qismi turdosh otlardan va boshqa turkumga mansub so‘zlardan hosil bo‘lgan: a) turdosh otlardan – Asal, Arslon, Rayhon, Ra’no, Anor, Lola; b) sifatlardan – Shirin, Buyuk, Aziza, Ulug‘, Go‘zal; v) sonlardan – Yetmishboy, Sakson, Oltiboy, To‘qson; g) olmoshdan – Kimsanboy; d) fe’llardan – Xudoyberdi, Tursun, Sotiboldi, O‘lmas.

Aksincha, rentgen, amper kabi turdosh otlar atoqli ot (ularni kashf etgan shaxslar nomi) asosida paydo bo‘lgan. **Turdosh otlar** – bir turdag'i predmetning umumiyl nomini bildirgan otlardir: bola, shahar, mamlakat. Turdosh otlar ikki xil bo‘ladi: aniq va mavhum otlar.

Bevosita predmetni anglatadigan otlar **aniq otlar** deyiladi. Ular anglatgan predmetlarni sanash va ko‘rish mumkin. Shuning uchun ular sof ko‘plik ma’nosiga ega bo‘ladi: kitob–kitoblar, daraxt – daraxtlar, beshta daftар, yuzlab odam.

Mavhum tushunchalarni ifoda qiluvchi otlar **mavhum otlar** deyiladi. Bular mavhum belgi, xususiyat, holat, kasb-kor kabilarning nomlarini bildiradi: sevgi, tuyg‘u, yaxshilik, pishiqlilik, mung, gina, did, ibo, rashk, istehzo, rohat. Ular odatda, sof ko‘plik ma’nosiga ega bo‘lmaydi. Ko‘plik qo‘sishimchasi ularga ma’noni kuchaytirish uchun qo‘shiladi: tuyg‘u – tuyg‘ular. Quvonchlarim dilda cheksiz.

**134-mashq.** Atoqli va turdosh otlarni topib tagiga chizing. Ularning qanday hosil bo‘lganini tushuntiring.

1. Biri “Boburnoma”, Qozon bosmasi, yana biri German Vamberining “Sayohatnama”si, Sodiq bu kitoblarning ta’rifini eshitgan-u ko‘rmagan edi, juda quvonib ketdi. 2. Qodir Mirsalimning hovlisini ko‘rmagan edi. 3. Aziza xursand bo‘lib, qo‘l silkib qoldi (Sh.) 4. Bu muvaffaqiyatdan Azamat o‘zida yo‘q xursand edi. 5. Saodat buvi qo‘lidagi qog‘ozni sekin yerga qo‘ydi (M.I.). 7. Shu gapdan keyin o‘n-o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas o‘zingning Anzirat xolang xosiyatxon atlasidan ko‘ylak kiyib keldi. 4. Sottixon boshini ko‘tarmay paxta teraverdi (S.A.). 8. Aravada Kimsan akamning qopi, qopning bog‘ichidan ushlab oyim o‘tiribdi (O‘.H.) 9. Xudoyberdi To‘xtaboyev Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumanida 1933-yili tug‘ildi (S.M.).

**135-mashq.** Matnni o‘qing. Aniq va mavhum otlarni topib, ma’nolaridagi farqni izohlang.

### **Yaxshilik**

Yaxshilik – dil ravshanligi va yurak pokizaligini namoyon etuvchi insoniy fazilat. Yaxshilik ishonch, mehr, oqibat kabi axloq-odob sifatlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, qorong‘ilikda ham yoritib turadi. Yaxshi fikrlar, yaxshi tuyg‘ular, yaxshi kayfiyat, yaxshi ishlar kishi ko‘nglini tog‘dek ko‘tarib, diligiga quvonch bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham, yaxshilik – hamisha odamlarga

ezgulik qilish, ularning og‘irini yengil qilish, el-yurt mustaqilligi va farovonligi uchun ishlash demakdir.

Yaxshilik chonakam insoniylik bo‘lib, xalqimizning insonparvarlik qarashlarini, quvonchlarini ijodalaydi. Yaxshi gap aytish, yaxshi so‘z eshitish, yomonlikdan ko‘z yumish, nafsdan qochish – bularning hammasi insoniylikka kiradi. Zero, insonning kechirgan hayoti uning qilgan har qanday yaxshiligi, xalqqa bo‘lgan nafi, mehr-muhabbati, rahm-shafqati bilan o‘lchanadi.

Ota-bobolarimiz o‘z turmushlarida doimo yaxshi niyat bilan, orzu-istiklarini dillarga jo qilib yashaganlar. Ular o‘zlarining yaxshi nomlari bilan butun jahonga dong taratganlar. Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur kabi xalqimizning buyuk allomalari o‘z hayotlarida doimo kishilarga yaxshilik qilish maqsadida yashaganlar. Shu bois Amir Temur: “Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stligi qadrini unutmadiim va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko‘rsatdim”, – deganlar o‘z o‘gitlarda (Ulfat Mahkamov ijodidan).

**136-mashq.** ‘Samimiylit’ she’rini ifodali o‘qing. Aniq va mavhum otlarni aniqlang.

Sen borsanki, hayot shirin, ishq barqaror, samimiylit,  
Sen borsanki, do‘stlik mangu, yor vafodor, samimiylit.  
Sen bor joyda ko‘ngil ravshan, dillar charog‘on hamisha,  
Sen bor joyda yo‘q kin, g‘araz, yo‘qdir ozor, samimiylit.  
Sen bor joyda turmush go‘zal, kulib boqar baxt, istiqbol,  
Sen bor joyda yaxshilik bor, ezgulik bor, samimiylit.  
Sen borsanki, sofdiril odam, el farovon, zamon xurram,  
Sen bor joyda bo‘lmas gumon, yo‘q hech g‘ubor, samimiylit.  
Sen borsanki, ko‘ngillarda doim bahor, samimiylit.  
Sen bilandir saodat ham, pok xislatlar, sadoqat ham,  
Mangu yasha sen jahonda, bo‘lgin bisyor, samimiylit...


**Murodjon Rahmonov**

**137-mashq.** Zullisonayn Alisher Navoiyning fors-tojikcha merosi haqidagi ma'lumotni o‘qing, savollarga javob topib, jadvalning bo‘sh katakchalarini “Klaster” interaktiv usul bilan to‘ldiring.

Zullisonayn Alisher Navoiy o‘zining turkiy va forsiy tillarda yaratgan qimmatbaho gavharlari bilan ikkala xalq adabiyoti klassiklari qatoridan ham munosib o‘ringa ega bo‘lishdek yuksak sharafga tuyassar bo‘ldi. Fors-tojik tilida yozgan asarlari: “Devoni Fony” (Fony devoni), “Sittayi zaruriya” (Olti zarurat), “Fusuli arbaa” (To‘rt fasl), “Mufradot” (yoki “Risolai muammo”), “Munshooti Forsiy” (Forsiy munshoot), “Risolayi tir andoz” (O‘q otish risolasi).

Uning forsiyda yaratilgan asarlarini o'rganishda Sadriddin Ayniy, Abulg'ani Mirzoyev, Hamid Sulaymon, Shoislom Shomuhamedov, Abduqodir Hayitmetov singari olimlarning xizmati katta bo'ldi. Ayniqsa, professor Hamid Sulaymonning juda ulkan mehnati va ilmiy qidiruvlari natijasida adibning "Devoni Fony", "Sittayi zaruriya" va "Fusuli arbaa" asarlari birinchi marta nashr etildi.

Alisher Navoiyning forsiy she'rlarini birinchi bo'lib jiddiy o'rganishga kirishgan olim ustod Sadriddin Ayniy edi. Hamid Sulaymonning aniqlashicha, birgina "Devoni Fony" 6197 bayt (12 394 misra) dan tashkil topgan. Uning "Sittayi zaruriya" va "Fusuli arbaa" kitoblaridagi qasidalar ham yuqoridagi devoniga qo'shib hisoblansa, forsiy she'rlari 14304 misrani tashkil etadi. Hozircha fanda "Devoni Fony" ning Parijdagi 285, 1345, Tehrondagi 15002, Turkiyadagi 3850, 1952 raqamli qo'lyozmalar ma'lum. Navoiy "Devoni Fony" haqida "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ma'lumot bergen. 20 jildlik mukammal asarlar to'plamining 18 va 19-jildlari "Devoni Fony" dir. Bu devon 2002-yili "Fan" nashriyotida chop etilgan.



### Savollar

1. Shoirning she'riy devonlari?
2. Fors-tojikcha taxallusi?
3. Ustozi Abdurahmon Jomiyiga bag'ishlab yozgan asarining nomi?
4. "Xamsa" tarkibidagi asarlarning nomi?
5. Davlat arbobi sifatida faoliyat ko'rsatgan yillari?
6. Shoirning fors-tojik tilidagi nazmiy asarining nomi?
7. Til va tilshunoslikka oid yozgan asari?

**138-mashq.** Tojik tilidagi topishmoqlarni o'qing, javobini o'zbek tilida aytинг. Topishmoqlardan ikkitasini o'zbek tiliga tarjima qiling. Topishmoqlar javobi ot so'z turkumining qaysi turiga mansubligini aytинг.

- |   |   |
|---|---|
| 1. Медавад рӯ-руи фарш,<br>Мӯялаб дорад чун дурафш. | 2. Дастанаш доим ба пеш,<br>Бо думакаш занад неш. |
| 3. Чапаргӯши думборик,<br>Дуздияш шаби торик.       |   |

**139-mashq.** Jadvalning ikkinchi ustunida ko'rsatilgan yillar nomi ot so'z turkumining qaysi turiga mansubligini aytning va daftaringizga ko'chiring. Istiqlol yillarida O'zbekiston Respublikasida yangi yil kirishi oldidan unga nom qo'yish an'anaga aylangan. O'sha ramziy nomni qaysi kunni nishonlash munosabati bilan kim e'lon qiladi?

t/r	Yillar	Yillarning nomlanishi
1.	1993	Xalqaro Yassaviy yili
2.	1994	Ulug'bek yili
3.	1996	Amur Temur yili
4.	1997	Inson manfaatlari yili
5.	1998	Oila yili
6.	1999	Ayollar yili
7.	2000	Sog'lom avlod yili
8.	2001	Ona va bolalar yili
9.	2002	Qariyalarni qadrlash yili
10.	2003	Obod mahalla yili
11.	2004	Mehr—muruvvat yili
12.	2005	Sihat—salomatlik yili
13.	2006	Homiylar va shifokorlar yili
14.	2007	Ijtimoiy himoya yili
15.	2008	Yoshlar yili

#### Atamalar lug'ati

- |   |                                      |
|---|--------------------------------------|
| 1. Ma'no — маъно                          | 2. Atoqli ot — исми хос              |
| 3. Turdosh ot — исми чинс                 | 4. Aniq ot — исми мушаххас (конкрет) |
| 5. Mavhum ot — исми абстракт (номушаххас) |                                      |

#### Mavzuni mustaqamlash uchun savollar

1. Otlar ma'nosiga ko'ra necha turga bo'linadi?
2. Atoqli otlar deb nimaga aytildi?
3. Turdosh otlardan yoki boshqa turkumga kiruvchi so'zlar asosida vujudga kelgan atoqli otlarga misol keltiring.
4. Turdosh otlar deb nimaga aytildi?
5. Atoqli otdan turdosh otga o'tgan so'zlarga misol keltiring.
6. Ong yordamidagina idrok qilinadigan otlar qanday ataladi?
7. Mavhum otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda qanday vazifa bajaradi?

8. Qanday otlar faqat birlikda qo'llanadi?
9. Otlar gapda qanday sintaktik vazifalarda keladi?  
Misollar bilan tushuntiring.
10. Otlardagi ko'plik ma'nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?

### Test

- 1. Otlarning ma'noga ko'ra turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**
  - A) atoqli va turdosh
  - C) sanaladigan va sanalmaydigan
  - B) aniq va mavhum
  - D) kishi otlari va narsa otlari
- 2. Atoqli ot deb nimaga aytildi?**
  - A) Bir turdag'i predmetning umumiy nomini ifodalaydigan otlarga atoqli otlar deyiladi.
  - B) Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan otlarga atoqli otlar deyiladi.
  - C) Atoqli otlarga faqat kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi kiradi.
  - D) Sanaladigan otlarga atoqli otlar deyiladi.
- 3. Atoqli otdan turdosh otga o'tgan so'zlar ishtirok etgan gap berilgan qatorni aniqlang.**
  - A) Xosiyat opa xosiyatxon atlasidan ko'ylak kiyib keldi.
  - B) Sotiboldi bu yil o'n besh hektar yerga bug'doy ekdi.
  - C) Charos universitetning birinchi kursida o'qiydi.
  - D) Unsin To'qson otaning yakka-yolg'iz farzandi edi.
- 4. Sifatdan atoqli otga o'tgan so'z ishtirok etgan gapni toping.**
  - A) Aziza oliyohni tugatib, maktabda o'qituvchilik qilmoqchi.
  - B) Safar Barnoev – bolalarning sevimli yozuvchisi.
  - C) Lola – gullar ichida eng go'zali.
  - D) Ikkita qirq sakson bo'ladi.
- 5. Fe'ldan atoqli otga o'tgan so'z ishtirok etgan gapni toping.**
  - A) Guruh qizlari Go'zalni faqat a'lochiligi uchun emas, odobi, shirinso'zligi uchun ham hurmat qilishadi.
  - B) Bahorda Tursun ota sakson besh yoshga to'ladilar.
  - C) Shirin yomg'irpo'sh kiymaganidan afsuslandi.
  - D) Saylixon allaqanday sharpadan cho'chib uyg'ondi.
- 6. Sondan atoqli otga o'tgan so'z ishtirok etgan gapni toping.**
  - A) O'ktamjon, oh, bolaginam, – deya shivirladi va beixtiyor Yasha bilan Nastyani bag'riga bosdi.
  - B) Bu yil Yetmishboy g'alladan mo'l hosil oldi.
  - C) Nahotki, bular o'sha qizni, Ziyodani gapirishayotgan bo'lsa, degan savol ich-ichimni kemirardi.
  - D) Halima yalt etib menga qaradi.

**7. Olmoshdan atoqli otga o'tgan so'z berilgan qatorni toping.**

A) Halima yonginamda o'tirib olib, o'tlardan "ajina kavush" to'qir, uzun-uzun barmoqlarining shunchalik chaqqon harakat qilishiga hayron qolardim.

B) Muqaddam Shavkat uyg'onmasdan ishlarini bitirib olish uchun yelib - yugurar edi.

C) Oyim Kimsan akamni tanidilar.

D) Anvar yomg'irdan sirg'anchiq bo'lib ketgan yakkacho'p ustida anchagacha suvga tikilib turdi-da, avaylabgina yurib, narigi sohilga o'tib oldi.

**8. Aniq otlarning ta'rifi to'g'ri berilgan qatorni toping.**

A) Aniq otlar bosh harf bilan yoziladi.

B) Bir turdag'i predmetlarning umumiy nomini bildirgan otlar aniq otlar deyiladi.

C) Kitob, daftar, sevgi, xalq so'zlari aniq otlarga kiradi.

D) Bevosita predmetni anglatadigan otlar aniq otlar deb yuritiladi.

**9. Aniq otlar to'g'ri berilgan qatorni belgilang.**

A) bog', dala, mashina, muhabbat, maktab, qo'l

B) sevgi, vafo, yaxshilik, poklik, mehr, yomonlik

C) paxta, g'alla, chumoli, qor, barg, piyola, gultojixo'roz

D) choynak, piyola, internet, televizor, kitob

**10. Mavhum otlar deb nimaga aytildi?**

A) Bevosita predmet anglatadigan otlar mavhum otlar deyiladi.

B) Ma'naviy olam hodisalarini bildirgan otlar mavhum otlar deb yuritiladi.

C) Modda otlari mavhum otlar deb yuritiladi.

D) Mavhum otlar har doim bosh harf bilan yoziladi.

**11. Mavhum otlar ishtirok etgan gapni toping.**

A) Kim ko'ribdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'.

B) Rang-barang kiyungan otliqlar uning orqasidan yurib borar, tug' yoki yalovlar baland ko'tarilgan edi.

C) Osmanni qop-qora bulut qopladi.

D) Olmos bo'lib yarqirar tog'lar qoyasi, Yo'llaringga bosh urar bog'lar soyasi.

**12. Mavhum otlar ishtirok etmagan gapni toping.**

A) Ozodaning ko'ngli negadir g'ash edi.

B) Muhabbat – inson qalbidagi eng oliv tuyg'u.

C) Oftob chiqdi olamga, yugurib bordim xolamga.

D) Malikaxon mehmonlarga dasturxon yozdi.

**13. Quyidagi gapda nechta mavhum ot bor? Uyg'oqlik uzayib ketsa, uyqusizlik paydo bo'lib, nafslarda ham va bezovtalikni vujudga keltiradi.**

A) 2 ta    B) 3 ta    C) 4 ta    D) 5 ta

## Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. “Muomala odobi” mavzusida 60-70 so‘zli matn tuzing.
2. Tuzgan matningizdan atoqli, turdosh, aniq va mavhum otlarni topib, ma’nolaridagi farqni izohlang.
3. “Gulzorni bulbul bezaydi” sarlavhali matnni o‘qing, atoqli va aniq otlarni aniqlab, daftaringizga ko‘chirib yozing.

### Gulzorni bulbul bezaydi

Mahtumquli mushoirada qatnashishni juda yaxshi ko‘rar, qayerda mushoira boshlansa jon-jon deb ishtirot etarkan. Kunlardan bir kuni Samarcand chetidagi “Bog‘i bo‘ston” da beqiyos katta mushoira boshlanibdi. Shoirlar ko‘p she’r bilishlik, badihago‘ylik, hozirjavoblik, she’mi san’atkorona o‘qish va hokazolarda bir-biridan g‘olib chiqish uchun bor mahoratlarini ishga solishibdi. Mahtumqulining quvvayi hofizasi kuchli bo‘lib: Navoiy, Fuzuliy va boshqa qanchadan-qancha shoirlarni boshdan-oyoq yod bilishi, o‘zi ham bir nafasda qanchadan-qancha g‘azal to‘qib, ularni qoyilmaqom o‘qishi bilan kishilarni hayratga solardi. Saroyga sultonning o‘zlari ham tashrif buyurib, bir chetda mushoiraga qulq solibdilar, hammadan ko‘ra Mahtumqulining hozirjavobligi, topqirligi, turkiy va forsiy tillarda she’rni soz o‘qishiga maftun bo‘lib, Sulton unga tikilib qolibdi. Buni ko‘rgan vazir: “Bu sahroyi shoirning mushoirada bo‘lishi Sultonga ma’qul tushmadi”, – deb o‘ylab:

– Hoy, ahli fazillar, – debdi mushoirani bo‘lib, – shunchalik xilma-xil, chiroyli gullardan iborat gulzorga, – u Mahtumqulini ko‘rsatibdi, buning aralashgani yaxshi bo‘lmabdi.

– Unday demang, gulzorni bulbul bezab turibdi-ku, – Sulton shunday debdi-da, Mahtumquliga qarab:

– Barokallo, zehning-u xotirangga, sendan ulkan shoir chiqqusidir, g‘olibga boshdan-oyoq sarpo berilsin, – deb buyuribdi. Tolib-u ilmlar, shoirning do‘sllari Mahtumqulini olqishlashibdi (“Allomalar ibrati” nomli kitobdan).

## 18-MAVZU. OT SO'Z TURKUMINING KELISHIK KATEGORIYASI

(Категорияҳои падежи исм )

**140-mashq** Matnni o‘qing, gap nima va kim haqida ekanligini aytin. Kelishik qo‘shimchalarini aniqlang.

### Ilon qayt qilgan sut

Abu Ali ibn Sino har kuni ertalab uyidan chiqayotganida, uning eshigi oldida bemorlar ikki tomonga tizilishib, qator o‘tirishar ekan. Uydan chiqib ketayotgan vaqtida u bir tomonda o‘tirgan kasallarga qarab, ulardan hol-ahvol so‘rar va: “Siz falon narsa bilan kasalsiz, buning davosi falon narsa”, – deb o‘tib ketar ekan. Uyga qaytayotganda esa ikkinchi tomondagilarga qarab, ularning kasallariga davo bo‘ladigan narsani aytib o‘tar ekan.

Bir kuni u bir bemorga juda diqqat bilan qarab turibdi-da, unga lom-mim ham demasdan, boshqalardan hol so‘ragani o‘tib ketibdi. Bu holdan bemor juda xafa bo‘lib, hatto haytdan ham umidini uzibdi. Uyga qaytib kelib: “Men shu kasalimdan o‘lar ekanman. Agar o‘lmaydigan bo‘lganimda edi, Ibn Sino sal e’tibor berib qarardi, u bo‘lsa, so‘rashga ham loyiq ko‘rmadi. Endi go‘r-u kafanimning hozirligini ko‘ravingrlar”, – debdi.

Shu tariqa, bemor o‘zining o‘limini kutib yotibdi. Bir vaqt uyning burchagidagi teshikdan bir zaharli ilon chiqib, o‘rmalab kelaveribdi. Ilon uyning o‘rtasida turgan bir kosa sutga yaqinlashib, sutni o‘z domiga tortibdi, bir ozdan keyin ichgan sutni qaytadan kosaga qayt qilib tashlabdi. Buni kuzatib turgan bemor ilon iniga qaytib ketgandan keyin, o‘zicha o‘ylab, bari bir o‘lar ekanman, tuzalishimdan-ku hech darak yo‘q, kel, shu zaharli sutni ichay-da, o‘lsam-o‘lib qo‘ya qolay, degan qarorga kelibdi. So‘ngra u sutni simirib ichibdi. Lekin bemor o‘lmay, aksincha, tobora tuzala boribdi. Kundan kunga tuzalib borayotganini sezgan bemor o‘zining o‘lmanagini, balki sog‘lig‘i borgan sari yaxshilanayotganini aytib, e’tiroz bildirish niyatida Abu Ali ibn Sino oldiga boribdi. Ibn Sino uning ahvolini ko‘rib, juda hayron qolibdi va bemorga:

– Sen ilon qayt qilgan yegulikni qachon va qanday qilib topding? Kasalingning davosi zaharli ilonning qayti edi. Uni topishning iloji bo‘lmanidan u kuni men sening kasalingni ham so‘rab o‘tirmagan edim, – debdi. Shunda kasal Abu Ali ibn Sinoga qoyil qolib, bo‘lgan voqeani batatsil gapirib bergen ekan (“Abu Ali ibn Sino. Afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar” nomli kitobdan).

**Bilib oling!** Ot yoki otlashgan so‘zning boshqa so‘zlarga bo‘lgan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va bu ma’nolarni ifodalovchi formalar sistemasi **kelishik kategoriyasi** deyiladi. Otlarning kelishik qo‘sishchalar bilan qo‘llanishi turlanish deyiladi. O‘zbek tilida oltita kelishik mayjud.

Bosh kelishikdagi so‘z **kim?** **nima?** **qayer?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Bosh kelishik shakli maxsus morfologik ko‘rsatkichga ega emas. Gapda, asosan, quyidagi vazifalarda keladi:

**Ega :** Nodira universitetning birinchi kursida tahsil oladi.

**Kesim:** Onam oliygohda o‘qituvchi.

**Hol:** Shu kuni qizlar kechgacha gurunglashib, gaplashib o‘tirishdi (M.).

**Undalma:** Abdulla, badiiy o‘qish to‘garagiga qatnashasanmi?

Qaratqich kelishigi **-ning** qo‘sishchasi orqali shakllanadi. Biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan narsa yoki shaxsga qarashligini, xosligini ifodalaydi. Qaratqich kelishigidagi ot **kimning?** **nimaning?** **qayerning?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Qaratqich kelishigidagi ot doim ot bilan bog‘lanadi: maktabning hovlisi, kitobning varagi, Umidaning daftari.

Qaratqich kelishigi ikki ko‘rinishda – belgili va belgisiz qo‘llanadi: 1. Yangi yilni oyimning oldida kutib olgim kelardi (O‘.H). 2. Olma shoxida sa‘valar uchib-qo‘nib turardi (O‘.H.).

Ba’zan poeziyada qaratqich kelishigi qo‘sishchasi **-n**, mumtoz adabiyotda **im**, jonli til va shevalarda esa **-ni** shaklida ham qo‘llanadi: Gapni qisqasi, ishning puxtasi yaxshi. Menim orzuym.

Qaratqich kelishigidagi so‘z gapda qaratqich aniqlovchi vazifasida keladi: Yaxshining so‘zi qaymoq, yomonning so‘zi to‘qmoq.

Tushum kelishigidagi ot gapdagisi ish-harakatni o‘ziga qabul qilgan predmetni anglatadi, **-ni** qo‘sishchasi orqali shakllanadi, kimni? nimani? qayerni? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Tushum kelishigidagi ot doim fe’l bilan bog‘lanadi: vatanni sevish, kitobni o‘qish.

Poeziyada ba’zan **-n**, mumtoz adabiyotda **-i**, jonli til va shevalarda **-di**, **-ti** shakllarida ham qo‘llanadi:

1.Tog‘ o‘tirar vodiyya tanho,

Oq sochlari qoplagan ko‘ksin (A.O.).

2. Adl qulog‘i-la eshit holimi. (M.).

3. Saodatni ukasi chaqirdi.

Tushum kelishigi belgili va belgisiz qo'llanadi: Kitob o'qidi – kitobni o'qidi, xat yozdi – xatni yozdi.

Tushum kelishigidagi so'z gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi: Ahmad she'rni baland ovozda o'qidi.

Jo'nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo'nalgan predmetni anglatadi, **kimga? nimaga? qayerga?** so'roqlariga javob bo'ladi.

Bu kelishikning morfologik belgisi: **-ga** so'z oxiridagi tovushga qarab **-ka**, -qa, poeziyada ba'zan **-a** shakliga ham ega bo'ladi: qishloqqa, yurakka, sana. 1. Kelinlar tushgan avtobus Oynatog'ga kunbotar chog'i kelib to'xtadi. (O'.H.). 2. Ovez qilib haryona, bizlarni, e durdona, chaqirdingini buyona (V.S.). 3. Allaqayoqdan yuzimga shamol kelib urildi (O'.H.).

Jo'nalish kelishigidagi ot gapda vositali to'ldiruvchi, o'rin-payt, maqsad holi vazifalarida keladi.

O'rin-payt kelishigi ish-harakatning bajarilish o'rnini, vaqtin, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi ma'nolarni ifodalaydi, **kimda? nimada? qayerda?** so'roqlariga javob bo'lib, **-da** qo'shimchasi orqali shakllanadi: uyda, bahorda, sovuqda.

**Chiqish kelishigi** ish-harakatning chiqish nuqtasini ifoda etadi. Chiqish kelishigi **-dan** qo'shimchasi bilan shakllanib, kimdan? nimadan? so'rog'iga javob bo'lganda vositali to'ldiruvchi (Bobur Hindoldan xat-savodni qanchalik o'rganganini, qanaqa she'rlar yod bilishini so'radi (P.Q). U mashinasidan sakrab tushdi. (O'.H.); qayerdan? so'rog'iga javob bo'lganda o'rin holi (Toshkentdan keldi); qachondan? so'rog'iga javob bo'lganda payt holi (Erta tongdan to shomgacha kitob mutolaasi bilan band bo'ldi); ba'zan kesim vazifasida keladi:

Ishoning, so'zlarim yurakdan (O.).

**141-mashq.** Gaplarni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi kelishikda va qanday shaklda (belgili, belgisiz) qo'llanganini aytинг. Kelishik qo'shimchalari bilan qo'llangan o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkanning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi (I.K.). 2. Eh, siz tog'lar, naqadar ko'rkan! Sizga berar ilk nurin quyosh (A.Q.). 3. Halol mehnat – inson qadr-qimmatining, qalbi pokligrining, farovonlikning mezoni (M.M.). 4. Yaxshi oshini yeydi, yomon boshini (Maqol). 5. Saylixon shamadan ko'zin uzmay shivirladi (S.A.). 6. Eh, siz tog'lar, dirlrabo tog'lar, yosh qalbimni maftun etgansiz (A.O.). 7. Ko'zimda aks etar sho'x olovli ranglar, ranglar tinchim oldi bu kun, onajon! (H.X.). 8. Toj-u taxtlar qutqarmadi qiyonoqdan mitti jonni, o'z ko'nglida tuyib o'tdi jahonning bor firoqin. 9. Garchand aqli yoritsa ham yarim ro'yi jahonni, yoqolmasdan o'tgan

kabi o‘z kulbasin chirog‘in (H.X.) 10. Men nechun sevaman O‘zbekistonni, Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo. 11. Sohibqiron xayolini qadam tovushlari buzdi (X.D.). 12. Fasli bahor vasi yora yolchimaganlar haqi, men bu kun sozimni sozlay bor orzu-armon oldida (H.X.). 13. Dunyoda odamlarni yaxshi ko‘rishdan ham kattaroq baxt yo‘q (O‘.H.). 14. Yong‘oq shoxida zag‘izg‘on sayradi. (O‘.H.).

### Otlarning turlanishi

t/r	Kelishik - larning nomi	So‘roqlari	Qo‘sheim-chasi	Misollar
1.	Bosh kelishik	kim? nima? qayer?	-	Talaba, guruh, fan
	Qaratqich kelishik	kimning? nimaning? qayerning?	-ning	Talabaning, guruhnинг, fanning
3.	Tushum kelishigi	kimni? nimani? qayerni?	- ni	Talabani, guruhni, fanni
4.	Jo‘nalish kelishigi	kimga? nimaga? qayerga?	- ga (-ka, qa)	Talabaga, guruhga, fanga
5.	O‘rin-payt kelishigi	kimda? nimada? qayerda?	- da	Talabada, guruhda, fanda
6.	Chiqish kelishigi	kimdan? nimadan? qayerdan?	- dan	Talabadan, guruhdan, fandan

**142-mashq.** Rasmni diqqat bilan ko‘zdan kechiring, sportchilar sportning qaysi turi bilan shug‘ullanayotganini ayting. Sport sohasidagi yangilik va yutuqlar haqida gapirib bering. O‘zingiz qaysi sport turi bilan shug‘ullanasiz?



**143-mashq.** Kelishik kategoriyasi (padej) haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing, mazmunini o'zbek tilida aytib bering. Hozirgi adabiy tojik tilida “kelishik kategoriyalari” (padej) bormi yoki yo‘q?

**Падеж.** Категорияи грамматикии исмҳо, ки муносабати як предметро ба предмети дигар, амалу ҳолат, хусусият вобаста нишоп медиҳад. Йинчунин шакли исмест, ки муносабати онро ба дигар калимаҳои ибораю чумла ифода мекунад. Категорияи падеж ҳоло хоси баъзе забонҳо, яъни забонҳои арабӣ,англисӣ, русӣ, узбекӣ, белорусӣ, украинӣ ва гайра мебошанд. Дар забони русӣ вобаста ба муносабати исм ва дигар калимаҳои чумла б падеж вучуд дорад. Падеж ба забони узбекӣ бо номи “келишик категория”си қабул карда шудааст, ки миқдорашон б то мебошад. Категорияи падеж дар асоси ифодай категорияи грамматикии чинс (чинси мардона, занона ва миёна) тагиёр мейёбад. Бояд гуфт, ки дар забонҳои қадимаи эронӣ 8 падеж: nominativ (именительный), accusativ (винительный), instrumentalis (тварительный), dativ (дательный), ablative (исходный), genitive (родительный), locativ (местный), vocativ (звательный) вучуд дошт, аммо ин категорияи грамматики дар забонҳои миёнаи эронӣ барҳам ҳурданд, зеро ифодай вазифаю онро калимаҳои ёридиҳанда ба ҳуда гирифтанд. Аз ин чост, ки забони ҳозираи тоҷик категорияи падежро доро нест. Ҳоло шумо дар зер истилоҳҳои ба “келишик категориялари” ва хели падеж алоқамандро ба забони узбекӣ ва русӣ меҳонед.

**144-mashq.** She'mni ifodali o'qing, qo'llangan tasviriyo ifodalarning ma'nosini izohlang. “Mening mehribon onam”, “Jannat onalar oyog'i ostida” mavzusida savol-javob tashkil qilib, munis va mehribon onangizning fazilatlarini aytинг.

### Buxoroning onalari

Domoni pok, iymoni pok,  
Or, nomusi, vijdoni pok,  
Sut o'rniда mehr emib,  
Kamol topgan o'g'loni pok,  
Buxoroning Onalari  
Balki bibi Sitoradir –  
Dardga darmon farzand tug'ar.  
Balki bibi Orifadir –  
Balogardon farzand tug'ar.  
Balki bibi Teginadir –  
Sohibqiron farzand tug'ar,  
Orzusi pok, armoni pok –  
Fayzullo-yu Fitrat tug'ar,  
Qadam qo'ygan makoni pok,  
Buxoroning Onalari.

So'lsa ham farzand dardidan,  
Ayrilsa ham alp - mardidan,  
Nolimas qismat zarbidan,  
Dilda sabr ummoni pok,  
Buxoroning Onalari.  
Farzandlari garchi shunqor,  
Parvozga samovot tor,  
O'zi zamin kabi xokson,  
Xoki anbarafshoni pok,  
Buxoroning Onalari.  
Momo havoning dilbari,  
Aqli basharning sarvari,  
Havasda jannat hurlari,  
Yashar – ikki jahoni pok,  
Buxoroning Onalari.

Samandar Vohidov

**145-mashq.** Hisobot haqidagi ma'lumotni o'qing, pedagogik amaliyot bo'limida saqlanayotgan pedagogik amaliyot hisoboti matnining namunasi bilan tanishing. Pedagogik amaliyot hisobotini tayyorlashga urinib ko'ring.

Muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshirqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi: nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday yetishmovchiliklar bo'ldi, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu boradagi takliflar qayd etiladi. Rejalashtirilgan ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo'llanadi. Hisobot shakl jihatidan ham, mazmun jihatidan ham bildirishnomha hujjatiga o'xshaydi.

#### Uning zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi: Hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilyapti.
2. Hujjatning nomi (Hisobot).
3. Hisobot matni.
4. Lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.
5. Sana.
6. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.

#### Atamalar lug'ati

1. Kelishik kategoriyasi – категория падеж
2. Kelishik kategoriyalarining turlanishi – таснифёбии категории падеж
3. Bosh kelishik – именительный и основной падеж
4. Qaratqich kelishigi – родительный падеж
5. Tushum kelishigi – винительный падеж
6. Jo'nalish kelishigi – дательный падеж
7. O'rinn-payt kelishigi – местный падеж
8. Chiqish kelishigi – исходный падеж

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qaysi qo'shimchalar turlovchi qo'shimchalar deyiladi?
2. Turlanish deb nimaga aytildi?
3. Kelishiklarni qo'shimchalari bilan sanab bering.
4. Tushum kelishigi qo'shimchasi poeziyada, mumtoz adabiyotda va jonli tilda qanday shakllarda qo'llanadi?

5. Kelishik qo'shimchalarining belgili va belgisiz qo'llanishi haqida gapiring.
6. Nutqda bir kelishik qo'shimchasi o'rniga boshqa kelishik qo'shimchasini ishlatalish mumkinmi?
7. Chiqish kelishigi qo'shimchasi poeziya va jonli nutqda qanday shakllarda qo'llanadi?
8. -ga qaysi kelishik qo'shimchasi? U yana qanday shakllarda ishlataladi?
9. O'rinn-payt kelishigi belgisiz qo'llanadimi?

### Test

- 1. Qaysi qo'shimchalar turlovchi qo'shimchalar deyiladi?**
  - A) egalik co'shimchalari
  - B) shaxs-son qo'shimchalari
  - C) kelishik qo'shimchalari
  - D) fe'l nisbatlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar
- 2. Ko'k... boqma, ko'p... boq (maqol). Nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchalarini qo'yish mumkin?**
  - A) qaratqich kelishigi
  - B) jo'nalish kelishigi
  - C) o'rinn-payt kelishigi
  - D) chiqish kelishigi
- 3. -ga qo'shimchasining ko'rinishlari to'g'ri berilgan qatorni toping:**
  - A) k tovushi bilan bitgan otlarda -ka shakliga ega bo'ladi.
  - B) q tovushi bilan bitgan otlarda -qa shakliga ega bo'ladi.
  - C) mumtoz adabiyotda -g'a, -na, -a shaklida ham uchraydi.
  - D) barcha javoblar to'g'ri.
- 4. Qaysi qatordagi gapda ko'plik qo'shimchasi ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan?**
  - A) Saodatning qo'llari chaqqon harakat qilar edi.
  - B) Tumanli kunlarda muzlar erib, suvlar oqa boshladи.
  - C) Yo'q, akamdan naq balolarga qolaman.
  - D) Shu payt olimlar kirib keldilar.
- 5. Quyida berilgan gapdagi nuqtalar o'rniga qaysi qatordagi qo'shimchalarni qo'yish mumkin? U... voqeа... bexabar ekani... bilib, butun vujudi... horg'inlik sezdi.**
  - A) -ni, -da, - ning, -ga
  - B) -ning, -dan, -ni, -da
  - C) -ga, -dan, -ning, -ni
  - D) -ning, -ni, -ga, -dan

**6. Tushum kelishigi qo'shimchasining qisqargan shakli berilgan gapni aniqlang:**

- A) Har oila o'chog'ining o'z qutluq tarixi bor.
- B) Olmazorlar gulin to'kadi. Meva bog'lab shoxin bukadi.
- C) Botirlari kanal qazadi. Shoirlari g'azal yozadi.
- D) Tutmang hargiz nomimni, baxtiqaro deb axtaring.

**7. Qaysi gapdag'i qaratqich kelishigi qo'shimchasini chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?**

- A) Maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini.
- B) Mehmonlarning yoshi ulug'i gapirdi.
- C) Do'stimning do'sti – mening ham do'stim.
- D) Universitet kutubxonasi birinchi qavatda.

**8. Tushum kelishigi qo'shimchasi -i shaklida berilgan qatorni toping:**

- A) Tog'lardagi qip-qizil lola. Bo'lib go'yo yoqut piyola.
- B) Adl qulog'i-la eshit holimi.
- C) Har fasl o'z ishin bilsin. Qishvoy qishligin qilsin.
- D) Birdan Alisherni dahshatli yolg'izlik tuyg'usi chulg'ab oldi.

**9. Berilgan she'riy parchada nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchasini ishlatish mumkin?**

Har fasl... o'z xislati bor,  
Har fasl... o'z fazilati.  
Kumush qish... zumrad bahor...  
Qolishmaydi kuz... ziynati.

- A) o'rin-payt va tushum kelishigi
- B) chiqish va tushum kelishigi
- C) qaratqich va chiqish kelishigi
- D) qaratqich va jo'nalish kelishigi

**10. "Yer haydasang, kuz hayda" maqolida qaysi kelishik qo'shimchalari belgisiz qo'llangan?**

- A) o'rin-payt va chiqish kelishigi
- B) tushum va o'rin-payt kelishigi
- C) chiqish va o'rin-payt kelishigi
- D) tushum va jo'nalish kelishigi

## Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. “Universitetimizning kutubxonasi” mavzusida matn tuzing. Ot so‘z turkumida ifoda aylan kelishik kategoriyalarini aniqlang.
2. Shoir Abdulla Oripovning “Ona degan nom” she’rini yod oling.

### Ona degan nom ..

Deydila qahrli bahodirlar ham  
Janglarda jon berar chog‘i mardona,  
Behad aloblarga chidab so‘nggi dam,  
Bitta so‘z demishlar shivirlab: Ona.  
Ulug‘bi donishmand olamni sharhlab,  
Axiyit anibdi tuqqan elini.  
Zabon bixsh etganga ehtirom saqlab,  
Ona, dehet abadi ilk bor tilini.  
Dunyo shoirlari Vatan sha’niga  
Sifat akharmishlar qator va qator,  
Nihovat kelmishlar bitta ma’niga:  
Ona Vatan deya bitmishlar ash’or.  
Bisyordbo‘lsa agar bol ham beqadr,  
Takroral tilganda rangsizdir kalom.  
Bu yordi ‘olamda Vatan bittadir,  
Bittadir unyoda Ona degan nom!

## 19-MAVZU. SIFAT

(Сифат)

**146-mashq.** Alisher Navoiyning “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin” – hikmatining mazmun-mohiyatini quyidagi matnga tayangan holda izohlab bering. Xususiyat va holatni bildiruvchi sifatlarni topib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

### So‘z quadrati

Shirinsuxanlik inson faoliyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki uning aql-saxovati, fikr-tuyg‘ulari, bilimi va madaniyati, savyasi, tafakkuri ma’lum darajada so‘zda ifoda etiladi. Yaxshi so‘z bilan kishilarning ishonchi, qalbini egallash mumkin.

Yaxshi so‘z hayotning quroli bo‘lib, unda olam-olam ma’no yotadi. So‘z tilning tayanchi hamda go‘zalligidir. So‘z tilning ko‘rki hisoblanadi.

“**So‘zning otasi aql, onasi til**”, – deyishadi keksalar. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham, suyakni tebratadi.

Kishining odobi dastavval uning tilida, keyin tili orqali bilimida ko‘rinadi. Odob doirasidagi muomala madaniyatini o‘zlashtirgan kishilarga farosatli, fahmli, odobli, aqli, es-hushli, madaniyatli deb baho beramiz. Shunday ekan, inson yoqimli, foydali, zaruriy mavzularda so‘zlamog‘i, behuda va ma’nisiz so‘zlardan ehtiyyot bo‘lmog‘i lozim. Hadisi Sharifda ta‘kidlanishicha, so‘zning foyda-zararini o‘ylab so‘zlagan kishi odamlar oldida buyuk o‘rin olgani kabi, Alloh taollo qoshida ham marhamatga tegishli odam bo‘ladi. Aqli bor odam har vaqt o‘ziga zarar keltiradigan so‘zlardan saqlanur. Musulmon odam yolg‘on so‘zlamaydi, o‘ziga foydali, zararli bo‘lishiga qaramasdan har vaqt to‘g‘ri so‘zlar. Yolg‘on so‘zlamoqlik tuban kishilar odatidir. Inson tili orqali o‘zining yaxshi fazilati va yomon xislatini namoyon etadi. Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan yaxshi so‘z kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Yomon so‘z esa do‘ssti dushmanga aylantiradi. Insonlar o‘rtasida fitna-nizo uyg‘otadi. Shirin muomala har bir kishiga quvonch, bemorga malham va najot bag‘ishlaydi, sovuq so‘z esa odamni xasta qilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, muomala madaniyatini egallagan kishining el-yurt oldida obro‘sii ulug‘ bo‘ladi.

Bizlar bir o‘tkinchi, jahon barqaror,

Odamdan faqat so‘z qolur yodgor.

Yaxshi nom qolsa bas, shudir maqsud – kom,

Tanamiz o‘tkinchi, qolajagi nom !

Ulug' mutafakkir Firdavsiy ta'kidlaganidek, so'zimizni odamlarga yodgorlik, yaxshilik qilib qoldiraylik. Shirin so'z har birimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lib qolsin. Xalqimizning "Aytilgan so'z - otilgan o'q", "Og'izdan chiqqan so'zni ot bilan quvib yetolmaysan" kabi naqlariga amal qilib, o'ylab muomalada bo'laylik.

So'zning dami qilichdan o'tkir. Tig' yarasi bitadi, dil yarasi bitmaydi. Shunday ekan, hech bir inson dilini yomon so'z tig'i bilan tilmaylik. Aksincha, shirinsuxanlik, halollik, izzat-ikromini o'z joyiga qo'yaylik.

Shirin so'z florini inidan chiqarganidek, muloyim so'z vahshiylarni ulfatga aylantiradi (Ulfat Mahkamovning "Axloq-odob saboqlari" kitobidan).

**Bilib oling!** Narsa-buyumning belgisini bildirib, **qanday? qanaqa? qaysi?** so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumi **sifat** deyiladi. Sifatlar predmetning rang-tusi, shakl-hajmi, xil-xususiyati, o'rinni va paytiga munosabati kabi belgilarni bildiradi. Sifat ko'pincha otga ba'zan fe'lga bog'lanadi. Gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

**Aniqlovchi:** Go'zal bir qiz ro'paramda turardi.

**Kesim:** Osmontiniq va beg'ubor. Sifatlar otlashadi. Ular otlashganda egalik va kelishik qo'shimchalarni oladi. Gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi bo'lib keladi. **Ega:** Yaxshi oshini yeydi, yomon boshini.

**To'ldiruvchi:** Yaxshiga yondash, yomondan qoch.

**Aniqlovchi:** Yaxshining so'zi qaymoq, yomonning so'zi to'qmoq.

**148-mashq. -li, -chan, -dor, -siz, no-, be-, -simon** qo'shimchalari yordamida sifat yasang. Ular ishlari kida gaplar tuzing. Qaysi so'z turkumidan yasalganini aiting.

**Namuna:** odobi – Odobili bola elga manzur (ot so'z turkumidan yasalgan).

**147-mashq.** Javvalda berilgan sifatning ma'noga ko'ra turlari va misollarini o'qing. Har biriga beshtadan misol yozing.

### Sifatning ma'noga ko'ra turlari

1.	Xususiyat bildiruvchi sifatlar	yaxshi, yomon, aqli, sergak, so'zamol, ayyor, aldamchi, ahmoq, bilag'on, biyron, vijdonli.
2.	Holat bildiruvchi sifatlar	baxtiyor, bchol, bedor, chirolyi, go'zal, xunuk, iliq, issiq, sovuq, to'q, farovon, gavjum, obod, alamzada, saranjom, mast-alast, mashhur, navgiron, noqulay.
3.	Rang-tus bildiruvchi sifatlar	oq, qora, sariq, ko'k, yashil, zangori, oqish, ko'kimir, tim qora, jigarrang, novvotrang.
4.	Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar	dumaloq, qiyshiq, doira, do'mboq, lo'ppi, lo'nda, miqtqi, to'garak, do'ng, tekis, sharsimon.
5.	Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar	keng, tor, og'ir, yengil, vazmin, uzun, qisqa, katta, kichik, mo'jaz, bepoyon, tubsiz, ulkan, ulug'.
6.	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar	sho'r, achchiq, shirin, nordon, chuchuk, taxir, chuchmal, laziz, xushta'm, talx.
7.	Hid bildiruvchi sifatlar	Xushbo'y, ifor, muattar, sassiq, badbo'y..
8.	O'rinni va paytg'ani munosabat bildiruvchi sifatlar	tonggi, kechki, yozgi, bahorgi, kuzgi, qishki, avvalgi, ilk, dastlabki, bugungi, burungi, tungi, uydagi, tashgi.

**149-mashq.** Ertakni o‘qing, mazmunini ayting. Undagi sifatlarni aniqlab daftaringizda yozing. Jadvalning bo‘sh katakchalarini to‘ldiring.

#### Ot bilan kiyik

Kunlardan bir kun Ot ko‘m-ko‘k maysalar bilan qoplangan keng dalaga kelib qolibdi. Ko‘klamazor maydon unga juda ma’qul bo‘libdi. Mazza qilib o‘tlibdi, u yoqdan bu yoqqa yuguribdi. Xullas, rosa yayrabdi.

Ammo ko‘p o‘tmay qayerdandir juda chiroyli, kelishgan, kiyik paydo bo‘lib qolibdi. Kiyik qarabdi, o‘tloq keng, barra maysalar o‘sgan, Otga ham, unga ham bemalol yetadigan. U taklifni kutib o‘tirmay, o‘tlashga kirishib ketibdi.

Otga bo‘lsa ortiqcha yemxo‘rning paydo bo‘lgani aslo yoqmabdi. Negaki, u keng maydonda yakka sayr qilib o‘tlashga o‘rganib qolgan ekan-da. Ammo har qancha urinmasin, Kiyikni haydar yubora olmabdi. Shunda Ot maslahat so‘rab odamning oldiga boribdi.

Odam unga:

– Men Kiyikni qanday qilib haydar yuboraman? Har qancha yugurganim bilan unga yetolmayman-ku. Seni jilovlab ustingga minsam, boshqa gap edi. Kiyikni bir pastda dalangdan quvib chiqara olardim, – debdi.

Ot odamning gapiga rozi bo‘libdi. Odam uni yaxshilab egarlab, ustiga minib olibdi. Ular kiyikni osongina quvib yuborishibdi. Biroq ot o‘sha paytdan boshlab o‘z erkini yo‘qotib, Odamga xizmat qila boshlabdi. Chunki Odam Otga bir minib olganicha uning ustidan tushmagani ekan-da.

Otning ranglari	Otning turlari	Otning nomlari

**150-mashq.** Maqollarni o‘qing, mazmunini tushintiring. Ulardagi sifatlarni topib tagiga chizing.

1. Qizil tilim bo‘lmasa,  
Kishnar edim elimda.  
Yashil tilim bo‘lmasa,  
Yayrar edim elimda.

2. Qizil tilim tiyolmadim,  
Qizimnikiga borolmadim.

3. Quloqdan kirgan sovuq so'z,  
Ko'ngilga borib muz bo'lar.

4. Quruq so'z bosh og'ritar,  
Yoriq qoshiq og'iz yirtar.

**151-mashq.** Tojik tilda yozilgan quyidagi sifatlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.  
So'zlar tarjimasini lug'at daftaringizga yozing.

Ширин, талх, курд, васеъ, нордон, сафед, сурх, сиёҳ, рангин, хушбӯй.

#### Atamalar lug'ati

1. Sifat – сифат
2. Qanday? – чо хел?
3. Qanaqa? – чо гуна?
4. Sifatning morfologik xususiyatlari – хусусиятҳои морфологии сифат
5. Sifatning sintaktik vazifikasi – вазифаи синтаксисии сифат

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qanday so'zar sifat turkumiga kiradi?
2. Sifatlar gapda ko'pincha qaysi so'zga bog'lanib keladi?
3. Sifatning sintaktik vazifikasi haqida gapiring.
4. Sifat ma'no va grammatik jihatdan qanday turlarga bo'linadi?
5. Shakl-ko'rinish va hajm-o'Ichov bildiruvchi sifatlar haqida gapiring.
6. Rang-tus va naza-ta'm bildiruvchi sifatlar haqida so'zlab bering.
7. Sifatlar otlashtadimi?
8. Sifatlar otlashtiganda gapda qanday vazifa bajaradi?

#### Test

##### 1. Sifat turkumiiga oid so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) yong'in, tosqin, tuzdon, kuldon  
B) uchqun, to'lchin, bilimdon, qalamdon  
C) so'lg'in, turg'un, suvdon, xumdon  
D) Yorqin, ozg'n, gapdon, qadrdon

##### 2. Gapda kesin bo'lib kelgan sifat qaysi qatorda berilgan?

- A) Buyuk ishlar birdan qilinmaydi. C) Go'zallikdan ezzulik yaxshiroqdir.  
B) Yaxshiga yordash, yomondan och. D) Topshiriq yaxshi bajarildi.

##### 3. Gapdag'i sifatning ma'no turini aniqlang. Uning yuzi uzunchoqroq edi.

- A) Hid bildiruvchi C) Hajm-o'Ichov bildiruvchi  
B) Shakl-ko'rinish bildiruvchi D) Holat bildiruvchi

##### 4. Gapda hol bo'lib kelgan sifatni aniqlang.

- A) Yaxshi kulgu uhnii yengillashtiradi.  
B) Moviy osmon beg'ubor, tiniq.  
C) Yaxshidan yomonlar ham yomonlik kutmas.  
D) Bir narsani qodrlash uchun uni avvaldan yaxshi bilish kerak.

**5. Otlashgan sifat qaysi gapda qo'llangan?**

- A) Dilshod tun-u kun tinmay ishladi.
- B) Chiroyli kiyangan bolalar saf tortishdi.
- C) Safimizda qoloqlar qolmadi.
- D) Kasal bolani darrov shifokorga ko'rsatdik.

**6. Rang-tus bildiruvchi sifat ishtirok etgan gap berilgan qatorni toping.**

- A) Hilola uning ko'zidagi ayyor tabassumni ko'rib ataylab beparvo gapirdi.
- B) U nafis pushti rang jemper kiyib olgan, sochini baland qilib turmaklagan edi.
- S) Hilola yolg'on gapirganidan uyalib, yuzini o'girdi-da, sekin-sekin yurib ketdi.
- D) Jimjit bog' ustida Maratning kulgisi jaranglab aks-sado berdi.

**7. Hid bildiruvchi sifatlar berilgan qatorni topning.**

- A) xushbo'y, muattar, qo'lansa, ifor
- B) muattar, qo'lansa, chuchmal, sassiq
- C) sassiq, badbo'y, yozgi, shirin
- D) achchiq, sassiq, xushbo'y, yassi

**8. Holat bildiruvchi sifat berilgan gapni toping.**

- A) Qishning sovuq kunlarida archa bizga mehmon bo'ldi.
- B) Ko'r tutganini qo'ymas, kar eshitganini.
- D) Topshiriq yaxshi bajarildi.
- C) Senga o'xshash bilmasvoy bolalarga ketgan mehnatlarimga achinaman.
- D) Safimizda qoloqlar qolmadi.

**9. Hovli tor, devorlari baland, xuddi kattakon hovuzga o'xshar, buning ham to'rtdan birini ayvon egallagan edi. Berilgan gapda ishtirok etgan sifatlarning soni va ma'no turini aniqlang.**

- A) 3 ta, hajm-o'lchov sifatlari
- B) 2 ta, xususiyat bildiruvchi sifatlar
- C) 4 ta, holat bildiruvchi sifatlar
- D) 3 ta, shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar

**10. Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak. Gapdag'i sifatlarning ma'no turini aniqlang.**

- A) rang-tus bildiruvchi sifatlar
- B) hid bildiruvchi sifatlar
- C) maza-ta'm bildiruvchi sifatlar
- D) xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar

### **Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “**Hayvonot bog‘iga sayohat**” mavzusida suhbat tuzing.
2. Tuzgan matningizda ishtirot etgan sifatlarni ma’no jihatdan turlarga bo‘lib, jadvalga joylashtiring.
3. Kamalak haqidagi qanday afsona yoki rivoyatni bilasiz?
4. She’rni o‘qing, mazmunini aytib bering va yod oling. Kelishik qo’shimchalarni aniqlang.

### **Men nechun sevaman O‘zbekistonni**

Men nechun sevaman O‘zbekistonni  
Tuprog‘in ko‘zinga aylab to‘tiyo.  
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,  
Muqaddas atayman, atayman tanho.  
Aslida dunyoda tanho nima bor,  
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?  
Yoki quyoshi ni sevgimga sabab?  
Axir quyoshl -ku butun Osiyo.  
Men nechun sevaman O‘zbekistonni?  
Bog‘larin jamhat deb ko‘z-ko‘z etaman,  
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men,  
O‘paman: “Tuprog‘ing bebaho, Vatan...”  
Aslida tuproqni odil tabiat  
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.  
Nechun bu tuproq deb yig‘ladi Furqat,  
O, qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?!

Xo‘sish, nechun sevasan O‘zbekistonni,  
Sababini aytgini desalar menga,  
Shoirona go‘jal so‘zlardan oldin,  
Men ta’zim qilarihan ona xalqimga:  
Xalqim, tarix hukmi seni agarda  
Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,  
Qorliklarni makon etgan bo‘lsayingding,  
Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga,  
Vatanlar, Vatahlar,  
Mayli, gullasim,  
Bog‘ unsin mangulik muzda ham, ammo  
Yurtim, seni faqat boyliklaring uchun,  
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!

**Abdulla Oripov**

## 20-MAVZU. SIFAT DARAJALARI

(Дараачаҳои сифат)

**152-mashq.** Matnni o'qing, sifatlarni topib, qaysi darajaga mansubligini aying. Sifat yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

Uning qora zulfi paryostiqning turli tomoniga tartibsiz suratda yoyilib, quyuq jingila kiprik ostidagi tim qora ko'zлari bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi...to'lgan oydek borsiz oq yuzi bir oz qizillikka aylanganda, kimdandir uyalgan kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini qashidi. Sariq ro'pok atlas ko'ylakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi bir oz ko'tarilib turmoqda edi... Kumush kiyinib uydan chiqdi, To'ybeqa tomonidan hozirlanib berilgan issiq suv bilan yuzini yuvdi ("O'tkan kunlar" romanidan).

**Bilib oling!** Predmetlardagi bir xil belgining ortiq-kamlik jihatdan farqlanishi sifat darajasi deyiladi.

Sifatning quyidagi darajalari mavjud: **oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.**

**Oddiy darajadagi** sifatlarda belgi boshqa predmetdagি xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydi. Bu daraja maxsus grammatik ko'rsatkichga ega emas: chiroqli qiz, aqli bola, xushbo'y atir...

Odobli bola elga manzur. Toza yurakni qo'rqtish qiyin. **Qiyosiy (ozaytirma) darajadagi** sifatlarda bir narsa-buyumdagи belgining boshqalariga nisbatan ortiq yoki kamligi qiyoslanadi. Qiyosiy daraja quyidagicha hosil qilinadi:

**1. Morfologik vosita:** -roq, -ish, -g'ish, -mtir, -imtir, -tob qo'shimchalari yordamida: go'zalroq, chiroyliroq, ko'kish, qizg'ish, sarg'imtir, qiziltob.

**2. Leksik vosita:** **sal, biroz, andak, och, nim** kabi so'zlar yordamida: andak kichik, biroz yengil, sal baland...

Olma daraxti shaftoli daraxtidan baiandroq.

**Orttirma darajadagi** sifatlarda bir narsa-buyumdagи belgining boshqa predmetdagи belgidan eng ko'p ekanligi ifodalananadi.

Quyidagicha nosil qilinadi:

1. **Fonetik vosita**: a) sifatning boshlang‘ich tovushlarini olib, ularga **p, m, s** tovushlarini qo‘sish va sifatning o‘zini keltirish orqali ( ko‘m-ko‘k, sap-sariq, bus-butun); b) sifatning dastlabki tovushlari bilan o‘zini juftlashtirish orqali (pak-pakana, dum-dumaloq).

2. **Leksik vosita**. Bu sifatdan oldin to‘q, tim, jiqqa, juda, biram kabi so‘zlarni keltirish orqali ( tim qora, jiqqa ho‘l, juda baland). Uning ko‘zları tim qora.

**153-mashq.** Sifatlarni toping va darajalarini aniqlang.

1. Yonbosh tomondagi tik ko‘tarilib turgan sip-silliq cho‘qqi botayotgan quyosh nurida targ‘il alanga bo‘lib yonar, butun qishloq uning shafag‘ida olovlanib ko‘rinardi. 2. Halimaning katta-katta, qop-qora ko‘zları jiqqa yosh edi. 3. Halima yonginamda o‘ririb olib, o‘tlardan “ajina kavush” to‘qir, uzun-uzun barmoqlarining chunchalik chaqqon harakat qilishiga hayron qolardim. 4. Shiftdagi qog‘oz qalpoq kiygizilgan lampochkaning xiragina nuri deraza oynasiga qo‘ngar tomchilarda, tokchalardagi atir shishachalarda jilolanadi. 5. Bu o‘zi qachondan buyon orzu qilib yurgan to‘q kulrang palto edi. 6. Zamira sarg‘ish qoshlarini uchirib qo‘ydi. 7. Qizg‘ish chiroq yonib turgan simyog‘och tagidagi skameykaga o‘tirishdi. 8. Suv jimgina oqar, qop-qora to‘lqinlar ustida qirg‘oqdagi chiroqlar shodasining aksi silkinib turardi. 9. Aqlimni taniganimdan keyin bilsam, men shirin, juda shirin tush ko‘rayotgan ekanman-u, To‘lash bir og‘iz gapi bilan ustidan muzday sovuq suv quyib, uyg‘otib yuborgan ekan (O‘tkir Hoshimov ijodidan).

**154-mashq.** Qiyoziy va orttirma daraja bildiruvchi sifatlarning tagiga chizing, qanday nosil bo‘lganini tushuntiring.

1. To‘q qizil rangli gullardan biri Bobur mingan saman otning yoliga kelib tushdi. 2. Musavvirning iltimosi bilan xonni qip-qizil kimxob ko‘rpa ustiga o‘tkazdilar. 3. Xonning beliga bog‘langan ingichka oltin kamarning uchi chalmashgan oyocolar tagidan xuddi qoramtil boshti sariq ilonga o‘xshab buralib chiqib turar edi. 4. Botib ketgan quyoshning quyuq shafag‘idan daryo suvi qizg‘ish ko‘rinadi. 5. Oq salasi va ko‘ylagining oqligi o‘siq soqolini odatdagidan qoraroq ko‘rsatar edi. 6. Tushga yaqin yomg‘ir tindi-yu, bulutlar orasidan ko‘m-ko‘k osmon va issiq yoz ostobi ko‘rindi (Pirimqul Qodirov ijodidan).

**155-mashq.** Rasmga qarab sarlavha tanlang. Rasm mazmunini yorituvchi sarlavha yuzasidan savol-javob tashkil qiling.



**156-mashq.** Berilgan gaplardagi sifat darajalarini aniqlab, namunada ko'rsatilganidek yozing.

1. Oppoq nur yuqorida poyandoz singari tushib oyoqlar ostida to'xtadi (T.M.). 2. Ulardan chiqayotgan qora tutunlar butxona ustini xuddi kufr va isyon zulmati kabi qoplab yotardi (A.N.). 3. Menimcha, adolat bilanadolatsizlik o'rtasida katta maydon emas, kichkinagina ariqcha bor (T.M.). 4. U yo'g'on, chorpxil gavdali, yakkam-dukkam qizg'ish mo'ylabli, keng, qoramtrir yuzining yonoqlari bo'rtgan (O.). 5. Tashqarida havo bulut bo'lgani uchun, oqish qandillar ertalabdan yoqib qo'yilibdi (O'.Q.).

**Namuna:** Uning yonoqlari uzunchoqroq edi. (uzunchoqroq – qiyosiy daraja)

**157-mashq.** Berilgan sifatlarni o'z ona tilingizga tarjima qiling va ma'nosini tushuntiring.

Jo'shqin, tiniq, oqsoq, yopishqoq, erinchoq, iliq, kemtik, katta, kichik, yaltiroq, chanqoq, to'lin (oy), mitti, bo'Imag'ur, qotma.

**158-mashq.** Matnni o'qib, undagi sifatlarni daftaringizga ko'chirib yozing va darajasini aniqlang. Daraja hosil qiluvchi qo'shimchaning tagiga chizib, qanday usul bilan hosil bo'lganini tushuntiring.

### Rostgo'ylik

Rostgo'ylik – insonning o'tkir aql, sof mulohaza, toza ko'ngil, oljanob va mard ekanligini ko'rsatib turuvchi dalildir. Dunyoda rostgo'ylikdan ko'ra ko'r kamroq xulq va tabiat yo'q!

Dunyoda rostgo'ylikdan ko'ra sharafliroq xislat va iqbol, undan ko'ra ta'sirliroq naf qiluvchi narsani topish mahol: demak, shunday ekan, ey farzand, rostgo'ylikning arqoniga yopish, uni doimiy odatingga aylantir, tabiatingga mahkam o'rnat! Chunki rostgo'ylikdan salomatlik hosil bo'ladi, u orqali g'am, xatar va kulfatdan qutulasan, odamlarning esa ishonchini oqlaysan.

Rostgo'ylik – adabning ustuni, insoniylikning asosi. Har kim adab va insoniylikka yetishaman desa, rostgo'ylikni chetlab o'tolmaydi.

Chiroyli so'z agar rost aytilgan bo'lsa, aytuvchiga ham, eshituvchiga ham manfaatlar yetkazadi. To'g'ri so'zlab o'lmoq, yolg'on gapirib qutulmoqdan afzal. Rostlik yaxshilik sari etaklaydi, yaxshilik esa saodatga yetkazadi.

(“Hikmatnoma” kitobidan)

### 159-mashq. Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

- |   |   |
|---|---|
| 1. Rang-u, hajm-u, maza, ta'm,<br>Ma'nosida mujassam? | 2. Sifatlar arazlanib,<br>Ot so'zlarga aylanar.<br>So'rog'idan ham kechib,<br>Otlar so'rog'in olar.<br>Qaysi holda sifatlar,<br>Otga aylanib qolar? |
|---|---|

### Atamalar lug'ati

1. Sifat darajalari – дараҷаҳои сифат
2. Oddiy daraja – дараҷаи оддӣ
3. Ozaytirma daraja – дараҷаи қиёса
4. Orttirma daraja – дараҷаи олия

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Sifat darajasi deb nimaga aytildi?
2. Oddiy darajadagi sifat qanday belgini bildiradi?
3. Qiyoysi daraja sifatlari qanday hosil qilinadi?
4. Qiyoysi darajaning leksik usul bilan yasalishi haqida gapiring.
5. Orttirma daraja qanday belgini bildiradi?
6. Orttirma darajaning fonetik usul bilan hosil bo'lishi haqida gapiring.
7. Orttirma darajaning leksik usul bilan hosil qilinishi haqida gapiring.

### Test

#### 1. Oddiy darajadagi sifatlar qaysi qatorda berilgan?

- |  |   |
|--|---|
| A) yam-yashil, oppoq, qop-qora<br>B) go'zal, hushyor, odobli | C) tushunadigan, ishlaydigan, mayin<br>D) oqish, qizg'ish, sarg'imtir |
|--|---|

**2. Belgining me'yordan ortiqligini bildirgan sifat shakli...**

- A) oddiy daraja      C) ozaytirma daraja  
B) qiyosiy daraja      D) orttirma daraja

**3. Maktabga qatnay boshlagandan keyin uning ko'z o'ngida yangi olam ochildi. Gapdag'i sifatning darajasini aniqlang.**

- A) oddiy daraja      B) qiyosiy daraja  
C) orttirma daraja      D) ozaytirma daraja

**4. Biram yoqimli havo. Birikmadagi sifatning darjasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang.**

- A) orttirma daraja, fonetik vosita      C) ozaytirma daraja, fonetik vosita  
B) orttirma daraja, leksik vosita      D) orttirma daraja, morfologik vosita

**5. Berilgan gapdag'i sifatning darjasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang. Qoshi qoraroq yigit edi.**

- A) orttirma daraja, leksik vosita      C) ozaytirma daraja, morfologik vosita  
B) orttirma daraja, morfologik vosita      D) qiyosiy daraja, leksik vosita

**6. Narsa-buyumlardagi belgining ortiq-kamlik jihatidan farqlanishi...**

- A) nisbiy sifat deyiladi.      C) tub sifat deyiladi.  
B) sifat darjasini deyiladi.      D) sifatlarning otlashishi deyiladi.

**7. Orttirma daraja shaklidagi sifatlar berilgan qatorni belgilang.**

- A) tim qora, qizg'ish, oppoq, juda katta  
B) qip-qizil, sap-sariq, qoraroq, ko'kmtir  
C) yam-yashil, qop-qora, to'q, ko'k, g'oyat yaxshi  
D) g'oyat ko'rakam, sal kichik, juda baland, to'q qizil

**8. Sadoqat qop-qora barmoqday-barmoqday uzumni yeya boshladi.**

**Gapdag'i sifatning darajasini aniqlang.**

- A) orttirma daraja, fonetik usul      C) qiyosiy daraja, leksik usul  
B) orttirma daraja, leksik usul      D) ozaytirma daraja, fonetik usul

**9. Fonetik usul bilan hosil bo'lgan orttirma darajadagi sifat berilgan gapni toping.**

- A) Qishki kiyimlarni yig'ishtirib qo'ydim.  
B) Dum-dumaloq lo'ppi yuzi, kichkina burni yodimda qoldi.  
C) Atrofda go'zal va ajoyib gullar o'sar edi.  
D) Shamning qizg'ish shu'lesi kulbag'a fayz berib turar edi.

**10. Predmetning o'rinni va vaqtga ko'ra belgisini bildirgan sifat qaysi gapda mavjud?**

- A) Uydagi qiziqarli kitoblarni olib ketdi. C) Qishki kiyimlarni yig'ishtirib qo'ydim.  
B) Bog'dagi gullardan birini saraladi. D) A, B, C

## Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. Berilgan gaplardagi sifat darajalarini aniqlab, namunada ko'rsatilganidek yozing.

**Namuna:** Uning yonoqlari uzunchoqroq edi. (uzunchoqroq – qiyosiy daraja)

1. Oppoq nur yuqoridan poyandoz singari tushib oyoqlar ostida to'xtadi (T.M.). 2. Ulardan chiqayotgan qora tutunlar butxona ustini xuddi kufr va isyon zulmati kabi qoplab yotardi (A.N.). 3. Menimcha, adolat bilanadolatsizlik o'rtasida katta maydon emas, kichkinagina ariqcha bor (T.M.). 4. U yo'g'on, chorpxaxil gavdali, yakkam-dukkam qizg'ish mo'yabli, keng, qoramtil yuzining yonoqlari bo'rtgan (O.).

2. “**Ovutmachoq**” ni yod oling. O'zingiz yodlagan va eshitgan “ovutmachoq” larni ayting.

Vuy-vuy, shuginani kim urdi?

Vuy-vuy, shuginaga kim lab burdi?

Yig'lama, oppoqqinam,

Boshimdag'i qalpoqqinam.

Voy-voy jonio, shu jonio,

Bo'ynimdag'i marjonim.

Nima bo'ldi o'zingga?

Yosh olisan ko'zingga?

Sadqayi yoshing ketsin,

Og'ir-og'ir damlarda.

## 21-MAVZU. SON (Шумора)

**160-mashq.** Matnni o'qing. Unda ishtirok etgan sonlarni topib, ma'noga ko'ra turini aytin. Matn mazmunini so'zlab bering. Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini tuzing.

### Temuriy malikalar

Konzodabegim Umarshayx Mirzoning qizi, Bobur Mirzoning opasi edi. U 1478-yilda Andijonda tug'ilgan. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, Konzodabegim did-farosatli, o'tkir zehnli va aql-zakovat sohibasi bo'lgan.

Konzodabegim ayni balog'at yoshiga yetganda otasi Umarshayx Mirzo tasodifan jardan yiqilib, olamdan o'tadi. Ota taxtiga o'tirgan 12 yoshli Bobur Mirzoning qismatida darbadarlik davri boshlanadi. Yosh Bobur Mirzoda bobokaloni Amir Temur taxtini egallash havasi uyg'onib, Samarcandga bir necha harbiy yurishlar qiladi. Nihoyat, 1501-yili Samarcandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Ko'p o'tmay, Shayboniyxon qo'shin tortib kelib, Samarcandni qamal qiladi. Qamal ko'pga cho'zilib, shaharda dahshatlari ocharchilik, o'lim avjiga chiqadi. Ana shunday og'ir vaziyatda Shayboniyxon Bobur Mirzoga sulu taklif qiladi.

Bu voqeani Bobur Mirzoning qizi – Gulbadanbegim "Xumoyunnoma" asarida quyidagicha tasvirlaydi: "Shayboniyxon: "Agar o'z egachingiz Xonzodabeginmi menga xotinlikka bersangiz, oramizda sulh tuziladi va hamjihatlik aloqalari o'rnatiladi", – deb aytgizib yubordi". Gulbadanbeginning bu fikrini "Tarixi Rashidiy" asari muallifi Haydar Mirzo ham tasdiqlab: "Shayboniyxon bilan sulh tuzib, o'z egachisi Xonzodabeginmi unga xotinlikka berdi", – deb yozadi. Shunday qilib, Xonzodabegim Shayboniyxon nikohiga kiradi va undan bir o'g'il ko'radi. Ismini Xurrambek deb ataydilar. Shayboniyxon qatlidan so'ng Xonzodabegin ukasi Mirzo Bobur saroyiga qaytib keladi. Ko'p o'tmay, o'g'li Xurrambek ham vafot etadi. Xonzodabegim o'zining aql-idrok, tadbirkorligi natijasi o'laroq, saroy malikalari orasida yuksak e'tiborga ega bo'ladi. U Boburshoh va Xumoyunshoh saroyida maslahatchi vazifasini bajargan. 1544-yili Xonzodabegim Kobulhaq degan joyda olamdan o'tadi. Oradan uch oy o'tgach, uning hokini Kobulga keltirib, Boburshoh maqbarasiga dafn qiladilar.

Gulbadanbegim – Bobur Mirzoning Dildorbegim nomli xotinidan tug'ilgan uchinchi qizi. U 1523-yili Kobulda tug'ilgan. Gulbadanbegim otasi Boburshoh farmoniga ko'ra katta onasi, ya'ni Xumoyun Mirzoning onasi Mohimbegim qo'lida tarbiyalanadi. Gulbadan begim har ikkala onasini ham samimiy e'zozlagan.

U o‘z zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. Jiyan Jaloliddin Akbar podshohning “Firdavs makon va jannat oshyon hazrat haqidagi voqealardan nimaiki bilsangiz, yozingiz”, degan ishorasiga muvofiq, “Humoyunnom” nomli muhim tarixiy asar yozadi. Bu asar Bobur podshoh va Humoyun podshohning hayot tarzi va sarguzashtlarining muxtasar tarixi bo‘lib, mantiqan “Boburnoma”ning davomidir.

Gulbadanbegim o‘z asarida saroy ahlining hayot tarzi, shuningdek, tarixiy asarlarda uchramaydigan Boburshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to‘y va aza bilan bog‘liq udumlar, uy-ro‘zg‘or asboblari, kiyim-kechak turlari kabi jihozlar haqida mufassal hikoya qiladi.

“Akbarnom” asarining muallifi Abul Fazlning ma’lumotiga qaraganda, 1575-yilda Gulbadanbegim Ka’ba ziyyaratiga jo‘nab ketadi va 1582-yilda ko‘p qiyinchiliklar bilan ziyyaratgohdan qaytib keladi. 1603-yilda 80 yoshida vafot etadi. Akbarshohning o‘zi Gulbadanbegim tobutini o‘g‘il sifatida ko‘tarib, dafn marosimida o‘g‘illik burchini oxiriga yetkazadi (Turg‘un Fayziyevning “Temuriy malikalar” risolasidan).

**Bilib oling!** Sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog‘ini, tartibini bildirib, qancha? necha? nechta? nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar turkumi son deyiladi.

Sonlar ma’no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra dastlab ikkiga bo‘linadi: **miqdor sonlar va tartib sonlar**. Miqdor sonlar predmetning miqdori, sanog‘iga ko‘ra belgisini, tartib sonlar esa ularning tartibiga ko‘ra belgisini bildiradi.

Tartib sonlar -nchi(-inchi), -lamchi qo‘srimchalari yordamida sanoq sonlardan hosil qilinadi: birinchi, ikkilamchi, beshinchi. Miqdor sonlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- |                      |                          |
|----------------------|--------------------------|
| <b>1. Sanoq son.</b> | <b>4. Jamlovchi son.</b> |
| <b>2. Dona son.</b>  | <b>5. Taqsim son.</b>    |
| <b>3. Chama son.</b> |                          |

Sanoq sonlarning ko‘rsatkichi yo‘q: bir, to‘qqiz, o‘n, yigirma... Dona sonlar narsa-buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. Ular **-ta** qo‘srimchasi, dona, nafar, bosh, tuyeq so‘zleri orqali hosil qilinadi: ikkita qalam, besh nafar talaba, uch dona olma, besh bosh sigir, ikki yuz tuyeq qo‘y.

Dona son qo‘srimchasi (**-ta**) bir soniga qo‘shilganda **r** tovushi **t** bilan almashadi: bir – bitta.

**Chama sonlar** narsa-buyumning taxminiy sonini bildiradi va **-tacha, -lab, -larcha** qo‘srimchalari, taxminan, qariyb kabi ravishlar orqali hosil qilinadi: o‘nlab xizmatkorlar, yuzlarcha talaba, beshtacha o‘quvchi, taxminan yigirmata. **Jamlovchi son** narsa-buyumning umumiy sonini bildiradi. Jamlovchi sonlar **-ov, -ala, -ovlon** qo‘srimchalari yordamida hosil qilinadi: ikkovimiz, uchovi, beshovlon, to‘rtala. Ikki, olti, yetti sanoq sonlardan jamlovchi son hosil qilinganda o‘zakdag‘i oxirgi unli (i) tushib qoladi: yettovi, oltovlon. Jamlovchi sonlar, odatda, birdan yettingacha bo‘lgan sonlardan hosil qilinadi.

**Taqsim sonlar** narsa-buyumlarning taqsimlanish miqdorini bildiradi va sanoq songa-tadan qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi: ikkitadan, beshtadan, yuztadan. Sonlar ko'pincha otga bog'lanadi. Gapda aniqlovchi, hol, kesim bo'lib keladi.

**Aniqlovchi:** Bozordan ikkita issiq non oldim.

**Hol:** Bunday hodisani umrimda birinchi ko'rishim.

**Kesim:** Ikki karra ikki – to'rt. Ba'zan otlashib, otning sintaktik vazifalarini bajaradi. Otlar kabi egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi: Ikkalasi inoq, do'st. Uch ikkiga qoldiqsiz bo'linmaydi.

### Krossvord

7	.	1	
.	15	.	30
.	8	.	

Jadvalda ko'rsatilgan sonlarga taalluqli maqollar aytинг va bo'sh katakchalarda kerakli so'zni yozing.

**161-mashq.** Tarixiy sanalarni ifodalovchi sonlarni harf bilan yozing. Ularning imlosiga xos xususiyatlар haqida aytинг.

T/r	Yil, sana, oy	Tarixiy sanalarning nomi
1.	1989-yil 21-oktabr	Davlat tili haqidagi qonun qabul qilingan.
2.	1991-yil 31- avgust	O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat deb e'lon qilingan.
3.	1991-yil 1-sentabr	O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni bayrami.
4.	1991-yil 18-noyabr	O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i haqidagi qonuni tasdiqlangan.
5.	1992-yil 2-mart	O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lган kun.
6.	1992-yil 3-mart	O'zbekiston Respublikasi Olyi Kengashining Respublika Davlat gerbi haqidagi qonuni tasdiqlangan.
7.	1992-yil 8-dekabr	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan.
8.	1992-yil 10-dekabr	O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilingan.
9.	1993-yil 2-sentabr	"Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosи" ni joriy etish to'grisidagi qonun qabul qilingan kun.
10.	1994-yil	O'zbekiston Respublikasining Milliy valutasi muomalaga kiritilgan.
11.	1995-yil	O'zbek tili imlosi va lug'ati qabul qilingan.
12.	1997-yil	"Ta'lim to'grisida" gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilingan.

**162-mashq.** Berilgan gaplarni o'qing. Sonlarni topib, ular bog'langan so'z bilan qo'shilgan holda birikma shaklida daftaringizga ko'chiring.

1. Bir kun emas, bir kun ikkovlari qattiq to'qnashib qolishlarini biliadi. 2. U qishloqqa kelgan birinchi kunlaridayoq sezgandi buni. 3. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshaydigan ikki odamni hech qachon uchratib bo'lmaydi. 4. Ikkalamiz yonma-yon tushsak maylimi, domla?. 5.—Bu—ikkinci o'g'lim,—dedi u... 6. U bundan uch yil ilgari jurnalda chiqqan hikoyasini esladi. 7. Nonushta paytida Odilboyni birinchi marta ro'yi-rost ko'rib oldim. 8. Tirkash, aravadan uch-to'rt qadam narida ... uxbab yotgan cholga qaradi. 10. Sizga havas qilar minglarcha yoshlar (O'tkir Hoshimov ijodidan).

**163-mashq.** Maqollarni o'qing, mazmunini tushuntiring. Son so'z turkumini topib tagiga chizing.

- |                               |  |
|-------------------------------|--|
| 1. Sakkizdan – zakot,         | 6. Yetti yashar safardan kelsa,              |
| O'n oltidan – hayot.          | Yetmish yashar ko'rgani kelar.               |
| 2. Bir bosh – balo bosh,      | 7. Moldan molning farqi bor,                 |
| Ikki bosh – mardona bosh.     | O'ttiz ikki narxi bor.                       |
| 3. Bir qiz erga tegsa,        | 8. Ikki pichoq bir qinga sig'mas,            |
| Qirq qiz tush ko'rар.         | Ikki sevgi – bir ko'ngilga.                  |
| 4. Bersa – bir balo,          | 9. Besh barmoq yig'ilса, musht bo'lar.       |
| Bermasa – ikki.               | 10. O'ttiz kun ro'zaning bir kun hayiti bor. |
| 5. Ikki xo'roz xirmon sochar, |  |
| O'z ketini o'zi ochar.        |  |

**164-mashq.** Tojik tilidagi birlit, o'nlik, minglik sonlarni o'zbek tiliga o'giring.

Як, ду, се, чаҳор, панҷ, шаш, ҳафт, ҳашт, нӯҳ, даҳ, бист, си, чиҳил, панҷоҳ, шаст, ҳафтод, ҳаштод, навад, сад, дусад, сесад, чаҳорсад, панҷсад, шашсад, ҳафтсад, ҳаштсад, нӯҳсад, ҳазор, ду ҳазор, се ҳазор, даҳ ҳазор, дусад ҳазор, панҷсаду панҷоҳу панҷ ҳазор, нӯҳсаду наваду нӯҳ ҳазор, ду ҳазору ҳафт, ду ҳазору ҳашт.

**165-mahq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

- |                          |                          |
|--------------------------|--------------------------|
| 1. Ma'nosida bor sanash, | 2. Narsalarning tartibi, |
| O'lhash hamda raqamlash? | Sonini bildiradi.        |

#### Atamalar lug'ati

1. Son – шумора
2. Son kategoriyalari – категорииҳои шумора
3. Miqdor son – шумораи миқдорӣ
4. Dona son – шумораи касри
5. Tartib son – шумораи тартиби
6. Jamlovchi son – шумораи чамъ
7. Taqsim son – шумораҳои тақсимшаванд

8. Sonning sintaktik vazifasi – вазифаи синтаксисии шумора
9. Sonlarning tuzilishi – соҳти шумора
10. Содда сонлар – шумораҳои содда
12. Juft sonlar – шумораҳои чуфт
13. Takroriy sonlar – шумораҳои тақрор
11. Qo'shma sonlar – шумораҳои мураккаб

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Qanday so'zlar son turkumiga kiradi?
2. Sonlar ma'no jihatdan necha turga bo'linadi?
3. -ta qo'shimchasi sonning qaysi turini hosil qildi?
4. -larcha, -tacha, -lab qo'shimchalari sonning qaysi turini hosil qilishda ishtirot etadi?
5. Tartib sonning hosil bo'lishi haqida gapiring.
6. Jamlovchi son qo'shimchalari ko'pincha qaysi sonlardan yasaladi?
7. Sonlar gapda qanday vazifa bajaradi?
8. Sonlar otlashish xususiyatiga egami?
9. Sonlar otlashganda qanday sintaktik vazifa bajaradi?

### **Test**

1. *Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quymoqda edi.* Ushbu gapdagi sonning turini aniqlang.  
A) dona son    C) chama son    B) tartib son    D) jamlovchi son
2. **Jamlovchi son qaysi qatorda joylashgan?**  
A) Zuhraning shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi.  
B) Shunday qilib, to'rtala nomzod ham ro'yxatda qoldi.  
C) Tavba, bir ota, bir onadan ikki xil farzand.  
D) Saida uyiga kech soat o'n birda qaytdi.
3. **Chama son qo'llangan qatorni toping.**  
A) Ularning har ikkalasi ham shu haqda o'ylar edi.  
B) Hozir ular bo'lajak shiyponning to'rtinchi ustunini tayyorlashyapti.  
C) ...to'rt- beshtacha chakana havaskorlargina kelibdi.  
D) Maston o'tgan yili yuz ellik olti pud bug'doy olganini aytganda, yigitlardan biri qizarib ketdi.
4. *Olti so'zidan sonlarning qaysi turini hosil qilishda tovush tushishi hodisasi yuz beradi?*

- A) dona son      B) chama son      C) tartib son      D) jamlovchi son

**5. Chama son hosil qiluvchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.**

- A) -tacha, -larcha, -lab      B) -ta, -tacha, -nchi  
C) -inchi, -ov, -tadan      D) -ala, -ovlon, -lab

**6. Dona son ishtirok etgan gap berilgan qatorni toping.**

- A) Bir gektar yerni bog'-u bo'stonga aylantirdi.  
B) Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi.  
C) Shahrimizda o'nlab teatrlar bor.  
D) Bu sinfda yigirma beshta o'quvchi ta'lim oladi.

**7. Otlashgan son qaysi gap tarkibida qo'llangan?**

- A) Ikkalasi navqiron aktrisaga baminsoli sehrlanganday tikilishardi.  
B) Shu xatlardan ikkitasini sho'xroq yigit yozgan ekan.  
C) Rais bir buzoq bilan bir qo'y so'ydirgan.  
D) A va B

**8. -nchi, -inchi qo'shimchalari sonning ma'no jihatdan qaysi turini hosil qilishda ishtirok etadi?**

- A) tartib sonni      B) chama sonni  
C) jamlovchi sonni      D) dona sonni

**9. Qaysi miqdor sonlaridan jamlovchi son hosil qilganda o'zak oxiridagi bir tovush tushib qoladi?**

- A) ikki, to'rt, uch      B) ikki, olti, yetti  
C) olti, besh, yetti      D) to'qqiz, yigirma, yetti

**10. Jamlovchi sonlar, odatda, qaysi sonlardan hosil qilinadi?**

- A) ikkidan yigirmagacha bo'lgan sonlardan  
B) ikkidan o'n beshgacha bo'lgan sonlardan  
C) beshdan o'ngacha bo'lgan sonlardan  
D) ikkidan yettigacha bo'lgan sonlardan

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. Suhbatni davom ettiring. Unda sonlarning ma'no jihatdan qaysi turlari ishtirok etganini aytинг.

**Suhbat**

- Nargiza, oilangiz haqida so'zlab bersangiz.
- Bizning oilamiz katta.
- Oilada necha kishisiz?
- Oilamiz yetti kishidan iborat: oyim, dadam, akam, opam, men, ukam va singlim.

2. O'z oilangiz haqida ona tilingizda so'zlab bering.

## 22-MAVZU. OLMOSH

(Ҷонишин)

**166-mashq.** Matnni o‘qing, olmosh so‘z turkumini topib daftaringizga yozing. Matn mazmunini ayting. “**Ovqatlanish odobi**” mavzusida o‘zaro suhabat uyuştiring.

Dasturxonda tansiq taom bo‘lsa-yu, oz bo‘lsa, unga hirs bilan tashlanmaslik kerak. Aksincha iltifot yuzisidan uni boshqalarga havola qilmoq lozim. Ovqat yeyilayotgan paytda har kim o‘z sheringining yeyayotgan luqmasiga qaramasligi, o‘z oldidan olmog‘i, biroq meva-cheva bo‘lsa, boshqa joydan ham tanlab olmog‘i mumkin.

Og‘ziga solingen ovqatdan suyak yoki biror nomunosib narsa chiqsa, og‘zidan olib dasturxonga qo‘ymasin. Masalan, og‘zida suyak bo‘lsa, uni o‘zgalarning diqqatini jalb qilmasdan, bekitib olsin. O‘zgalar ishtahasini buzadigan va iffatini ketkizadigan harakatdan nihoyatda ehtiyyot bo‘lsin. Og‘zidan qaytarib olingan narsani qaytarib idishga solmasin. Shunday yo‘l tutsinki, undan qolgan ovqatdan tabarruk sifatida ichuvchi o‘zga kishilarning nafratini qo‘zg‘otmasin.

Kishi mehmon bo‘lsa, qo‘lini mezbondan oldin artishga harakat qilsin. Ko‘pchilik qo‘l tortsa, u ko‘pchilikka ergashsin. Och bo‘lsa ham, buning ahamiyati yo‘q. Bordi-yu, mezbon bo‘lsa, o‘zgalar qo‘l tortganda ham u qo‘l tortishdan tiyilib tursin. Toki mehmonlarning birortasida yeyishni davom ettirish xohishi bo‘lsa, uyalib qolmasin.

Ovqat orasida suv ichish istagi paydo bo‘lsa, suvni ohistalik bilan ichsin. Toki ichayotganda kishilar uning og‘zi va xalqumi ovozini eshitmasin. Odamlar ovqat yeyayotganda tishini kovlamasin. Tishdan chiqqan narsani shunday joyga tashlasinki, toki odamlarning nafratini qo‘zg‘otmasin. Qo‘l yuvayotganda qo‘lni va tish ostini tozalashga alohida diqqat qilsin (“Xulosat al-hukamo” dan).

---

**Bilib oling!** Ot, sifat, son va ravish o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlar turkumi **olmosh** deyiladi. Olmoshlarning o‘ziga xos bo‘lgan so‘roqlari yo‘q. Olmosh ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. **Kishilik olmoshlari** shaxsni bildiradi: **men, sen, u, biz, siz, ular**. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. **Men, sen** olmoshlariga qaratqich, tushum kelishigi va xoslikni bildiruvchi **-niki** qo‘srimchasi qo‘shilganda bir n tovushi tushib qoladi: **seni, mening, meniki**. U kishilik olmoshiga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘srimchalari qo‘shilganda bir n tovushi orttiriladi: **unda, unga, undan**.

2. O'zlik olmoshi shaxs yoki predmetning tanholigini bildirish uchun ishlatalidigan o'z so'zidir: o'z uyi, o'z akasi. O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini olib, har uchala shaxs o'rnila ishlataladi va kishilik olmoshlariga sinonim bo'ladi: o'zim – men, o'zing – sen, o'zi – u.

3. Ko'rsatish olmoshlari narsa-buyum va shaxsni ko'rsatish uchun ishlatalidi: u, bu, shu, o'sha, ana, mana, mana bu, ana shu, anavi.

4. So'roq olmoshlari narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so'roqni bildiradi. kim? nima? so'roq olmoshlari shaxs va narsaga nisbatan ishlatalidi: Kim keldi? Nimalar olding?

Qanday, qanaqa, qaysi olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlatalidi: qaysi kitob, qanday kishi.

Qayerda, qani, qachon, nega, qayooqqa olmoshlari o'rin, payt, sabab, maqsad kabilarni aniqlash uchun ishlatalidi: qachon kelding? nega kelding? qayerda eding? qayooqqa ketyapsan?

5. Belgilash olmoshi narsa-buyum yoki ish-harakatni belgilash uchun ishlataladi. Predmet va shaxslarning yig'indisini yoki ularni ayirib ko'rsatadi: hamma, barcha, bari, jami, butun, yalpi, har kim, har nima, har bir, har qaysi, har qachon.

6. Bo'lishsizlik olmoshlari inkor ma'nosini bildiradigan olmoshlardir: hech narsa?, hech kim?, hech nima?, hech qachon?, hech qanday?, hech qanaqa?, hech qancha?

7. Guman olmoshlari shaxs, narsa-buyum, hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildiradi. Guman olmoshlari alla- yordamida hamda -dir qo'shimchasi orqali hosil qilinadi: allakim, allanima, allaqancha, allaqayerda, nimadir, kimdir, qayerdadir, qanchadir.

Olmoshlar birlik va ko'plik hamda kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi.

**167-mashq.** Berilgan gaplarni ko'chiring. Olmoshlarni topib, turini aniqlang.

1. Bola allanarsani sezgandek sharitta burilib qaradi (O'.H.). 2. Yo'q, Otaqo'zi hech qachon hech kimga xushomad qilgan emas! (O.). 3. Alimardon bir qarashdayoq otalik mehri bilan shu bola Shavkat ekanini, o'zining o'g'li, yagona ovunchog'i ekanini aniq bilib olgandi (O'.H.). 4. – Hu o'sha qovun polizida tuzoqqa ilingan bedanalar sizga intizor bo'lib yotishibdi, – dedi (S.A.). 5. Endi uni hech kim, hech nima bu aziz olamdan sug'urib ololmasdi (O'.H.). 6. Men hamma yozuvchilar o'zining boshidan o'tganini yozadi, deb o'ylayman (O'.H.). 7. ... "Ilhom parisi", "ilhom gulshani" yana allanimalar deyishadi-ku (O'.H.). 8. Bari ostin-ustin bo'lib ketdi (S.A.). 9. Chorshanba degan kun Hilolaning xayolida hech qachon shunchalik ko'p charx urmagan edi (O'.H.).

**168-mashq.** Jadvalda berilgan olmoshlarni atama daftaringizga ko'chirib yozing. Daftaringizni yopib, xotirangizda qolgan olmoshlarni aytинг.

Turlari	Olmoshlar
Kishilik olmoshlari	men, sen, u; biz, siz (sizlar), ular
O'zlik olmoshi	O'z
Ko'rsatish olmoshlari	bu, shu, u, o'sha, ana, mana, mana bu, mana shu, manavi, anavi
So'roq olmoshi	Kim? nima? qayer? qanaqa? qayerda? qaysi? galay? qancha? necha? nega?
Belgilash olmoshi	hamma, barcha, bari, har bir, har nima, har narsa, har handay, har haysi
Bo'lishsizlik olmoshi	hech kim, hech narsa, hech hachon, hech qanaqa, hech qaysi
Gumon olmoshi	kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqancha, allaqanday

**169-mashq.** Quyidagi olmoshlarni turlarga bo'lgan holda jadvalga joylashtiring.

Hamma, men, hech qachon, allakim, nega, qancha, bari, birov, o'zim, bizlar, necha, jami, kimdir, allaqayer, mana, o'sha, o'shancha, har kim, anavi, nechun, har qaysi, siz, bu, ular, allaqancha, bir nima, hech kim, har qachon, bir necha, o'zları, qayerga, hech nima, kimdir, allaqachon, shuncha, qaysi, sen, qachondir, ular, har qayerda, ana shu, u, butun, yalpi, barcha, nechanchi, o'zingiz.

Kishilik olmoshi	Ko'rsatish olmoshi	O'zlik olmoshi	Bo'lish- sizlik olmoshi	Gumon olmoshi	Belgi- lash olmoshi	So'roq olmoshi

**170-mashq.** Maqollarni o'qing, mazmunini tushuntiring. Olmoshlarni aniqlab tagiga chizing.

1. Har kim o'z uyida sulton.
2. Har kim o'ziga – xon, o'ziga – bek.
3. Har kimning o'z fikri bor.
4. Har kim o'z uyasida erkin.

**171-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

- |  |  |
|--|--|
| 1. Ot-u sifat, sonlarga,<br>Ham otlashgan so'zlarga<br>Har doim o'rribbosar.<br>Otlar kabi turlanar?   | 3. Har kimni, har narsani<br>Belgilaydi o'zлari.<br>Berilgan bu misolda<br>Qator kelgan o'zлari? |
| 2. Nomi, ma'nosi so'roq,<br>Oxirida bor so'roq?  | 4. Ma'nosi gumon taxmin,<br>Aniqlik bo'lmas yaqin?   |
| 5. Kasb-u kori har narsani ko'rsatish.<br>Kishi diqqatini o'ziga tortish.<br>Jo'nalish-u o'rinn-payt hamda chiqish<br>Kelishikda bor n harfin orttirish? |  |

#### Atamalar lug'ati

1. Olmosh – чонишин
2. Ko'rsatish olmoshi – чонишини ишорати
3. Kishilik olmoshi – чонишини шахсий-соҳибӣ
4. O'zlik olmoshi – чонишини нафсӣ-таъкидӣ
5. So'roq olmoshi – чонишини саволӣ
6. Belgilash olmoshi – чонишини номуайяни
7. Gumon olmoshi – чонишини таъинӣ
8. Bo'lishsizlik olmoshi – чонишинҳои муштарат
9. Bo'lishsizlik olmoshi – чонишинҳои исмӣ

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Olmosh deb nimaga aytildi?
2. Olmosh ma'nosiga ko'ra necha turga bo'linadi? Ular qaysilar?
3. Olmoshning qaysi turi har uchala shaxs o'rnida ishlatalidi?
4. Barcha, hamma, bari, yalpi, butun so'zлари ma'nolariga ko'ra olmoshning qaysi turiga mansub?

5. So‘roq olmoshlari haqida gapiring.
6. Guman olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
7. Bo‘lishsizlik olmoshlari qanday hosil bo‘ladi?
8. Olmoshga aloqador tovush o‘zgarishlari haqida so‘zlab bering.

### Test

- 1. Egalik qo‘srimchasini olib, kishilik olmoshini uchala shaxsda ham ko‘rsata oladigan so‘zni toping.**
  - A) kim?
  - B) o‘sha
  - C) hamma
  - D) o‘z
- 2. Boshqalarni hurmat qilish o‘z-o‘zini hurmat qilishga olib keladi. Ushbu gapda olmoshning qaysi turi qo‘llangan?**
  - A) kishilik olmoshi
  - B) ko‘rsatish olmoshi
  - C) o‘zlik olmoshi
  - D) gumon olmoshi
- 3. Belgilash olmoshi ishtirok etgan gapni toping.**
  - A) Axloqqa tayanmagan ilm hech narsaga arzimaydi.
  - B) O‘zini hurmat qilgan odam boshqalarni ham izzat-ehtiromga o‘rgatadi.
  - C) So‘z qanday ishga yo‘llashi bilangina qimmatlidir.
  - D) Hamma qiyinchiliklardan faqat mehnat bilan qutulish mumkin.
- 4. U, bu, shu, o‘sha olmoshlari qaysi kelishik qo‘srimchalari bilan qo‘llanganda bir -n tovushi orttiriladi?**
  - A) jo‘nalish, o‘rin-payt, tushum kelishigi
  - B) o‘rin-payt, qaratqich, jo‘nalish kelishigi
  - C) jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi
  - D) qaratqich, chiqish, o‘rin-payt kelishigi
- 5. Jamlash, umumlashtirish ma’nosini ifodalovchi olmoshlar berilgan qatorni aniqlang.**
  - A) har kim, har qaysi, har qachon
  - B) qay bir, allakim, hech nima
  - C) har doim, ba’zan, allaqanday
  - D) barcha, hamma, bari
- 6. Kelishik qo‘srimchalarini qabul qilmaydigan so‘roq olmoshini toping.**
  - A) necha?
  - B) qancha?
  - C) nega?
  - D) nima?
- 7. Qaysi turdagи olmoshlarning ba‘zilariga qaratqich va tushum kelishigi qo‘srimchalari qo‘silganda bir -n tushib qoladi?**
  - A) o‘zlik olmoshiga
  - B) ba‘zi ko‘rsatish olmoshlariga
  - C) ba‘zi kishilik olmoshlariga
  - D) ba‘zi so‘roq olmoshlariga

**8. Qaysi qatordagi olmosh shaxsning tanholigini bildiradi?**

- A) hech kim, hech nima, hech qanday    C) allakim, nimadir, hamma  
B) bu, shu, o'sha                                      D) o'zim, o'zing, o'zi

**9. Bo'lishsizlik olmoshi qaysi gapda qo'llangan?**

- A) Olg'irlar hech narsadan jirkanmaydilar.  
B) O'z tilini idora qilolmaydigan odamda haqiqat bo'lmaydi.  
C) Iroda barcha dori-darmonlardan ko'ra ko'proq yordam beradi.  
D) Yoshlikda nimani eksang, ulg'ayganda o'shani o'rasan.

**10. Tarkibida gumon olmoshi qo'llangan gapni belgilang.**

- A) Hech kim uni xunuk demaydi.  
B) Birov uni bo'g'ayotgandek yelkalarini qimirlatib, nafasini rostladi.  
C) Bu hovuz ikki odam bo'yи chamasi chuqur edi.  
D) Faqat o'zigagina tushunarli doirachalar chiza boshladi.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “O‘zbek tili” faniga oid o‘qituvchi yoxud ilmiy rahbar yordamida o‘qigan ilmiy, ilmiy-usuliy maqolangizga taqriz yozing. Yozgan taqrizingizni guruhda o‘qib bering.

2. “Oziq-ovqat do‘konida” mavzusida do‘stingiz bilan suhbat matrnini tuzing.

3. Matnda ishtirok etgan olmoshlarning turi va gapdagi vazifasini aniqlang.

4. Suhbatni yoningizda o‘tirgan talaba bilan birgalikda o‘z ona tilingizda so‘zlab bering.

## 23-MAVZU. FE'L

(Феъл)

**172-mashq.** Matnni o'qib, fe'llarni toping. Qanday so'roqqa javob bo'lishi va gapdag'i vazifasini aytинг. Kesim vazifasida kelgan fe'llarni ega bilan birga ko'chiring.

### Ko'kaldosh madrasasi

Ko'kaldosh madrasasi Toshkentdagi me'moriy yodgorlik. Madrasa shahar markazining Chorsu maydonida joylashgan. Buxoro xonining vaziri Qulbobo Ko'kaldosh 1551-1557-yillarda qurdirgan. Buxoro shahrida ham shu nomdagi madrasani Qulbobo Ko'kaldosh 1568-1569-yillarda qurdirgan. Binoda hozir Buxoro viloyat "Oltin meros" jamg'armasi joylashgan.

Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasining peshtog'i janubga qaragan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan.

Masjid va darsxonalarining tomi o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat. Miyonsaroy yetti gumbazli. Chorsu hovlisi keng, hujralar va ochiq ayvonlar bilan o'rالgan. Hovlining atrofidagi hujralar 38 ta bo'lib, darsxona va masjid bilan o'zaro bog'langan. Madrasa dastlab uch qavatli bo'lган. Peshtog'i bilan birga balandligi 19 metr 73 sm bo'lib, sirkor parchin va girihi naqshlar bilan bezatilgan.

Ko'kaldosh madrasasi XVIII asr boshlarida qarovsiz holga kelib qolgan va undan karvonsaroy ombori sifatida foydalanilgan. 1886-91-yillarda Furqat, 1910-11-yillarda Hamza unda istiqomat qilgan.

Madrasanining old tomoniga an'anaviy usulda zinapoya ishlangan. Ko'kaldosh madrasasi 1991-yildan O'zbekiston Musulmonlari diniy idorasi tasarrufida. Binoda shu idoraga qarashli o'rtalik maxsus islom bilim yurti joylashgan.

---

**Bilib oling!** Predmetning harakatini bildirib, nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumi fe'l deyiladi.

Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shakllarga ega, zamon, shaxs-son ifodalay oladi, o'timli – o'timsizlik xususiyatiga ega, o'zining vazifadosh shakllariga ega. Fe'llar gapda ko'pincha kesim vazifasini bajaradi: Bahor keldi. Bahor – ega, keldi – kesim.

Bo'lishsiz fe'llar bajarilmagan, bajarilayotgan va bajarilishi kutilayotgan harakatni ifodalaydi: o'qidi, boryapti, yozmoqchi.

Bo'lishsiz fe'llar bajarilmagan, bajarilmayotgan va bajarilmaydigan harakatni ifodalaydi: o'qimadi, yozmayapti, bormaydi yoki bormoqchi emas.

Fe'lning bo'lishli shakli maxsus qo'shimcha orqali yasalmaydi. Bo'lishsiz shakl esa maxsus grammatik vositalar orqali (fe'l negiziga **-ma** qo'shimchasini qo'shish, fe'llardan keyin **emas**, yo'q so'zlarini keltirish, fe'llardan oldin **na** so'zini keltirish yoki ohang yordamida) hosil qilinadi: Kelgani yo'q. Na yozdi, na o'qidi.

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarga bog'lana oladigan fe'llardir: yozdi (nimani?), ko'rni (kimni?), tanidi (kimni?). Xatni yozdi. Kitobni o'qidi. Dugonamni ko'rdim. Shoirani tanimadi.

O'timsiz fe'llar tushum kelishigidagi so'zga bog'lana olmaydi: yugurdi, bordi, o'tirdi, keldi. Maktabga bordi. Uyda o'tirdi.

**173-mashq.** O'timli va o'timsiz fe'llarni topib, ma'nosidagi farqni izohlang.

1. Mehmonxona yonidagi yerosti yo'lidan o'tib, gulzor maydonga chiqishdi.
2. Muqaddam uning sidqidildan gapi rayotganini payqdadi.
3. U xuddi oyga o'xshardi.
4. Alimardon o'zining nima uchun bunchalik tez tanilib ketganligini biladi.
5. U odamlarning yuragini qitiqlash sirlarini o'rganib oldi.
6. Qo'shiqdagi har bir yangi ohang, tomoshabinning zavqini toshirib yuboruvchi har bir harakat olam-olam olqish hadya etishi aniqligini tushunib qoldi (O'.H.).
8. Bashirjon ustma-ust jiringlayotgan trubkani olib: "Alyo", deganda Vafo attor qabulxonaga chiqib ulgurgan edi (N.A.).
9. Nurmat tog'a shiyponda mudrab o'tirardi.(S.A.).
10. Mirvali qoshlarini chimirdi. (S.A.).
11. So'nggi satrni baland ovoz bilan aytgandan so'ng, suroxiydagi mayni oyog'i ostidagi chuqurga sepib tashladi (P.Q.).
12. Baxillikni tug'diruvchi illat, asosan, bola tarbiyasiga noto'g'ri qaralgan joyda uchraydi (M.I.).

**174-mashq.** Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang. Ularni ikki ustun shaklida yozib, bo'lishsizlik ifodalovchi vositalarning tagiga chizing hamda bo'lishsiz fe'llarni bo'lishliga aylantiring.

1. U osilib qolgan joydan na pastga tushib bo'lardi, na yuqoriga chiqib bo'lardi (S.A.).
2. Bundan boshqa yordamga na ona, na himmatilla muhtoj! (Sh.).
3. Aslida Satimxon ishxonasiga bugun borgani yo'q (Sh.).
4. Uni hech kim tanimaydi.
5. O'g'lining g'amida adoyi tamom bo'libdi, bu yaqin haftada ichiga issiq kirganga o'xshamaydi, lekin ko'zi o'g'liniki kabi chaqnab turibdi (Sh.).

**175-mashq.** Gaplarni o'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlab, bo'lishsizlikni ifodalovchi vositalarning tagiga chizing.

1. Tolibjon singlisini ko'p yillardan beri ko'rmagan (S.A.).
2. U osilib qolgan joydan na pastga tushib bo'lardi, na yuqoriga chiqib bo'lardi (S.A.).
3. Bundan boshqa yordamga na ona, na Himmatilla muhtoj! (Sh.)
4. Aslida Satimxon ishxonasiga bugun borgani yo'q (Sh.).
5. Uni hech kim tanimaydi.
6. O'g'lining g'amida adoyi tamom bo'libdi, bu yaqin haftada ichiga issiq kirganga o'xshamaydi,

lekin ko‘zi o‘g‘liniki kabi chaqnab turibdi (Sh.). 7. Hilola bunday javobni kutmagan edi (O‘.H.). 8. Bir yildan so‘ng Otabek usta Olim bilan birga Toshkentga keldi. 9. Hoji va O‘zbek oyim og‘iz ochib undan ranjiy olmadilar. 10. Otasi va onasi bilan ochilib so‘zlashmadi (A.Q.). 11. Otabek ortiga qaramasdan arava haydar edi (A.Q.).

### 176-mashq. Topishmoqlarni o‘qing va javobini toping.

- |  |  |
|--|--|
| 1. Ma’nosidan anglashilar harakat,<br>Harakatdan kelar sog‘lik, barakat. | 3. To‘liq so‘zday ko‘rinar,<br>Lekin nomi to‘liqsiz. |
| 2. Ma’nosidan bilinur,<br>Bo‘lgan, bo‘lar harakat?                       | 4. Nutqimizda bo‘lmasa,<br>Gap yaxshi bo‘lmas u siz? |

### Atamalar lug‘ati

1. Fe’l – феъл
2. Bo‘lishli fe’l – феъли тасрифшаванда
3. Bo‘lishsiz fe’l – феъли тасрифишаванда
4. Fe’l zamonlari – замонҳои феъл
5. Fe’l mayllari – сиғаҳои феъл
6. O‘timli fe’l – феъли гузаранда
7. O‘timsiz fe’l – феъли монда
8. Shaxs-son – шахс ва шумора
9. Tuslanish – тасрифёбӣ
10. Fe’lning turlanishi – тасрифшавини феъл
11. Fe’lning sintaktik vazifasi – вазифаи синтаксисии феъл

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Fe’l so‘z turkumi deb nimaga aytildi?
2. Fe’l gapda, asosan, qanday vazifa bajaradi?
3. Tushum kelishigidagi so‘zni qanday fe’llar boshqarib keladi?
4. O‘timsiz fe’llar tushum kelishigidagi so‘z bilan bog‘lana oladimi?
5. Bo‘lishli fe’l deb nimaga aytildi?
6. Harakatning bajarilmaganligi, bajarilmayotgani va bajarilmasligini ifodalovchi fe’llar nima deb ataladi?
7. Bo‘lishsizlik qanday grammatik vositalar orqali hosil qilinadi?

### Test

#### 1. Fe'l so'z turkumiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.

A) Harakat ma'nosini bildirib, nima qildi? nima qilyapti? qay tarzda? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar fe'l deyiladi.

B) Predmetning harakatini bildirib, nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumi fe'l deyiladi.

C) Harakatning belgisini bildirib, qanday? qay tarzda? qancha? so'roqlariga javob bo'ladigan so'z turkumi fe'l deyiladi.

D) Predmetning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'z turkumi fe'l deyiladi.

#### 2. Fe'l so'z turkumining so'roqlari to'g'ri berilgan qatorni belgilang:

A) nima qilyapti? nima qilmoqchi? qay tarzda?

B) nima qildi? qanaqa? nima qilyapti?

C) qanday? nima qilmoqchi? nima qildi?

D) nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi?

#### 3. Qaysi qatorda bo'lishlilik ma'nosi ifodalangan?

A) yozmay tur                    C) yozmay qo'yma

B) yoza ko'rma                D) na o'qidi, na yozdi

#### 4. Bo'lishsizlik shakli orqali bo'lishlilik mazmuni ifodalangan gapni aniqlang.

A) Men xalqni aldamoqchi emasman.

B) Yordam bersangiz jamoa xo'jaligini ko'tarish uchun kuch quvvatimni ayarmidim.

C) Ismoiljon ba'zi masalalarda rais bilan kelisholmay qoldi.

D) Bu hol qishloqda sezilmay qolmaydi.

#### 5. O'timli fe'llar qaysi kelishikdagi so'zlarni boshqarib keladi?

A) tushum kelishigidagi so'zlarni

B) chiqish kelishigidagi so'zlarni

C) qaratqich kelishigidagi so'zlarni

D) barcha kelishik shakllaridagi so'zlarni

#### 6. O'timli fe'llar to'g'ri berilgan qatorni belgilang?

A) kitob o'qidi, xat yozdi, ishtahamni bo'g'di

B) məktəbda o'qiymən, yə'l yurdi, xat yozdi

C) uyga yugurdi, məktəb bordı, dars təyyorladı

D) həkəyə o'qidim, kitobdan o'qidim, xat yozmoqchiman

**7. Fe'llardan keyin *emas*, *yo'q* so'zlarini keltirish, fe'llardan oldin na so'zini keltirish yoki ohang yordamida fe'lning qanday shaklini hosil qilish mumkin?**

- A) fe'lning bo'lishli shaklini                    C) o'timli fe'llarni  
B) fe'lning bo'lishsiz shaklini                    D) o'timsiz fe'llarni

**8. Bo'lishsiz fe'llar qaysi qatorda berilgan?**

- A) qiziqmoq, kiyinmoq, bajarmoq  
B) egallamoq, aytmoq, sezmoq  
C) ulug'lamoq, to'xtatmoq, eslamoq  
D) bormoqchi emas, o'qimay qo'ydi, qurmagan

**9. Tasdiq ma'nosi (bo'lishlilik) ni ifodalovchi fe'l qaysi gapda qo'llangan?**

- A) Oftob ko'rinas edi.  
B) Buyuk ishlar birdan qilinmaydi.  
C) Munisson va'da bergen vaqtda kelmay qolmaydi.  
D) Agar maqsadsiz bo'lsang, hech narsa qilolmaysan.

**10. Fe'l qaysi qatorda kesim vazifasini bajargan?**

- A) Ikki o'n besh – bir o'ttiz.  
B) Opamning qizi sakkiz yoshda.  
C) Akamning zehni juda o'tkir.  
D) Izlagan imkon topadi.

#### **Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

- Universitet kutubxonasini tasvirlab matn tuzing.
- Matndagi fe'llarni topib, o'timli yoki o'timsiz, bo'lishli yoki bo'lishsiz ekanini aytинг.
- Bo'lishli-bo'lishsizlik qanday vosita orqali ifodalanganini aniqlang.

## **24 -MAVZU. FE'L NISBATLARI: ANIQ, ORTTIRMA, O'ZLIK, MAJHUL, BIRGALIK**

(Шакл ва тарәҳон феъл: муаяян, номуаяян, монда, гузаранда, умумай)

177-mashq. Matnni o'qing, majhul nisbatdagi fe'llarni topib, ko'chiring. O'zlik nisbatdan farqini ayting.

### **Mir Arab madrasasi**

Buxorodagi me'moriy yodgorliklardan biri Mir Arab madrasasidir. Bu muhtasham bino Buxoro xoni, mumtoz shoir Ubaydullaxon in'om etgan mablag' hisobiga Shayx Abdulla tomonidan qurilgan. Mir Arab 22 yoshida Samarqandga kelib Xoja Ahrorga shogird tushgan. U naqshbandiya tariqatining rivojiga katta hissa qo'shgan. Madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmagan. 1536-yil boshida Mir Arab vafot etgan. Uning vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan.

Madrasa Minorayi Kalonning qarshisida joylashgan. Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida besh gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, shuningdek, go'rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg'unlashgan (saqlanmagan). Go'rxona shipi va devorlari ganch o'ymakorligida bezatilgan.

Go'rxonada Ubaydullaxonning yog'ochdan hotamkori usulida ishlangan sag'anasi, Mir Arab va uning qarindoshlari qabrлari bor.

Madrasa hovlisi to'rtburchak shaklida bo'lib, atrofini oldi ravoqli, ikki oshiyonli 114 hujra o'rabi turadi.

Rivoyatlarga ko'ra, madrasa asosi chuqur qilinib, tog' toshlari bilan mustahkamlangan. Qor, yomg'ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga chiqarilgan.

Mir Arab madrasasida O'rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga xos an'anaviy loyiha va mujassamot o'z ifodasini topgan.

Buxoroning 2500-yilligi munosabati bilan madrasa peshtog'i va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi. Hozirgi paytda binoda diniy o'quv yurti joylashgan. Madrasada talabalar islom dinidan saboq oladilar.

Madrasa O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida. O'quv muddati to'rt yil. O'quv yurti kunduzgi bo'limga 15 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotli kishilarni o'qishga qabul qiladi. O'quv yurtida diniy fanlar hamda umumta'lim fanlari o'qitiladi. Talabalarga arab, ingliz, rus va fors tillari ham o'rgatiladi. Darslar o'zbek va arab tillarida olib boriladi.

**Bilib oling!** Ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi.

Ular 5 xil: aniq nisbat, o'zlik nisbat, majhul nisbat, birgalik nisbat, orttirma nisbat.

**Aniq nisbatdagi fe'llar** harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi va ularda maxsus nisbat qo'shimchalari bo'lmaydi: o'qidi, boryapti, uxlamoqchi.

Demak, aniq nisbatdagi fe'llarda zamon va shaxs-son qo'shimchalaridan boshqa qo'shimcha, ya'ni fe'l nisbatlarini ko'rsatuvchi qo'shimcha bo'lmaydi: 1. Qor yog'a boshladi. 2. Ukam bog'chaga bormoqchi emas. 3. She'rni baland ovozda o'qidi.

**O'zlik nisbatdagi fe'llar** ish-harakatning boshqa narsa-buyumga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganini anglatadi.

O'zlik nisbati fe'l o'zagiga -n (-in), -l (il) qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi: tarandi, sevindi, sudraldi.

**Majhul nisbatdagi fe'llarda** ish-harakatning bajaruvchisi noma'lum bo'ladi. Fe'l o'zagiga -n (-in), -l (il) qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi: olindi, borildi, boshlandi, to'plandi, yuvildi, taraldi, kiyildi, ko'rildi. 1. Majlis boshlandi. 2. Mehmonga borildi. 3. Kirlar yuvildi. 4. Ma'lumot to'plandi.

**Birgalik nisbatdagi fe'llarda** harakat bir necha shaxs tomonidan bajariladi. quyidagicha yasaladi: a) -sh (-ish): yozishdi, so'zlashdi: gapirishdi; b) -lash (la+sh): bahslashdi, gaplashdi, subbatlashdi.

**Orttirma nisbatdagi fe'llarda** ish-harakat boshqa birov ta'siri natijasida bajariladi. U quyidagicha yasaladi: 1. -t: ko'payt, qulat, uxlat. 2. -tir (-dir): ayttir, kiyintir, kuldir. 3. -qiz (-g'iz), -qaz (-gaz), -qiz, -piz: turg'iz, ketgiz, o'tkaz, tutqiz, o'tkaz, yurgiz. 4. -sat (sa+t): ko'rsat. 5. -iz: oqiz, tomiz. 6. -ar, -ir: chiqar, tushir, kechir.

Bir fe'lga orttirma nisbat hosil qiluvchi birdan ortiq qo'shimcha qo'shilishi ham mumkin: yozdir – yozdirtir, o'qit – o'qittir.

Fe'lga birdan ortiq nisbat yasovchi qo'shimchalar ketma-ket qo'shilishi mumkin: yuvintir, isitildi, yig'ishtirildi. Bunda fe'l nisbati oxirgi qo'shimchaga qarab belgilanadi.

Orttirma nisbat o'timsiz fe'llarni o'timli fe'lga aylantiradi: kel – keltir, yur – yurgiz.

**178-mashq.** Gaplarni o'qing. Aniq, o'zlik va majhul nisbatdagi fe'llarni topib, ularni uch ustunga ajratib daftaringizga yozing, ma'nosidagi farqni tushuntiring.

1. Muqaddam tikish-bichish to'garagiga yozildi. 2. Bu shovqin-suron hech narsani isbotlamadi. 3. Bugun uzoq safardan qaytayotgan do'stlarimni ko'rib qoldim. 4. Otabek usta Olim bilan Marg'ilonga jo'nadi (A.Q.) 5. Qoq peshinda

o'rtoqlari bilan ariqda mazza qilib cho'mildi. 6. Otabek orqasidagi yarim yalang'och kulakani ko'rib, bir necha qadam qabr tomonga tashlandi (A.Q.). 7. Zaynabning kiyimi atala bilan belandi (A.Q.). 8. Chala-chulpa ovqatlandi-yu, tashqariga chiqib ketdi (T.M.). 9. Odamlar nazdida bu yilgi bahor uzoqqa cho'zilgandek edi (N.A.). 10. Sal o'tmay, uy tomondan chinqiriq eshitildi (T.M.).

**179-mashq.** Birgalik va orttirma nisbat shaklidagi fe'llarni topib, ularning yasalishi va ma'nosini tushuntiring. Nisbat yasovchi qo'shimchaning tagiga chizing.

1. Ular bir necha daqqaq Jim qolishdi (Sh.). 2. Direktor Komilning kiftiga qo'l tashlaganicha gap uqtiradi (T.M.). 3. Yangi ariq tomonga ketishdi (Sh.). 4. "Qizil etik moda emas! – deb o'yladi. – qora xromdan tiktirish kerak... Ikkita ortiqcha tiktirsam – bittasi o'zimga, bittasi Shamsi akamga.." (N.A.). 5. Yakka cho'pdan o'tib o'ngga burilishdi (Sh.). 6. Ariq labiga o'tirishdi (Sh.). 7. Uning izidan chust do'ppi, oq yaktak kiygan, beliga atlas qiyiqcha bog'lagan uch sozanda bir xildagi qizil etikchalarini yaltiratib eshikdan chiqishdi (N.A.).

**180-mashq.** To'rt qismdan iborat bo'lган rasm tasvirning mazmunini nazarda tutib mos sarlavha tanlang. So'ng matn tuzing hamda savol-javob tashkil qiling.



## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Fe'l nisbati deb nimaga aytildi?
2. Aniqlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Ish-harakatning boshqa buyumga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganini fe'lning qaysi nisbati orqali ifodalash mumkin?
4. O'zlik va majhul nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar bir xil. Ularni qanday farqlash mumkin?
5. Birgalik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
6. Birdan ortiq nisbat qo'shimchasini olgan fe'lning qaysi nisbatda ekanligini qanday aniqlash mumkin?
7. Orttirma nisbat va uning ifodalanishi haqida so'zlang.

### **Test**

- 1. Qaysi nisbatni hosil qiluvchi qo'shimchalar bir fe'lga birdan ortiq qo'shilishi mumkin?**
  - A) orttirma nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar
  - B) o'zlik nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar
  - C) birgalik nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar
  - D) majhul nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar
- 2. Isitildi so'zida qaysi nisbatlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar mavjud?**
  - A) orttirma, aniq nisbat
  - B) o'zlik va majhul nisbat
  - C) orttirma va majhul nisbat
  - D) aniq va birgalik nisbat
- 3. Qaysi qatordagi gapda majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan?**
  - A) Tiniq ko'kda oq bulut parchalari ko'rindi.
  - B) Ortiq yosh havaskorlar to'garagiga yozildi.
  - C) Uylar, kutubxonalar, klublar qurildi.
  - D) O'qituvchimiz ko'rsatmasi bilan safga tizildik.
- 4. Birdan ortiq nisbat qo'shimchalarini olgan fe'lning qaysi nisbatdaligini qanday aniqlash mumkin?**
  - A) nisbat hosil qiluvchi birinchi qo'shimchaga qarab
  - B) nisbat hosil qiluvchi oxirgi qo'shimchaga qarab
  - C) bir fe'lga birdan ortiq nisbat hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilmaydi
  - D) o'zakka nisbatan eng yaqin joylashganligiga qarab
- 5. Yuvintirishdi fe'lning qaysi nisbatdaligini aniqlang.**
  - A) o'zlik nisbatda
  - B) majhul nisbatda
  - C) birgalik nisbatda
  - D) aniq, majhul va birgalik nisbatlarda

**6. Qaysi qatordagi fe'llarda ikkitadan nisbat qo'shimchasi mavjud?**

- A) o'qittirdi, yozdirildi, kiyintirdi
- B) surishtirdi, o'qitdi, o'tkazdi
- C) keltirdi, yozdi, borildi
- D) kulishdi, borishdi, yordamlashdi

**7. Quyidagi gapda fe'l nisbatini aniqlang. *Manzura shosha-pisha ovqatlandi.***

- A) aniq nisbat
- B) birgalik nisbat
- C) orttirma nisbat
- D) o'zlik nisbat

**8. Birgalik nisbat shaklidagi fe'llar qatorini belgilang.**

- A) gullatmoq, bitirmoq, yedirmoq
- B) taranmoq, to'latmoq, o'tkazmoq
- C) kiyilmoq, taralmoq, yuvilmoq
- D) kulishmoq, ekishmoq, kuylashmoq

**9. Yo'ichi og'ir xo'rsindi. Ushbu gapda qo'llangan fe'l qaysi nisbatda?**

- A) aniq nisbatda
- B) majhul nisbatda
- C) orttirma nisbatda
- D) o'zlik nisbatda

**10. O'zlik nisbat shaklidagi fe'l qaysi gap tarkibida berilgan?**

- A) Feruza katta yo'lning toshlariga qoqilib, idora binosiga yetib keldi.
- B) ...texnika gektarga qarab bo'lib berildi.
- C) Anvar duradgorlik to'garagiga yozildi.
- D) Dasturxonga noz-ne'matlar tortildi.

#### **Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

**1. Yechmoq, kiymoq fe'llaridan besh xil nisbatdagi fe'l hosil qiling.**

2. Badiiy asarlardan fe'l nisbatlarining har bir turiga ikkitadan gap topib, daftaringizga yozing.

3. Harakat va uning bajaruvchisi orasidagi munosabatga e'tibor bering.

4. Shoir Mirzo Boburning quyidagi ruboiylarini yod oling va shulardan birini tojik tiliga tarjima qiling.

Har kimki, vafo qilsa – vafo topqusidir!

Har kimki, jafo qilsa – jafo topqusidir!

Yaxshi kishi ko'rмагай yomonlik hargiz,

Har kimki, yomon bo'lsa – jazo topqusidur!

Kim bor anga tolibi – ilm kerak,

O'rgangani ilm tolibi ilm kerak!

Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q,

Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.

Davlat bila shod-u shodmon bo‘lg‘aysen,  
Shavkat bila mashhuri jahon bo‘lg‘aysen.  
Ko‘nglungdagidek dahr aro kom surub,  
Bu dahr borincha Komron bo‘lg‘aysen.

Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,  
Sabrimni kam-u, g‘amimni bisyor aylar.  
To dahr durur budur aning rasmikim,  
Oyrib kishini azizidin xor aylar.

## 25-MAVZU. FE'L ZAMONLARI (Замонҳои феъл)

**181-mashq.** Matnni o‘qing, fe’llarni topib, qaysi zamonda qo‘llanganini aniqlang. Kelishik qo‘srimchalarining belgisiz qo‘llanishini kuzating.

**Ismoil Somoni maqbarasi**



1.Buxorodagi ko‘hna me’moriy yodgorliklardan biri Somoniylar davlati asoschisi Ismoil Somoni va uning avlodlari maqbarasidir. Bu me’moriy yodgorlik taxminan 864-868-yillarda qurilgan.

Maqbaraning to‘rt tomoni bir xil chordara shaklida, jimgima g‘ishtin bezaklari qamish yoki bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Usti gumbaz bilan qoplangan. To‘rt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga to‘rt qubba o‘rnatilgan. Devor tepasida kungurasimon qirqta darcha. Har bir darcha hoshiyalangan.

Bino ichkarisi tashqaridagi bezak bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uslub jihatdan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag‘alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar sakkiz qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirkaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan.

1927-yilgi arxeologik qazilma vaqtida xona sahnida ikki yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. Yozma manbalar va rivoyatlarga ko‘ra, maqbarani Ismoil Somoniyanotasining qabri ustiga qurdirgan. Sharq tomondagi sag‘ana Ismoil Somoniyan qabridarb taxmin qilinadi. Narshaxiy “Buxoro tarixi” kitobida, Ismoil Somoniyning o‘g‘li amir Ahmad 914-yili o‘z qullari tomonidan o‘ldirilgan va mazkur maqbaraga dafn etilgan, deb yozadi.

Ismoil Somoniyan maqbarasi O‘rta Osiyo me’morchiligi va san’ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan. Uning tuzilishida qadimgi sug‘d me’morchiligining an’analari saqlanib qolgan. 1925-yili binoning gumbazi ta’mir etilgan. 1937-39-yillarda binoni ko‘mib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, B.Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligidagi ta’mirlangan.

Ismoil Somoniyan maqbarasi shaharning madaniyat va istirohat bog‘ida joylashgan.

Ismoil Somoniyan maqbarasi loyihasidan tortib, hajman tuzilishigacha geometrik tartib va qoida asosida yaratilganligi aniqlangan (“O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” dan).

---

**Bilib oling!** Harakatning nutq paytiga munosabatini ko‘rsatuvchi kategoriya **zamon kategoriyasi** deyiladi. Fe’l zamонлари uch ko‘rinishga ega:

**1.O‘tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon.**

**O‘tgan zamon** fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi.

O‘tgan zamon fe’li quyidagi qo‘srimchalar yordamida hosil qilinadi:- di qo‘srimchasi yordamida (yozdim, yozding, yozdi, o‘qidim, o‘qiding, o‘qidi. M: Rustam akasiga xat yozdi); -gan qo‘srimchasi yordamida (yozganman, yozgansan, yozgan, o‘qiganman, o‘qigansan, o‘qigan. M: “O‘tkan kunlar” romanini berilib o‘qiganman); -i(b) qo‘srimchali ravishdoshni shaxs-son bilan tuslash orqali (yozibman, yozibsan, yozibdi, o‘qibman, o‘qibsan, o‘qibdi. M: Manzura darsdan so‘ng kutubxonaga boribdi); -gan (yotgan), -i(b), -ar qo‘srimchalariga edi to‘liqsiz fe’lini qo‘sish yordamida hosil qilinuvchi shakllar (yozgan edim, yozgan eding, yozgan edi, o‘qib edim, o‘qib eding, o‘qib eding, yozar edim, yozar eding, yozar edi. M: O‘ktam do’stiga harbiy xizmatdan xat yozar edi).

**Hozirgi zamon** fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda bajarilayotgan yoki bajarilmayotganini bildiradi. Hozirgi zamon fe’li quyidagi qo‘srimchalar va ko‘makchi fe’llar yordamida hosil qilinadi: -yap (o‘qiyapman, kelayapman. Uydan kelayapman); -yotir (o‘qiyotir, kelayotir. Kitobni o‘qiyotirman); -yotib (o‘qiyotibman, kelayotibman. Kutubxonadan kelayotibman); -moqda (o‘qimoqdaman, kelmoqdaman. Qiziqarli kitob o‘qimoqdaman); yot, tur,

o'tir, yur ko'matchi fe'llari yordamida (yozib yotibdi, yozib turibdi, o'qib o'tiribdi, o'qib yuribdi. 1. Salim universitetda o'qib yuribdi. 2. Zulfiya uyda kitob o'qib o'tiribdi. 3. Jasur Toshkentdan xat yozib turibdi. 4. Karim insho yozib yotibdi).

**Hozirgi zamon** shakllari harakatning nutq jarayonidan oldin boshlanganligi va nutq jarayonida ham tugamaganligini bildiradi.

**Kelasi zamon** fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalaydi. Kelasi zamon fe'llari hozirgi zamon shakllari bilan bog'langan bo'ladi. Chunki hozirgi zamon fe'l shakllari orqali ifodalangan harakat nutq jarayonida tugallanmay, undan keyin ham davom etishi mumkin bo'lgan harakatni bildiradi. Kelasi zamon fe'llari quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

-ajak, -yajak qo'shimchalariga shaxs-son shakllarini qo'shish bilan (borajakman, o'qiyajakman. Sayohatga, albatta, guruhimiz bilan borajakmiz!); moqchi, -digar qo'shimchalariga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan (bormoqchiman, o'qiydiganman. Ertaga darsdan keyin qishloqqa boradiganman); -r, -ar bilan yasalgan sifatdoshlarga tegishli shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan (borarman, kelmasman. Qorli tog'lar turar boshida, gul vodiylar yashnar qoshida); -a, -y bilan yasalgan ravishdoshlarga tegishli shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali. Bu tipdag'i fe'llar hozirgi, kelasi va umumzamon ma'nolarini ifodalaydi: 1. Akum zavodda ishlaydi (hozirgi zamon ma'nosida). 2. Dugonamnikiga mehmonga boraman (kelasi zamon ma'nosida). 3. Inson taqdirini o'z qo'li bilan yaratadi (umumzamon ma'nosida).

**182-mashq.** Nuqtalar o'rniغا berilgan fe'llardan mosini qo'yib ko'chiring. O'tgan va hozirg' zamon fe'llarini hosil qiluvchi qo'shimchalarining tagiga chizing.

1. Paxtakorlar oppoq paxtalarni . . . 2. Nafisa bog'dan chiroyli gullar . . . 3. Majlis uzoq . . . 4. Tog'da qip-qizil lolalar . . . 5. Men bu kitobni juda maroq bilan . . . 6. Singlimga xat . . . 7. Mayin shamol . . . 8. U bilan jiddiy . . . 9. So'zlarining yuragimga bir olam quvonch . . . 10. Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol . . .

baxsh etmoqda, terdi, kesar edi, ochilgan, ezyapman, gaplashdik, termoqdalar, davom etdi, esmoqda, o'qib chiqdim.

**183-mashq.** Gaplarni o'qing. Hozirgi va kelasi zamon fe'llarini aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib yozing. Zamon hosil qiluvchi qo'shimchalarining tagiga chizing.

1. Dorini yotishimda ichib olaman. 2. Shahnoza bosh ko'tarmay kitob o'qib o'tiribdi. 3. Bugun majlisga boradiganman. 4. "Nima bo'lsayam obro' olib berasiz, jon uka!".. (N.A.). 5. Mana endi o'zim kirib salom beraman. (Sh.). 6. Chol bog' oralab o'tib borayotsa, daraxtning baland shoxida bir bulbul shunday xonish

qilyaptiki, olam sukonatga qulog solib tinglamoqda (Sh.). 7. Pastda bolalar tuzoq qo'yib, poylab o'tiribdi (Sh.). 8. "Qo'y bulbul, o'z kuyingga o'zing mast bo'lib, g'aflatda qolma, tuzoqni ko'ryapsanmi?" (Sh.)

**184-mashq.** Fe'l mayllari haqidagi tojik tilidagi ma'lumotni o'qing va o'zbek tilga tarjima qiling.

**Замон.** Категорияни грамматикии феъл аст. Феълҳо, асосан, се замон доранд (ҳозира, оянда, гузашта), vale дар тоҷикӣ шаклҳои замонӣ вобаста ба сиғаҳо зиёда аз бистоянӣ. Замонҳои феъл муносибати гӯяндаро ба замони амалу ҳолат инфода мекунанд.

### Atamalar lug'ati

1. Fe'l zamonlari – замонҳои феъл
2. O'tgan zamon – замони гузашта
3. Hozirgi zamon – замони ҳозира
4. Kelasi zamon – замони оянда

### Test

1. *Bugun 62- poyezd bilan Buxoroga ketyapman. Ushbu gapda qaysi zamon ma'nosi ifodalangan?*

- |                  |                 |
|------------------|-----------------|
| A) o'tgan zamon  | C) kelasi zamon |
| B) hozirgi zamon | D) umumzamon    |

2. *Yuborilgan xatni oldim. Gapning qaysi zamonda ekanini aniqlang.*

- |                  |                 |
|------------------|-----------------|
| A) hozirgi zamon | C) umumzamon    |
| B) kelasi zamon  | D) o'tgan zamon |

3. *Hozir qorong'ida qayerga bordig-u, nimayam qildik. Ushbu gapda qaysi zamon ma'nosi ifodalangan?*

- |                         |                                |
|-------------------------|--------------------------------|
| A) kelasi zamon         | C) zamon ma'nosi ifodalanmagan |
| B) hozirgi-kelasi zamon | D) o'tgan zamon                |

4. *Berilgan gapdagи sifatdosh qaysi zamon ko'rsatkichini olgan? Derazasi ko'chaga qaragan uy oynalaridan tashqariga yorug'lik tarqalmoqda.*

- |   |
|---|
| A) sifatdoshda zamon ko'rsatkichi bo'lmaydi |
| B) hozirgi zamon                            |
| C) bu gapda sifatdosh ishtirok etmagan      |
| D) o'tgan zamon                             |

**5. Hozirgi zamon ko'rsatkichlari to'g'ri berilgan qatorni toping.**

- A) - di, - gan edi, - moqchi, - moqchi edi
- B) - moqda, - moqchi, - moqda edi
- C) - yap, - moqda, - yotir, - di
- D) - moqda, - yotib, - yotir, - yap

**6. Bilgan apib so'zlar, bilmagan qopib. Ushbu maqoldagi zamon ma'nosini aniqlang.**

- A) bu maqolning zamonini aniqlab bo'lmaydi C) umumzamon
- B) o'tgan zamon D) o'tgan va kelasi zamon

**7. Aytmagan bo'lsalar, mana endi eshitamiz. Nima deding, mulla Yo'ldosh? Gapda qaysi zamon ma'nosi ifodalangan?**

- A) zamon ma'nosi ifodalanmagan C) hozirgi zamon
- B) kelasi zamon D) o'tgan zamon

**8. -digan, -moqchi qo'shimchalariga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan fe'lning qaysi zamonini hosil qilish mumkin?**

- A) o'tgan zamon C) zamon hosil qilib bo'lmaydi
- B) kelasi zamon D) hozirgi zamon

**9. Hozirgi zamon shaklida qo'llangan fe'llar qatorini toping.**

- A) bormoqda edi, bormoqchiman, yozayapti
- B) o'qimoqda, uxlamoqchi, kelayotir
- C) o'qib yuribdi, o'qiyotgan edi, borajak
- D) yozib yuribdi, gapirmoqda, kelayotir

**10. Kelasi zamon shakllari to'g'ri berilgan qatorni belgilang.**

- A) - moqch., -ar, - ajak
- B) - moqda, -ar edi, -di
- C) - yotir, -ajak, - ajak(- yajak)
- D) - moqch. edi, -ayotgan edi, - ar edi

#### **Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

**1. Suhbatni davom ettiring. Unda ishtirop etgan fe'llarning zamonini aniqlab ustiga yozing.**

- Sen ertaga nima qilmoqchisan?
- Ertaga xoradosh do'stining tug'ilgan kuni. Unga sovg'a xarid qilaman.

**2. Suhbat mazmunini o'z ona tilingizda so'zlab bering.**

## 26 -MAVZU. FE'L MAYLLARI (Сиғаҳон феъл)

**185-mashq.** Matnni o'qing. Fe'l so'z turkumi va uning mayllarini aniqlang. Siz ota-onan hurmatini qanday va qay tarzda bajo keltirasiz? Shu haqda ma'lumot bering.

### Ota va ona haqini bilmak zikrida

Ey farzand, bilgilkim, aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli ota va onadur. Ota va onani nima uchun hurmat qilurman deb ko'nglingga kelturmajil, bilgilk, ular sening uchun o'limga ham tayyor turadurlar.

Har farzandki, oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado qilmoqdan holi bo'limg'usidur. Ota-onan farmonbardordur. Bu farmonbardorlikda ham ish bo'lg'ay va ham farmon bo'lg'ay. Ota-onaning ishi seni parvarish qilmoqdur va farmoni senga yaxshilik o'rgatmoqdur. Ey farzand, shul vajdin ota-onangni sag'al ham ranjitmagil.

Aytishlaricha, amiralmo'minin Alidan so'radilarki, "Farzandda ota-onaning haqi qanchadur?" Hazrat Ali dedi: "Haq taolo bu adabni Rasulning ota-onasi o'limidan ko'rguzdi. Nedimki, bu Hazrat ota-onasining hayotlik ayyomin topsa erdi, ularni o'zidan ilgari tutmoq, ularning haqini bilmoq va ularga farzandlik yuzidan tavoze' ko'rguzmoq vojib bo'lur erdi".

Bas, ota-onaning haqiga din nuqtayi nazaridan rioxal qilsang ham, aql yuzasidan, muruvvat yuzasidan rioxal qil va ko'rgil: ota-onan aslida seni jon va dil bila parvarish qilmishlar. Agar ular haqida kamchiliklar qilsang, taksir ko'rguzsang, sen hech yaxshilikka sazovor emasdursan, nedinkim har kishi aslini yaxshiligin bilmasa, o'zganing ham yaxshiligin bilmagusidur. O'z farzandingni sening haqingda qanday bo'lishin tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-onan daraxtga o'xshaydur. Daraxtni har qancha yaxshi tarbiyat qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo'lur. Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko'p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur.

Zinhor meros olmoq hirsiga bila ota-onang o'limin tilamajilki, ularning rizqi bila sening rizqing yetishur. Ota-onaning o'limini tilamajil, chunki ota-onan o'lmay yursalar ham rizqing yetishaveradi, nedinkim, rizq maqsumdur va u har yo'l bila vosil bo'lur. Ro'ziy nasiba uchun o'zingni ko'p ranj-mashaqqatga qo'yimagil, ro'ziy ranj va azob-uqubat bila ziyoda bo'limgusidur.

Holi-ahvoli sendan yaxshiroq bo‘lg‘on kishilarga qaramagil, holi-ahvoli sendan yomonroq bo‘lg‘on kishilarga qaramagil.

Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa sa’y ko‘rguzgilki, mol bila boy bo‘lgondan yaxshiroqdir, nedinkim aql bila mol jam bo‘lur, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilgil, aql bir moldurki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvga oqmas.

Bas, agar aqning bo‘lsa hunar o‘rgangil, nedinkim hunarsiz aql-boshisiz tan, suratsiz badandekdir. Undoqkim debdurlar: al-adab - suratil -aql (Kaykovusning “Qobusnoma” sidan).

---

*Bilib oling!* So‘zlovchining ish-harakatga munosabatini ifodalovchi shakllar yig‘indisi fe‘l mayli deyiladi. Fe‘lda quyidagi mayl turlari mavjud:

**1. Xabar mayli. 2. Buyruq-istak mayli. 3. Shart mayli. 4. Maqsad mayli.**

**Xabar mayli** ish-harakatning uch zamondan birida bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

1. O‘tgan zamon: (keldi, kelmadi). Dugonam kasalligi sababli darsga bormadi.

2. Hozirgi zamon: (kelyapti, yozmayapti). Qo‘ng‘iroq chalinyapti.

3. Kelasi zamon: (ketmoqchi, o‘qimoqchi). Singlim universitetda o‘qimoqchi.

Bunday fe‘llar darak gapning kesimi bo‘lib keladi.

**Buyruq-istak mayli** buyurish, iltimos, maslahat, chaqirish kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I sh.	bor (-ay), o‘qi (-y)	bor (-aylik), o‘qi (-ylik)
II sh.	bor (-gin) o‘qi (-gin)	bor (-ingiz), o‘qi (-ngiz)
III sh.	bor (-sin), o‘qi (-sin)	bor (-sinlar), o‘qi (-sinlar)

Ba‘zan buyruq ma’nosini kuchaytirib yoki bo‘sashtirib, iltimosni, ta’kidni bildirish uchun **II shaxs** birligiga **-gin** qo‘sishchasi qo‘yiladi: borgen, o‘qigin, aytgin.

**Shart mayli** biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatni ifodalaydi. U fe‘l o‘zagiga **-sa** qo‘sishchagini qo‘sish bilan hosil bo‘ladi: o‘qisa, bormasa.

Shart maylidagi fe‘llar quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatini bildiradi: 1. Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi (maqol).

2. Quyosh chiqsa, qorlar tez eriydi.

2. Orzu-istak, iltimos, maslahat kabi ma’nolarni anglatadi: Qani edi, o‘qishga kirmsam.

3. Shart maylidagi fe'llar **kerak** so'zi bilan birga qo'llanganda, faraz, guman, noaniqlik ma'nolarini anglatadi: Bugun yomg'ir yog'sa kerak.

**Maqsad maylidagi fe'llar** ish-harakatni bajaruvchining maqsadi, niyati, mo'ljalini bildiradi. Bu mayl -**moqchi** qo'shimchasi orqali hosil qilinadi. Undan keyin shaxs-son qo'shimchalari keladi: bormoqchiman, aytmoqchisiz, kelmoqchilar. Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi ham emas edi. (A.Q).

**186-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Fe'llarning mayli va zamonini aniqlab, ustiga yozing.

1. Og'zingdan nima chiqsa, ijobat bo'lishi mumkin. Dilingga tugayotgan gapingga ham ehtiyyot bo'li! 2. O'quvchilar, ko'cha harakati qoidalariga rioya qiling! 3. Bugun mo'ljaldagi ishimni tugata olsam kerak. 4. Bugun yomg'irdan keyin kamalak chiqsa, bolalar juda quvonar edilar. 5. Agar yaxshi o'qisam, albatta, talaba bo'laman. 6. ... Bolang bog'chadan chiqmay turib, uning qobiliyatiga qarab, maxsus tarbiyachi-o'qituvchilar yollagin. 7. O'g'lonim, o'g'lingni maktabga kirgan zahoti har bozor borarda yoningda olib yur. Narsa tanlash, savdolashish ilmini, bozor muomalasini o'rgansin (Tursunoy Sodiqova ijodidan).

**187-mashq.** Rasmida nimalarni ko'rayotganingizni aiting. O'zingiz kompyuterda ishlab bilasizmi? Shaxsiy kompyuteringiz bormi? Internet bilan ishlab turasizmi? Kompyuter qanday qismlardan tarkib topgan? Kompyutering qanday imkoniyatlari bor?

**188-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

1. Bor tilda shunday fe'llar:

Ma'nosida buyruqlar.

Eng muhim topshiriqlar

Toping-chi, qanday fe'llar?

2. Ish harakat, holatning

Ijrochisini anglatmas,

Hatto qo'shimchalari

O'zlikdan ham farqlanmas?

3. Sifat kabi so'rog'i,

Ot so'zlarga bog'lanar.

Narsalar harakatin

Belgi qilib ko'rsatar?

## Atamalar lug‘ati

1. Mayl – сиға
2. Fe'l mayllari – сиғаҳои феъл
3. Xabar mayli – сиғаи хабарӣ
4. Buyruk-istak mayli – сиғаи шартӣ-хоҳишмандӣ
5. Shart mayli – сиғаи амрӣ
6. Birlik son – шумораи танҳо
7. Ko'plik son – шумораи чамъ

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Fe'l mayli deb nimaga aytildi?
2. Xabar mayli va uning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Qaysi mayl ish-harakat haqida istak, buyruq, iltimos, maslahat ma'nolarini bildiradi?
4. Buyruq-istak mayli qanday qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi?
5. Shart mayli va uning ifodalanishi haqida gapiring.
6. Shart maylidagi fe'llar kerak so'zi bilan qo'llanganda qanday ma'nolarni anglatadi?
7. Xabar maylidagi fe'llar gapda qanday vazifa bajaradi?
8. Maqsad maylidagi fe'llar qaysi grammatik vosita orqali hosil qilinadi?

## Test

1. **Buyruq-istak mayliga xos to'g'ri ta'rifni toping.**  
A) Harakaning bajarilish-bajarilmagligini ifodalaydi.  
B) So'zlochinining istagi bilan bog'liq holdagi undash, shu harakatga da'vat etish, qo'zatish ma'nosini ifodalaydi.  
C) Payt va istak ma'nolarini ifodalaydi.  
D) Noaniqlik va guman ma'nolarini ifodalaydi.
2. **Buyruq-istak maylidagi fe'llar qatorini aniqlang.**  
A) o'qisani borsak, ko'rmasa  
B) bildirmoqchi, chaqirmoqchiman, ishlamoqchisiz  
C) ishlay, poraylik, ay'sin  
D) isidi, ketadi, o'qiyapti
3. **Shart maylidagi fe'llar qatorini ko'rsating.**  
A) tozalaysan, yig'ishtirasan, tushuntirasan  
B) ochilsa ko'rsangiz, sezmasak  
C) unutma, uyg'otma, shoshilmaylik  
D) boryapman, eriyapti, aytmoqda

**4. Ish-harakatni bajaruvchining maqsadi, mo'ljali, niyatini bildiruvchi fe'l mayli ...**

- A) shart mayli deyiladi      C) xabar mayli deyiladi  
B) buyruq - istak mayli deyiladi      D) maqsad mayli deyiladi

**5. So'zlovchining ish-harakatga munosabatini ifodalovchi shakllar yig'indisi...**

- A) fe'l nisbati      B) zamon kategoriyasi  
C) fe'l mayli      D) harakat nomi

**6. Biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni ifodalovchi fe'l mayli...**

- A) shart mayli deyiladi      C) maqsad mayli deyiladi  
B) xabar mayli deyiladi      D) buyruq-istak mayli deyiladi

**7. - a (y), -gin, -sin, -aylik, -ing (iz), -sinlar qo'shimchalari yordamida hosil qilinadigan fe'l mayli...**

- A) maqsad mayli      C) buyruq-istak mayli  
B) shart mayli      D) xabar mayli

**8. Shart maylidagi fe'llar kerak so'zi bilan qo'llanganda qanday ma'no anglatadi?**

- A) istak ma'nosini      C) maqsad ma'nosini  
B) faraz ma'nosini      D) bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni

**9. Berilgan gapdagiga fe'l maylini aniqlang. Biror ziyon-zahmat yetkazib yurmasin tag'in.**

- A) shart mayli      C) maqsad mayli  
B) buyruq-istak mayli      D) xabar mayli

**10. Kunlar isib ketdi-ku! Gapdagiga fe'l mayli...**

- A) xabar mayli      C) shart mayli  
B) maqsad mayli      D) buyruq-istak mayli

### **Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. Fe'l mayllarining har biriga ikkitadan gap tuzing.
2. Qanday ma'nolarni anglatganini tushuntiring.
3. Gaplarni o'z ona tilingizga tarjima qiling.

## 27-MAVZU. SIFATDOSH

(Сифати феъля)

**189-mashq.** Matnni o‘qing, gap nima haqda ekanini aytib bering. So‘zlayotgan paytda qaysi qoida va odobga amal qilasiz?

### Suhbat odobi haqida

Bilgilki, odamizodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga riosa qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. So‘z hamma vaqt savob uchun ishlatalishi, to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jum turgan ma’qul. Shayxlar va boshqa martabaga erishganlar uchun ham, hali martabaga erishmagan kishilar, muridlar uchun ham riosa qilinishi zarur bo‘lgan bir qancha suhbat odobi mavjud. Agar martabaga erishganlar suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi kerak, deb so‘rasalar, aytgil, quyidagi sakkiz qoidani saqlashlari kerak: birinchidan, har kimning ahvoliga qarab, munosib so‘z aytsin. Ikkinchidan, dag‘allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To‘rtinchidan, ovozini baland ko‘tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga naf‘i tegadigan ma‘noli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so‘zning qimmati-qadri bo‘lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug‘larning so‘zi bamisol urug‘dir, agar urug‘ puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qayerga ekmang, unib chiqmaydi.

Agar martabaga yetmaganlarning suhbat odobi nechta, deb so‘rasalar, bu ham sakkizta deb aytgil. Birinchidan, so‘ramagunlaricha gapirmsasin. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko‘tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o‘ng-u so‘lga qaramasin. To‘rtinchidan, g‘arazli va kinoyali gaplarni gapirmsasin. Beshinchidan, qattiq gapirmsasin va betgachoparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin. Yettingidan, odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmasin. Sakkizinchidan, ko‘p gapirmsasin. Chunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.

Agar qaysi til bilan so‘z so‘zlaysan, deb so‘rasalar, sidq-u sadoqat tili bilan, deb aytgil. Agar so‘zni qaysi quloiq bilan eshitasan, deb so‘rasalar, qabul qulog‘i bilan, deb aytgil.

Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi, deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menigidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo‘lmaydi. Agar nuqsonli so‘z qaysidir, deb so‘rasalar, xudo va Rasulning so‘ziga muvofiq kelmaydigan so‘z, deb javob bergil.

Agar yaxshi so‘z qaysi, deb so‘rasalar, kishilarga naf‘i tegadigan so‘z, deb aytgil. Yomon so‘z qaysi, deb so‘rasalar, birovga zarari tegadigan so‘z, deb javob bergil (Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” kitobidan).

**190-mashq.** Gaplarni o‘qing. Sifatdoshlarning tagiga chizib, zamoni, bo‘lishli-bo‘lishsizligini aniqlang.

1. Mayhum bir olamda qochib yurgan qahramonlar endi uni o‘z ketidan ergashtirib ketdi (O‘.H.). 2. Kuz havosida muzday bo‘lib qolgan, pastak shiftiga qog‘oz qoqilgan xonaga o‘tdi (O‘.H.). 3. Titroq qo‘llari bilan chiroqni yoqdi-yu, ustiga gazeta to‘shalgan jajjigina stol qarshisiga o‘tirdi (O‘.H.). 4. Marat sharsharadek oqib tushayotgan fikr-tuyg‘ularini to‘kib sola boshladi (O‘.H.). 5. Kuz havosida, kech ochilgan gullarning o‘tkir, nozik isi kezadi (O‘.H.). 6. Egilgan boshni qilich kesmas, deb bosh egib kelyapmiz (O.). 7. Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt (Maqol.). 8. Chet mamlakatdan keluvchi sayyoohlar shahrimiz tarixiga juda qiziqishadi. 9. Naim sayilgoh ko‘chasidan oqib kelayotgan odamlar oqimiga qo‘shilib ketdi.

**Bilib oling!** Predmet-hodisalarning belgisini bildirgan fe’l shakli **sifatdosh** deyiladi.

Sifatdosh otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradi. Gapda aniqlovchi yoki kesim bo‘lib keladi: 1. Nusrat qiyg‘os ochilgan paxtalarни zavq bilan terishga tushdi.

Sifatdosh fe’l kabi ish-harakatni anglatib, zamon, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat bildiradi: o‘qigan – bo‘lishli, o‘tgan zamon, aniq nisbatda.

Sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakllari quyidagicha yasaladi: o‘qigan- o‘qimagan, yozar – yozmas, borayotgan – bormayotgan. Sifatdoshlarni zamonga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. **O‘tgan zamon sifatdoshi** -gan, -kan, -qan qo‘srimchalari orqali yasaladi: o‘qigan, boqqan, tikkan.

2. **Hozirgi zamon sifatdoshi** -(a) yotgan qo‘srimchasi bilan yasaladi: kelayotgan, u xlabelotgan.

3. **Kelasi zamon sifatdoshi** -(a) r, -(a) digan, -(u) vchi qo‘srimchalari bilan yasaladi: aytar so‘z, oqar suv, o‘qiydigan bola, keluvchi qizlar. Kelasi zamon sifatdoshining bo‘lishsiz shakli -mas qo‘srimchasi orqali hosil qilinadi: Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt. Sifatdoshlar otlashadi. Bunda ular ot o‘rnida qo‘llanib, otlardek ko‘plik, kelishik, egalik qo‘srimchalarini qabul qiladi. Gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi bo‘lib keladi:

1. Intilganga tole yor. 2. Aytganlaringizning hammasini bajardim. 3. Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra.

**191-mashq.** She'rni o'qing, mazmunini tushuntiring. Bahor fasliga tavsif berib, 150-200 so'zdan tarkib topgan insho yozing. Insho matnida uchraydigan sifatdoshlarni tagiga chizing.

### Bahor

Osmon tiniq, ko'k shohi,  
Oq bulut kezar gohi.  
Nurlarga ko'miladi,  
Qantak o'rikning shoxi.

Bog'bon chiqar bog'iga,  
Cho'pon ketar tog'iga.  
Bolarilar g'uvillab,  
Qo'nar gul yaprog'iga.

Qushlar uchib keladi,  
Shamol g'ir-g'ir yeladi.  
Quyosh gullar yuzini  
Shu'lalarga beladi.

Suvlar shildirab oqar,  
Qo'shig'i dilga yoqar,  
Bizga shodlik keltirding,  
Salom, gul bahor!

Uyg'un

### Atamalar lug'ati

1. Sifatdosh – сифати феъли
2. Qo'shimcha – пасванд
3. Sifatdoshning sintaktik vazifasi – вазифаи синтаксисии сифати феъли
4. Sifatlovchi-aniqlovchi – сифати феъли - муайянкунанда

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Sifatdoshning ta'rifini aytинг.
2. O'tgan zamon sifatdoshi qaysi qo'shimcha orqali hosil qilinadi?
3. -a qo'shimchasi bilan sifatdoshning qaysi zamon shakli hosil qilinadi?
4. Sifatdoshlar qaysi so'z turkumiga bog'lanadi?
5. Sifatdoshlar gapda qanday vazifani bajaradi?
6. Kelasi zamon sifatdoshi qanday grammatic vositalar orqali hosil qilinadi?
7. Sifatdoshlar otlashadimi?
8. Otlashgan sifatdoshlarning xususiyatlari haqida gapiring.
9. Sifatdoshlar otlashganda gapda qaysi bo'lak vazifasida keladi?
10. Sifatdoshning bo'lishsiz shakllari qanday hosil qilinadi?

## Test

1. *Yuborilgan xatni oldim.* Ushbu gapda qo'llangan sifatdoshning zamonini aniqlang.

- A) hozirgi zamon                  C) o'tgan zamon  
B) kelasi zamon                  D) sifatdosh qo'llanmagan

2. *Intilgan elga yoqar.* Ushbu gapdag'i sifatdoshning gapdag'i vazifasini aniqlang.

- A) aniqlovchi                  C) kesim  
B) to'ldiruvchi                  D) ega

3. *O'tgan zamon sifatdoshi berilgan so'zlar qatorini aniqlang.*

- A) qizil, pushti, oq                  C) chiqqan, kechikkan, qo'rqqan  
B) qisqa, qalin, yupqa                  D) gapirmoq, bormoq, aytmoq

4. *Majhul nisbatdag'i o'tgan zamon sifatdoshi berilgan so'zlar qatorini belgilang.*

- A) bajarilayotgan, o'qilayotgan, kuylangan  
B) ko'radigan, aytildigan, gaplashilgan  
C) borishgan, tayyorlandi, kechikkan  
D) topilgan, haydalgan, terilgan

5. *Otlashgan sifatdosh qatnashgan gapni belgilang.*

- A) Qochoqqa shafqat yo'q, qo'rqoqqa hurmat.  
B) Kerilganning to'yiga bor, maqtanganning uyiga.  
C) To'g'riga zavol yo'q.  
D) To'g'ri do'stdan ayrılma.

6. *Tuproq to'shagida yotgan ko'p ko'rdim.*

Yer qaro bag'riga botgan ko'p ko'rdim.  
Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda,  
Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko'p ko'rdim.  
Matndagi sifatdoshlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) to'ldiruvchi                  C) ega  
B) hol                  D) aniqlovchi

7. *Quyidagi gapda qo'llangan sifatdoshni aniqlang. Sirojiddin ikki cheti pishiq g'ishtdan ishlangan naqshinkor darvoza burchagidagi qo'ng'iroq tugmasini bosdi.*

- A) naqshinkor                  C) pishiq  
B) ishlangan                  D) ikki cheti pishiq ishlangan

8. Quyidagi gapda qo'llangan sifatdoshning zamonini aniqlang.  
Terakzorda chalinayotgan musiqa tobora yaqqol eshitilardi.

- A) o'tgan zamon      C) hozirgi zamon  
B) kelasi zamon      D) sifatdosh qo'llanmagan

9. Otlashgan sifatdosh qo'llangan gapni toping.

- A) Men she'rga soldim aytar so'zimni, Baxtiyor sezaman g'oyat o'zimni.  
B) U bugungi pochtani indamay ko'ra boshladi.  
C) To'tixon xatni ko'zlariga surtar, o'par, hidlar edi.  
D) Chaqirilganlar ro'yxatga tirkalgandir.

10. *Bilgan topib so'zlar, bilmagan qotib.* Bu gapdag'i sifatdoshning qaysi bo'lak vazifasida kelganini aniqlang.

- A) ega      C) to'ldiruvchi  
B) kesim      D) hol

#### Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. "Ustoz otangdan ulug" mavzusida 10-12 ta gapdan iborat ijodiy matn tuzing.

2. Ijodiy ishingizda sifatdoshlardan foydalaning.

3. Matnda ishtirok etgan sifatdoshlarning zamonini va gapdag'i vazifasini aniqlang.

4. Matn mazmunini so'zlab bering.

## 28-MAVZU. RAVISHDOSH

(Феъли ҳол)

**192-mashq.** Matnni o‘qing. Ravishdoshlarni topib, gapdag‘i vazifasini aytинг. Sumalak taomining yuzaga kelish tarixi haqida yana qanday rivoyatlar bilasiz?

### Sumalak – ko‘klam mo‘jizasi

Qadim zamonlarda bir kambag‘al ayol yashagan ekan. Uning Hasan-Husan degan o‘g‘illari ham bo‘lib, ular hali juda ham yosh ekanlar. Ayolning topgan-tutgani qishligiga zo‘rg‘a yetib, bir amallab ko‘klamga chiqib olibdilar. Uylarida yegulik hech narsalari qolmabdi. Ikki norasidaning qorni ochib, non so‘rab zor-zor yig‘lashlarini ko‘rib, onaizor chidab turolmabdi. Ona bechora nima qilarini bilmay, o‘choq boshiga boribdi-da:

– Bolalarim, birpasgina o‘ynab o‘tiringlar, men hozir sizlarga ovqat pishirib beraman, – deb qozonga suv solib, tagiga o‘t qalabdi. So‘ngra dalaga chiqib, o‘tgan yilgi bug‘doypoyadan bug‘doy tomirlarini, endigina nish ura boshlagan har xil o‘t-o‘lanlardan terib kelib, yaxshilab yuvibdi-da, qozonga solibdi. Suprasini qoqishtirgan ekan, bir-ikki kaft un-urvoq chiqibdi, unni ham qozonga tashlab qaynataveribdi. Kovlayotganda ovozi chiqib, bilinib tursin uchun besh-oltita toshchalarni yuvib qozonga solibdi-da, cho‘mich bilan aylantiraveribdi. Har aylantirganda toshchalar sharaqlab ovoz chiqarar, buni eshitgan Hasan bilan Husan “onamiz bizga ovqat pishiryaptilar”, – deb suyunishib, o‘ynay boshlashibdi. Tun yarmidan oqqanda bolalar o‘ynay-o‘ynay charchab, oxiri uxbab qolibdilar. Ona bo‘lsa, qozonni kovlashdan to‘xtamay, ko‘z yoshi shashqator bo‘lib, tangriga iltijo qilibdi:

– “Ey xudo. Shu pishirayotgan ovqatimga nazar tashla. Ikki norasidaning rizqini o‘zing yetkaz, shirinligingni ato qilgin. Biz g‘ariblardan marhamatingni darig‘ tutma”.

Tongga yaqin ona ham kovlashdan charchab, qozonning qopqog‘ini yaxshilab yopib, dimlabdi-da, bolalarining yoniga yonboshlab uyquga ketibdi. Ertalab bolalarining shovqinidan uyg‘onib qolib qarasa, Hasan-Husanlari qozonga qo‘lchalarini tiqib, nimanidir yalashayotganmish. Mo‘jiza ro‘y bergenidan ko‘zlariga ishonmagan onaizorning o‘zi ham jimjilogi bilan qozondagi taomdan yalab ko‘rsa, shirin narsa ekan. Shunda bolalari:

– Ona, bu ovqatingizning nomi nima? – deb so‘rashibdi. Ona qozon to‘la qizg‘ish shirinlikni bolalari tez-tez yalayotganlariga qarab turib:

– Bolalarim, bu maloyikalarning karomati bilan pishdi. Uning oti simalak, - debdi.

Bu so‘z keyinchalik “sumalak” bo‘lib o‘zgarib ketgan ekan. Hatto hozir ham keksa onaxonlarimiz va pir-u badavlat otaxonlar sumalakni tatib ko‘rishdan oldin “qani, Hasan-Husanlarning taomidan yalaylik”, – deb avval jimjiloqlari bilan yalashadi. Sumalak pishirish udumi ana shundan kelib chiqqan ekan (“Navro‘z” to‘plamidan).

**Bilib oling!** Ravishdosh ish-harakat, holatning belgisini bildiradi. Ravishdosh fe’lga bog‘lanib, gapda ko‘pincha kesim, ba’zan hol bo‘lib keladi. (Bilmayin bosdim tikanni - hol. Ishning boshi boshlanguncha – kesim.)

Ravishdoshlar bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbatni bildira oladi: aytib – bo‘lishli, aniq nisbatda, yozdirmay – bo‘lishsiz, orttirma nisbatda.

Ravishdosh ma’noga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. **Holat ravishdoshlari** -b, -ib, -a, -y, -gudek qo‘srimchalari orqali yasaladi: o‘qib, aytib, ayta-ayta, yig‘lay-yig‘lay. (-a, -y qo‘srimchali ravishdosh asosan takror holda qo‘llanadi.)

Ravishdoshning bo‘lishsiz shakli **-may, -mayin** qo‘srimchasi bilan hosil qilinadi (sezib aytdi – sezmay aytdi, bilib – bilmayin.)

2. **Payt ravishdoshlari** -gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha qo‘srimchalari orqali yasaladi. (Qosh qorayguncha uyga yetib keldik. Kechga yaqinlashgach, havo aynidi.)

Payt ravishdoshining bo‘lishsiz shakli **-ma** qo‘srimchasi orqali yasaladi: aytguncha – aytmaguncha, kelgach - kelmagach.

3. **Maqsad ravishdoshi** -gani, -kani, -qani, she’riyatda **ba’zan** -gali, -kali, -qali qo‘srimchalari orqali hosil qilinadi. (Yoshlar o‘ynagani tog‘ga chiqishdi. Yor ko‘rgali kelganmiz). Maqsad ravishdoshining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning bo‘lishsiz shaklga ega emasligidir.

**192-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan ravishdoshlarni ma’no jihatdan turlarini aniqlab ustiga yozing. Ravishdosh hosil qiluvchi qo‘srimchalarning tagiga chizing.

1. Tong otguncha xayolan chol bilan bahslashib chiqdi (O.). 2. O‘ychining o‘yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitadi (Maqol.). 3. Hilola uning qiyinalib, ezilib gapirayotganini ko‘rib, achindi (O’.H.). 4. Hilola qizarib-bo‘zarib tortmadan kitobchani oldi (O’.H.). 5. Hilola boshini quyi solgancha o‘tirar, iztirob chekayotgani bilinib turardi (O’.H.). 6. Aya ko‘zları mo‘ltirab, domlaga qaradi (O.). 7. Ataylab sizni ko‘rgani uzoq yo‘l bosib keldim. 8. Hunarni asrabon netgumdir oxir, Olib tuproqqami ketgumdir oxir (A.N.).

## 29-MAVZU. RAVISH

(Зариф)

**194-mashq.** Rasmga qarab Amir Temur va uning haykali haqida ma'lumotlar keltiring.



*Bilib oling!* Ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi ravish deyiladi. Ravish qanday? qachon? qayerda? qayerdan? qayerga? qay darajada? nega? nima uchun? nima maqsadda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Ko'pincha fe'lga bog'lanib, ish-harakatning qay holatda bajarilishini, paytini, o'rnnini, daraja-miqdorini, sababini, maqsadini bildiradi. Ravish gapda ko'pincha hol bo'lib keladi: Majlis kech tugadi. U xonaga halloslagancha kirib keldi.

Ravish harakatning belgisini darajalab ko'rsata oladi: oz, ozroq, juda oz. Ravishlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Holat ravishi** ish-harakatning qay holatda, qay tarzda bajarilganligini bildiradi. **Qanday? qay holatda? qay tarzda?** so'roqlariga javob bo'ladi: asta, sekin, tez, birdan, qo'qqisdan, zo'rg'a, piyoda, do'stona, qahramonlarcha, naridan-beri... M: Biz do'stona xayrslashdik.

2. **Payt ravishi** ish-harakatning bajarilish paytini bildiradi. **Qachon? qachongacha? qachondan beri? qachondan?** kabi so'roqlarga javob bo'ladi: oldin, keyin, so'ng, ilgari, avval, kecha, kechgacha, kechga qadar, hozir, doimo, onda-sonda, tez-tez, qadimdan... M: Bular yaqinda ko'chib kelishdi.

**3. O'rın ravishi** ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiradi. **Qayerda?** qayerdan? qayerga? so'roqlariga javob bo'ladi: uzoqdan, yaqinda, oldinda, orqada, o'ngda, chapda, quyidan, yuqoriga, narida, berida, pastda, o'rtada, olg'a... M: Shamol oldindan esardi.

**4. Sabab ravishi** ish-harakatning bajarilish sababini bildiradi. **Nega? nima uchun? nima sababdan?** kabi so'roqlarga javob bo'ladi: noiloj, noilojlikdan, bekordan bekorga, choraszizlikdan. M: Noiloj o'yinni tugatishga majbur bo'ldi.

**5. Maqsad ravishi** ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradi. **Nima maqsadda? nega?** so'roqlariga javob bo'ladi: atay, atayin, ataylab, jo'rttaga, qasddan. M: Sizni ko'rish uchun ataylab kelgan edim.'

**6. Daraja-miqdor ravishi** ish-harakatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildiradi. **Qancha? qay darajada?** so'roqlariga javob bo'ladi: arang, batamom, baholiquidrat, deyarli, jinday, rosa, ko'p, ozmuncha, xiyol, tirnoqcha, xiyla, o'lguday, sal-pal, sal, zarracha... M: Biroz o'ylanib turdi-da, ishga kirishdi.

Ravishlar otlashadi. Bunda ular ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi, gapda ega, to'ldiruvchi, kesim bo'lib keladi:

**Ega:** Ko'pi ketib, ozi qoldi.

**To'ldiruvchi:** Birni birov beradi, ko'pni – mehnat.

**Kesim:** Hosilning cho'g'i – mo'l.

**195-mashq.** Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan ravishlarni ma'no va grammatick jihatdan turlarga ajrating.

1. Hamon suvni to'fon qilib, hamon olishayotgan baliqni zo'r-bazo'r qirg'oqqa sudrab chiqishdi.(O'.H.) 2. Lekin chayla yoniga borganda qo'rqa-pisa yana to'xtadim. 3. Eshikni ohista yopib chiqib ketdi. 4. Alimardon ular to'yga aytib kelishganini tushundi-yu, ataylab o'zini go'llikka soldi. 5. Qorning qalin pardasi ortida uning rangi ko'rinnmas, sharpaday arang ko'zga chalinardi. 6. – Anglashilmovchilikmi, yo jo'rttaga qilingan ishmi bu? – dedi Shukurov (O'.H.).

**196-mashq.** Jadvalda ko'rsatilgan ravishning har bir turiga oltitadan misol yozing.



**197-mashq.** Ravish haqidagi tojik tilidagi ma'lumotni o'qing va mazmunini o'zbek tilida aytib bering.

Ҳиссаи мустақили нутқе, ки тарзи ичрои амал, аломати амал, замон, макон, сабабу мақсад, миқдору андозаи амалу ҳолатро ифода мекунад. Зарф, асосан, хусусияту ҳолат ва муҳиту шароити амалро фаҳмонда, дар қалимасозӣ бештар аз сифатҳо, аз исмҳо ва шумора сохта мешавад. Зарф, одатан, ба ҳабари ҷумла тобеъ шуда дар вазифаи ҳол меояд.

Зарф аз ҷиҳати ифодай маънно ва вазифа ба ҷунин гурӯҳҳо тақсим мешавад: тарзи амал, миқдору дараҷа, замон, макон, сабаб ва мақсад.

Дар соҳтани зарфҳо пеиванд ва пасвандҳои зерин иштирок мекунанд: бе -, но -, ба -, бар -, бо -, дар -, то -, - она, - ана, - нокӣ, - аки, - о, - вор, - и.

Зарфҳо аз ҷиҳати соҳт содда, сохта, мураккаб ва таркиби мешаванд.

Зарфҳое, ки танҳо аз як решаша иборатанд, **содда** мебошад.

Зарфҳое, ки решаша ва пасванду пешванд доранд, **сохта** мебошад.

Зарфҳое, ки аз ду решаша ва пасванд соҳта шудаанд, **мураккаб** мебошанд.

Зарфҳои **таркиби** аз қалимаҳои гуногун ташкил мейбанд: сол аз сол, рӯ ба рӯ, бечуну ҷаро ...

**198-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

1. Bilag'on, ziyrak so'zlar,

Tilimizda ko'p ular.

Ishning tez, sekin, qachon,

Bo'lishini bildirar.

Topsin sezgir bolalar,

Ular qanaqa so'zlar?

2. Doim fe'lga bog'lanar,

Harakatning qay tarzda

Bo'lishini bildirar,

Holat bildirgan so'zlar

Tilda qanday nomlanar?

3. Qachon? qachondan beri?

Qachongacha? so'rog'i.

Harakatning paytini,

Bildirishdir odati?

4. Ish-harakat, holatning,

Sababini bildirar.

Har ishga sabab topib,

Ravishligini ko'rsatar?

5. Ish-harakat, holatning,

Maqsadini bildirar.

Kim misol topadi deb,

Ravishvoy bizni sinar?

### **Atamalar lug'ati**

1. Ravish – зарф
2. Holat ravishi – зарфи тарзи амал
3. Payt ravishi – зарфи замон
4. O'rın ravishi – зарфи макон
5. Maqsad ravishi – зарфи мақсад
6. Sabab ravishi – зарфи сабаб

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Ravish deb nimaga aytildi?
2. Ravishlar ma'nosiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Payt ravishi qanday so'roqqa javob bo'ladi?
4. O'rın ravishi haqida gapiring.
5. Atayin, ataylab, jo'rttaga, qasddan so'zlari ravishning qaysi turiga mansub?
6. Sabab ravishi haqida gapiring.
7. Holat ravishi qaysi so'roqlarga javob bo'ladi?
8. Daraja-miqdor ravishi haqida gapiring.

### **Test**

#### **1. Ravish qatnashgan gapni aniqlang.**

- A) Bu voqeа hech qachon yodimdan ko'tarilmaydi.
- B) Nur sochib oy chiqadi, yerga boqqani.
- C) Allaqayerda bo'rilar uvillashi eshitiladi.
- D) Sobirjon vazifani vijdanan bajardi.

#### **2. Qaysi so'z turkumi ish-harakat va holatning belgisini darajalab ko'rsata oladi?**

- A) ot      B) sifat      C) ravish      D) olmosh

#### **3. O'rın ravishi qo'llangan gapni toping.**

- A) Bular yaqinda ko'chib kelishdi.
- B) Qudrat bilan G'ulomjon ham bir necha odim ilgari yurdi.
- C) Kechasi bilan yog'ib chiqqan qor tongotar paytida tinib qoldi.
- D) Yo'lchi boshini quyi solib, jim o'tirdi.

#### **4. Sabab ravishi qatnashgan gapni toping.**

- A) Sultonali oyog'inи onda-sonda tashlab, devonxonadan chiqdi.
- B) Bu yil azamat dehqonlarimiz fidokorona mehnat qildilar.
- C) Erta ekkan xirmon qilur, kech ekkan armon qilur.
- D) Qorong'i ushgach, noiloj o'yinni tugatishga majbur bo'ldik.

**5. Salimaning ko‘ngli joyiga tushdi va aybdorlarcha tabassum bilan yigitga qaradi.** Ushbu gapdag'i ravishning ma'no turini aniqlang.

- A) sabab ravishi                    B) holat ravishi  
C) o‘rin ravishi                    D) payt ravishi

**6. Maqsad ravishi qatnashgan gapni toping.**

- A) Men sizni olib ketgani keldim.  
B) Ovozingizni eshitish umidi bilan ataylab kelgan edim.  
C) Umringga yuz bahor zamondosh bo‘lsin.  
D) U borganidan xursand bo‘ldi.

**7. Chang va tutundan mashina va odamlar zo‘rg‘a ko‘rinar edi.** Ushbu gapda qo‘llangan ravishning turini aniqlang.

- A) holat ravishi                    B) sabab ravishi  
C) daraja-miqdor ravishi        D) payt ravishi

**8. Berilgan so‘zlardan o‘rin ravishini aniqlang.**

- A) majburan, tez, uyda            B) aniq, o‘rtada, majburan  
C) o‘rtadan, hali, chetdan        D) quyi, chetda, oldinga

**9. Daraja-miqdor ravishi qatnashgan gapni aniqlang.**

- A) Odam o‘ziga yaqin kishining qilcha o‘zgarishini ham darrov sezadi.  
B) Bu yodqa domla otalik qildi-yu, uni aspiranturada olib qoldi.  
C) Xayrullo bu shartga noiloj ko‘ndi.  
D) Majlis kech tugadi.

**10. Tarz (holat) ravishi qaysi gap tarkibida qo‘llangan?**

- A) G‘ulomjon otasi yonida turib atrofga qaradi.  
B) Kechagi topshiriq o‘z vaqtida bajarildi.  
C) Oyqiz uning qo‘qqisdan g‘oyib bo‘lgani to‘g‘risida o‘ylab, vahimaga tushdi.  
D) U noilojlikdan birinchi qatorga kelib o‘tirdi.

### Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. Holat va sabab ravishlariga ikkitadan gap tuzing. Gaplarda ishtiroy etgan ravishlarga so‘roq bering.

2. Shoir Yo‘ldosh Muqim Otashning “O‘zbekiston mushtarak” she’rini o‘qing va yod oling.

Tong ketidan tong otar, nurafshon kun muborak,  
Yillar o‘tar, ong oshar, ezgu zamondan darak.  
Shahdam qadamlar tashlang, bo‘lingiz otashyurak,  
Ming tomirli elatmiz, O‘zbekiston mushtarak.

Tabarruk a dodlardan qoning, zot-u zuryoding,  
Olamga dong taratdi qutlug' qadam avloding.  
Falokatlar yog'ilsa, balogardon saboting,  
Dovyurak farzandlaring sening uchqur qanoting.

Tong ketidan tong otar, nurafshon kun muborak,  
Yillar o'tar, ong oshar, ezgu zamondan darak.  
Shahdam qadamlar tashlang, bo'lingiz otashyurak,  
Ming tomirli elatmiz, O'zbekiston mushtarak.

Tengi yo'q saxyi elsan, yuraging keng dasturxon.  
Ming burdaga bo'lursen, topsang agar bitta non.  
Dilingdan arimasin ishonch-u, imon, vijdon,  
Ilhom, chetlab o'tsin, seni bo'ron-u to'fon!

Tong ketidan tong otar, nurafshon kun muborak,  
Yillar o'tar, ong oshar, ezgu zamondan darak.  
Shahdam qadamlar tashlang, bo'lingiz otashyurak,  
Ming tomirli elatmiz, O'zbekiston mushtarak.

Davr-u davlonlar osha tolmay keladi karvon,  
Manzilimizko'p yiroq, kutar og'ir imtihon.  
Ishongil, ona yurtim, biz senga sodiq posbon,  
Zarur bo'lib qolgan on, jonimiz senga qurban.

Tong ketidan tong otar, nurafshon kun muborak,  
Yillar o'tar, ong oshar, ezgu zamondan darak.  
Shahdam qadamlar tashlang, bo'lingiz otashyurak,  
Ming tomirli elatmiz, O'zbekiston mushtarak.

### 3. Suhbatni davom ettiring.

#### Suhbat

- Siz o'zbek yozuvchilaridan kimlarning asarlarini o'qigansiz?
- Men yozuvchi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Oybekning "Navoiy" romanlarini o'qiganman.
- Qaysi shoirlarning she'rлarini o'qigansiz?
- Shoirlardan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Jamol Kamol she'rлarini sevib o'qiymen.
- Abdulla Cripovning qaysi she'rлarini yoddan bilasiz?

## 30-MAVZU. YORDAMCHI SOZLAR

(Хиссаҳон номустақил маъно)

**199-mashq.** Matnni o'qing, yordamchi so'z turkumlarini aniqlang. Matn mazmunini bayon qiling.

### Alisher bilan bulbul

Ilgari zamonda G'iyosiddin Kichkina degan kishining Alisher ismli o'g'li bo'lgan ekan. U yoshligidan uddaburon, ziyrak bo'lib o'sibdi. To'qqiz yoshga to'lganda esa she'rilar yoza boshlabdi. Odamlar u yozgan she'rlni qulqoq berib tinglaydigan bo'lishibdi. Lekin bola o'ziga hali taxallus tanlamagan ekan.

Alisher bir kuni yangi she'rini yozibdi-da, boqqa chiqib uni, baland ovoz bilan o'qiy boshlabdi. Shu payt bog'dagi terakka chirmashgan qirq og'ayning shoxida o'tirgan bulbul Alisherning yoqimli ovozini eshitib qolibdi. Yosh shoirning goh qo'ng'iroqday jarangdor, goh tong shamoliday mayin ovozi bulbulni o'ziga maftun etibdi. Qushcha darhol uning yelkasiga qo'nib: – Ey xushovoz shoir, sen o'qigan she'rlar bulbullarning erta tongdag'i navosidan ham yoqimli ekān. Nomingni bilsam bo'ladimi? – debdi.

– Alisher! – deb javob beribdi bola.

– Bildim, bildim, yangi chiqqan shoir ekansan-da. Endi o'zingga chiroyli bir taxallus tanlab, she'rлaringning oxiriga o'shani qo'shib ketgin.

Alisherga bulbulning boyagi "navo" degan so'zi yoqib qolibdi. Shundan keyin yozgan g'azallarining tagiga "Navoiy" deb yozib qo'yadigan bo'libdi.

(“El desa Navoiyi” Hazrat Mir Alisher Navoiy haqida rivoyatlar)

**Bilib oling!** Yordamchi so'zlar yakka holda ma'no anglatmaydi. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi. Yordamchi so'zlarning ma'nosi nutqda anglashiladi: Nazirjon betobligi uchun darsga bora olmadi (sabab ma'nosi mavjud). Ukam uchun kitob sotib oldim (atalganlik ma'nosi). Osmonni qop-qora bulut qopladi, lekin yomg'ir yog'madi (zidlik ma'nosi). Yordamchi so'z turkumlari uchta: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

**Ko'makchi** ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zga tobelanish yo'li bilan bog'laydi. Ular vosita, sabab, maqsad, vaqt, makon kabi munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko'makchilar yakka holda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydi. O'zidan oldingi so'z bilan birga bir so'roqqa javob bo'lib, bitta gap bo'lagi bo'lib keladi: Nonushtada ukam bilan o'tirdim – kim

bilan? so'rog'iga javob bo'lib, to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Ko'makchilar kelib chiqishiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Sof ko'makchilar: uchun, kabi, sari, sayin, singari, uzra, qadar, yanglig'. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar: tomon, qarab, haqida, bo'yli, bo'ylab, keyin, chog'i, uzra, osha, misoli, ilgari, burun, ichra...

**200-mashq.** Caplarni ko'chiring. Ko'makchi va bog'lovchilarning tagiga chizib, ma'nosini izohlang.

1. Ko'z oldiga goh mijiqlangan qog'ozdek yuz-ko'zini ajin bosgan Ohistaxon, goh xuddi o'zining yigitligini eslatgan, o'zidek azamat, hozir ayblanib, sud zalida boshini egib o'tirgan Himmatilla keladi (Sh.) 2. Hilola o'zining qizara boshlaganini payqab, deraza tomonga qarab oldi (O'.H.). 3. Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi. 4. U kechgacha ish ustida o'tirdi. 5. Bolalar darsdan so'ng uylari tomon yo'l oldilar. 6. Kechga tomon osmonni quyuq bulut qopladi, lekin yomg'ir yog'madi. 7. Talabalar to'planishdi va to'garak mashg'uloti boshlandi.

**201-mashq.** Ko'makchilarni topib, tagiga chizing. Qaysi kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanganini va ma'nosini tushuntiring.

1. Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi. 2. Yerni traktor bilan haydaydilar. 3. Biz paxtakormiz, suyagimiz mehnat bilan qotgan. 4. Avtobus shahar markaziga kirib borgan sari yo'lovchi ko'payar edi. 5. Bu kitobni ukam uchun oldim. 6. Ular sharqirab oqayotgan soy tomon yo'l yurib ketdilar. 7. Sog'lom bo'lish uchun badantarbiya bilan shug'ullanish lozim. 8. U kechgacha ish ustida o'tirdi. 9. Shokir qizni hovli orqali ko'chaga chiqarib yubordi. 10. Mashina daryo yoqalab sekin yurib ketdi.

**202-mashq.** Rasmga qarab o'z fikringizni bildiring va quyidagi savollarga javob bering.



## Savol

1. Siz yashayotgan shaharda shunday binolar bormi?
2. Bino qaysi shaharda joylashgan?
3. Vatanimizda bunday binolar ko‘pmi?

*Bilib oling! Bog‘lovchi* gapning uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar. Teng bog‘lovchilar gapning uyushiq bo‘laklarini (Kecha qiziqarli va mazmunli o‘tdi) hamda qo‘shma gap tarkibidagi teng huquqli sodda gaplarni (quyosh chiqdi, lekin qorlar erimadi.) bog‘laydi. Ular biriktiruv, zidlov, ayiruv bog‘lovchilari kabi turlarga bo‘linadi.

1. Biriktiruv bog‘lovchilari: **va, ham, hamda.** Qo‘nqiroq chalindi va dars boshlandi.
  2. Zidlov bog‘lovchilari: **ammo, lekin, biroq, holbuki, balki.** Bulardan oldin hamisha vergul qo‘yiladi. E’tiroz bildirmoqchi bo‘lib og‘iz juftladi, lekin jur’at qilolmadi.
  3. Ayiruv bog‘lovchilari: **yo, yoki, goh, yoxud, ba’zan, yoinki, dam...dam, goh...goh, yo...yo.** Go‘dak dam onasiga, dam opasiga qarab talpinar edi.
- Ergashtiruvchi bog‘lovchilar ko‘pincha qo‘shma gap tarkibidagi ergash gaplarni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi va quyidagi turlarga bo‘linadi:
1. Aniqlov bog‘lovchilari: **ya’ni, -ki (-kim), toki.** Shunday kuylaginki, qulqlar qomatga kelsin.
  2. Sabab bog‘lovchilari: **chunki, shuning uchun.** Ko‘chatlarni yaxshi parvarish qildik, shuning uchun ular tez o‘sса boshladi.
  3. Shart bog‘lovchilari: **agar, garchi, mabodo, basharti.** Agar xotiram pand bermaganda, albatta, uni tanigan bo‘lardim.

**203-mashq.** Talabalar qaysi olim bilan suhbatda bo‘lganlar? Shu olimning ilmiy faoliyati, hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar aytинг.



**Bilib oling!** Yuklama ayrim so‘z va gapga qo‘sishimcha ma’no yuklash uchun qo‘llanadi. So‘z yuklama va qo‘sishimcha yuklamalar mavjud.

Qo‘sishimcha yuklamalar: -a (-ya), -mi, -chi, -oq (-yoq), -ki (-kim), -gina, -dir, -u (-yu), -ku, -da. Bu yuklamalar o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga qo‘shib (-mi, -oq, -yoq: aytdimi? Boriboq, qurgandayyoq) va chiziqcha bilan ajratib (-chi, -u, -yu, -a, -ya, -da: sen-chi? Aytdi-yu ketdi, turdi-da ketdi) yoziladi.

So‘z yuklamalar: **faqat, axir, hatto, na - na, naq, nahotki, ham, xolos.**

Yuklamalar ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. So‘roq yuklamalari: **-mi, -chi, -a (-ya).** So‘roq yuklamasi bilan tugagan gaplar oxirida so‘roq belgisi qo‘yiladi. Sen bahorni sog‘inmadingmi?

2. Ta’kid yuklamalari: **-ku, -da, -ki.** Hilola bir nafas jum bo‘ldi-da, hozirgina ekranda ko‘rgan voqealardan yana hayajonlanib ketdi.

3. Ayiruv yuklamalari: **-gina, faqat, xolos.** Kechaga faqat Karimgina kelmadи.

4. Kuchaytiruv yuklamalari: **axir, hatto, tim, qoq, liq, lim, g‘irt, g‘arq, jiqlqa, nahotki.** Nahotki ish shu qadar jiddiy bo‘lsa?

**204-mashq.** Gaplarni o‘qing. Yuklamaning turini aniqlang.

1. Qiziq xalqimiz bor-da, har narsadan go‘zallik, o‘ziga xoslik qidiradi (Sh.). 2. Hilola hikoyani o‘qidi-yu, ko‘nglida og‘ir g‘ashlik uyg‘ondi (O‘.H.). 3. – Siz-chi? – Abror Shukurovich bu gapni bekor aytganini aytib bo‘lganidan

keyin tushundi-yu, tilini tishladi.(O.Y.). 4. Biroq qirg' oqqa ozgina qolganda xatar borligini payqab qoldi-yu, dumini bir siltab hovuz bo'yidagi olomonni shalabbo qildi-da, suvga sho'ng'idi. (O.Y.). 5. Akamdan naq balolarga qolaman. 6. Uning qulog'iga na bolaning sho'x qiyqirig'i, na atrofdagilarning olqishlari kirardi. 7. Ishdan so'ng uyga kelgandir. 8. Tug'ilgan kunga Rustamgina kela olmadi.

**205-mashq.** Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.

1. Gapda mazmun tiklashda,  
So'zlarga ko'maklashar,  
Nuqta o'rni kelganda,  
Kelishik-la almashar?
2. Har kimni, har narsani,  
Teng-tagi bilan bog'lar,  
Ipsiz so'z bilan bog'lar,  
Bog'lab dimog'in chog'lar?
3. Ma'nosida ta'kid, ayiruv,  
Ham so'rog'-u, ham kuchaytiruv?

#### **Atamalar lug'ati**

1. Yordamchi so'z turkumlari – ҳиссаси номустақил маъно
2. Ko'makchi – ҳиссача
3. Bog'lovchi – пайвандак
4. Yuklama – нидо
5. Sof ko'makchilar – ҳиссачаҳои
6. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar – пайвандакҳои ҳамвазифа ва тобеъ
7. Biriktiruv bog'lovchilar – пайвандакҳо пайваст
8. Zidlov bog'lovchilar – пайвандакҳои хилоғи
9. Ayiruv bog'lovchilar – пайвандакҳои чудой
10. Aniqlov bog'lovchilar – пайвандакҳои амиқкунанда
- 11 Sabab bog'lovchilar – пайвандакҳои сабаби
12. Shart bog'lovchilar – пайвандакҳои шартӣ
13. Qiyosiy bog'lovchilar – пайвандакҳои қиёси
14. Qo'shimcha yuklamalar – нидоҳои иловагӣ
15. So'z yuklamalar – нидоҳои калимагӣ
16. So'roq yuklamalar – нидоҳои саволи
17. Ta'kid yuklamalar – нидоҳои таъкидӣ
18. Ayiruv yuklamalar – нидоҳои чудоӣ

#### **Mayzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Yordamchi so‘zlar deb nimaga aytildi? Ular nechta?
  2. Ko‘makchining ta’rifini aytинг va misollar keltiring.
  3. Ko‘makchilarning grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
  4. Ko‘makchilar kelib chiqishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
  5. Bog‘lovchi deb nimaga aytildi?
  6. Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
  7. Teng bog‘lovchilarning turlari haqida so‘zlang.
  8. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning teng bog‘lovchilardan qanday farqi bor?
  9. So‘z yuklama va qo‘srimcha yuklamalar haqida ma’lumot bering.
  10. Yuklamalarning yozilishi haqida gapiring.

Test

**1. Ot, olmosh, son, harakat nomi, sifatdoshlardan keyin kelib, ularning boshqa so‘z bilan bog‘lanishini bildirishga xizmat qiladigan so‘z turkumi**

- A) sifat C) ko'makchi  
B) bog'lovchi D) yuklama

**2. Kabi ko makchisiga sinonim bo'lgan so'zlar qatorini aniqlang:**

A) misol, bilan, uchun C) singari, uchun, tamom  
B) yanglig', sari, misol D) misol, singari, yanglig'

**3. Berilgan gapdagi bog'lovchi turini aniqlang. Qamishlar orasidan goh boshi ko'rinar, goh suvga sho'ng'igandek yo'q bo'lib ketardi.**

A) ayiruv bog'lovchisi C) zidlov bog'lovchisi  
B) ergashtiruvchi bog'lovchi D) chog'ishtiruv bog'lovchisi

**4. Quyidagi gapda ko'makchingining qanday ma'no uchun xizmat qilayotganini aniqlang. Bahorga qadar sabr qilishga to'g'ri keladi.**

A) sabab C) chegara  
B) payt D) holat

**5. Axir Marg'ilonda bizning ham shunday kelinimiz bor ekan-u, bilmay yurgan ekanmiz-da. Gapdagi yuklamalar sonini aniqlang.**

A) 3 ta C) 2 ta  
B) 4 ta D) 5 ta

**6. So'roq yuklamalari qaysi gap tarkibida qo'llangan?**

A) Boshqalarning ishiga aloqam yo'qmi? C) So'zingiz so'z-a?  
B) Oppoq palatkalarda kimlar yashaydi? D) A va C

**7. Zidlov bog'lovchilari qo'llangan gapni aniqlang.**

A) Tuzsiz va sho'r ovqatlar bemaza bo'ladi.

B) Dunyoda yaxshi kitoblar ko'p, lekin bu kitoblar uni o'qib biladigan kishilar uchungina yaxshidir.

C) Na mashina boradi, na arava.

D) Zidlov bog'lovchisi hech bir gapda qo'llanmagan.

**8. Ko'makchi ishtirok etgan gapni toping.**

A) Lampani nima bilan almashtirish mumkin ekan?

B) Bolalar daryo tomon ketdilar.

C) Ishonginki, zafar ila qaytgum.

D) A, B, C

**9. Ko'makchi qatnashmagan gapni toping.**

A) Mashina daryo yoqalab sekin yurib ketdi.

B) Tabiat-la oshno qalblarmiz.

C) Abadiydur Vatan-chun fido bo'lganlar.

D) Barcha gaplarda ko'makchi ishtirok etgan.

**10. Ayiruv bog'lovchilari qo'llangan gapni toping.**

A) Malika na yurib charchaydi, na sovuqdan shikoyat qiladi.

B) Tinchlik va ozodlik – uning qo'shig'i.

C) Dam salobatli, dam jozibador yangrovchi tanbur sadosi tinglovchini go'yo sehrli qayig'i bilan allaqanday maftunkor sohil sari boshlar, goh tebratib, goh to'lqinlatib borardi.

D) Gaplarda ayiruv bog'lovchilari qo'llanmagan.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar ishtirokida gaplar (har biriga 3 tadan) tuzing.

2. Yordamchi so'zlarning ma'nosi va yozilishiga e'tibor bering.

3. Tuzgan gaplaringizni o'z ona tilingizga tarjima qiling.

## **31-MAVZU. ALOHIDA OLINGAN SO‘ZLAR: MODAL, UNDOV VA TAQLIDIY SO‘ZLAR**

**(Калимаҳои алоҳида гирифташуда: модалий, амрий ва тақлидӣ)**

*Bilib oling.* So‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini bildirgan so‘zlar modal so‘zlar deb ataladi. M: Ehtimol xatosini tushungandir. Modal so‘zlar ma’no jihatdan ikki turga bo‘linadi:

1. Fikrning anidligini ifodalovchi modal so‘zlar.
2. Fikrning noatiqligini ifodalovchi modal so‘zlar.

Birinchi guruhdagi modal so‘zlar fikrning rostligi, chinligi, ishonch, qat’iylik, anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: albatta, tabiiy, haqiqatan, so‘zsiz, shubhasiz, shaksiz, o‘z-o‘zidan, darvoqe, rostdan. Tabiiy, Xushro‘yning fe’lini yaxshi bilgan ota-onasining ra'yini olmasdan turib bir ish qilmoqdan qo‘rqadirlar. (A.Qod.)

Ikkinci guruhdagi modal so‘zlar fikrning gumonli, tusmolli, taxminiyligini ifodalaydi: balki, ehtimol, chamasi, aftidan, shekilli, mazmuni, demak. Ehtimol, dili dagini sizga to‘kib solar.

Modal so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi predmet, belgi, harakat va shu kabilarni atamaydi, gap bo‘lag bo‘lib kela olmaydi. Ular gapda kirish bo‘lak vazifasida keladi.

Modal so‘zlarning ko‘philigi mustaqil so‘zlardan o‘sib chiqqan:

1. Otdan: aftidan, ehtimol, chog‘i, chamasi, mazmuni, haqiqatda, darhaqiqat.
2. Sifatdan: so‘zsiz, shubhasiz, tabiiy, rosti, ochig‘i, to‘g‘rirog‘i, ma'lumki.
3. Ravishdan: chindan, albatta, rostdan.
4. Bog‘lovchidan: balki.
5. Fe’ldan: keling, qo‘ying, qo‘yingki, hoynahoy, deylik, demak, olaylik.
6. Olmoshdan: o‘z-o‘zidan, harqalay.
7. Sintaktik birliklardan: baribir, nafsilambriga, har holda, holbuki, ishqilib.

**206-mashq.** “Hukmlagichlar”ni o‘qing. Taqlidiy so‘zlarni toping va bu xususda fikr yuriting.

### **Hukmlagichlar**

- Qu-qu, qu-qu xo‘rozim,  
Toji tillo xo‘rozim.  
Yuzing tillo olmadek,  
Ota-bobo xo‘rozim.

**12. Otlashgan taqlid so‘z qaysi gap tarkibida qo‘llangan?**

- A) Yomon ishning oxiri voy.
- B) Suvning shildir-shildiri kuchaydi.
- C) Karnayning g‘at-g‘ati quloqlarni qomatga keltirdi.
- D) B va C

**13. Qaysi xususiyat taqlid so‘zlarga xos emas?**

- A) Taqlid so‘zlar yakka holda qo‘llanishi mumkin.
- B) Taqlid so‘zlar juft yoki takror holda qo‘llanishi mumkin.
- C) Taqlid so‘zlar ba’zan otlashib, egalik va kelishik qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi.
- D) Ko‘rsatilgan barcha xususiyatlar taqlid so‘zlarga xos.

**14. Gapda hol vazifasida kelgan taqlid so‘zni toping.**

- A) Abdurasul bilan Xolmurodning kirib kelishlari quvnoq g‘ovur-g‘uvurning bosilishiga sabab bo‘ldi.
- B) Ola qarg‘alar yaxlagan qanotlarini shaq-shaq urishadi.
- C) Yuragi bir onda gurs-gurs urdi.
- D) B va C

**15. Oydinda chiroyli yiltiragan chillaki luchchak shaftolilar duv-duv to‘kildi. Ushbu gapdagisi taqlid so‘zning sintaktik vazifasini aniqlang.**

- A) aniqlovchi
- B) to‘ldiruvchi
- C) hol
- D) ega

**16. Davradagilar shivir-shivir gap boshlashdi. Ushbu gapdagisi shivir-shivir so‘zi qaysi so‘z turkumiga mansub?**

- A) undov so‘z
- B) modal so‘z
- C) taqlid so‘z
- D) takror so‘z

## SINTAKSIS (Синтаксис (нахв))

**Bilib oling!** Sintaksis grammatikaning morfologiya bilan teng huquqli bo‘lgan ikkinchi qismidir. Unda so‘z birikmasi, gap bo‘laklari, gap va ularning turlari o‘rganiladi. Morfologiyadagi kelishiklar, so‘z turkumlari, fonetikadagi ohang sintaksisdagi ko‘pgina hodisalarni belgilab beradi, ya’ni so‘z turkumlariga ko‘ra gap bo‘laklari belgilanadi, fe’l mayllari gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini belgilaydi, ba’zan ohang ham gap bo‘laklarini yoki gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini belgilaydi.

Як соҳаи забоншиносӣ, ки чумларо ҳамчун воҳиди асоси нутқ ва ибораро ҳамчун исми чумла меомӯзад.

### 32-MAVZU. SO‘Z BIRIKMASI VA GAP

(Ибора ва чумла)

**207-mashq.** Matnni o‘qing, gap kim va nima haqda ekanini aytинг. Gaplar tarkibidagi so‘z birikmalarini aniqlang.

#### Bu mening yulduzim

Ulug‘bek yoshligidan boshlab samoga qiziqib boqar, tunda esa yulduzlarni sanagani-sanagan ekan. Lekin qancha sanamasin, oxiriga yetkaza olmaskan. Kunlardan bir kuni, oydin tunda saroy bog‘ida o‘ynab yurib, akasi bilan gap talashib qolibdi. Ulug‘bek: “huv anavi yulduz meniki”, – desa, akasi: “Yo‘q, unday dema, gunoh bo‘ladi. Hamma yulduz xudoniki”, – debdi.

Ulug‘bek: “Voybo‘, shuncha yulduzning hammasi bitta xudonikimi, yo‘q sen xato qilasan, huv anavunisi meniki”, – deb o‘z so‘zida turib olibdi. Akasi ham: “Yo‘q, sen xato qiladursan”, – deb u ham o‘z so‘zida qattiq turib olibdi. Aka-uka talashib-tortishib, bir-biri bilan: “Yo‘q, seniki noto‘g‘ri-meniki to‘g‘ri”, – deyishganicha otalarining oldiga borishibdi. Otasi gap nimadaligini so‘rabdi.

Akasi:

– Ulug‘bek samodagi xudoning yulduzlaridan birini meniki, deb xatoga yo‘l qo‘yadur, – debdi.

– Yo‘q, – debdi Ulug‘bek, so‘zida qat‘iy turib, – buning o‘zi xato qiladur. Shuncha yulduzni yolg‘iz xudo nima qiladur. Alardan birovi meniki.

Otasi bu gap aylansa, oqibati yaxshi bo‘lmasligini anglab:

– Ha, mayli samodagi eng yorug‘ o‘sha yulduz Ulug‘bekniki bo‘la qolsin, – debdi.

“Yulduzimni topib oldim! Yulduzimni topib oldim!” – deya xitob qilibdi Ulug‘bek sevinch bilan samoga boqarkan.

Ulug‘bekning porloq yulduzi cheksiz koinot qa‘rida hanuzgacha chaqnab turibdi (“Allomalar ibrati” kitobidan).

**208-mashq.** So‘zlarni o‘rniga qo‘yib so‘z birikmalari hosil qiling.

Ilm, suhbat, dilkash, dunyoviy, mavzu, oltin, turli, barg, shogird, qizg‘in, doimiy, naqsh, o‘yma, aqli, mo‘jizali, kishi, olam, shirin, boldan, chechan, do‘s, gapga, yaxshi, osmon, moviy, foydasiz, tarozusi, so‘z, aqlning, ovozi, bir, qo‘shning, oqibati, ishning, davosi, g‘amning, kishi, shoshilgan, kutubxona, universitet.

---

**Bilib oling!** Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’lum grammatik qonun-qoida asosida tobelanib birikishi **so‘z birikmasi** deb ataladi.

So‘z birikmalarida hokim va tobelik hodisasi asosiy belgi sanaladi, ya’ni bir so‘z ikkinchisiga tobelanadi. So‘z birikmasida ma’nosini izohlanayotgan so‘z bosh so‘z, bosh so‘zning ma’nosini izohlab, to‘ldirib kelgan so‘z ergash so‘z hisoblanadi. Bosh so‘z qaysi so‘z turkumiga mansubligiga qarab, so‘z birikmasi ikki xil bo‘ladi: **otli birikma, fe’lli birikma**.

Bosh so‘z fe’lli va uning ravishdosh, sifatdosh shakllari bilan ifodalansa, fe’lli birikma, yuqoridagilardan boshqa so‘z turkumlari bilan ifodalansa, otli birikma hisoblanadi: eshikni taqillatdi, kitob o‘qib, ertak o‘qigan – fe’lli birikma, ko‘rkam bino, boldan shirin, do’stlarimning bari, o‘qishda birinchi – otli birikma.

So‘z birikmalari tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: sodda so‘z birikmalari, murakkab so‘z birikmalari.

Sodda birikma, asosan, ikki bo‘lakdan tuziladi: issiq choy, yangi xabar. Murakkab so‘z birikmalari esa uch yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning bir-biriga bog‘lanishidan hosil bo‘ladi: olma gulli chinni piyola, qizil gulli shifon ko‘ylak. So‘z birikmasi boshqaruv, moslashuv, bitishuv munosabatiga kirishadi.

**209-mashq.** Quyida berilgan so‘z birikmalarining hokim va tobe qismlarini aniqlang. Hokim qismi qaysi so‘z turkumiga mansubligini aytинг.

So‘zlash qoidasi, o‘ylab gapirish, tilni tiyish, yaxshilikning quli, oliy mansab, sozning sehri, ustozning o‘giti, fikrni jamlab, mehnatda sinalgan, chuqur o‘ylab, maydonning shahsuvori, yaxshiga ergashib, yomondan qochib, samimiyy suhbat.

**210-mashq.** Boshqaruv, bitishuv va moslashuv usullari bilan hosil bo‘lgan so‘z birikmalarini guruhlarga ajrating hamda har biriga beshtadan misol yozing.

Donoga ergashish, yaxshi xulq, ustodning sabog‘i, kursdoshlarni eslab, o‘qish uchun olmoq, mazmunli suhbat, baquvvat yigit, ezgu ish, otasining xizmatlari, mehnatda sinalgan.

**211-mashq.** Otli, fe'llli va ravishli birikmalarga beshtadan misol yozing.

Sehrali shamchiroq, yelib-yugurib ishlamoq, so'zdan tez, yaxshi talaba, jonkuyar do'st, undan yuqoriroqda, tez yozish, ohista o'tirib, universitetda o'qimoq, notanish kishi, dovyurak bola.

**Namuna:** yaxshi talaba, universitetda o'qimoq, undan yuqoriroqda ...

**212-mashq.** So'z birikmasi haqida tojikcha ma'lumotni o'qing, mazmunini bering. Tojikcha va o'zbek ma'lumotni qiyoslab so'z birikmasi turlarini topib, o'zbekcha va tojikcha nomlarini ro'parasiga yozing.


Ду ва ёзиёда калимаҳои мустақилмалъное, ки аз чиҳати мағхум ва муносибати грамматикий ба ҳамдигар алоқаманд шуда, маънои мураккабро ифода меқунад, ибора ном доранд.

Дар ибора яке аз калимаҳо асосий буда, калимаҳои дигар бар шарҳи он меояд. Калимаи асосири ҷузъи тобеъкунанда ва калимаи эзоҳдиҳандаро тобеъшаванда мегўянд. Баъзан калимаҳои муайянкунанда ва муайяншаванда бар ивази калимаҳои тобеъкунанда ва тобеъшаванда кор фармуда мешавад.

Ибораҳои оғоди синтаксисий ва фразеологий навъҳои ибораро ташкил медиҳанд.

Ибораҳое, ки ҷузъи онҳо ба осонӣ аз ҳам ҷудо мешаванд, ибораи озоди синтаксисий ном доранд. Ибораҳои исми сифатӣ, шуморагӣ, ҷонишинӣ, феълий ва зарғӣ ибораҳои озоди синтаксисий ба шумор мераванд.

Иборае, ки маънои ҷузъҳояш ба якдигар махлут гардида, дар якҷоягӣ ба маънои дигар максус шудааст, ибораи фразеологий номида мешавад.



**Bilib oling!** Muomala vositasining eng kichik birligi gapdir. Gap orqali nisbiy tugallangan fikr ifodalanadi: Bolali uuda g‘iybat yo‘q. Gap ohang jihatdan ham tugallangan bo‘lishi zarur.

Gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra uchga bo‘linadi: 1. **Darak gap.** 2. **So‘roq gap.** 3. **Buyruq gap.** Gap tuzilishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: sodda gap va qo‘shma gap.

**213-mashq.** Matnni o‘qing, ifoda maqsadiga ko‘ra sodda gaplarning turlarini aniqlab, jadvalda ko‘rsatilgan tartib bilan daftaringizga ko‘chirib yozing.

Yaqindagina Hirotgta kelib, hali Navoiy asarlari bilan yaxshi tanish bo‘limgan olim mullo Modar Zodaiy mullo Usmon, hamma ko‘zlardan o‘ziga “ofarin!” qidirib jovdiragan mavlono Binoiyga jirkanib qaradi-da, Navoiyga murojaat qildi:

– Alisher janoblari, siz zullisonaynsiz, siz uchun “Foni” mi, “Navoiy” mi dilbardir?


– Haq so‘zni aystsak, – dedi Navoiy jiddiy, lekin ingichka tabassum bilan, – biz uchun o‘z tilimiz dilbardir, demak, “Navoiy” dilbardir.

– Ne uchun? – shoshilib so‘radi mullo Modar Zodaiy mullo Usmon.

– “Foni” go‘zal, “Foni!” – qichqirib qo‘ydi mavlono Binoiy og‘zidan ovqatini sachratib.

Navoiy o‘tkir istehzo bilan mavlono Binoiyga bir qarab qo‘ydi-da, so‘zida davom etdi:

– Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlarning husni va salobatini hech vaqt inkor etmadik. To go‘daklikdan boshlab fors tilida ham qalam surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug‘ haqiqatdir. Biz go‘daklikda bu haqiqatning ishqini ko‘nglimizga jo qilganmiz, o‘lganimizgacha bu ishqni saqlaymiz! (Oybekning “Navoiy” romanidan).



**214-mashq.** Sodda yig‘iq gaplarni sodda yoyiq gaplarga aylantiring.  
 1. Men o‘qiyman. 2. Firdavs keldi. 3. Bilimdon talaba. 4. Chevar qiz tikkan.  
 5. Otam aytgan likmat. 6. Kutubxonaga kirdi. 7. Savolga javob berdi.


**215-mashq.** Jadvalning bo‘s sh katakchalarini sodda va qo‘shma gaplar bilan to‘ldiring.

Sodda gaplar	Qo‘shma gaplar

**216-mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini topib, krossvordni to‘ldiring.

- Kiyim bo‘shi qattiq tosh,  
Tosh ichida yashar u.  
Yurganda chiqarib bosh,  
Qirdan q’rga oshar u.  
Yursa ham ki imillab,  
Yashar lekin yuz yillab.
- Yilbo‘yi nurdan qochib,  
Yerni teshib yo‘l oshib.  
Yer qarida saqlar jon,  
Kim ekan bu o‘ylab top.
- Qush eman qanoti bor,  
Ko‘kragida qoni bor.  
Faqat oqshom uchadi,  
Nurdan qo‘rqib qochadi.
- Boradi, boradi, bo‘yraday joyni egallaydi.
- Qur-qur etar u yozda.  
To‘yib uxlар ayozda.
- To‘rtdir uning oyog‘i,  
Temir mixi tuyog‘i.  
Manzilga yetishtirar,  
Toshdan o‘tkir tuyog‘i .
- Kechasi “hov-hov” etar,  
Kunduzi “vov-vov” etar.
- Mo‘ylovi bor, soqoli yo‘q.
- Zuv-zuv boradi, zuv-zuv keladi,  
Boston o‘qir, g‘alvir to‘qir.
- Uzun qulqoq,  
Katta dum.

### Krossvord



### Atamalar lug'ati

1. So'z birikmasi – ибора
2. Gap – чумла
3. Hokim so'z – калимаи тобеъкунанда
4. Tobe so'z – калимаи тобеъшаванда
5. Bosh so'z – калимаи асосӣ
6. Ergash so'z – калимаи тобеъшаванда
7. Oqli dirikma – ибораи исми
8. Fe'llili birikma – ибораи феъли
9. Tuzilish – соҳт
10. Sodda birikmalar – ибораҳои содда
11. Murakkab birikmalar – ибораҳои мураккаб
12. Boshqaruv – вобастагӣ
13. Moslashuv – мувофиқат
14. Bitishuv – ҳамроҳӣ
15. Sodda gap – чумлаи содда
16. Qo'shma gap (murakkab gap) – чумлаи мураккаб
17. Darak gap – чумлаи хабарӣ
18. So'roq gap – чумлаи саволӣ
19. Buyruq gap – чумлаи амрӣ
20. Istak gap – чумлаи хоҳишмандӣ
21. Bog'langan qo'shma gap – чумлаҳои мураккаби пайваст
22. Bog'lovchilarsiz bog'langan qo'shma gap – чумлаҳои мураккаби бепайдандак
23. Ergashgan qo'shma gap – чумлаи мураккаби тобеъ

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. So‘z birikmasi deganda nimani tushunasiz?
  2. So‘z birikmasining asosiy so‘zi nima deyiladi?
  3. So‘z birikmasi qanday tarkib topadi?
  4. So‘z birikmasi sintaktik munosabatga ko‘ra qanday guruhlarni tashkil etadi?
  5. Sodda va murakkab so‘z birikmasining farqi nimada?
  6. Gap nima?
  7. Gapning necha turi bor?
  8. Sodda gap nima? Uning qanday turlari bor?
  9. Qo‘shma gapning qanday turlari bor?
  10. O‘zbek tilidagi so‘z birikmasi va gap tushunchalari tojikcha ibora va jumla tushunchalari bilan teng ma’noga egami?

Test

### **1. Sintaksisda nima o‘rganiladi?**

- A) so‘z turkumlari      B) tinish belgilari  
C) so‘z birikmalari va uning turlari, gap va gap turlari, gap bo‘laklari  
D) toyushlar

## 2. So'z birikmasi berilgan qatorni toping.



### **3. Sodda so‘z birikmalarini aniqlang.**

- A) tandir-tandir non-u kulchalar, bag'ri keng
  - B) yolg'izoyoq yo'l, qishki imtihon
  - C) tinib-tinchimas yoshlari, qiz-juvonlar bilan suhbat o'tkazmoq
  - D) kitobi ko'p kutubxona, maydoni keng hovli, sochi uzun qiz

4. Boshqaruv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmasini toping.

- A) qop-qora ko'zlar  
B) atrof ko'm-ko'k

C) katta umid, achchiq piyozi  
D) Barcha so'z birikmalari

#### **5. Bitishuvli so‘z birikmasini toping.**

- A) qizning husni      B) ukam uchun olmoq  
C) birdan gapirmoq    D) maktabdan kelmoq

#### **6. Otli birikma qo'llangan qatorni aniqlang.**

- A) havo bulut  
B) shaxsiy ibrat, novdalarning har biri  
C) mahkam ushlabi  
D) barchasi

7. Qaysi qatordagi so'z birikmasida hokim so'z fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan?

- A) to'rtinchi fasl B) kuyni tinglamoq C) o'ziga ishonish D) maydonni qurshab

## Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. So'z birkmasi va gap haqida boshqa "O'zbek tili" darsligidan ma'lumot yozing. O'sha ma'lumotni o'zingiz o'rgangan ma'lumot bilan taqqoslang.
2. O'n beshta so'z birikmasi yozing hamda ularning hokim va tobe qismlarini aniqlang.
3. Boshqaruv, moslashuv, bitishuv yo'li bilan hosil bo'lgan so'z birikmalarini yozing va bu xususda ma'lumot bering.
4. Darak, so'roq, buyruq, istak munosabatlarini bildiruvchi sodda gaplar yozing.
5. Shoir Muhammad Yusufning "Hech kimga bermaymiz" she'rini yod oling.

### Hech kimga bermaymiz

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,  
Ham oq yuvib-taragansan o'zing bizni,  
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,  
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.  
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,  
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

Qalqoning bor kim qasd qilsa gar joningga,  
Alpomishning ruhi yor har o'g'loningga.  
Asragaymiz giyohing ham gulday o'pib:  
Yovlar yaqin yo'lolmagay qo'rg'oningga.  
Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,  
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

Tuzing tatib, unutganlar xor bo'ladi,  
Ko'zlariga ikki dunyo tor bo'ladi.  
Shodon daming ko'rolmagan yurtfurushlar,  
Bir kun bir kaft qumlog'ingga zor bo'ladi.  
Yoningda turgaymiz seni, O'zbekiston,  
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

Gul ko'ringay dashtingdagi giyoh-xasdir,  
Soddadil-u ulug'verlik senga xosdir.  
Sevamizki, cho'llaring ham bizga jannat,  
Tuprog'ing ham Makka misol muqaddasdir.  
Onadek ko'rgaymiz seni, O'zbekiston,  
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

**Muhammad Yusuf**

## BOSH BO'LAKLAR

(Сараъзоҳо)

**Bilib oling!** Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe so'z yoki birikmasi gap bo'lagi deyiladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. Gap bo'laklari avvalo, ikkiga bo'linadi: bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar. Ega va kesim gapning bosh bo'laklari hisoblanadi, chunki ular gapning grammatik asosini tashkil etadi. Ega va kesim o'zaro tobe bog'lanadi. Sintaktik tahlil vaqtida gap bo'laklaridan birinchi bo'lib kesim aniqlanadi.

Gap bo'laklari				
Bosh bo'laklar	Ikkinchi darjali bo'laklar			
Ega	Kesim	Aniqlovchi	To'ldiruvchi	Hol
Shartli belgilar				
		—	- - - - -	• • •
So'roqlari				
Kim? kimlar? nima? nimalar?	Nima qilyapti? nima qilmoqchi?	Qanday? qanaqa?	Kimni? nimani? kimga? nimadan?	Qayerda? qay tarzda? nima uchun?
Gapdagi o'rni				
gap boshida	gap o'rtasida		gap oxirida	

### 33-MAVZU. EGA VA UNING IFODALANISHI

(Мубтадо ва ифодаёбии он )

**217-mashq.** Matnni o'qing, gap nima haqda ekanini aiting. “**Kiyinish odobi**” mavzusi bo'yicha fikr-mulohaza bildiring. Matndagi sodda gaplarni ajratib, ega va kesimini aniqlang.

#### Kiyinish odobi

Liboslarning rangi turlicha bo'ladi. Har bir rang o'zga ma'noni ifodalaydi. Agar oq libos nimani anglatadi, deb so'rasalar, shunday degin: Oq kiyim kunning rangidadir, shuning uchun bunday libos yuragida gina va adovati bo'lmagan kishilarga yarashadi. Oq kiyim kiygan kishi xuddi tong kabi kishilarga nur ulashishi kerak.

Agar ko'k libos nimani bildiradi desalar, shunday degin: ko'k rang – suv rangidir. Shu bois, bu rangda kiyangan kishilar saxiy va hayotni sevuvchi bo'lishlari kerak. Kim agar bu rangni ma'qul ko'rsa, u xuddi suvdek toza va musaffo. Har bir qalbga yaqin bo'lishi lozim.

Agar qora libos nimani anglatadi, desalar, ayt: qora rang tun va ko'z qorachig'ining rangidir; shu bois bunday libosni kiyganlarning qalblari sir-u asrorlarga to'la bo'ladi.

Agar yashil kiyim to'g'risida so'rasalar, shularni ayt: yashil rang osmon va yetuk kishilar rangidir. Bunday kiyim kiygan kishi osmon kabi sof va bag'ri keng bo'lishi, yordamga muhtoj kishilarga iloji boricha ko'maklashishi kerak ("Kim bilan do'stlashish kerak" kitobidan).

---

**Bilib oling!** Gap kim yoki nima haqda ekanligini (ish-harakatning bajaruvchisini) bildirib, boshqa bo'laklarga grammatik tobe bo'Imagan bo'lak ega deyiladi. Ega kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Ega bosh kelishik shaklida bo'ladi va ot, olmosh, otlashgan (sifat, son, sifatdosh, taqlid so'zlar, undov so'zlar va modal) so'zlar bilan ifodalananadi.

**218-mashq.** Gaplarni o'qib, egani aniqlang. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini aytинг.

1. Quyosh tog'lar orqasiga yashirindi. 2. Men ham xayol surib ketdim. 3. Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur. 4. Shivir-shivir boshlandi. 5. Onaizorning ohi olamni tutdi. 6. Bor – boricha, yo'q – holicha. 7. O'qish – asosiy vazifamiz. 8. Ko'p uqlash – zarar. 9. Biz to'kilgan paxtani terdik. 10. Yaltiroq narsa ko'rindi. 11. Besh karra besh – yigirma besh. 12. Uni avaylab saqlash lozim. 13. Hayotda eng muhimi – to'g'ri yo'ldan borish.

**219-mashq.** Hikoyatni o'qing, mazmunini aytib bering. Ega va kesimni aniqlab tagiga shartli belgisini chizing.

Bir kun padari buzrukvorimiz – Amir Tarag'ay bahodir ko'p qo'ylarni menga berib, Samarqand bozoriga savdoga yo'lladilar. Qo'ylarning hammasini ming oltunga sotib, pullarni belga bog'lab sayr qilib yurur edim. Bir yerda xushovoz qalandar odamlarga so'zlab turgon ekan: qo'lida qog'oz – she'r bitilgan, u der edi:

– Shul yozuvning qadrig'a yetib, kim ming oltunga olsa, dunyoning oxiriga yetadi ...

Himmatim jo'shib, ming oltunni qalandarga tutqizdim. U menga tikilib turdi-da, so'ng nasl-nasabimni so'radi. Aytdim. So'ng tayin qildi:

– Otang oldig'a borg'il, buni otang oldida o'qi, borguncha ochma ...

Qog'ozni keltirib, padari buzrukvgorga berdim. Ochib o'qidilar. Forscha ruboiy ekan – ma'nosi quyidagicha: zulm bilan dunyoda nom qoldirib bo'lmaydi. Jamshid,

Sulaymon, Iskandarlar o‘tib ketdi, navbat senga ham yetishi tayin. Dunyoga keldingmi, yaxshilik bilan nom qoldir ...

Ruboiyning muallifi – o‘shal qalandar – alloma shoir Kamol Xo‘jandiy erkan. Ul zotni padari buzrukvorimiz ko‘p hurmat qilar erkanlar.

– Barakallo, o‘g‘lim, ko‘p dono ishga oltunlarni sarf etibsan. Endi, ming oltung‘a olingen ushbu hikmatga qat’iy rioya qilmoq lozimdir ...

Padari buzrukvorning aytg‘onlarini bosh ustiga tutdim (Sohibqiron hikoyatlari, “Amir Temur o‘gitlari” kitobidan).

**220-mashq.** Ega haqidagi tojikcha ma‘lumotni o‘qing. O‘zbek tilidagi ma‘lumotga o‘xshash yoki o‘xshamasligini aytинг.

Мубтадо сараъзои чумлаест, ки амал, ҳолат ва ё аломати дар чумла ифодаёфта ба он тааллук дорад. Мубтадо одатан бо исм, ҷонишин ва масдар ифода ёфта, ба саволҳои қарӣ ё ҷарӣ ҷавоб мешавад. Агар қалимаҳои ифодакунандай шахс ба вазифаи мубтадо омада бошанд, мубтадо ба саволи қарӣ(киҳо?) , дар дигар ҳолатҳо ба саволи ҷарӣ (чиҳо?) ҷавоб мешавад.

Мубтадо аз ҷиҳати соҳт ду хел мешавад: содда ва тафсили

Мубтадоҳои содда ба воситай як қалима ифода мейбанд

Мубтадоҳои тафсили ба воситай ибораҳои рехта ва лексиконидашуда ифода мейбанд.

Аломати шартиаш як хати рост мебошад (—). Ин аломат ҳангоми муайян кардани мубтадо ба зераши кашида мешавад

### Atamalar lug‘ati

1. Gap bo‘laklari – аъзоҳои чумла
2. Bosh bo‘laklar – сараъзоҳо
3. Ikkinchı darajali bo‘laklar – ҷумлаҳои пайдрав
4. Ega – мубтадо
5. Eganing ifodalanishi – ифодаёбии мубтадо

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Nimalar gap bo‘laklarini tashkil etadi?
2. Gap bo‘laklari necha guruhga bo‘linadi?
3. Bosh bo‘laklarga nimalar kiradi?
4. Aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol gapning qanday bo‘lagi sanaladi?
5. Ega qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
6. Ega qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?

## Test

### 1. Ega qatnashgan gapni aniqlang:

- A) Jon qizim, o'zingni ehtiyot qil.
- B) El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.
- C) Aqlni beaqldan o'rgan.
- D) O'zbekiston, vatanim manim.

### 2. *Bilgan bilganicha ishlar, bilmagan barmog'ini tishlar.* Ushbu gapda ega qaysi so'z turkumida ifodalangan?

- A) ot bilan
- B) fe'l bilan
- C) otlashgan sifatdosh bilan
- D) otlashgan sifat bilan

### Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

- 1. O'nta sodda gap yozing. Eganing tagiga chizib so'roqlarini aniqlang.
- 2. Shunday gaplar yozingki, ega ot, olmosh, otlashgan (sifat, son, sifatdosh, taqlid, undov va modal) so'zlar bilan ifodalangan bo'lsin.

## 34-MAVZU. KESIM VA UNING IFODALANISHI

(Хабар ва ифодаёбии он)

**221-mashq.** Matnni o‘qing, gap nima haqida ekanini aytib bering. Kesimlarni aniqlab tagiga chizing.

### Nuqtaning quadrati

Mir Alisher Navoiy o‘z g‘azallarini zamonasining eng zo‘r bilimdon xattotlariga ko‘chirtirardi. Nima bo‘ldi-yu, o‘z xattotining tobi qochib qoldi. Bundan xabardor bo‘lgan, o‘zini mashhur xattotlardan deb yurgan bir olifta kishi: “Rozi bo‘lsa, Navoiyning xizmatini jonim bilan bajarardim”, – dedi.

Shoir uning bu gapini eshitib, she’rlarini ko‘chirtirishga berdi. Bir payt katta mushoirada Alisher Navoiyning qulog‘iga: “Malikul shuaroning o‘zlarini nuqson-qusurga yo‘l qo‘yibdilarmi, boshqalardan nimani ham kutish mumkin”, - degan gap qulog‘iga chalinibdi.

Gap nimadaligini darrov fahmlagan shoir boyagina ko‘chirtirgan g‘azallarini olib o‘qibdi, qarasa o‘zi aytgan gap emas emish. Maqtanchoq xattot tushmagur “ko‘z” so‘zidagi bir nuqtani tushirib qoldiganidan, bu so‘z “ko‘r” bo‘lib qolgan va she‘r ma’nosni o‘zgarib, aksincha chiqib qolgan ekan.

Navoiy ahli fozillarga qarab:

– Ko‘zimni ko‘r qilganlar ko‘r bo‘lsin, – debdi-da, xattotga javob berib yuboribdi (“Allomalar ibrati” nomli kitobdan).

---

**Bilib oling!** Ega haqidagi xabar (hukm) ni bildirib, unga grammatik tobe bo‘lgan bo‘lak kesim deb ataladi. Kesim **nima qildi?** **nima qiladi?** **nima qilmoqchi?** kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Kesim fe’l, sifat, ot, son, olmosh, ravish, undov, modal va taqlid so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu jihatdan kesim **fe’l-kesim** va **ot - kesim** guruhlarini tashkil etadi. Fe’l-kesim fe’l yoki uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi.

**Fe’l-kesim** tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) sodda fe’l-kesim bir so‘z bilan ifodalanadi. 2) murakkab fe’l-kesim ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasidan; sifatdosh yoki maqsad maylidagi fe’l hamda **bo‘Imoq** fe’lli yoxud to‘liqsiz fe’ldan iborat bo‘ladi. **Ot-kesim** ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, modal so‘z bilan ifodalanadi. Ot-kesim ham tuzilishiga ko‘ra ikki xildir: 1) sodda ot-kesim bir so‘z bilan ifodalanadi. 2) murakkab ot-kesim.

Ega va kesim bir-biri bilan shaxsda deyarli hamma vaqt mos keladi. Fe'l-kesim 1 - va 2 - shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos keladi. Ot-kesim ko'plikdag'i ega bilan ko'pincha moslashmaydi. Gapning kesimi bosh kelishikdag'i ot bilan ifodalananib, bog'lama yoki kesimlik bo'lsa, yozuvda egadan keyin tire qo'yiladi.

**222-mashq.** Kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang. Fe'l va ot-kesimlarni ikki ustunga ajratib yozing.

1. To'garak mashg'uloti haftada bir marta o'tadigan bo'ldi. 2. Biz qo'shiq kuyladik. 3. Biz tomonlarga ham borib turing. 4. Men talabaman. 5. Bola boldan shirin. 6. Mening eng yaqin do'stim – sen. 7. Bizda imkoniyat ko'p. 8. Yashamoq - harakat qilmoq. 9. Suv bor yerda hayot bor. 10. Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on bo'lur. 11. Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi.

**223-mashq.** Sodda va murakkab fe'l va ot-kesimlariga misol bo'ladigan sakkizta gap yozing.

**224-mashq.** Ega bilan kesimning shaxs va sonda o'zaro mosligini aniqlang.

1. Yaxshilarga – yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. 2. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izza-t u ikrom ko'rsatdim. 3. Raiyat ahvoldan ogoh bo'ldim, ulug'larini qatorda, kichiklarini farzand o'mrida ko'rdim. 4. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim. 5. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo'lini to'sdim ("Amir Temur o'gitlari" kitobidan).

**225-mashq.** Kesim haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing. O'zbek tilidagi ma'lumotga o'xshash yoki o'xshamasligini aytинг.

Ҳабар Ҷаъзои чумла буда, амал, ҳолат ва ё аломати мубтадоро мефаҳмонад. Ҳабар ба саволҳои чи кор мекунад?, чи шуд?, чи хел аст?, кист?, чист? ва гайра ҷавоб мешавад.

Ҳабар бо феъл ва дигар ҳиссаҳои нутқ ифода мейбад.

Ҳабар бо ҳиссан дигари нутқ ифода шуда бошад, ҳабари номи меноманд.

Агар ҳабар бо феълҳо ифода шуда бошад, онро ҳабари феъли меноманд.

Аломати шартин ҳабар ду хоти рост мебошад( \_\_\_\_ ). Онро ҳангоми муайян кардани ҳабар ба зераш мекашанд. Аз саръзоҳо аввал ҳабар аниқ карла мешавад ва баъд аз он мубтадо.

#### Atamalar lug'ati

1. Kesim – ҳабар
2. Kesimning ifodalaniishi – ифодаёбии ҳабар
3. Fe'l-kesim – ҳабари феъли
4. Ot-kesim – ҳабари номи

- Sodda va murakkab fe'l-kesim — хабари феълии содда ва мураккаб
- Sodda va murakkab ot-kesim — хабари номии содда ва мураккаб
- Ega va kesimning shaxs-sonda moslashuvি — мувофиқати мубтадо ва хабар аз рўй шахс ва шумора

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- Kesim nima?
- Sintaktik tahlilda birinchi bo'lib gap bo'laklaridan eng avval qaysi aniqlanadi?
- Fe'l bilan ifodalangan kesim nima deb ataladi?
- Qanday kesim ot-kesim deyiladi?
- Ega va kesim qaysi jihatdan o'zaro moslashadi?
- Ega va kesimning qanday shartli belgilari mavjud?

### Test

**1. Sobir endi kelavaning uchini topdi. Ushbu gapda kesim nima bilan ifodalangan?**

- |                |                          |
|----------------|--------------------------|
| A) ot bilan    | C) ibora bilan           |
| B) sifat bilan | D) turg'un birikma bilan |

**2. Ot-kesimli gapni aniqlang.**

- Pastak eshik g'irchillab ochildi.
- Shoikrom qizining gapini eshitmadni.
- Jahl – dushman, aqj – do'st.
- Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi.

**3. Qaysi gapda kesim fe'lning sifatdosh shaklida ifodalangan?**

- Kishi o'z baxtini boshqalarga keltirgan foydasiga qarab o'lchaydi.
- Vijdonan bajarilgan har qanday mehnat foydalidir.
- Inson baxt uchun yaralgan.
- O'qishda, mehnatda, fanda, xalqqa astoydil xizmat qilishda o'z baxtingni topasan.

**4. Siz bilan olam go'zal. Sifatga oid so'z gapning qaysi bo'lagi bo'lib kelgan?**

- |               |          |
|---------------|----------|
| A) aniqlovchi | C) ega   |
| B) kesim      | D) kesim |

**5. Osmondag'i yakka-dukka yulduzlar unga achingandek milt-milt qilardi. Ushbu gapda kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?**

- |                       |                         |
|-----------------------|-------------------------|
| A) taqlid so'z bilan  | C) fe'l bilan           |
| B) qo'shma fe'l bilan | D) so'z birikmasi bilan |

## **Farzandga nasihat**

Ey o'g'il! Bu dunyo korxonasida shunday yo'l tutki, kiygan kiyiming va yegan ovqating haloldan bo'lsin.

Yer yuzida shunday yashashga uringinki, topgan maoshing faqat to'g'rilik orqali topilgan bo'lsin.

Jigaring qonidan non topib ye, ammo tekin non uchun darbadar it kabi birovlarning eshigiga yalinib borma.

Biz uchun quyidagicha yo'l tutish eng munosib ish va shunga amal qilish eng qutlug' yo'ldir. Agar sen ilm bilan mashhur bo'lsang, barcha olam ahliga mukarram bo'lasan. Sen odamlarga ta'zim qilishdan bo'yin tovlama, takabburlik yo'liga kirib qolishdan ehtiyyot bo'l.

Sen odamlar bilan shunday muomalada bo'lki, toki ular seni jon-dildan sevib qolsinlar. O'zingdan kattalarga odob bilan muomala qil, o'zingdan kichiklarga esa shafqat yo'lini tut.

Kattalarni hurmat qilsang, boshingga ish tushganda, ular yordam qo'lini cho'zadilar, yoshlar esa senga hurmat ko'zi bilan boqadilar.

Xijolatga qolmay desang, manmanlik qilma, boshqalarning ko'nglidan joy olay desang, xushchiroy bo'l.

Kushmuomalalik bilan odamlarning yuragiga kirish va katta-kichikni rom etish mumkin.

Behuda hazillarga va yengiltakliklarga yo'l qo'yma, beobro' va behayo kishilar bilan hamsuhbat bo'lishdan qoch.

Bu ko'hna rabot ichida to tirik ekansan, ehtiyyotkorlik va hushyorlikni qo'ldan berma.

Bu feruza gumbazli osmon tagida to tirik ekansan, birovni ranjitmasang, o'zing ham hech qachon ranjimaysan.

Sen dunyoga yomonlik qilish uchun kelmagansan, shuning uchun hushing joyida bo'lsa, faqat yaxshilik qil.

Sen yaxshilik istasang, yaxshilik qil, chunki yomonlikdan yomonlik, yaxshilikdan esa yaxshilik tug'iladi.

Sen yomonlik istovchilarga suyanib ish tutma, chunki yomonlik istovchilar yomonlik bilan hech qachon maqsadlariga yetolmaydilar.

Yomonlar vositasida birovlarga yomonlik tilama, aksincha, birovlarga yaxshilik qilsang, maqsadingga albatta yetasan.

Dushmanlik ikki boshli ilonga o'xshaydi, u har ikki tomonga ham nish uraveradi.

Dushmanlik qilib birovning boshiga qanday kulfat solsang, shu kulfat bir kuni sening boshingga ham keladi.

(“Hikmatnoma” kitobidan)

**227-mashq.** Jadvalni ko'zdan kechiring, vositasiz va vositali to'ldiruvchilarga misol bo'ladigan oltita gap yozing.

To'ldiruvchi	
vositasiz	vositali
<i>So'roqlari</i>	
Kimni? nimani? qayerni?	Kimga? nimaga? kimda? nimada? nima bilan? kim haqida?
<i>Misol</i>	
U ashulani zavq bilan aytdi.	Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi.

**228-mashq.** To'ldiruvchi haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing. O'zbek tilidagi ma'lumotga o'xshash yoki o'xshamasligini aytинг.

Предмете, ки таъсиру ҳаракати амал ба он гузаштааст, **пуркунанда** номида мешавад. Пуркунанда ба саволҳои **кя?**, **чя?**, **киро?**, **чиро?**, ба **кя?**, ба **чя?**, аз **кя?**, аз **чя?**, дар **кя?**, дар **чя?** ва гайра чавоб мешавад.

Пуркунанда ба феъл тобеъ мешавад. Аэбаски феъл дар чумла аксар вақт хабар мешавад, пуркунанда хабари чумларо пурра мекунад.

Пуркунанда бо исм, чонишин, масдар ва дигар ҳиссаҳои нутқ, ки ба вазифаи исм меоянд, ифода мешавад.

Пуркунанда ду хел мешавад: **бевосита** ва **бавосита**.

Предмете, ки ба он амали феъл гузаронида шудааст, пуркунандаи бевосита ном дорад. Ои ба саволҳои **киро?**, **киҳоро?**, **чиро?**, **чиҳоро?** Ҷавоб мешавад.

Пуркунанда дар мобайни ва аввали чумла меояд. Дар назм бошад, он дар охири чумла меояд. Аломати шартиаш тире-тире мебошад (           ). Ин аломат ҳангоми муайян кардани пуркунанда ба зераш кашида мешавад.

### Atamalar lug'ati

1. To'ldiruvchi – пуркунанда
2. Vositasiz to'ldiruvchi – пуркунандаи бевосита
3. Vositali to'ldiruvchi – пуркунандаи бавосита

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. To'ldiruvchi nima?
2. To'ldiruvchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Vositasiz to'ldiruvchi deganda nimani tushunasiz?
4. Vositali va vositasiz to'ldiruvchi qaysi jihatlarga ko'ra bir-biridan farq qiladi?

## Test

### 1. To‘ldiruvchi qo‘llangan gapni toping.

- A) Bog‘imizga olma, o‘rik va nok kabi mevali daraxtlar o‘tqazdik.
- B) Ezgulik insonning ma’naviy olamidagi quyoshidir.
- C) Chehrasi ochiq kishining qalbi ham ochiq.
- D) Yaxshi o‘tkazilgan umr baxt-saodat hisoblanadi.

### 2. Ibora bilan ifodalangan to‘ldiruvchini toping.

- A) Tunbo‘yi yuragini hovuchlab, ko‘chaga qarab o‘tirish osonmi?
- B) Nazokatxon xushomad qilib, ko‘nglimni olishga intiladi.
- C) Professor ham ko‘nglimni ko‘tarish uchun aytgandir.
- D) Keksa me’mor Gavharni ko‘p tilga olibdi.

### 3. Vositasiz to‘ldiruvchiga qaysi qatorda to‘g‘ri ta’rif berilgan?

- A) Tushum va qaratqich kelishigidan boshqa kelishikdagи so‘zlar bilan ifodalangan to‘ldiruvchilar.
  - B) Ayrim ko‘makchilar bilan kelgan so‘zlar orqali ifodalangan to‘ldiruvchilar.
  - C) Tushum kelishigidagi so‘zlar orqali belgili yoki belgisiz ifodalangan to‘ldiruvchilar.
  - D) Javoblarda vositasiz to‘ldiruvchiga ta’rif berilmagan.
- ### 4. To‘ldiruvchi asosan qanday gap bo‘laklariga bog‘lanadi?
- A) egaga
  - B) ega va kesimga
  - C) ot-kesimga
  - D) fe’l-kesimga
- ### 5. Vositali to‘ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Jamoa xo‘jaligi tezda tiklanib oldi.
  - C) To‘y arafasida kuni bilan qor yog‘di.
  - B) Bolali uyda g‘iybat yo‘q.
  - D) Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q.

### Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq

1. Vositasiz va vositali to‘ldiruvchiga 5 tadan misol yozing.
2. Savol yordamida vositasiz va vositali to‘ldiruvchini aniqlang.
3. Abu Ali ibn Sinoning quyidagi ruboisi va tarjimasini yod oling. Nasriy bayyon usulida mazmunini yozing.

Аэ қаъри гили сиёҳ то авчи Зуҳал  
Кардам ҳама мушкилоти гетиро ҳал,  
Берун ҷастам зи қайди ҳар макру ҳиял,  
Ҳар банд күшода шуд, магар банди ачал.

### Jamol Kamol tarjimasি

Shul hoki siyohdan to avji Zuhal,  
Har nechaki mushkulot erur, etdim hal.  
Ochdim necha zanjir zanjiri makr-u hiyal,  
Yechdim necha bir tugun, magar qoldi ajal ...

## 36-MAVZU. ANIQLOVCHI (Муайянкунанда)

**229-mashq.** Matnni o'qing, gap nima haqda ekanligini aytib bering. So'roqlar orqali aniqlovchini topib, tagiga chizing.

### Gullar tortishuvi

Nodirabegim mashhur shoira bo'lishi bilan birga, husnda tengsiz, nihoyatda oqila ayol edi. Shoiraning suhbatidan bir martaba bahramand bo'lgan kishi borki, uning aql-u idroki, fahm-farosatiga qoyil qolardi. Eri shoир Umarxon ham Nodirabeginning maslahatlari va yo'l-yo'riqlariga doim qulq solardi. Kunlardan bir kun shoир Umarxon o'rdaga kelayotib, bog'dagi gullarning bahslashayotganliklarini eshitib qolibdi.

– Sendan ko'ra chiroyli va hidliroqman. Shuning uchun kishilar meni yoqtirishadi, – debdi qizilgul Atirgulga.

– E, yo'q, kechirasani, – deb javob beribdi unga Atirgul. – Men sendan ko'ra ming chandon muattar va chiroyliroqman. Odamlar meni ko'proq yoqtirishadi.

Gulisafsar, Gulira'no, Gulirayhon kabi gullar: "To'g'ri! Atirning so'ziga qo'shilamiz!" – deyishibdi quvonganlaridan chapak chalishib. G'ir-g'ir esayotgan sabo ham buni ma'qullabdi-da, Atirgulning muattar hidini chor atrofga olib qochibdi. Gul shoxiga qo'nib xonish qilayotgan to'ti-yu, bulbullar ham sayrashdan to'xtab Atirgul so'zini na'qullahibdi.

Yana bir oz jim tursa, tortishuv janjalga aylanib, biri ikkinchisini xafa qilib qo'yishiga ko'zi yetgan shoир Umarxon pichog'ini yonidan olib gullarni shartta-shartta kesib ol bdi-da, katta bir gulasta qilib o'rdaga kelibdi. Nodirabegim arkda g'azal bitib o'lirgan ekan, Umarxonni ko'rib qolib yoniga chorlabdi-da:

– Begim, hozirgina yozib bitirganim g'azalni eshitishni istaysizmi? – deb so'rabdi.

– Jonim bilan, – javob qilibdi shoир Umarxon. Nodirabegim g'azal boshlabdi:  
Na gul sayr ayla, na fikri bahor et,  
Jahondin kech, xayoli vasli yor et.  
Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan muhabbat ixtiyor et ...  
Izhor-u qadd-u raftoringni ko'rsat,  
Chaman sarv-u sharmisor et.

– Ofarin! Tasanno!! Judayam yaxshi bitibsiz, – deb ma'qullabdi Umarxon. Nodirabeginning ko'zi shoir Umarxon qo'lidagi guldastaga tushibdi.

– Nechun gul ko'tarib yuribsiz? – so'rabdi Nodira. – Yo g'azalimni bodi sabo yetkazdimi?

– Sizga olib keldim, – javob qilibdi amir.

– Menga gulning keragi yo'q edi-ku? Ularning boshlarini tanalaridan judo qilib, bo'g'izlarini sirtmoqqa solibsiz, begin. Qarang, bevaqt juvonmarg qilganingizdan yuzlarida shashqator yosh ...

Rahmat o'rniga ta'na eshitgan shoir Umarxonning jahli chiqib:

– Bog' oralab kelayotgan edim, qulog'imga gullarning savol-javobi chalindi. Yaqinroq borib quloq solsam, Qizilgul bilan Atirgul: "Men chiroli", "Yo'q, men chiroli" – deb bahslashayotgan ekanlar. "Hozir senlarni hammangdan ko'ra go'zal va dilbarroq bekamga olib boraman-da, o'shanda ko'rasanlar kim-kimdan ko'ra chiroliroq ", – dedim-da, shartta-shartta kesib olib kelaverdim. Gullarga husn ulashgan siz emasmi, axir?

Umarxonning so'zidan uyalib Nodirabeginning yuzlari loladek qizarib ketibdi ...

– Baribir, chakki qilibsiz. Gulni tanidan judo qilib, bo'yinlariga sirtmoq solmoqni yomon ko'raman. Bu hammadan ko'ra sizga ayon edi-ku?! Gullar bahslashayotgan ekanlar, ularni o'z ixtiyorlariga qo'yaningiz ma'qul erdi ...

Nodirabeginning so'zlaridan xijolatga tushgan shoir Umarxon o'zini qo'yarga joy topolmay qolibdi ... ("Allomalar ibrati" nomli kitobdan).

**Bilib oling!** Predmetning belgisini bildirgan ikkinchi darajali bo'lak **aniqlovchi** deyiladi. Aniqlovchi gap ichida egaga ham, kesimga ham, to'ldiruvchiga ham, holga ham tobe bo'la oladi. Aniqlovchi uch turli bo'ladi: 1. **Sifatlovchi-aniqlovchi** predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qayerdag'i? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. 2. **Qaratqich-aniqlovchi** biror narsaga tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi va kimning? nimaning? qayerning? so'roqlariga javob bo'ladi. 3. **Izohlovchi** o'zi bog'langan so'zni boshqa nom berish yo'li bilan izohlab, aniqlab keladi. Izohlovchi, odatda, ot bilan ifodalananib, unvon, kasb, mashg'ulot, mutaxassislik, amal, qarindoshlik, laqab, taxallus, jins, o'xshash kabi ma'nolarni bildiradi. Izohlovchi bog'lanib kelgan so'z izohlanmish deyiladi.

**230-mashq.** Quyidagi gaplardan sifatlovchi-aniqlovchilarni aniqlang.

1. Sharqning mingyillik falsafasi-yu islom qadriyatlar tarraqiyot uchun bebaho xazinadir.
2. Sevimli vatanimda toshqin daryodek jo'sh urar hayot.
3. Hisobli do'st ayrilmas.
4. Muhabbat nimaligini bilmagan Shavkat uni tushunmas edi.
5. Rayhonning xushbo'y hidi dimog'imga urildi.
6. Yomonning yaxshisi bo'lguncha,

yaxshining yomoni bo'l. 7. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingga gado bo'l. 8. Har bir millat, har bir xalq o'z nasl-nasabini, kelajak avlodini asrab-avaylab, uning qadrini bilsa, unday millatning, unday davlatning kelajagi buyuk bo'lishi muqarrar.

**231-mashq.** Rasm mazmunini nazarda tutib matn tuzing. Qaysi gapda aniqlovchi bor bo'lsa, yuqorida keltirilgan namunaga qarab tahlil qiling.



**232-mashq.** Aniqlovchi haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing, o'zbekcha ma'lumot bilan taqoslang.

Муайянкунанда аъзои пайрави ҷумла аст, ки предметро аз ягон ҷиҳат муайян карда, ба саволҳои чӣ ҳел?, чӣ гуна?, қадом?, аз они ки?, ҷанд?, қиа?, чӣ? Ҷавоб мешавад.

Муайянкунандаҳ аз ҷиҳати соҳт ва тарзи алоқа ду ҳел мешаванд:

1. **Муайянкунандаи изофи.**
2. **Муайянкунандаи беизофа.**

Муайянкунанда ба воситаи бандаки изофи (и) бо муайяншаванда васлшуда, **муайянкунандаи изофи** номида мешавад.

Муайянкунанда бе бандаки изофи ҳам ба муайяншаванда тобеъ мешавад, ки онро **муайянкунандаи беизофа** меноманд.

Аломати шартни муайянкунанда **хати мавҷонк** мебошад (*хати мавҷонк*).

Ин аломат ҳангоми муайянкардани муайянкунанда ба зераш капида мешавад

### Atamalar lug'ati

1. Ikkinchi darajali gap bo'laklari – аъзоҳои пайрави ҷумла
2. Aniqlovchi – муайянкунанда

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Ikkinchchi darajali gap bo‘laklari deyilganda nima tushunasiz?
2. Aniqlovchi nima?

## **Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. O‘qigan asaringizdan 50-60 so‘zdan iborat bo‘lgan matn tanlang.
2. Matndagi aniqlovchini topib, qaysi so‘roqlarga javob bo‘lganini belgilang.
3. Gap tarkibidagi aniqlovchilarни sintaktik tahlil namunasiga qarab tahlil qiling.
4. Quyidagi ruboiylarni yod oling, aniqlovchini aniqlab tagiga chizing.

Ul orazi gulpo‘shi sumanposhing xush,  
 Ul ko‘zi xumoring-u qalam qoshing xush.  
 Ul tun kabi, sumbul kabi zulfiq xushdir,  
 Oshiqqa jahllar yana ayloshing xush ...

**Hakim Sanoiy**

Nargiz ko‘zing ul qadar zabun etdi meni,  
 Ko‘nglim bog‘idin quvdi, yupun etdi meni.  
 Ham misli binafsha sarnagun etdi meni,  
 Gul chehrasidek tamomi xun etdi meni.

**Adib Sobir Termiziy**

Vasling ila toleyim fuzundir kechasi,  
 Hajring bila bori diyda xundir kechasi.  
 Ay, zulfiq o‘lib misoli kun so‘ngida shom,  
 Voy ikki yuzing misoli kundir kechasi ...

**Shayx Najmiddin Kubro**

Dil dardini pinhon aytar,  
 Zulf ersa, hadisni anbarafshon aytar.  
 Ul – oshufta-yu bul esa – parishon, ma’lum,  
 Oshuftaki so‘z aytsa, parishon aytar ...

**Mavlono Jaloliddin Rumiy**

Navro‘z kechibon, g‘unchaga yuz noz kelgay,  
 Gul chehrasiga ishva-yu pardoz kelgay.  
 Navro‘z ketarkan – o‘zidan ketgay gul,  
 Navro‘z kelarkan – o‘zga boz kelgay ...

**Amir Xusrav Dehlaviy**

## 37-MAVZU. HOL

(Хол)

**233-mashq.** Matnlarni o‘qing, ikkinchi darajali gap bo‘laklarini aniqlang.

1. Biz muqaddas zaminda yashayapmiz. Bu aziz tuproqda ne-ne ulug‘ ajdodlarimizning, pir-u avliyolarimizning hoki bor. Ularning ruhi boshimizda charx urib kezmoqda. Ularning armonlarini amalga oshirishga, kelgusi avlodga o‘zimizdan ibratli va xayrlı ishlarni meros qoldirishga qaror qilganmiz. Endi bu yo‘lda hammamiz birlashib harakat qilmog‘imiz, bir yoqadan bosh chiqarib, umumiyl xonadonimiz – O‘zbekiston kelajagi uchun kurashmog‘imiz lozim.

2. Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi keng ufqlarini ochdi. Kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan yaratadigan bo‘ldik. Hayotimiz va yashayotgan xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umumbashariyatga xos turishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo‘ldik. Bu juda katta boylik.


3. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatları, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunday insonni tarbiyalash esa ijtimoiy fanimizning muqaddas burchidir (“Inson baxt uchun tug‘iladi” kitobidan).

**Bilib oling!** Ish harakatning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo‘lak hol deyiladi. U ko‘pincha fe’l-kesimga bog‘lanib keladi. Hol ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, bajarilish o‘rni, payti, sabab, maqsadi, miqdor-darajasi kabilarni ifodalab, qanday? qanday qilib? qay tarzda? qayerda? qayerga? qayerdan? qachon? nega? nima uchun? qancha? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi.

**234-mashq.** Ma’no va munosabatga ko‘ra hol turlarini aniqlang.

1. Minbarga hotiqlar birin-ketin chiqqa boshladilar. 2. Zal suv quygandek jimjit edi. 3. Qadimi shaharlarda bo‘ldik. 4. Erta tongda yo‘lga tushamiz. 5. O‘n marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi. 6. Xatni diqqat bilan o‘qib chiqdi. 7. U qo‘rqoqligi tufayli kechalari ko‘chaga chiqmasdi. 8. Gulnor opa bafurja gaplashish maqsadida keldi. 9. Kitobni ikki kunda qaytarish sharti bilan beraman.

**235-mashq.** Jadvaldan foydalanib hol turlarini tartib bilan yozing va har biriga qisqacha ta'rif bering.



**236-mashq.** Hol haqidagi tojikcha ma'lumotni o'qing, hol turlarini o'zbek tilidagi turlari bilan qiyoslang. Hol turlarini aytishish va yozilishida ikki tilda qanday o'xshash va noo'xshashligi bor ekan?

Аъзои пайрави чумла, ки тарз, замон, макон, сабаб, мақсад ва ҳолатҳои дигари воқеъ шудани амалро мефаҳмонад, ҳол номида мешавад. Дар чумла ҳол ба хабар нигаронида шуда, ба саволҳои чи тавр?, кай?, дар кучо?, аз кучо?, то кучо?, чаро?, аз чи сабаб?, бочи мақсад?, барои чи? ва гайра чавоб мешавад.

Ҳол мувофиқи маъно ва муносибаташ бо қалимаи тобеъкунанда ба гурӯҳҳо чудо мешавад: ҳоли тарзи амал, монандӣ, миқдору дараҷа, замон, макон, сабаб, мақсад, шарт ва ҳилоф.

Аломати шартиаш тире-нуқта мебошад( \_ . \_ . \_ ). Ин аломат дар вақти муайян кардани ҳол ба зераш кашида мешавад

### Atamalar lug'ati

1. Hol – ҳол
2. O'rin holi – ҳоли макон
3. Payt holi – ҳоли замон
4. Miqdor-daraja holi – ҳоли миқдору дараҷа
5. Sabab holi – ҳоли сабаб
6. Maqsad holi – ҳоли мақсад
7. Ravish holi – ҳоли зарфи
8. Shart holi – ҳоли шарт
9. Vosita holi – ҳоли асос-восита

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Hol nima?
2. Hol qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Hol qanday guruhlarga bo‘linadi?
4. Hol ko‘pincha nimaga bog‘lanib keladi?
5. Sabab va maqsad hollarining farqi nimada?

### Test

#### 1. Hol ishtirok etgan gapni toping.

- A) Kimki o‘zga tilarni bilmasa, o‘z tilini ham yaxshi tushunmaydi.
- B) Jazo bermasli jinoyatchiga katta rag‘batdir.
- C) Haddan tashqari ezilib ta’sirlanish haqiqiy baxtsizlikdir.
- D) Qo‘pollik o‘z qadr qimmatini unutish demakdir.

#### 2. Hol qaysi javobda ibora bilan ifodalangan?

- A) Notiqlik har yaxqt ham fikrlash bilan uyg‘un kelavermaydi.
- B) Uch kundirki Bo‘taboy o‘z yog‘iga o‘zi qovurilib o‘tiribdi.
- C) Dunyoga kelib, esini taniy boshlangandan beri qanday yaxshi odamlarni ko‘rganini xayoldan o‘tkazdi.
- D) Sevinch to‘saldan boshini ushladi.

#### 3. Maqsad holi ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Tarixiy joylarasi tomosha qilish niyatida Samarqandga jo‘nadik.
- B) U uyalganidan qizarib ketdi.
- C) Qizil olma mevasining mo‘lligidan hovuzga engashib tushgan.
- D) Bizning mardilar ko‘kka parvoz qilmoqda.

#### 4. Shart holi qaysi gapda qo‘llangan?

- A) Bilib tursangi ham so‘rayapsiz.
- B) Yo‘q, men erdi bu ko‘chaga hech qachon qadam qo‘ymayman.
- C) U bugun ulgusa keladi.
- D) Harakat qilsam ham she’r to‘qiy olmadim.

#### 5. Vaziyat holi qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan?

- A) Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog‘im olti, qo‘lim yetti bo‘lib yugurib yurdim.
- B) Bir mahal tashqarida gurji kuchugimning akillagani eshitildi.
- C) Bugun-erta havo ham o‘zgarib qolsa kerak.
- D) Nasiba bu gapni jo‘rttaga baqirib aytdi.

**6. Sabab holi qo'llangan gapni toping.**

- A) Qor qalin yoqqan edi, shuning uchun yurish qiyin bo'ldi.
- B) Uni yoqlaganim uchun ham ko'rinnaslikka harakat qilaman.
- C) Xafaligidan o'zini chetraqqa olishga tirishdi.
- D) Farhod o'sha malikani tuzukroq ko'rish uchun oynaga yaqinlashdi.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

- 1. O'qigan asaringizdan 60-70 so'zdan iborat bo'lgan matn tanlang.
- 2. Gap tarkibidagi holni topib, qaysi so'roqlarga javob bo'lganini belgilang.
- 3. Uchta gap tanlab, sintaktik tahlil qiling.

## IMLO (Имло)

*Bilib oling!* To‘g‘ri yozish majmuasi imlo deyiladi.

### 38-MAVZU O‘ZBEK TILI IMLOSI VA IMLOVIY QOIDALAR (Имлон забони ўзбеки ва қоидаҳои имлоя)

*Bilib oling!* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qarori bilan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlangan.

O‘zbek tili imlosi harflar imlosi: “Unlilar imlosi”, “Undoshlar imlosi”, “Asos va qo‘sishimchalar imlosi”, “Qo‘shib yozish”, “Chiziqcha bilan yozish”, “Ajratib yozish”, “Bosh harflar imlosi”, “Ko‘chirish qoidalari” bo‘limlaridan iborat bo‘lib 82 moddadan tarkib topgan. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” nomli kitobni 1995-yili “O‘qituvchi” nashriyoti 150000 nusxada chop etgan. Mazkur kitobning 7-27-betlarida 82 modda, 29-288-betlarida bir nechta lug‘atlar “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini” dagi harflar va ularning tartibi bilan berilgan. Bundan tashqari, 1998-yili “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” nomli kitobni “Iqdisodiyot va huquq” nashriyoti 10000 adadda nashr qilganki, unda 20000ga yaqin so‘zlarning yozilishi lotin va kirill yozuvlarida berilgan.

O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori:

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” gi qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuvidagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushlbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.

**237-mashq.** So‘zlarni o‘qing, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni tuzatib, daftaringizga ko‘chirib yozing. Imlosi xususida ma’lumot bering.

Affiksatsiya, aft-angor, aji-buji, ajoyib-g‘aroyib, aksent, appellatsiya, aql-idrok, aql-u hush, avra-astar, dosent, rangorang, sessiya, sihat-salomat, singarmonizm, sentabr, oktabr, ssenariy, sotsiologiya, soppa sog‘, shikast-rext, shildir-shildir, shon-shavkat, shod-xurram, chaqma-chaqar, chiqir-chiqir, chiriq-chiriq, Ishoq, publitistika.

**238-mashq.** “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” da “Chiziqcha bilan yozish” ga oid imlo qoidalarini o‘qing. Qachon va qayerda chiziqcha qo‘yish mumkinligini ayting. Chiziqcha va tire belgilari yozilishidagi farqlar nimadaligini aniqlang.

### Chiziqcha bilan yozish

**51.** Juft so‘z va takror so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uchto‘rt, o‘n-o‘n beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chyda, aldab-suldab, o‘ylab-netib, so‘ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-taq, qop-qop, sol-sol, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopacha, ishlay-ishlamay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.

#### Eslatma:

1) juft so‘zdan qo‘srimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatl, xayr-xo‘splashmoq kabi.

2) juft so‘z qismlari orasida -u (-yu) bog‘lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: do‘st-u dushman (do‘st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi.

3) yetakchi va ko‘makchi fe’l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo‘ysan, uxlabman-qolibman kabi.

**52.** Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppakunduzi, to‘ppa-tog‘ri, bab-barobar kabi so‘z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so‘zi qo‘sib yoziladi).

**53.** So‘zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko‘chama-ko‘cha, uyma-uy, rang-barang, damba-dam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘sib yoziladi: ro‘baro‘, darbadar kabi.

**54.** Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan olingen so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

**55.** -chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo‘y-e, yashang-e, keldi-yey kabi.

Ammo -mi, -oq (-yoq), -o (-yov), -gina (-kina, -qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: keliboq, o'ziyoq, ko'rghanov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiq gina kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'shiladi: 7-sinf, 5-“A” sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

239-mashq. Chiziqcha bilan yoziladigan – chi, - a (- ya), - ku, - u (- yu), - da, - e, - ey (- yey) yuklamalar ishtirokida gap yozing hamda imlosi xususida ma'lumot bering.

240-mashq. “Ko‘chirish qoidalari” haqidagi ma'lumotni o'qing, har bir imlo qoidalarni o'zingiz tanlagan misollar bilan tushuntiring.

### Ko‘chirish qoidalari

75. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satriga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: to‘q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxta-kor kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: va’-da, ma’-rifat, mash’-al, in’ - om kabi.

76. So‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

1) so‘z bosh dagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-hadiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;

2) so‘z oxiri dagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi: mudo-fa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

77. O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi;

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: silin-drik kabi.

78. Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (**sh**, **ch**, **ng**) birgalikda ko‘chiriladi: pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-niz kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrдан satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 16.245, 1994, XIX kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: 5-“A” sinf, V “B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

**81.** Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: "Navro'z-92" (festival), "O'qituvchi-91" (ko'rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (go'za navlari), "Boing-767" (samolyot), "Foton-774" (televizor) kabi.

**82. A.J. Jabborov, A.D. Abdullayev** kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuning dek, v.b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harf qisqartmalari ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

**241-mashq.** Tinish belgilari haqidagi ma'lumotni jadvaldan o'qing, ularning qo'yilishi va qo'llanishi o'rinnarini e'tiborga olib misollar yozing.

### Tinish belgilaringning ishlatalishi

Begilar	Tinish belgilaringning qo'yish va qo'llanish holatlari
Nuqta	<ol style="list-style-type: none"> <li>Tinch ohang bilan aytilan darak, buyruq va undov gaplardan keyin.</li> <li>Birinchi qismida nuqta, ko'p nuqta, undov va so'roq belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng.</li> <li>Qisqartma ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan so'ng.</li> <li>Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo'llangan raqam va harflardan so'ng.</li> </ol>
Nuqta	<ol style="list-style-type: none"> <li>So'roq belgisi so'roq gaplardan so'ng qo'yiladi.</li> <li>Ko'pincha so'roq gaplar birdan ortiq bo'lib keladi.</li> <li>Gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalangan undalmalardan, undov hamda yo'q so'zlaridan so'ng.</li> </ol>
Undov	<ol style="list-style-type: none"> <li>Kuchli his-hayajoni ifodalangan gaplardan so'ng.</li> <li>Buyurish, tilak, orzu ma'nolarini ifodalangan gaplardan so'ng.</li> </ol>
Ko'p nuqta	<ol style="list-style-type: none"> <li>Fikrning tugallanmaganligi, so'zlovchining yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun.</li> <li>Ba'zan ko'p nuqta so'zlovchining o'yashi, mulohaza qilinishi ko'rsatadi</li> </ol>
Vergul	<ol style="list-style-type: none"> <li>Uyushiq bo'laklar orasida.</li> <li>Undalmalarni ajratish uchun.</li> <li>Kirish so'zlarni va tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lmagan kirish gaplarini ajratish uchun.</li> <li>Ha va yo'q so'zlarini gap bo'laklaridan ajratish uchun.</li> <li>Undov so'zlarini ajratish uchun.</li> <li>Gapning ajratilgan bo'laklarini ayirib ko'rsatish uchun.</li> <li>Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda.</li> <li>Va, ham, hamda, yoki dan boshqa bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarda.</li> <li>Ergash gaplarni ajratish uchun.</li> <li>Muallif gapini ko'chirma gapdan ajratish uchun.</li> </ol>
Nuqtali vergul	<ol style="list-style-type: none"> <li>O'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida.</li> <li>O'z ichida verguli bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdag'i gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda.</li> </ol>
Ikki nuqta	<ol style="list-style-type: none"> <li>Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan so'ng.</li> <li>Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng.</li> </ol>

Tire	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasiga.</li> <li>2 Uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan unumlashtiruvchi so'zdan oldin.</li> <li>3 Ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasida.</li> <li>4 Kirish gap bilan gap bo'laklari o'rtasiga.</li> <li>5 Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida.</li> <li>6 Dialog tipidagi ko'chirma gaplarda.</li> <li>7 Zid ma'noli gaplar orasida.</li> </ol>
Qavs	<p>Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh bruvchi so'z yoki iboralar qavsga olinadi.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1 Kirish gaplar va remarkalar qavs bilan beriladi.</li> <li>2 Misol yoki ko'chirmaning manbai.</li> <li>3 Izoh ma'nosidagi so'z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi.</li> </ol>
Qo'shtirnoq	<ol style="list-style-type: none"> <li>1 Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun.</li> <li>2 Ayrim so'z va so'z birikmalari ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin.</li> </ol>

**242-mashq.** Shoir Sulton Jo'raning "**Tinish belgilarining majlisi**" she'tini o'qing. Unda tinish belgilarining qanday vazifalarni bajarishlari tafsilotini aytib bering.

### Tinish belgilarining majlisi

( . ? ! , » - )

Besh-oltita tinish belgi kelib bugun,  
O'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in,  
Rais bo'lди undov belgi – mirzaterak,  
Dedi – har kim o'z rolini aytmoq kerak.  
Tushuntiring nedur sizning vazifangiz?  
So'z minutin ko'proq beray, oz desangiz.  
O'z joyida islatmasdan Turg'un, qani,  
Balki sizni xafa qilgan? So'zlang, qani.

– Birinchi so'z nuqtavoyga! U bosh, katta,  
Nuqta chiqdi bir dumalab misli koptok:  
– Fikrlarning stansiyasi – nuqtadirman,  
Har darak ga oxtirida to'xtaydirmam.  
Boshqa fikr boshlanajak mendan keyin,  
Ba'zan qulod solmasalar, men ne deyin?  
Paravozlar suv olgандек stansiyadan,  
Menga yetgach, olmoq kerak to'liq bir dam.  
O'zimdan so'ng qo'ymoq zarur zo'r bosh harf,  
Biroq ba'zan unutadi bizni Zarif.  
Har bir bosh harf yonimdagi bir soqchidir,

Qaysi bola buni qo'ysa, zap yaxshidir.  
Gapim tamomi, bundan bo'lak menda ne bor?  
O'ylaymanki, so'zim qolmas bee'tibor.

?

– Endi sizga gap navbati, o'rtoq "So'roq",  
Ana, chiqdi so'roq belgi, misli o'roq,  
U qoqilib arang qoldi, ketmay qulab,  
Yo bu belgi yoki zirak taqqan quloq.  
– Sen singari rolim aytsam, nuqta do'stim,  
Har so'roq gap bitgan joyda mening postim.  
Mendan so'ng ham katta harf qo'ymoq shartdir,  
Bunga odat qilinmasa, yomon darddir.  
Uqdningizmi? Yetadimi? Bormi savol?  
Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol?

!

Undov – novcha o'zi oldi so'z galini,  
Mixday turib bayon qildi o'z holini:  
– Mazmunidan undov, sevinch, nafrat, g'azab.  
Yo hayajon ma'nosini anglatса gap,  
Shunda jumla alohida bo'lar joyim.  
Mendan so'ng ham bosh harflar kelar doim.  
Eh ... Naqadar soz bu kungi yig'ilishimiz!  
Bu yaxshi ish, har choq shunday yig'ilishingiz!

– O'rtoq rais, endi menga navbat bergen,—  
Deb so'z oldi kichik to'qmoq – bizning Vergul.  
– Jinqarcha deb, meni demang norasida,  
O'rnim tengdosh bo'laklarning orasida.  
Fikrlarning "razyezdi" men; menda birpas  
Olib o'tar har o'quvchi yarim nafas.  
Undalma so'z kela qolsa gap boshida,  
Undan keyin men turaman yonboshida.  
Gar undalma gapda kelsa qoq o'rtada,  
Uning ikki yonboshida men jo'rttaga:  
"Qani endi, undalmaxon, ochib boq-chi" -  
Deb bo'lurman, yubormayin, unga soqchi.  
Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq  
Undan oldin qo'yilarman, tushun, o'rtoq!

Sirkdagı qiziq hidek qo'shtirnoqlar  
Bir mahalda kilib chiqdi xushdimog'lar:  
– Zavod, fabrik, fermer, gazeta, jurnal –  
Hokazoki ot qo'yilgan bo'lsa darhol, ...  
Ko'chirma ga ketolmaydi bizdan qochib.  
Uni doim olamiz keng quchoq ochib;  
Mana rais "Vaqt tamom, to'xtatingiz" –  
Deb qoldi-ku. – Mayli, endi yo'q gapimiz.

Eng oxirda shoshib-pishib, nari-beri  
Jindakkina satrab oldi gugurt – Tire:  
– Dialogda mening eng ko'p turar joyim.  
Yana, ma'noj akrorlansa, men bor doim ...  
Goho bir so'z sig'may qolsa to'lib xatga,  
Ayamasdan bo'g'inidan qirqib hatto,  
Biroq shartiini – so'z qolmasin ul-cho'lida,  
Qolganini ko'chirarman bo'lak yo'lga,  
– Ko'p cho'zoingiz, anglaysizmi, o'rtoq Tire!  
– Mayli, bitdi qaror bo'lsa, o'qiy bering.  
Shunda rais dedi: – Endi majlis yopiq!  
Har bir vakil jo'nab ketdi yo'lin topib.

239-mashq. “O'zbek tilining imlo lug'ati” kitobidan “Asos va qo'shimchalar imlosi” ni o'qing, guruhda savol-javob tashkil qilib, imlo qoidalari bo'yicha bilimlarningizni tekshiring.

#### Atumalar lug'ati

1. Imlo – имло
2. Imlo qoidalari – қоидаҳои имло
3. Harflar imlosi – имлои ҳарфҳо
4. Unlilar imlosi – имлои садонокҳо
5. Undoshlar imlosi – имлои ҳамсадоҳо
6. Asos va qo'shimchalar imlosi – имлои асос ва пасвандҳо
7. Qo'shib yozish – якчоя навиштан
8. Chiziqchabilan yozish – бо тире навиштан
9. Ajratib yozish – чудо навиштан
10. Bosh harflar imlosi – имлои ҳарфҳои сараввал
11. Ko'chirish qoidalari – қоидаҳои кӯчонидан

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari qachon va kim tomonidan tasdiqlangan?
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 24-avgustdagি 339-sonli qaror bilan nimani tasdiqlagan?
3. O‘zbek tili imlosi necha moddadan tarkib topgan?
4. 1995-yil “O‘qituvchi” nashriyoti bilan 150000 nuxsada chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” kitobida qanday imlo qoidalari o‘z aksini topgan?
5. Imlo deganda nimani tushunasiz?
6. Tojik tilining imlosi ham bormi?

## **Mavzuni o‘zlashtirish uchun mustaqil topshiriq**

1. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” kitobdan harflar imlosi: “Unlilar imlosi”, “Undoshlar imlosi”, “Asos va qo‘srimchalar imlosi”, “Qo‘shib yozish”, “Chiziqcha bilan yozish”, “Ajratisib yozish”, “Bosh harflar imlosi”, “Ko‘chirish qoidalari” ni o‘qing.
2. Imlo va imloviy qoidalarning ahamiyat va mohiyati xususida o‘z fikringizni ayting.
3. “Ajratisib yozish” sarlavhali imlo qoidalarni daftaringizda ko‘chiring, har bir imlo qoidasini misollaringiz bilan o‘zlashtiring.
4. “Asos va qo‘srimchalar”, “Qo‘shib yozish” sarlavhali imlo qoidalari bo‘yicha savollar tuzing.

## **O‘qish va yod olish uchun matnlar**

(Matnҳо барои хондан ва аэ ёд кардан)

### **Maqol**

1. O‘rinli so‘z o‘qdan o‘tkir.
2. Daraxt bir joyda ko‘karar.
3. Oyoq tuproqda iz qoldirar,  
Suhbat – yurakda.
4. Ko‘z ko‘rgani boshqa,  
Qo‘l bilan tutgan boshqa.
5. Guman do‘stdan ajratar.
6. Guman imondan ayirar.
7. Yaxshi niyat – yarim davlat.
8. Ot bosganni toy bosar.
9. Ko‘z tuproqqa to‘yar.
10. Kosa, kosaning tagida nimkosa.
11. Ko‘p ko‘rgan ko‘p bilar.
12. Gapning onasi – buloq,  
Suvning onasi – quloiq.
13. Dard ko‘rgan – tabib.
14. Jo‘jani sanab bil,  
Kuchni – sinab.
15. Yo‘l – kattadan, ergashish – kichikdan.
16. Yaxshi ot keyin chopar.
17. Ustoz bilimli – shogird ilmli.
18. Qiz bersang, otasiga qarab ber,  
Qiz olsang, onasiga qarab ol.
19. Bاليq suv bilan tirik,  
Odam – el bilan.
20. Vatan gadosi – kafan gadosi.

21. Vatansiz inson – kuysiz bulbul.  
 22. Yordan ayrilsang ham,  
     eldan ayrılma.  
 23. Non gadosi bo'sang ham,  
     Yurt gadosi bo'lima.  
 24. Ona yurting tuprog'i – ona  
     sutidan aziz.  
 25. Suvni bersang elga,  
     Yasharsan ming yilga.  
 26. Sabr etgan – murodga yetgan.  
 27. Oldin angla, keyin tanla.  
 28. Gul tikansiz bolmas,  
     Dur – sadafsiz.  
 29. Egri o'tirsang ham, to'g'ri gapir.  
 30. Tiriklikning kuchi – birlikda.  
 31. Tursang so'zingda, hurmat  
     o'zingda.  
 32. Tildan chiqqani – dildan chiqqani.  
 33. Rost gap aytgan yengilmas.  
 34. Xashak o'ti xo'jani kuydirar,  
     Hasad o'ti tanani kuydirar.  
 35. So'rab bergung'ha, urib ber.  
 36. Kelish mehmordan,  
     Ketish mezboridan.  
 37. Osh kelsa, yegin.  
     So'z kelsa, degin.  
 38. Har gul o'z butasida aziz.  
 39. Birikkan kuch – kuch,  
     Birikmagan kuch – puch.  
 40. Yo'ldan chiqsang chiq,  
     Eldan chiqma.  
 41. Aytilgan so'z – otilgan o'q.  
 42. Anjom – uy ziynati,  
     So'z – inson ziynati.  
 43. Ariqni suv buzar,  
     Odamni – so'z.  
 44. Dorining achchig'i – yaxshi,  
     So'zning shirni.
45. Duo olgan ko'karar,  
     Tuhmat olgan oqarar.  
 46. Duo olgan omondir,  
     Qarg'ish olgan yomondir.  
 47. Yomon til boshga balo keltirar,  
     Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.  
 48. Odam so'zi bilan sinalar,  
     Osh – tuzi bilan.  
 49. So'zning boyligi – odamning  
     chiroyliligi.  
 50. Til – dil kaliti.  
 51. Taom lazzati o'zida,  
     Odam lazzati – so'zida.  
 52. Yaxshi so'zdan – vafo,  
     Yomon so'zdan – vabo.  
 53. Adovat emas, adolat yengar.  
 54. Xatoning yo'ldoshi – jazo.  
 55. Suv keltirgan – xor – u zor,  
     Ko'za sindirgan – aziz.  
 56. Avval hesh, keyin darvesh.  
 57. Dunyo moli – qo'lning kiri.  
 58. Inson – sevgi bilan tirik.  
 59. Vatan qadrini bilmagan  
     o'z qadrini bilmas.  
 60. Nimani qilsang xor,  
     O'shangan bo'lasan zor.  
 61. Uyat o'limdan qattiq.

## Topishmoqlar

1

U nima, yaltiroq badani tarang,  
Gohi rangli bo'lar, gohida berang.  
Kimki uni yemoq payida bo'lsa,  
Doim aytar so'zi bittadir:"Jarang"!

(Tuxum)

2

U nima qo'llardan qo'llarga ko'char,  
Kulib boqsang u ham chehrasin ochar.  
Ammo g'azab bilan boqa ko'rmaki,  
U ham g'azab bilan zahrini sochar!

(Oyna)

3

Eshiksiz bir xona – ichida har on,  
Yuzlari pardali go'zallar pinhon.  
La'li lablar uchun munosib la'ldir,  
Ko'rgan deydi: "Qarang, ajoyib marjon!"

(Anor)

4

U nima jimgina turar kunduzi,  
Tun bo'lsa sherig-u, yig'ida o'zi.  
Kam uxlар, saharxez, majlisorodir,  
qalbi mum, tani sof, yaltiroq yuzi!

(Sham)

5

U nima tez yurar, lek joni yo'qdir,  
Kuladi, og'zining nishoni yo'qdir.  
Doimiy shakli yo'q, ammo yig'laydi,  
Kuyib nola chekar zaboni yo'qdir!

(Bulut )

6

Ko'rdim bir pokiza ajoyib ilon,  
Yalang'och har yerda yuradi ravon.  
Xizmatdan bosh tortsa, xotinlar uni,  
Sochiga bir suqib "jazolar" shu on.

(Ignar)

7

U nima, do'kon-u, uy-u, saroyda,  
 Bel bog'lab xizmatda har kun, har oyda.  
 Oyoqlar ostiga bosh uradi,  
 Undan sarisitalik mavjud har joyda!

(Supurgi )

8

U nima, kunduzi ko'rinar qora,  
 Ba'zan yuzi qizil, dili sadpora.  
 Unga qo'llaingni bosa ko'rmagin,  
 Oshiqlar dildek qon oqar qora!

(Qaychi )

9

U nima jimg'na bitirmas ishni,  
 Har ishda jang uchun qayraydi tishni.  
 Qiziqliki, har kki qulog'in shaylab,  
 Barmoqqa tegizsang boshlar uzishni!

(Qaychi)

10

Ko'rdim bir shirin-u ajoyib sanam,  
 Qizil-yashil ko'yak egnida ko'rakam.  
 Yuz hiyla-rayrangni ishga solganmi,  
 Tor uyg'a berkinib olibdi qay dam!

(Xandon pista)

11

U nima, gumbazga o'xshab yumaloq,  
 Egnida ustna-aust to'ni bor biroq.  
 Har kishi yechmoqchi bo'lsa to'nini,  
 Yuzlari yos bilan yuvilgay shu choq!

(Piyoz)

12

U nimadir, eshigi yo'q bir xona,  
 Xona ichra konalari ko'p yana.  
 Goh odamlar orasida xor bo'lar,  
 Goh kishilar tegrasida parvona!

(Sarimsoq)

13

U shunday daraxtki, o'zni avvalo,  
O'n ikki shox bilan bezapti a'lo.  
Har bitta shoxida o'ttiz dona barg,  
Har bargda ikkitadan meva muhayyo!

(Yil, oy, kecha va kunduz)

14

Bir qora qarg'ani ko'rdim, nogahon,  
Oppoq bir tovuqni tug'di qorsimon,  
Ajabkim, oq tovuq parvoz qildi-yu,  
Bir oltin tuxumni tug'di shul zamon.

(tun, kun, quyosh)

15

Bir ajab jonivor ko'rdim sahroda,  
Mingta o'q yepti-yu, ketar piyoda.  
(tipratikan)

16

U qanday daraxtdir, ko'k parda niqob,  
O'n ikki shoxi bor aylasang hisob.  
Har shoxga diqqating bilan nazar sol,  
O'ttiz barg borligin bilursan darhol.  
Har bargning yarmisi qoradir biroq,  
Boshqa qismlari qor kabi oppoq.

(Yil, oy, kecha va kunduz)

17

Bir otliq va lekin piyoda har on,  
Oq maydon ichida uradi javlon.  
Badani oq, biroq, chehrasi qora,  
O'zi bunda, hukmi kezadi jahon!

(Qamish qalam)

18

U nadirkim, doimo davron kezar,  
Barcha olam ichra sargardon kezar.  
Yo'q qarori, doimo g'ayratdadir,  
Elga rizq bermoq uchun hikmatdadir.

(Suv)

("Hikmatnoma" kitobidan)

## ERTAKLAR

(Ағсоңа)

### Sholg'om

Bobo sholg'om ekip:

– Sholg'om, sholg'om, qanddek bo'lib o's, sholg'om, katta bo'lib o's, – debdi.

Sholg'om qan'dek shirin, kattakon bo'lib o'sibdi.

Bobo sholg'omni yerdan tortib olgani boribdi: tortib-tortib ko'ribdi, lekin tortib ololmabdi.

Bobo buvini chaqiribdi.

Buvi boboni,

Bobo sholg'omni –

tortib-tortib ko'rishibdi, lekin tortib olisholmabdi.

Buvi nabirasini chaqiribdi.

Nabirasi buvini,

Buvi boboni,

Bobo sholg'omni –

tortib-tortib ko'rishibdi, lekin tortib olisholmabdi.

Nabirasi kuchukni chaqiribdi.

Kuchuk nabirani,

Nabirasi buvisini,

Buvi boboni,

Bobo sholg'omni –

tortib-tortib ko'rishibdi, lekin tortib olisholmabdi.

Kuchuk mushukni chaqiribdi.

Mushuk kuchukni,

Kuchuk nabirani,

Nabira buvisini,

Buvi boboni,

Bobo sholg'omni –

tortib-tortib ko'rishibdi, lekin tortib olisholmabdi.

Mushuk sichqonni chaqiribdi.

Sichqon mushukni,

Mushuk kuchukni,

Nabira buvisini,

Buvi boboni,

Bobo sholg'omni –

torta-torta, ax yri tortib olishibdi.

## Bo‘g‘irsoq

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bilan kampir bor ekan.

Chol kampiriga:

– Kampir, menga bo‘g‘irsoq pishirib bergin, – debdi.

– Axir, nimadan pishirib berayin? Un yo‘q-ku! – deb javob beribdi kampir.

– E, kampir! Suprani qoqib-sidirgin, quti ichini supurgin, qarabsanki, birpasda bo‘g‘irsoqqa yetadigan un yig‘ilib qoladi, – debdi chol.

Kampir shunday qipti: suprani sidirib, quti ichini supurib, bir-ikki hovuch un yig‘ibdi. Unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab bo‘g‘irsoq qipti, tovaga solib moyda pishiribdi-da, sovisin deb derazaga qo‘yibdi.

Bo‘g‘irsoq derazada yotaverib zerikibdi, bordaniga yumalab, so‘ri ustiga tushibdi, yana bir yumalab yerga tushibdi, tag‘in bir yumalab eshik yoniga boribdi, ostonadan bir sakrab dahlizga chiqibdi, dahlizdan zinapoyaga o‘tibdi, zinapoyadan hovliga tushibdi, hovlidan tashqariga chiqib, olg‘a qarab ketaveribdi.

Bo‘g‘irsoq yo‘lda yumalab ketayotganida bir quyon chiqib qolibdi:

– Bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq! Men seni yeyman, - debdi quyon.

– Yo‘g‘-e, meni yemagin, shal pangquloq, so‘zimga qulog solgin: senga ajoyib qo‘sinq aytib beraman, – debdi bo‘g‘irsoq va qo‘sinq aytibdi:

– Men bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq,

Supradagi un-urvoq,

Supurishib oldilar,

Qaymoqqa xo‘p qordilar,

Pishirdilar tovada,

Sovutdilar havoda,

Qochib ketdim bobomdan,

Qochib ketim buvimdan,

Eshit, quyon, bo‘ldi bas,

Sendan ochish hech gapmas!

Bo‘g‘irsoq qo‘sing‘ini tamomlab, yana olg‘a qarab yumalab ketibdi. Quyon ahmoq bo‘lib qolaveribdi ...

Bo‘g‘irsoq yumalab ketaveribdi, shunda ro‘parasidan bir bo‘ri chiqib:

– Bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq, men seni yeyman, – debdi.

Yo‘g‘-e, meni yemagin, bo‘z bo‘ri, senga ajoyib ashula aytib beraman, – debdi bo‘g‘irsoq.

Bo‘g‘irsoq shunday ashula aytibdi:

– Men bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq,

Supradagi un-urvoq,

Supuri hib oldilar,  
Qaymoqqa xo'p qordilar,  
Pishirdilar tovada,  
Sovutdilar havoda,  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketim buvimdan,  
Qochib ketdim quyondan,  
Eshit, bo'ri, bo'ldi bas,  
Sendan ochish hech gapmas!

Bo'g'irsoq yana olg'a qarab yumalab ketaveribdi, bo'ri ahmoq bo'lib  
qolaveribdi ...

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab borayotganida ro'parasidan ayiq chiqib qolibdi:  
– Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, men seni yeyman, – debdi ayiq.

– Eh-ha, yeb bo'psan, maymoq oyoq! Yaxshisi, mening qo'shilg'imni eshit, –  
debdı bo'g'irsoq. Bo'g'irsoq qo'shiq aytibdi. Ayiq bo'lsa, quloqlarini shalpaytirib,  
eshitib o'tiribdi:

– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,  
Supradagi un-urvoq,  
Supurishib oldilar,  
Qaymoqqa xo'p qordilar,  
Pishirdilar tovada,  
Sovutdilar havoda,  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketim buvimdan,  
Qochib ketdim quyondan,  
Qochib ketdim bo'ridan,  
Eshit, ayiq, bo'ldi bas,  
Sendan ochish hech gapmas!

Shunday qilib bo'g'irsoq bir yumalab qochib ketibdi: ayiq ahmoq bo'lib  
qolaveribdi ...

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab ketayotganida, ro'parasidan bir tulki chiqib  
qolibdi-da:

– Salom bo'g'irsoq! Qanday chiroylisan, xuddi qip-qizil mag'izdaysan-a! –  
debdı.

Bo'g'irsoq jullayam taltayib ketibdi-da, qo'shiq aytibdi:

– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,  
Supradagi un-urvoq,  
Supurishib oldilar,

Qaymoqqa xo‘p qordilar,  
Pishirdilar tovada,  
Sovutdilar havoda,  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketim buvimdan,  
Qochib ketdim quyondan,  
Qochib ketdim bo‘ridan,  
Qochib ketdim ayiqdan,  
Eshit, tulki, bo‘ldi bas,  
Sendan ochish hech gapmas!

– Ajoyib qo‘sishq ekan! – debdi tulki. – Eh, attang, bo‘g‘irsoq, men qarib qolibman, qo‘sishq‘ingni yaxshi eshitmayapman; tumshug‘imga chiqib, yana bir marta qattiqroq aytib bergin.

Bo‘g‘irsoq tulkinining tumshug‘iga sakrab chiqib, o‘sha qo‘sishq‘ini aytibdi.

– Rahmat, bo‘g‘irsoq, ajoyib qo‘sishq ekan, yana eshitgim kelayapti, tilimga chiqib, oxirgi marta bir qo‘sishq aytib ber.

Tulki shu so‘zni aytibdi-yu, tilini chiqaribdi; bo‘g‘irsoq, lip etib tulkinining tiliga chiqibdi; tulki bo‘lsa, hap etib bo‘g‘irsoqni yeb qo‘yibdi.

### Bo‘ri bilan echki bolalari

Bor ekanda, yo‘q ekan, bir ona echki bilan bolalari bo‘lgan ekan. Shu echki barra o‘tlarni yemoq, tiniq suv ichmoq uchun o‘rmonga ketar ekan. U jo‘nashi bilanoq, echkichalar uyning eshigini mahkam yopib olishar, o‘zlar hech yoqqa chiqishmas ekan.

Echki qaytib kelgach, eshikni taqillatib:  
Echkichalarim, bolajonlarim!  
Eshikni oching, mehribonlarim!  
Onangiz sizga sut olib keldi,  
Yelini to‘lib, yerga to‘kildi. –  
deb qo‘sishq aytar ekan.

Echkichalar eshikni ochib, onasini uygash kiritishar ekan. Echki bolalarini xo‘p emizib, to‘yg‘azib yana o‘rmonga jo‘nar, echkichalar esa eshikni mahkam yopib olishar ekan.

Bo‘ri echkinining qanday qo‘sishq aytganini eshitib qolibdi. Echki jo‘nashi bilanoq, bo‘ri uyning yoniga chopqillagancha kelib, yo‘g‘on ovoz bilan:

Ey, bolachalar!  
Ey, echkichalar!  
Eshikni oching,

Eshikni oching,  
Onangiz keldi,  
Sut olib keldi.  
Tuyog‘ida suv keltirdi, –

deb baqiribdi.

Echkichalar unga:

– Eshitdik, eshitdik ovozingni, ovozing onamiznikiga hech o‘xshamaydi. Onamiz ingichka ovoz bilan qo‘sishq aytadi, senga o‘xshab do‘rillamaydi, – deb javob qilishibdi.

Bo‘ri noiloj qaytib ketibdi, u temirchilik ustaxonasiga boribdi-da, ingichka ovoz bilan qo‘sishq aytish uchun tomog‘ini toblastashni buyuribdi. Temirchi uning tomog‘ini toblabdi. Bo‘ri yana uy yoniga chopqillab kelib, buta orqasiga yashirinib olibdi.

Mana, echki kelib, eshik qoqibdi:

Echkichalarim, bolajonlarim!  
Eshikni oching, mehribonlarim!  
Onangiz sizga sut olib keldi,  
Yelini to‘lib, yerga to‘kildi.

Echkichalar onalarni uygaga kirgizib, unga bo‘rining kelganini, ularni yemoqchi bo‘lganini birma-bir so‘zlab berishibdi.

Echki bolalarini xo‘p emizib, to‘yg‘azibdi-da, qattiq tayinlabdi:

– Uygaga birov kelib, yo‘g‘on ovoz bilan qo‘sishq aytса, men aytgan so‘zlarning hammasini bitta-bitta aytib berolmasa, eshikni ochmanglar, uygaga hech kirgizmanglar.

Echki jo‘nashi bilanoq, bo‘ri yana uy oldida paydo bo‘libdi-da, eshikni taqillatibdi, ingichka ovoz bilan:

– Echkichalarim, bolajonlarim!  
Eshikni oching, mehribonlarim!  
Onangiz sizga sut olib keldi,  
Yelini to‘lib, yerga to‘kildi, –

deb so‘zlarni adashtirmay, ingichka ovoz bilan aytibdi.

Echkichalar eshikni ochishgan ekan, bo‘ri uygaga otilib kirib, hammasini yeb qo‘yibdi. Faqat bitta echkicha pechka orqasiga yashirinib, omon qolibdi.

Echki kelibdi: qancha chaqirmasin, qancha qo‘sishq aytmasin, unga hech kim javob qilmabdi. Bir vaqt qarasa – eshik lang ochiq emish; uygaga chopgancha kiribdi – hech kim yo‘q emish. Qayrilib pechka orqasiga qarabdi va bitta bolasini topib olibdi.

Echki o‘z boshiga tushgan falokatni bilgach, so‘ri ustiga o‘tirib olib, zor-zor yig‘labdi:

– Oh, bolajonlarim, echkichalarim!  
Eshikni nega ochdingiz!  
Bo‘ri qo‘liga tushdingiz!

Buni bo‘ri eshitib, uyg‘a kiribdi-da, echkiga:

– Meni nega gunohkor qilasan, qo‘shni, echkichalaringni men yeganim yo‘q. Endi bo‘lar ish bo‘ldi, ko‘p xafa bo‘laverma, undan ko‘ra yur, o‘rmonga borib tomosha qilaylik, – debdi.

Ular o‘rmonga borishibdi, o‘rmonda katta chuqur bor ekan, unda gulxan yonib turganmish. Echki bo‘riga:

– Kel, bo‘ri. Shu chuqurdan kim sakrab o‘tarkin! – debdi.

Ular sakray boshlashibdi. Echki sakrab o‘tibdi, bo‘ri bo‘lsa, sakrab o‘tayotib, laqqa chuqurga ag‘darilib tushibdi.

Olovda bo‘rining qorni paq etib yorilib ketibdi-da, echkichalarning hammasi omon-eson sakrab chiqishibdi va dik-dik etib onalari yoniga borishibdi. Shunday qilib, ular ilgaridek oshlarini oshab, yoshlarni yashay boshlabdilar.

### Doston (Достон)

#### “Alpomish” dostonidan parcha

Alpomish cho‘ponlarning qo‘shxonasidan otlanib kelayotib edi. Toychi viloyatida, qalmoq muzofotida, Chilbir cho‘lida Murodtepa degan tepasi bor edi, haddili baland tepe edi, ustidan qanotli qush uchib o‘tolmas edi, har qanday odam chiqib, oyoq osti qilib ketolmas edi. Shul tepani ko‘rib, Alpomish irim chekib: “Shu tepaga otimni solayin, irkilmay tepaga otim chiqib ketsa, borgandan yorimni olaman, chiqolmasa, borib nima qilaman, borgan bilan bekor ahmoq bo‘lamana, peshonamni shu yerdan sinab ko‘raman”, – dedi. Otni tepaga to‘g‘ri qildi, tuyog‘idan chiltanlar xami berdi, qirq ming otning dupuri paydo bo‘ldi. Alpomish ko‘nglida yorini olmasa ham olgancha bo‘lib qoldi. Tepaning ustiga chiqib qarasa, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irotning eli ko‘rinib turibdi, otni qovdonga qo‘ya berib, tepaning boshida yonboshlab, Boysarining uyiga tiklab yotaverdi.

Bog‘onagi tush ko‘rgan Qorajon qalmoq namoz vaqtি o‘rnidan kalima aytib turdi. Qorajonning kalima aytib turganini bir kam to‘qson alp ko‘rib: “Oshpichoq, qalampir, Qorajon tentak bo‘p qopti”, – deb bir kam to‘qson alp: – Ot tort, – dedi. Ko‘lga qarab ovga chiqib ketdi. Qorajon o‘n uch mahrami bilan cho‘lga qarab ovga chiqib ketdi. Bu Alpomish tarafga qarab borayopti. Qovdon yeb yotib,

xonning Chibor oti shunday qaradi: Qalmoq tarafidan o'n to'rt qora otning ko'ziga ko'rindi. Bul qorani ko'rib, otning chaynab yotgan qovdoni ham tomog'idan o'tmay qoldi. Otning ko'nglidan kechgani shul bo'ldi, ko'ngliga shunday keldi: "Bu kelayotgan ottar tulpor bo'lsa, ustiga mingani dushman – kofir bo'lsa, Alpomish meni minib qochsa, keyinimdan quvib yetsa, bir sho'rning yolg'iz o'g'li o'ladigan bo'ldi-da". Xonning Chibor oti toza tingnab qaradi. Qarasa, o'n to'rti ham taypanglab yurib kelayotir, tuyog'i yerni turtib kelayotir. Bul otlarni ko'rib: "quvsam, yetaman ekan, qochsam, qutilib ketaman ekan, ustimga mingan mardimni, chin ajal qamsab kelmasa, falokatdan ozod qib ketaman ekan", – deb qarsillatib qovdoni ura berdi.

Qorajon Muroctepaning ostiga kelib qoldi. Shunday tepani boshiga qaradi. Tepaning boshida Yusuf tal'atli, Rustam sifatli, bir chovkar oti birov yonboshlab yotibdi. "Bu bizning qalmoq viloyatining odami emas, bunday yigitlar qalmoq yurtida bo'lsa, bek ikda, podshohlikda bo'lar edi. Ilgarigidan ham birda-yarim ko'zima tushar edi. Magar qirq chiltan bilan rasul payg'ambar meni musulmon qilib, qavm-qarindoshini tushimda ruhima ko'rsatib, meni do'st qilgan, Qo'ng'irotdan kelayotgan Alpomish degan komilbachcha shul bo'lmasa", – deb Alpomishga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Ostingda yuz avlon uyngaydi oting,  
Dushmani o'rtaydi shohlik shavkating,  
Yo'l bo'sin, bekbachcha, qayda borasan?  
Ostingda bedoving halloslar qushday ...

### "Malika ayyor" dostonidan parcha

Avazxon Malikani olib kelaman, deb qasam ichib qo'yanini ko'rib noiloj javob berib qo'ygan edi. Avazxon jo'nab ketgandan so'ng Go'ro'g'li aytdi: "Avazxon bu Malikani olib kela olmaydi, shu yurtda o'lib ketadi. Buning orqasidan o'zim bormasam bo'lmaydi", - deb Chambil yurtini Yusufbek degan mahramiga topshirib, o'zi hech kimga bildirmay, Avazning orqasidan qalandar bo'lib ketgan edi. "Avaz devlarning qo'lida o'lar, g'arib-u go'riston bo'lar. Torikiston uzoq mamlakat, unda bo'p katta devlar bor, Avazxon qasam ichib ketdi", – deb Go'ro'g'li bir kuni chilton-qalandar bo'lib chiqib ketgan edi. Buning siridan hech kim voqif emas edi. Shunday qilib, Avazxon bilan birga yurib kelayotgan edi.

Ana shunday qilib, menganlarning oldiga kelganda, aytmayin desa ham, bo'limgani uchun Go'ro'g'li o'zini bildirgan edi. Manganlar Go'ro'g'lini ko'rib qochib, sharmandi bo'lib ketdi. Bularning orqasidan Avazxon Go'ro'g'li otasi bilan shod-u xurram bo'lib, topishib, dimog'i choq bo'lib, "Menga hamroh bo'lib yurgan otam ekan, men boshqamikan, boshqa odamga mening sirim ma'lum

bo'ldimikan, deb ko'p o'yda edim", – deb Go'ro'g'lini ko'rib, vaqtı xush bo'lib, birga-birga Chambilga keldi. Bu beklarning kelayotganini menganlar aytgan edi. Chambil elining hamma amaldorlari bularning oldiga peshvoz chiqib omon-eson yurtiga, o'zini unib-o'sgan elatiga olib keldilar. Beklar, amaldorlar Go'ro'g'li bilan Avazxonni tushirib oldi. Qirqin qizlariga Yunuspari bilan Misqolpari bosh bo'lib, Chambilning hamma amaldor-beklarining oyimlari, xotin-qizlari bilan Malika ayyorni tushirib olib, o'rdaga olib kirdilar. Bir-birovlari bilan ko'rishgan, so'rashgan, hol-ahvollarini bir-birovlariga aytishgan. Shunday shod-u xurram bo'lishib, oyimlar o'tirdi.

Go'ro'g'libek o'z shon-u shavkati bilan o'g'lining poytaxtiga chiqib, omon-eson o'z dargohida o'tirdi. Shunda Go'ro'g'libek Malika ayyorni Avazxonga bermoqchi bo'lib, Chambil elining hamma katta-kichiklari: "Malika ayyorni to'yini tayyorlanglar, Malikani Avazxonga nikoh qilib beraylik", – deb buyurdi. Hamma beklar to'y asbobini tayyorladi.

### Tez aytishlar (Тез айтшлар)

1. Oq ot oq o't yeydi,  
Ko'k ot ko'k o't yeydi.

2. Qishda kishmish pishmasmish,  
Pishsa kishmish, qishmasmish.

3. Namanganda usta Musa puch pista purush bor ekan, o'sha usta Musa puch pista purushning oltmish uch pud puch pistasi bor ekan. Oltmis uch pud puch pistasi bo'lса ham, o'sha usta Musa puch pista purush, oltmish uch pud pistasi bo'lmasa ham, o'sha usta Musa puch pista purush.

4. Chustda usta Tursunmatning uchta tustovug'i bor. O'sha uchta tustovuq Chustdagи usta Tursunmatning uchta tustovug'imi yoki boshqa tusdagi usta Tursunmatning uchta tus tovug'imi?

### Qiziqmachoqlar

Ana o'sha tog'midi?  
Tog' yoqasi bog'midi?  
Bog' yonida uymidi?  
Uy atrofi gulmidi?  
O'sha gullar ichinda  
Sayyoraxon bormidi?

## Yoki:

Kun chiqdi, kunon chiqdi,  
Kunning ko‘pagi chiqdi,  
Dehqon bobomning qizi  
Xo‘p haydamoqqa chiqdi  
Ko‘p ishdi-yu, xo‘p ishdi,  
Xolamni(ng) oshi pishdi.  
Bir qoshiq ichay desam,  
Ichiga chichqon tushdi.

## Allalar

Alla-yo alla,	Chaman qizim, alla,
Oppoq qizim, alla,	Saman qizim, alla,
Qaymoq qizim, alla,	Shakar qizim, alla,
Go‘zal qizim, alla,	Dakar qizim, alla,
Asal qizim, alla,	Botmon qizim alla,
Oqcha qizim, alla,	Shodmon qizim, alla,
Zog‘cha qizim, alla,	Alla-yo alla,
Sanam qizim, alla,	Yotsin qizim, alla,
Tamtam qizim, alla,	Shirin uxbab, alla,
Erka qizim, alla.	Qotsin qizim, alla.
Serka qizim alla,	

\*\*\*

Onaman-u, onaman, alla,  
Bolam uchur yonaman, alla,  
Bolam tinch! kda o‘ssa, alla,  
Orzularga qonaman, alla,

Ulg‘ay, bolam, gul Vatanda, alla,  
Botir bo‘lib o‘sgil, qo‘zim, alla,  
Seni ko‘rib bu chamanda, alla,  
Yayray-quvnay, yulduzim, alla,

## She’rlar (Шеърҳо)

### Ona tilimga

Ming yillarkim, bulbul kalomi  
O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.  
Ammo sho‘lik to‘tining holi  
O‘zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz  
Bulbul kuyin she’rga solaman.  
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman ...

**Abdulla Oripov**

## **Kitob**

Har ko‘ngilning orzusi shul erur obi hayot!  
 Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob.  
 Har murodning boshidir, har muddaoning gavhari,  
 Har marazlarning shifosi, ya’ni Luqmondir kitob.  
 Ko‘zning nuri, dil huzuri, dillarning darmonidir,  
 Har qorong‘i dilga go‘yo mohitobondir kitob.  
 Har balodan asraguvchi eng muhim qimmat yaroq,  
 Tiri vahshat, hanjari zillatga qalqondir kitob.  
 Har kishi yoshlikda qilsa vaqtida g‘ayrat agar,  
 Tez zamonda oshno bo‘lmog‘i osondir kitob.

## **Hamza**

### **Hikmatli sozlar**

(Суҳанҳои пурҳикмат)

1. Odam ersang ma’ni bil dona-dona,  
     Vatan erur senga ikkinchi ona.  
     So‘zlamasdin oldin so‘zingni sina,  
     Har bir so‘zdir umring ichinda sina.

## **Anbar Otin**

2. So‘zda kerak ma’no-yu ma’nida zavq,  
     So‘zlaguvchida so‘z uchun dard-u shavq.

## **Haydar Xorazmiy**

3. Odam ulki jahonda yaxshi so‘zdin pand olur,  
     Qolmas ushbu odam, ammo olam ichra so‘z qolur.

## **Poshshoxo‘ja**

4. Donavu dur so‘zni afsona bil,  
     So‘zni jahon bag‘rida durdona bil,  
     Jon bo‘lub ul, ruh aning g‘olibi,  
     Kim tanida ruh aning tolibi.  
     Barcha ko‘ngul durji aro gavhar ul,  
     Barcha og‘iz huqqasida gavhar ul.

## **Alisher Navoiy**

5. Oqil ul so‘zni o‘rnida so‘zlagay,  
     Ham javobini munosib ko‘zlagay.

## **Sayfi Saroyi**

6. Behuda ochma og‘iz gul kabi,  
Behuda chalma soz bulbul kabi!  
Avval o‘ylab so‘ngra chiqargil nafas,  
O‘zing bas aylagin, demay turib bas!

**Ibn Kamolposho**

7. Kishi bo‘lmasa ma’nidin xabardor,  
Ani dema odam, de naqshi devor.

**Huvaydo**

8. Yer yuzi bindaştu sahro bo‘lsa, gulzori ilm,  
Sahnayi olamni bo‘lmoqda namudori ilm.  
Ilmyu fan biyla qurollanmoqda sadori ilm,  
Ilm o‘qi, hech bir jonga yetkurmaydi ozor ilm.

**Oraziy**

9. Kimda bo‘sa donish–u, aql–u, tamiz,  
Ilm ila hilmaqlini tutgan aziz.  
Sen xatola dan o‘zingni tut uzoq,  
Ey o‘g‘il! Oqil esang solgil quloq!

**Farididdin Attor**

10. Bilim – oytarish va takrorlash mevasidir.

**Abu Rayhon Beruniy**

11. Oltining tarj bilan oxir bo‘lar kam,  
Hunar shunday ganjki, kamaymas hech dam!  
Ularning farqini aytSAM agarda,  
Hunar chashma erur, oltin-chi shabnam!

**Xurramiy**

12. Muyassar bo‘lsa, tillodan senga taxt,  
O‘zingdan pastga zinhor aytmagil saxt.

**So‘fi Olloyor**

13. Suhbat urzimas har bir qora dil,  
Suhbat uchun yaxshi do‘sstar paydo qil!

**Muhammad Husayn**

14. Doimo lo‘sstar bilan bo‘l hamnafas,  
Ko‘rma dushmanning yuzini bir nafas!

**Farididdin Attor**

15. Do'stlarga yaxshilik yo'lini unutma,  
Dushmanlarga insof ko'zi bilan boq!

**Muiniddin Juvayniy**

16. Do'st tutmoq oson, rioya qilmog'i qiyin,  
Dushman bo'lmoq oson, yarashmog'i qiyin.

**Yusuf xos Hojib**

17. Mingta do'sting bo'lsa, uni ko'p ko'rma,  
Bitta dushmaning bo'lsa, uni oz dema.

**Ahmad Yugnakiy**

18. Yaxshi nazar bilan qara har kimga,  
Libosi chiroyli yo xunuk dema!

**Muiniddin Juvayniy**

19. Beaql bo'lma hech, beaql kishi,  
Oyoqsiz qurt kabi yurish-turishi.  
Tuzish-u, yo'q bo'lish bu nifoqdandir,  
G'alaba doimo ittifoqdandir.

**Nizomiy Ganjaviy**

20. Yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lish va donolar bilan muloqot qilish saodatga  
eltadi.

**Koshifiy**

21. Do'sting bo'lsa agar beaql, nodon,  
Undan oqil dushman yaxshi ming chandon!

**Xoja Samandar Termiziy**

22. Ne'matim oshsin desang ust-ustiga,  
Non ushog'in sochma oyoq ostiga!

**Farididdin Attor**

23. Daraxt besamar o'lsa bog'ida,  
Bog'bon tanida qolmagay halovat.

**Dilshodi Barno**

24. Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi.  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.  
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'Imadi, oh,  
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

**Bobur**

25. Yaxshilik yaxshi nom keltiradi, saxovat esa kishini baxtiyor qiladi.

**Muhammad Husayn**

## **OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRUVCHI MATNLAR**

(Матнҳо барои инкишиоф додани нутқи шифоҳӣ ва ҳаттӣ)

### **Ibn Sino va o'lim davosi**

Abu Ali ibn Sino o'lim davosini ham topgan emish. U o'layotgan vaqtida shogirdlaridan biriga vasiyat qilib, dori tutqazibdi. Dori qirqta idishga solib qo'yilgan ekan.

— Mana shu dorini, — debdi Abu Ali ibn Sino, — men o'lganimdan keyin har birini tartib bilan bittadan tomizsang, bir idishdagisini tomizib bo'lgach boshqasiga o'tasan. Shunday qilib, to qirq idishdagi dorilarning hammasini birin-ketin qo'yib tugatasan.

Buyuk hakim shogirdiga bu ishni qanday bajo keltirishni ko'rsatibdi.

Ko'p o'tmay, Abu Ali Sino vafot etibdi. Shogird avvaliga ustodi tayinlaganday ish qilibdi, dorini tomizaveribdi. Shogird dori idishlarining o'ttiz to'qqiztasini tomizib bo'libdi. Dori ta'sir qilib tanda o'zgarish paydo bo'libdi; Abu Ali Sinoda qarilik tusi yo'qolib yosharibdi, asta-sekin harakatga kela boshlabdi. Nihoyat jasaddan “Quy!” “Quy” degan so'o chiqqa boshlabdi. Shogird ustodning qo'li, peshonasini ushlab ko'rsa, badanga chindan ham harorat yugurgan, tomir urushlari bor, lekin sust emish. Ustodi harakatga kelib yana: “Quy!” degan so'zni qaytaraveribdi. Qirqinchi idishdagi dorini quyaman deganda, shogird o'ylanib qolibdi.

U Abu Ali Sino kasal yotganidan uning pullaridan anchaginasini o'g'irlagan ekan. “Agar ustod tirilib qolsa, — deb o'ylabdi shogird, — men pul o'g'irlaganim ma'lum bo'lib, sirim ochilib qoladi, shuning uchun yaxshisi shu oxirgi dori tomchilarni quymasam, mol-dunyo o'zimniki bo'ladi”. U shu xayol bilan qirqinchi tomchini quymabdi, yerga to'kib yuboribdi. Shu bilan Abu Ali Sinoning isib harakatga kelayotgan badani soviy boshlabdi, bora-bora undan hech qanday ovoz ham chiqmay qolibdi, shu bilan u tirilmay qolgan ekan (“Abu Ali ibn Sino, Afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar” nomli kitobdan).

### **Yer yutib yuborishi mumkin**

Beruniy vajtingin bir qismmini tog'larda ma'danlar qidirib topish, ularni o'rganish bilan o'tkazar ekan. Ishga shunchalik berilib ketar ekanki, yonida qancha odam bo'lsa ham go'yo hech kim yo'qdek bamaylixotir ishlayverarkan. Oyoqlarini tosh qabartirib yuborsa ham, charchash nimaligini bilmay tog'ma-tog' yurgani-yurgan ekan. Kunlardan bir kuni, saroy olimlaridan bir nechtasi Beruniyning tog'safariga hamron bo'lishibdi. Beruniy qidirib yurib bir toshni ko'rib qolibdi.

Sinchiklab qarasa, tosh shu yerda juda ko'p oltin borligini anglatib turgan emish. Hamrohlariga qarab, bu yerda oltin borligini aytay desa, busiz ham bir-birlari bilan talashib-tortishib biri ikkinchisini o'ldirolmay yurgan, nima qilib bo'lsayam boyish yo'liga o'tib olgan bo'lishi mumkinligini o'yabdi. "Yaxshisi bu yerdan tezda ketaylik", – deya ko'nglidan o'tkazibdi-da, kishilarga qarab:

– Bu joy xosiyatsizga o'xshaydi, men qon hidini sezib turibman, bu yerdan tezda ketaylik, – debdi.

– Nega endi, biron-bir sir ko'rdingizmi. Nima uchun anavi tashlab yuborgan toshga uzoq tikilib turdingiz-da, so'ng birdan ketamanga tushib qoldingiz, – shubhalanib so'rashibdi hamrohlari.

– Ha, tez ketmasak bo'lmaydi. Men qon hidini sezib turibman. Bekordan bekorga nobud bo'lmaylik tag'in. Men ko'rghan tosh, odatda zilzila oldidan ko'chadigan tog' parchasiga urilib, shunday ko'chki bo'ladiki, birontamiz ham omon qolsa qolaversin, men ketdim.

Beruniy shunday debdi-da, tez jo'nab qolibdi. "Ulug' olim bir narsani biladiki, shunday deyapti", – deb boshqalar ham qochib qolishibdi.

Shunday yo'l bilan ochko'z kishilarni tilla talashib, och bo'ridek bir-birlarini yeb qo'yishlariga yo'l qo'yamabdi...

Alloma, nuqlu: "Ilm bilan davlat hecham kelisha olmaydi, kimda-kim ilmni boyish manbayi qilib olsa, u uzoqqa bormaydi, yarim yo'lda halok bo'ladi", – der ekan ("Allomalar ibrati" nomli kitobdan).

### Oqilona javob

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bosh vazirlig qilgan kezlarida podsho doimo uning so'zlariga qulq solib, shoir bilan maslahatda ish tutar ekan. Kunlardan bir kun erta tongda Husayn Boyqaro saroya kirib ketayotib, Navoiyga qarabdi-da, ko'rsatkich barmog'i bilan ko'rsatibdi. Ayni shu choqda Navoiy barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi. Bu manzarani kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari imo-ishoralarning sababini so'rashibdi. Shunda Navoiy:

– Qani, o'zlarling o'ylab topinglar, – debdi-da, imo-ishoralar sirini aytmabdi. Shogirdlar o'ylab-o'ylab, hech topisholmabdi. Niroyat ulardan biri shoirni so'zlatish maqsadida siyohdonni ag'darib yuboribdi. Shunda Navoiy:

– Abdullatif, bunchalar parishonxotir bo'imasangiz, axir siyohdonni ag'darib yubordingiz-ku, – debdi.

– Kechirasiz, ustoz, – unga yuzlanibdi shogirdi, – haligi muammoning sababini o'ylab, xayolim qochibdi.

Shunda Navoiy shogindlariga bo'lgan voqeanning sir-asrorini aytib berishga majbur bo'libdi.

– Husayn Boyqaro mendan: “**Boshga baloni nima keltiradi?**” – deb so‘radilar. Men esha: “**Til**”, – deb javob berdim (“Allomalar ibrati” nomli kitobdan).

### G‘azalim – bor-yo‘g‘im

Mashrab bir dishloqqa qarab ketayotib, yo‘l bo‘yida ishlayotgan kishini ko‘rib qolibdi. U qo‘shti aytilib, qo‘shta haydalgan joyga jo‘yak olayotgan ekan. O‘zi bitgan g‘azallarni poyma-poy qilib, buzib aytayotganini ko‘rib, Mashrabning tozayam jahli chiqibdi. Shudgor chetidagi tutning tagiga borib, soyaga yonboshlabdi-da dehqon ishini tugatishini poylabdi. Yigit jo‘yakni tortib bo‘lib, tutning tagiga cho‘kkalabdi. Shu payt Mashrab tez o‘rnidan turibdi-da, salomalik ham qilmasdan qo‘lga ketmonni olibdi. Keyin to‘ppa-to‘g‘ri paykalga kirib, hozirgina olingan jo‘yalarni jon-jahdi bilan buza boshlabdi. Buni ko‘rgan yigit hay-haylab qichdirib, Mashrabning oldiga kelib ketmonga yopisha ketibdi.

– Jinni-pinni bo‘ldingmi? Nega men olgan jo‘yaklarni buzyapsan? – debdi.

– Men-ku, coppa-sog‘man. Sen aqldan ozganga o‘xshaysan. Sen ne-ne mashaqqatlar bilan solingen imoratni buzganiningda, men jo‘yaklaringni buzsam nima bo‘pti? – deb javob qilibdi Mashrab.

– Qanaqa imprat? Kimning imoratini buzibman? Ochiqroq ayt! – hech nimaga tushunmay bosh, qotibdi dehqonning.

– Qanaqa imprat bo‘lardi? Mening uyim-da, – debdi shoir. – Hozirgina aytgan qo‘srig‘ing meniki. Imoratim ham, bor-yo‘g‘im ham shu g‘azallarimdir. Sen bo‘lsang, uni chalakam-chatti aytib, dilim kulbasini vayron etding.

Qishlog‘iga g‘azali yetib kelib, o‘zi kelmagan shoirni shundoqqina yonida ko‘rib dehqon aqldan ozay debdi. Keyin o‘ziga kelib, Mashrabni quchoqlab olibdi, bundan buyon birorta g‘azalini ham buzib aytmaslikka so‘z beribdi (“Allomalar ibrati” nomli kitobdan).

### Dialog (Диалог)

#### G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidan

Boy shiyonda kalla go‘shti bilan nonushta qilib o‘tirgan ekan. Salom berib, sekingina poyg‘ikka cho‘kka tushib o‘tirdim.

– Xo‘sh!

– Shunday b‘zim, sizni sog‘inib, bir ko‘rib kelay deb kelgan edim.

– Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandirsan, biror ishing bordir, xo‘sh, ni maga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo‘ygan shartim esimga tushib qoldi. “Shart qilgan yolg‘onni endi gapirmasang, qachon gapirasani”, dedim-da, gap boshladim:

— Anavi, haligi, dandon sopli pichog‘ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so‘zdan keyin menga “**innaykeyin**” savoli yog‘ila boshladi.

— Xo‘sh, **innaykeyin** qanday qilib sindi? Ro‘zg‘orda mening pichog‘imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

— Tozi itingizning terisini shilayotgan edik, suyakka tegib sinib qoldi.

— Iyya? ! — dedi boy. — Tozining terisini mening dandon sopli pichog‘imda shilasanlarimi, o‘zing ayt-chi nimaga shildilaring?

— Shoshib qoldik-da, o‘lib qolganidan keyin, bekor ketmasin, deb terisini shilib oldik.

— Nima qilib o‘ldi?

— Harom o‘lgan otning go‘shtidan ko‘p yeb qo‘ygan ekan, bo‘kib o‘ldi.

— Harom o‘lgan ot go‘shti qayoqda ekan?

— Ha, o‘zimizning to‘riq, qashqanig go‘shtini yeb o‘ldi-da, begona ot emas. Boy alanglab qoldi.

— Hoy-hoy, bola, o‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o‘ldi dedingmi? Xo‘sh, to‘riq qashqa nima bo‘lib o‘ldi?

— Xomlik qilib o‘ldi.

— Nimaga xomlik qildi?

— Hech aravaga qo‘silmagan ekan, biz uni aravaga qo‘shtgan edik, zo‘riqib o‘ldi.

— Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqib qo‘ygan uloqchi otim bilan suv tashiyapsanlarimi, padar la’natilar!

— Ha o‘t tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, duch kelganini qo‘shib, ishqilib bir chelak bo‘lsa ham suv tashiy beradi-da!

Boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmadi. Og‘zidan olib qo‘ydi-da, baqraygancha menga tikilib:

— O‘zing jinni-pinni bo‘ldingmi? O‘t tushdi deganining nima deganining, qayerga o‘t tushdi, nimaga tushadi?

— Sog‘man, xo‘jayin, o‘t avval og‘ilxonaga tushdi. Ot sho‘rliklarning hammasi nobud bo‘lib ketdi-da, xo‘jayin.

— Iyya, og‘ilxonada o‘t nima qiladi?

— Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, o‘t ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak.

— Axir omborda o‘t chiqadigan narsa yo‘q-ku? Bug‘doy bor edi, to‘g‘ri, guruch bor edi, to‘g‘ri, yog‘ bor edi, gazmol bor edi, to‘g‘ri, shulardan o‘t chiqadimi?

— Berdisini aytguncha shoshmang, xo‘jayin, omborga qo‘rg‘ondan o‘tibdi. Og‘ilxonaga ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketgan-da.

- Iyya, hali qo‘rg‘on ham yondi degin!
- Qo‘rg‘on ham yondi, ombor ham yondi, og‘ilxona ham yondi, otlar ham o‘ldi, itingiz ham o‘ldi, pichog‘ingiz sindi.
- Qo‘rg‘onga qayerdan o‘t ketibdi?
- Shamdan tushib ketibdi, shamdan.
- Hoy, o‘zing jinni bo‘lib qolibsan, o‘g‘lim! Axir, mening dargohimda shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o‘zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fanarlar qayoqqa ketibdi, kerosinni bo‘lsa bir yilgacha yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo‘ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar!
- Xo‘jayin, devman, o‘zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshlik o‘likning arvohiga sham yoqmay, lampa yoqiladimi? Kelgan arvo nimaning shu’lasi bilan o‘ynashadi. Axir, kosaga suv qo‘yib, ustiga olma shoxi qo‘yiladi. Kelgan arvoh avval shoxga qo‘nib o‘tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirpirab turgan shu’lasi bilan o‘ynashadi.
- Mening entak-tentak so‘zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go‘yo gaplarni eshitgisi kelmagan day, sekin, qo‘rqa – pisa so‘radi:
- Kim o‘ldi?
- Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg‘ular chiqarib, ho‘ngrab yig‘lab yubordim.
- Kenjatoy o‘g‘lingiz Bo‘riboy bachcha, terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushib bir marta “dada”, dedi-yu, “jiq ...” etib jon berdi.
- Boy gaplarimning keyingi jumlalarini eshitdimi, eshitmadimi – bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordi-yu, soqolini yulib, dodlab yig‘lamoqqa boshladи. Men ham qo‘shilib yig‘lar edim.
- Bir nafas ayyuhannos solib yig‘lagandan keyin men to‘xtadim, boy ham to‘xtadi. Boyning juda ham o‘pkasini uzib yuborganimdan endi uni yupatish uchun o‘zimdan bir gap to‘qimoqchi edim.
- Xo‘jayin, – dedim, – xudo berardan qismasin, xafa bo‘lmang, bordi-yu, o‘g‘lingiz o‘lib, uyingizga o‘t tushgan bo‘lsa, pichoq singan bo‘lsa, hammasining o‘rnini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelganman.
- Boy hiqillab urib so‘raydi:
- Xushxabar eng qursin, padar la’nat, qanaqa xushxabar?
- O‘rtacha qizingiz Adol opam dunyoga arziyidigan bitta o‘g‘ilcha tug‘dilar.
- Iha! – dedi boy ko‘zlarining shoxsoqqasi chiqquday, - Adol opang hali erga chiqmagan-ku!
- Biz ham shunisiga hayronmiz-da, xo‘jayin. Xudo beraman desa, erga tegmasa ham berar ekan. Bolani aytинг-a, bolani, nabiraginangizni aytинг-a, xo‘jayin. Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo‘ygandal o‘shaning o‘zginasi.

**Turdosh ot:**

– Meni demang turdosh ot,  
Atoqlidan qolmayman.  
Gar kelsam gap boshida  
Atoqliday bo‘laman?

**Atoqli ot:**

– Ko‘p maqtanma, ey kalta.  
Gaplaring ham safsata.  
Bor farqi echki, qo‘yning.  
Gapning hamma joyida  
Men kelaman bosh harfda?

**Turdosh ot:**

– Ko‘p og‘iz ko‘pirtirma,  
Ham o‘zingni maqtama.  
Debdi Gulxaniy bobo:  
Bor maqtansa, topilar,  
Yo‘q maqtansa, chopilar.  
Meni ko‘p kamsitmagin,  
Asabimni yoqmagin.  
Yo‘qsa, senga - lik qo‘shib,  
Turdosh qilib qo‘yaman!

**H. Sirojiddinov ijodidan**

**Monolog**

(Монолог)

**Tafakkur monologi**

I

Bilmasman, qaydadir menga ibtido,  
Bilmasman, qaydadir menga intihon.

Asrlar qa‘ridan o‘taman sokin,  
Menga baribiridir – kim qul, kim hokim.

Sizning qutqu bilan zarra ishim yo‘q,  
Shundoq salobatli karvonman ulug‘.

Mening qo‘ng‘irog‘im eshitolgan zot,  
O‘zin baxtli desa arzir umrbod.

II

Meni atadilar xudo deb avval,  
Payg‘aimbar dedilar va daho tugal.

Buyukman baridan ming-minglab karra,  
Xudo ham, daho ham mendan bir zarra.

Men asli hosila erurman garchand,  
Lekin bugun ota - kechagi farzand.

Tegramda charx ursin, mayli, zamon, vaqt,  
Men-chi, o‘z-o‘zimga mas’ulman faqat.

Qarshimda gerdayar tog‘lar ham bekor,  
Ular mening uchun shunchaki sangzor.

Bahri Muhit nima? Nima u dengiz?  
Chayqalgan suvlardir, rangsiz va nursiz.

Oftob, sayyoralar charaqlab yotar,  
Men uchun oddiy hol: borliq muxtasar.

Hayrat nimaligini bilmasman aslo,  
Hatto cheksizlik ham idrokimga jo.

III

Ha, menga hech erur koinot, jahon,  
Lekin meni qiynar faqat bir armon.

Meni qachonlardir yaratgan zotdan,  
Qarzdorman, ya’nikim, odamizoddan.

U goh buyuk erur, goh zabun, barbod,  
Sira tushunmadim men uni, hayhot.

Faqat idrokim zanjirdir shu g‘am,  
Seni eplolmadim, juvonmarg odam.

**Abdulla Oripov**

### Aytim-olqishlar

Hay-hoyasi bordi shuning,  
Zap doyasi bordi shuning,  
Mard otasi bordi shuning,  
Bek buvusi bordi shuning,  
Jon buvisi bordi shuning,  
Zo'r akasi bordi shuning,  
Jo'r opasi bordi shuning,  
Uzoq-uzoq joylarda  
Baxshidasi bordi shuning,

X X X

Qarolidandir beshigi,  
Qayrilib olsin onasi.  
Tilla qamishdan beshigi,  
Tovlanib olsin otasi.  
Olma daraxtdan beshigi,  
Aylanib olsin buvisi.  
Shaftolidandir beshigi,  
Shappillab o'psin buvasi.  
Zardolidandir beshigi,  
Zeyralib olsin opasi.  
Jylda daraxtdan beshigi,  
Ko'tara qolsin akasi.

### Farzand ilk bor o'tirganda:

O'tirsin-o, o'tirsin,  
Boshini guldon to'l dirsin.  
Shuginani ko'rgan qizlar  
O'zini osib o'l dirsin.

### Bola ilk bor yurganda:

Adoq-adoq yursin,  
Tikon shunga kirmasin.  
Ko'zi qattiq bandalar  
Ko'zi shunga tegmasin.  
Toy-toy, bolam, toy, bolam,  
Shirin erkatoy, bolam.  
Yumshoq sarimoy, bolam,  
O'ziming shu oy bolam.

### **Bolaning ilk bor tishi yorganda:**

Ikki tishingdan aylanay  
 Qilgan ishingdan aylanay,  
 Madrasanining qubbasiday  
 Lo'nda boshingdan aylanay.

### **Qizaloq sochini ilk bor yuvib taraganda:**

Oyda quloch  
 Kunda tutam  
 Senga kuyov  
 Menga palov ("Boychechak" to'plamidan, 1984)

## **TARJIMONLIK MAHORAT VA MALAKANI OSHIRISH UCHUN MATNLAR**

(Матнҳо барои такмил ва инкишоф додани маҳорати тарҷимонӣ)

### **O'zbekcha matnlar (tojikchaga o'girish uchun) Vatan**

Vatan - ona yurt – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhitni, mamlakati. Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda butun bir xalq, ularning ajdodlari azaldan istiqomat qilib kelgan hudud. Tor ma'noda kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutiladi. Xalqning tili, madaniyati, iqtisodiy turmushi, ruhiy va ruhoniy, ma'rifiy va ma'naviy ravnaq topa borishi natijasida shu xalqqa mansub kishilar orasida mushtaraklik shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi o'zbek millatining Vatanidir. Bu o'rinda davlat va Vatan ayni bir ina'noni ifodalaydi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi, deganda Vatanni tushunamiz, Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok etamiz. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit hamda ichki kechinmalar tushunchalarini o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtayi nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkadir. Biroq, kishi ulg'aygan sayin, uning Vatan haqidagi tushunchasi ham tengayib boradi. Natijada jismi, e'tiqodi, urf-odatlari va milliy sifatlari bir bo'lgan avlodlar yashagan va yashayotgan jug'rofisi muhit Vatanni ifoda etadi ... ("Falsafa qomusiy lug'ati" dan).

### **Xalqaro tillar**

Xalqaro tillar – hozirgi zamon xalqlari, davlatlari orasidagi munosabatlardan eng ko'p ishlataladigan tillar. Xalqaro tillar bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning rasmiy tillari orasida farq bor. BMTning rasmiy tillari – **ingliz, fransuz, ispan, rus va xitoy** tillari. Shu bilan bir qatorda, Xalqaro tilarning jahon tillaridan ham farqi bor. Zero, jahon tillari deganda, dunyoning eng yirik tillari tushuniladi:

xitoy, ingliz, rus, ispan, hind, yapon, portugal va arab tillari. XX-asrning 60-yillariga kelib, ingliz tili jahonda eng keng tarqalgan va qulay xalqaro tilga aylandi. Hozirgi davrda jahondagi ilmiy va texnikaviy adabiyotlarning o‘rtaligida hisobda 80 % ni ingliz tilida chop etiladi. Xalqaro anjumanlar, kongresslar, sessiyalar, konferensiyalar, suhbatlar, mubahasalar, rasmiy muzokalar, uchrashuvlar va boshqa tadbirlarning ish faoliyati, odatda, uch tilda – ingliz, fransuz va ispan tillarida olib boriladi, e’lon qilinadi. Ammo qulaylik nuqtayi nazaridan, ma’ruza va chiqishlarning eng kamida 80 % ni ingliz tilida yozma yoki og‘zaki e’lon qilinadi (o‘rtaligida bilan fransuz tilida 12 %, ispan tilida 5 %, qolgan jahon tillarida 3 %) (“Falsafa qomusiy lug‘ati” dan).

### **Yunesko**

Yunesko – Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi ixtisoslashgan hukumatlararo tashkiloti. 1964-yil tuzilgan. Dunyoning 170 ortiq mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston ham Yuneskoga a’zo. Tashkilotning asosiy maqsadi maorif va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, madaniy va ilmiy-texnikaviy axborotlarni tarqatish, shuningdek, ta’lim masalasida turli cheklash va huquqbuzarlikka qarshi kurash hamda milliy madaniyatni himoya qilish va boshqalar. Nizomga muvofiq tashkilotga a’zo davlatlarda Yunesko ishlari bo‘yicha maxsus milliy hay‘at faoliyat ko‘rsatadi. Yuneskoning oliy organi – uning bosh konferensiyasi hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Parij shahrida joylashgan (“Falsafa qomusiy lug‘ati” dan).

### **Sug‘d yozuvi**

Sug‘d yozuvi oromiy yozuvi asosida shakklangan harf-tovush yozuvidir. Bu yozuv qariyb ming yil davomida hozirgi O‘zbekiston va qisman Tojikiston yerlarida (Zarafshon vodiysi) joylashgan qadimgi Sug‘diyonada qo‘llanilgan. Sug‘d yozuvining mil. boshlariga oid eng qadimgi namunasi O‘zbekistonda Samarqand yaqinidagi Taliborzu tepaligidan topilgan. Eng keyingilari esa VIII asrga oid bo‘lib, 1933-yilda Tojikistondagi Mug‘ qal‘a xarobasidan topilgan shoh Divashti arxivining qoldiqlaridan iborat. Hujjalarning aksari qismi sug‘d yozuvida charm, qog‘oz va taxtachalarga turkcha bitilgan.

Sug‘d yozuvi somiy alifbolari kabi konsonant yozuv bo‘lgan, ya’ni harflar, asosan, undosh tovushlarni ifoda etgan. VII-VIII asrlarda sug‘dlar o‘z alifbolarini 23 harfdan iborat deb hisoblaganlar, ya’ni 22 harf oromiy asliga borib taqalgan va alifboga oromiy alifbosidagi tartibda joylashgan. Bitta qo‘sishimcha 23-harf esa 12-harfning takroridan iborat bo‘lgan. IV asrning boshlaridan ayrim harflar chiqib ketgan, ayrim harflar esa bir-biriga o‘xshash shaklda yozila borishi natijasida bir harfga kelib qolgan. Ana shu tariqa sug‘d alifbosi 17 harfdan iborat bo‘lib qolgan.

Sug'd yozuvi daslabki paytlarda grafik shakliga ko'ra, oromiy yozuvidan juda kam farq qilgan. VII asrning o'rtalaridan esa yozma xati shakllana borgan, natijada yozish shakllari ko'paygan. Ko'p harflarning yozilishi bir-biriga juda o'xshash bo'lib qolganligidan sug'd yozma xatini o'qish va tushunish qiyinlashgan. Ayrim harflar grafik shaklining o'xshash bo'lib qolishi taqozo etilgan.

Sug'd yozuvida b va g tovushlari uchun alohida harf bo'limgan, bu tovushlarni ifodalash zarur bo'lganda (o'zlashgan so'zlarda) "p" va "k" tovushlaridan foydalanilgan. Sug'd yozuvi, asosan, gorizontal holatda o'ngdan chapga qarab yozilgan. Ammo sug'dlar VI asrning oxirlaridan vertikal yo'nalishda ham yozganlar (Buqt yodgorligi). Bino devorlari va qoyatoshlarda saqlab qolgan sug'd yozuvlari shu yo'nalishda yozilgan. Bunday vertikal satrlar chapdan o'nga qarab joylashtirib borilgan ("O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi" dan).

### O'rxun-Enasoy yozuvi

O'rxun-Enasoy yozuvi turkiy xalqlarning eng qadimgi harf-tovush yozuvidir. Bu yozuv "Enasqy-O'rxun yozuvi", "Sibir yozuvi", "Turkiy runa yozuvi" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Runa deb atalishiga sabab bu yozuvning tashqi ko'rinishi jihatidan german runa yozuvlariga o'xshash ekanlidir.

O'rxun-Enasoy yozuvining kelib chiqishi haqida mutaxassislar o'rtasida tan olingen yagona fikr yo'q. Bu haqdagi nisbatan keng tarqalgan qarashga ko'ra, ayni yozuv kelib chiqishi jihatidan sug'd va pahlaviy yozuvlari orqali oromiy yozuviga borib taqaladi. Sug'd yozma xati uni turkiy tillarning fonetik va morfologik xususiyatlariaga moslashtirish jarayonida juda ham sezilarli, keskin o'zgarishga uchragan. O'rxun-Enasoy yozuvining paydo bo'lishi joyi va vaqtini ham hozirgacha uzil-kesil hal qilinmagan. Mutaxassislar ayni yozuvning 3 ko'rinishiga asoslanib, u o'z taraqqiyoti davomida 3 bosqichni boshidan kechirgan, deb hisoblaydilar: 1) arxaik bosqich (Yettisuv yodgorliklari, VI-VII asrlar; Yenisey yodgorliklari, VII-IX asrlar); 2) klassik bosqich (ikkinchi Xoqonlik yodgorliklari, VIII asrning 1-yarmi); 3) so'nggi bosqich (Uyg'ur xoqonligi davri yodgorliklari, VIII asrning 2-yarmi IX asr; Sharqiy Turkiston yodgorliklari, IX asr). Bu yozuv paydo bo'lish o'rni va vaqtini bilan bog'liq bo'lgan ayrim grafik xususiyatlari tufayli O'rxun, Turfon, Enasoy variantlariga ega. Bularning eng qadimiysi O'rxun variantidir. Ular umumiy yozuv shakliga ko'ra bir-birlaridan keskin farq qilmaydi. Ular o'rtasidagi farq harf variantlarining ko'p-ozligi jihatidan, xolos. O'rxun-Enasoy yozuvi harflarining variantlarini hisobga olmaganda, asosan, 35 ta harfdan iborat. 8 ta unli ifodasi uchun 4 ta (Enasoy variantida 5 ta) harf ishlataladi. Ayrim harflar bir tovushni emas, balki birdan ortiq tovushlar majmuyini ifodalaydi. Undoshlar qattiq va yumshoq variantlarga ega bo'lgan, shuning uchun yumshoq undosh uchun alohida harf, qattiq undosh uchun alohida harf mavjud bo'lgan.

O'rxun-Enasoy yozuvida tinish belgilari yo'q. So'zlar, ba'zan birikmalar bir-biridan ikki nuqta (:) yordamida ajratib ko'rsatiladi, bu ikki nuqta shartli ravishda ayirgich deb yuritiladi. Bir harf o'zidan keyingi harfga qo'shilmagan, ulanmagan holda alohida-alohida yoziladi. O'rxun-Enasoy yozuvi gorizontal holatda o'ngdan chapga qarab va vertikal holatda yuqoridan pastga qarab yozilganda, harflar chap yoniga yotqizilgan holatda bo'ladi va satrlar o'ngdan chapga qarab joylashib boradi.

Turkiy xalqlarning ko'philigi keyinroq arab alifbosiga o'tgan, ammo O'rxun-Enasoy alifbosi o'sha davrdagi turkiy til uchun juda ham qulay bo'lgan. O'rxun-Enasoy yozuvi o'sha davrdagi har qanday turkiy til ifodasi uchun beqiyos darajada moslashgan edi, ayniqsa, tildagi singarmonizm qonuniyatlarini to'liq aks ettira olgan. Bu ma'noda O'rxun-Enasoy yozuvi uning o'rniqa kelgan uyg'ur va arab yozuvlariga qaraganda behad mukammal va qulay alifbo bo'lgan ("O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi" dan).

### Xolida onasini sevadur

Xolida "Qo'y bilan qo'zi" matalini eshitgandan keyin, onasini qattiq seva boshladи. Burundan ham Xolida onasini sevar edi shundoq ham bo'lsa, har ishda injiqlik qilib, onasini injita (ranjitar) edi. Mayda-suyda (mayda-chuyda) narsalar uchun onasig'a o'pka qilar, onasi so'ylag'an so'zlarni erkaklik qilib qulog'iga olmas edi.

"Qo'y bilan qo'zi" hikoyasindan sug'un onasining so'zidan chiqmaydurg'on bo'ldi. Uy sipurmak va qozon – tovoq yuvmoqdek qo'lidan keladurg'on ishlarni onasi buyurmasa ham qila berdi.

"Qo'y bilan qo'zi" voqeasidan Xolidaga ochiq bilindiki, ona degan bolasini oz' jonidan ham yaxshiroq ko'ra ekan va bolani o'zining naf'i uchun ba'zi bir narsalardin man qilar ekan (Sadriddin Ayniyining "Qiz bola yoki Xolida" nomli kitobidan).

### Inson qalbi

Inson qalbi bilan hazillashmang siz.  
Unda millat yashar, unda til yashar.  
Unda ajdod faxri yashaydi so'zsiz,  
Unda istiqomat qiladi bashar.

Inson qalbi bilan hazillashmang siz,  
Unda ona yashar, yashaydi Vatan.  
Uni jo'n narsa deb o'ylamang hargiz,  
Hayhot! qo'zg'almasin bu qalb daf'atan! ...

Abdulla Oripov

## Тоҷикча матнлар (o'zbekchaga o'girish uchun)

### Вазъи забони адабии тоҷик дар асри XX

Забони тоҷикӣ ниҳоят бой ва ғанӣ буда, таърихи дуру дарозро соҳиб аст. Вай дар асрҳои IX–X ташаккул ёфта, ҳама хусусиятҳои забони адабӣ (соҳибатӣ, сараshawӣ, устувории норма, бартарӣ аз шева) –ро дар ҳуд мӯжассам намудааст. Мо ин ҳолро дар мисоли ба ин забон бурда шудани корҳои давлатӣ баръало динда метавонем. Илова бар ин ба ин забони бостонӣ фолклори ниҳоят бой ва ғаргоронӣ, адабиёти бадей, илмӣ ва таърихие оғарида шудаанд, ки бо салоҳияту қимати хеш тамомӣ оламро тасхир кардаанд. Бонси ифтиҳор аст, ки асарҳои безаволи Абӯабдулло Ғудакӣ, Дақиқӣ, Абулқосим Фирдавсӣ, Ибни Сино, Саноӣ, Фаридулдин Аттор, Носири Ҳисрав, Низомии Ганҷавӣ, Саъдии Шерозӣ, Ҳофизи Шерозӣ, Абдураҳмони Ҷомӣ, Сайиди Насафӣ, Аҳмади Дониш, Садриддин Айнӣ, Лоҳутӣ, Мирсаид Миршакар, Мирзо Турсунзода, Лоиқ Шералиӣ, Гулруҳсор Сафиева ва ҳазорҳои дигар эҷодкорони соҳибиҷалам ба ин забон таълиф шудаву ба дили ҳассоси ҳонандагони сершумор роҳ ёфтааст.

Дар тӯли асрҳои IX – XX забони адабии тоҷик роҳи ба ҳуд хоси ташаккулро тай намудааст. Вай аз сарчашмаҳои гуногуни гизо гирифта таркиби лӯғавии хешро бой гардонидааст. Аз ин рӯ забони тоҷикӣ боз ҳам оммафаҳмтару комилтар гашта вазифаҳои ҷамъиятий ва доираи истеъмоли он хеле васеъ шуд. Алҳол ин забон ба ғайр аз Тоҷикистон дар Ӯзбекистон, Қирғизистон, Қозоқистон, Афғонистон, Покистон, Эрон ва боз як қатор давлатҳои Аврупою ШМА дар истеъмол аст.

Дар тӯли асрҳои мазкур забони адабии тоҷик аз ҷиҳати услуб такмили инкеплоф ёфт. Махсусан услубҳои илмӣ, адабӣ-бадей, публисистӣ ва расмии коргузорӣ ғанитару мукаммалтар гаштанд, услуби гуфтугӯй бошад ба забони адабӣ наздиқтар гашт.

### Баҳси нону намак

Нону намак бо ҳам баҳс карданд. Нон ҳудро хеле таъриф карда гуфт:

– Ман беҳтарин неъмат ҳастам. Ба оламон қувват мебахшам. Манбаи ҳаётам. Мардум маро нун гавҳараки ҷаллӣ азиз дошта, рӯи дастарҳон пеш аз ҳама анивоъҳо мегузоранду бе ман як рӯз ҳам зиста наметавонанд. Боқадртарин мӯҷиза ҳастам ~~ни~~ аз ин меболаму мефаҳрам. Аммо будану набудани туро касе пайхас намекунаанд. Мавқесъ надорӣ.

Худнамой ва қалонгатии нон ба намак саҳт расиду гуфт:

– Ҳудгаърифкунӣ ва кибру гурурро бад мебинам. Дар ҳақиқат ту неъмати бебаҳои ва аз ҳамаи неъматҳои мавҷуда болотару азиҳтарӣ. Дар арзиш аз симу зар, гавҳару ёкӯт ва лаълу марҷон қиматгарӣ, лекин дигаронро низ аз ҳуд кам маҳисоб. Суханҳоят ба ман саҳт расиданд. Маро наҳ назан, зоро барои бомазаву ҳуҷитамъ шудани ту саҳми ман ҳам қалон аст. Одамон бе ман ҳамир карда, нон намепазанд.

Чунки нони бенамакро касе намехұрад.

Нон ба суханқои намак бовар накарда, худро таъриф кардан гирифт. — Бе нон чон, бе чон ҳәёт нест.

Намак қаҳр карду баромада рафт. Ногоҳ он бегоҳ ба хонаи соҳибхона мәҳмонани олимақом омадаңд. Мизбон хост хүрок пазад, лекин намак набуд. Вай ба чор тараф одам фиристод, ки намак ёфта биёранд, аммо онҳо бо дасти холій баргаштанд. Соҳибхона маҷбур шуд, ки бенамак хүрок пазад. Вай аз масолеҳи қиматбаҳо хүрок ва аз орди аълосифат нонҳои равғанину қизагин пухт. Таомҳо бисёр дилкаш буданд, vale касе намехұрд. Мәҳмонан бурдаи иопро гирифта, ба даҳон бурданд, аммо иопи бенамак ба табъашон нафорид, ки онро рӯи дастархон гузоштанд. Аз хүрок ҳам касе нахұрд. Соҳибхона шарм дошт ва бори дигар ба ҷустуҷуи намак баромад. Ниҳоят каме ёфта оварда, ба рӯи дастархон гузошт. Мәҳмонан, ки гурусна буданд, намакро ба рӯи нону хүрок пошида хұрдан гирифтанд.

— Ана, дидай! — гуфт намак ба нон, бе ман нону хүрок лаззате надорад. Ҳама вақт ҳақиқат ғалаба мекунад. Ҳоло худат дидай, ки қадри ман аз ту кам нест.

Нон ба гапҳои намак гүш дода, аз гуфтаҳои худ пушаймон шуда гуфт. — Маро бубахш, дұстам, дигар худнамой намекунам.

Пас аз ин нону намак дұст шудаанду одамон мәҳмонани азизи худро ҳамеша бо нону намак пешвөз мегиранд (аз маҷаллаи «Машъял», Ҳайринисо Чураева).

### Гүнчишкаки яқрав

Як гүнчишкак буд. Вай падару модарашро бисёр азоб медод. Ҳурд бошад ҳам, худсарона ба ҳар қуҷо парида мерафт. Коре карданай шавад, аз ҳеч кас маслиҳат намепурсид. Гапи падару модарашро гүш намекард.

Гүнчишкак аз рўзи аввали ба дунё омаданаш боиси азобу ташвиши падару модар шуд. Онҳо ҳамагай панҷ ҳоҳару додаракон буданд. Ин гүнчишкак аз ҳама ҳурд буд. Вай аз дигар ҳоҳару додараконаш баъдтар ба дунё омад. Бинобар он падару модараш ба вай Ҳурдай пом доданд.

Ҳурдай баъзан касал мешуд, авқот намехұрд, бисёр иолиш ва инчиқай карда дили падару модари сертоқат вайро парасторй кардан, ҳурондан, тарбия намудан.

Рўзе расид, ки ҳоҳару бародарони вай калон шуда, мустаҳкам шуданд. Пеш аз парвөз падару модар онҳоро бисёр насиҳат кардан. Онҳо гапи падару модарро бодиққат гүш мекардан.

Ба Ҳурдай гуфтанд, ки ду-се рўзи дигар сабр кунад. Чунки қанотҳояш ҳоло бекүвват аст ва ба замин санг барин афтида монданаш мумкин. Вале вай ба ҳама гап ҷавоб мейфт.

— Ҳеч гап не, афтам, боз мекезам-дия, — гуфт ин дафъа ҳам.

— Ба ту ҳазор бор мегүем, ки дар дунё гурба гуфтани даррандаи бадхашим ҳаст. Вай ҳатто паррандаҳои калонро ҳам мекұрад.

Хурдй ҳар чанд якравй қунад ҳам, падару модараш илоче карда вайро боз се рўз дар лона нигоҳ доштанд. Барои он ки худсарона парвоз нақунад, яктои онҳо ҳамеша дар назди вай пособон барин меистодан.

Рӯзи парвози Хурдй ҳам расид.

Падару модар ва ҳоҳару акаҳояш пару боли вайро аз назар гузарониданд. Баъд падару модар гапҳои чандин бор гуфтаашро бори дигар тақрор карданд:

— Писарам, аз ғудакҳо ҳам эҳтиёт шав! Баъзеи онҳо аз гурба ҳам бадтаранд! Оҳ, ин бачаҳои шум! — мегуфт модари Хурдй. — Аз ласти онҳо худи ман чандин балоҳоро дилдам. Ҳамин ки туро диданд, дарҳол аз замин сангро гирифта ба сўят меандозанд. Агар ҳушёр набошӣ, кор тамом. Агар бачае ҳам шуда, санг гирифтани шуд, фавран парвоз кун, шунидӣ, писарам?

— Шунидам, — бепарво мегуфт Хурдй. — Вале агар санг дар бағал ё бо қунҷковӣ пурсид Хурдй.

Оҳ, ин бачаи якрав! — гуфт модараш ғамгинона. — Аввал гапи маро то охир гӯш кун! Ана, ману падарат гўем гӯш кун! Ана, бубин, ҳоҳарат, акаҳоят чӣ ҳел қобилу гапдароянд. Чизе ки ману падарат гўем, гӯш медиҳанд, гуфтаамонро мекунанд.

— Ҳамаи онҳо тарсончаканд! — гуфт Хурдича магруона. — Аз гурба метарсанд. Аз бачаҳои хурдсол ки ҳанӯз бинниашро пок карда наметавонанд, метарсанд. Аз паррандаҳои калон ҳам. Ҳуди ҳамон гурбай гуфтагиатон чӣ ҳел парранда? Аз боз ҳам калон-мӣ? Агар ба дастам афтад, ман вайро бо пару болаш мөхӯрам. Аз бачаҳою дигар паррандаҳо бошад, боке ҳам надорам!

Хурдй гайр аз ин гапҳо боз бисёр лаққид, бисёр даҳонкалонӣ кард. Падару модараш ичозат доданд, ки парвоз қунад. Вай парвоз кард, вале ҳама дар ғаму ташвиши буд. Бинобар ин тамоми села аз қафои ў шуд. Ин ҳолат чанд рӯз давом кард ... (аз эҷоди Акобир Шарифи).

### Саҳаргоҳон

Саҳаргоҳон, ки булбул дар наво шуд,  
Гул аз шодӣ шукуфту гунча во шуд.

Шумо, эй булбулони бояни мактаб,

Саҳаргоҳон чаро хобед ҳар шаб?

Шумо ҳам дар наво оед бояд,

Ки то аз бояни маъни гул кушояд.

Саҳаргоҳон гулистони дабистон

Тароватбахш бошад чун гулистон.

Чаро аз ин гулистон гул начинед?

Чаро дар купчи бекорӣ нишинед? ...

Биёed, эй шарқон, дарс ҳонем,

Ба бекорио нодонй намонем.  
Ба олам ҳар касе бекор гардад,  
Ба чашми аҳли олам хор гардад ...  
Биёед, эй рафиқони маонӣ,  
Ба ҳам гардем ҷӯёни маонӣ.  
Зи илму матърифат гар баҳра ёбем,  
Тавон бозуи нодонӣ битобем.  
Вагарна ҷаҳл бар мо ҳамла орад,  
Димор аз рӯзгори мо барорад.

Садриддин Аинӣ

Гули шому саҳар  
Гуле дидам аҷоиб,  
Аҷоибу ғароиб.  
Шому саҳар ҳандон буд,  
Вақти пепин гирён буд.  
Ҳамин ки шаб даромад,  
Ранги рӯяш дигар шуд.  
Аз ин сабаб номи ў,  
Гули шому саҳар шуд!

Нағзакак ҳонед  
Бачагони азизи кишвари ман,  
Тозагулҳои ин гулистонед!  
Соли таҳсилатон муборак бод,  
Шод бошеду нағзакак ҳонед!  
Донишу илм нури дидан мост,  
Ҳар киро илм нёст, чун кӯр аст,  
Ҳар кӣ бе илм — нотавону заиф,  
Ҳар кӣ бо илм — қодиру зӯр аст.  
Ватани меҳрубону мунифиқи мо,  
Баҳри моёни кушода мактабро.  
Гуфт: ҳонед нағзакак, бачаҳо!  
Бачаҳо, сарфарозу хушбахтед,  
Он чӣ хуб аст, аз барои шумост.  
Пас, бикӯшеду онҷунон ҳонед,  
Ки Ватанамон бигӯяд: ин аълост!

Мирсаид Миршакар

### **Зарбулмасалу мақолхо**

1. Афтобро бо доман пүшида намешавад.
2. Дасти одамзод гул.
3. Җуянда-ёбандা.
4. Кудак азиз аст, адабаш аз он азиэтар.
5. Пурсидан айб нест.
6. Дүст гүяд табарвор, душман гүяд шакарвор.
7. Гап дар калла, на дар сала.
8. Як сухан сесаду шасту шаш паҳлұ дорад.
9. Аз дүстій нодон душмани доно беҳтар.
10. Дили ноҳоҳам узри бисёр.
11. Намак хұрді, накун туғ дар намақдон!
12. Ростгүро ҳамеша роҳат дар пейш аст.
13. Ниҳол дар як қо месабзад.
14. На сих сүзад, на кабоб.
15. Девор муш дорад, муш гүш дорад.
16. Ду понздақ-як си.
17. Замона бо ту насозад, ту бо замона бисоз!

## LINGVISTIK (LISONIY) T AHLIL (Т ахлии лингвистики)

### Fonetik tahlil (Т ахлии фонетики)

#### Fonetik tahlil va uning tartibi:

1. Harf va tovush.
2. Unli tovushlar.
3. Undosh tovushlar.
4. Jarangli va jarangsiz undoshlar.
5. So‘zning bo‘g‘ini va bo‘g‘in turlari.
6. Urg‘u va uning o‘rni.

**Misol.** Har bir so‘zning o‘z o‘rni bor, har bir ishning o‘z mavridi.

#### Tahlil namunasi:

1. “Mavrid” so‘zi 6 ta harf va 6 ta tovushdan iborat.
2. “Mavrid” so‘zida ikkita unli tovushlar bor: **a**, **i**.
3. Undosh tovushlar soni to‘rtta: **m**, **v**, **r**, **d**.
4. Jarangli undoshlar: **m**, **r**, **d**; jarangsiz undosh: **v**.
5. “Mavrid” so‘zi ikkita bo‘g‘indan iborat: mav-tid. Ikkalasi ham yopiq bo‘g‘inlar. Chunki undosh bilan tugagan.
6. Urg‘u oxirgi bog‘inga i unli harfiga tushgan: mavrid.

#### Tahlil uchun misollar:

1. Agar insondan dunyoda birorta kitob yoki imorat qolsa, u tiriklar qatorida yo‘qlanadi va unday kishi o‘lik deb hisoblanmaydi.
2. O‘z yurtingning qadri o‘zga yurtda bilinadi.
3. Yam-yashil bog‘-rog‘larga burkangan Farg‘ona vodiysi, ko‘hna Samarqand-u Buxoro, Xiva, azim Qashqadaryo va Surxandaryo yurtimizning maftunkor maskanlaridir.
4. Xoja Ismat Buxoriy Buxoroning zabardast zullisonayn shoiridir.
5. Sen yaxshi dustlar topishga urin, ular seni har doim qo‘llab-quvvatlaydilar.
6. Ota-onha oldida anal va kasb bilan maqtanib qolishdan ko‘ra, johil va ilmsiz bo‘lgan afzalroqdir.
7. Mirzo Sodiq Munshiy g‘azal, qasida, muxammas, ruboiy, fardlardan iborat katta adabiy meros qoldirgan.
8. Bilim – qaytarish va takrorlash mevasidir.

9. Qalam qog‘or yuziga gavhar tuzuvchi asbobdir. 10. Kitob bir bog‘ki, yozuvlari uning gullaridir. 11. Yurt va elning rivoji ham hunarga bog‘liq. 12. Dil dilni topgandagina ular bir-birining ahvolyiga tushunadi, shundagina haqiqiy suhbat, sof do‘stlik paydo bo‘ladi. 13. Mol uchun xasis va baxil bo‘lgan kishidan do‘stlik kutib bo‘lmaydi. 14. Odamlarning aybin qidirib yurgan kishi ulug‘lik darajasiga erisholmaydi. 15. Adolat natijasida yurt obod, el farovon, xazina mo‘l, shahar-u qishloqlar yashnaydi. 16. Ovgatni yaxshilab chaynab yutgandan so‘nggina boshqa luqma uchun qo‘l uzatish lozim. 17. Chiroyli kulq xunuk kishini ham chiroyli qilib ko‘rsatadi. 18. Mol-u puling ketsa ketsin, ammo vaqtingni zoye ketkizma. 19. To‘g‘ri so‘zli kishi barchaning e’tiborini qozonadi. 20. Go‘zal yuz ko‘z nurini oshiradi.

### Leksik tahlil (Таҳлили лексикя)

#### So‘zni leksik jihatdan tahlil qilish tartibi:

1. So‘zning lug‘aviy ma’nosи.
2. So‘zning qo‘llanish doirasiga ko‘ra: umumlashgan, adabiy, shevaga xos, kasb-hunar, eskirgan, yangi so‘z, jargon, vulgar, varvar, atama.
3. So‘zning bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli ekanligi aniqlanadi.
4. So‘zning shakl va ma’no munosabati: omonim, sinonim, antonim, paronim.
5. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosи: metafora, metonimiya, sinekdoxa.
6. So‘zning etimologiyasi: umumturkiy, arabcha, fors-tojikcha, ruscha-internatsional.

Misol. Yo‘lchi yengil eshikchani ochib kirdi.

#### Tahlil namunasи

1. “Yengil” so‘zi predmetning belgisini bildiryapti.
2. Umumlashgan so‘z.
3. “Yengil” – ko‘p ma’noli so‘z.
4. “Yengil” so‘zining antonimi og‘ir.
5. O‘z ma’nosida.
6. Umumturkiy so‘z.

#### Tahlil uchun misollar:

1. Bemorning tomog‘idan suv ham o‘tmay qoldi.
2. Odatda, otani padari buzrukvor, onani esa mehribon volida deymiz.
3. Kattaga hurmatda bo‘l, kichikga izzatda.
4. Harbiy xizmat temir intizomni talab qiladi.
5. Ota-onha o‘g‘il-qiziga o‘z umri, aql-idroki, shodligini baxshida etadi.
6. Vatanni sevish – bu ona yurtning ravnaqi yo‘lida halol mehnat qilish, o‘zini qahramonliklarga tayyorlab borish demakdir.
7. O‘choq og‘ziga qo‘yilgan qora qumg‘on varaqlab qaynamoqda edi.

8. U o'qituvchi bilan dadil gaplashdi. 9. Do'stlik bor yerda har qanday og'ir yengil, mushkullar oson bo'ladi, hal etilmagan muammo qolmaydi. 10. Toza qalbda dog' bo'lmas.

## Morfologik tahlil (Таҳлили морфология)

### Morfologik tahlil va uning tartibi:

#### I. Ot so'z turkumining morfologik tahlili:

1. So'z turkumiga ko'ra.
2. So'rog'i.
3. Ma'nosiga ko'ra turi (atoqli yoki turdosh, turdosh otning turlari).
4. Qaysi kelishik qo'shimchasini olgan (belgili-belgisiz).
5. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zgarishga uchraganligi.
6. Gapdagи sintaktik vazifasi.

#### Tahlil uchun misollar:

1. Guruhimiz talabalari fakultetda ilg'or.
2. Muyassarning akasi zavodda ishchi.
3. XXI asr — yoshlar asri.
4. Bog'imiz juda katta.
5. O'rnimdan turib eshikni ochsam, o'g'lim o'rtog'i bilan sovug'dan qulog'i, burni qizargan holda turardi.
6. Daryoning narigi qirg'og'idagi yam-yashil o'tlar, yalpizlar kishi ko'zini quvontiradi.
7. Tutmang hargiz nomimni, baxtiqaro deb axtaring (T.F.)
8. O'mazorlar gulin to'kadi. Meva bog'lab shoxin bukadi (H.O.)
9. Buxoro — Sharq durdonasi.
10. Ali cho'pon o'zining sodiq iti Bo'ribosar bilan bir umr yaylovda poda boqdi.
11. Uyqusizlik kishini toliqtiradi.
12. Yaxshilik umrni uzaytiradi.
13. Muhabbat — insonning qalb gavhari.
14. Har kimki hayotdan olmasa ta'llim, unga o'rgatolmas hech bir muallim (A.Jomiy)

#### II. Sifat so'z turkumining morfologik tahlili:

1. So'z turkumiga ko'ra.
2. So'rog'i.
3. Ma'nosiga ko'ra turi.
4. Darajasi (daraja hosil qiluvchi vosita).
5. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
6. Gapdagи sintaktik vazifasi.

### **Tahlil uchun misollar:**

1. Sohildagi kunduzgi besaranjomlik tingan, saxiy odamlarning marhamatiga o'rgangan (T.M.). 2. Tc'ybeko tomonidan hozirlanib berilgan issiq suv bilan yuzini yuvdi (A.Q.). 3. Uning qora zulfi paryostiqning turli tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jingila kiprik ostidagi tim qora ko'zlar bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani ko'rgan kabi...(A.Q.). 4. Bog'da ochilgan gullar rang-barang, xushbo'y. 5. Bahorgi ishlar ham boshlanib ketdi. 6. U darsga yaxshi tayyorlangan edi. 7. Yaxshi oshini ver, yomon boshini. (Maqol.) 8. To'g'ri uzadi, egri ozadi. (Maqol.) 9. Ko'r tutganini qo'ymas, kar eshitganini. (Maqol.). 10. Otning yaxshisi uloqda bilinadi. (Maqol.) 11. Dilnozaning muloyim tabassumi o'ziga yarashadi.

### **III. Son so'z turkumining morfologik tahlili:**

1. So'z turkumiga ko'ra.
2. So'rog'i.
3. Ma'nosiga ko'ra turi.
4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
5. Gapdag'i sintaktik vazifasi.

### **Tahlil uchun misollar:**

1. Birni ko'rib shukur qil, birni ko'rib fikr qil (Maqol.). 2. O'n qadamcha narida... bir chol hassasining uchi bilan ariqchaga to'lib qolgan xazonlarni titkilab turardi (O'.H.). 3. O'tloq yonidagi ikki to'p azim tol bizning ovunchog'imiz edi (O'.H.). 4. Bu yerda yigirma to'rt kun yurishga toqatim yetmaydi (T.M.). 5. Hilola ham uch-to'it qadam yurib bordi-da, pastak arg'uvon soyasida to'xtadi (O'.H.). 6. Talabaning birinchi vazifasi – a'lo o'qish emasmi? 7. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin o'dirar (Maqol.). 8. Guruhimizda o'n yettita talaba ta'lif oladi. 9. Ikkalamiz darsdan so'ng kinoga tushdik. 10. Darvoza oldida yigirmatacha odam to'plangan edi. 11. Shahrimizga har yili minglab sayyoohlар kelishadi.

### **IV. Olmosh so'z turkumining morfologik tahlili:**

1. So'z turkumiga ko'ra.
2. So'rog'i.
3. Ma'nosiga ko'ra turi.
4. Gapdag'i sintaktik vazifasi.

### **Tahlil uchun misollar:**

1. Men universitetda o'qiyman. 2. Birov yordam so'rab turganida tashlab ketolmayman-ku. 3. Tug'ilganida hammayam pok bo'ladi-ku. 4. U uyqusirab allanimalarni gapirdi. 5. Darvoza oldida kimdir Shuhratni kutib turardi. 6. Marat ko'pdan buyon o'sha olam tasavvuri bilan yashar edi. 7. Allanechuk olis, ertak

kabi go'zal bir olam ko'z o'ngingizga keladi. 8. Hech kim uni bu yo'ldan qaytara olmadi. 9. Shuning uchun hikoyani hech qaysi kitobiga kiritmagandi. 10. Allaqayoqda hazon tutayotgan bo'lsa kerak, achchiq bir is uning dimog'ini kuydirardi. 11. Kecha hammamiz sayohatga chiqdik (O'tkir Hoshimov ijodidan).

#### **V. Fe'l so'z turkumining morfologik tahlili:**

1. So'z turkumiga ko'ra.
2. So'rog'i.
3. Bo'lishli yoki bo'lishsizligi.
4. O'timli yoki o'timsizligi.
5. Qaysi nisbatda ekanligi (nisbat hosil qiluvchi vosita).
6. Qaysi zamonda ekanligi ( zamon hosil qiluvchi qo'shimchasi).
7. Fe'l mayli (qo'shimchasi).
8. Vazifadosh shakllari (sifatdosh, ravishdosh).
9. Gapdag'i sintaktik vazifasi.

#### **Tahlil uchun misollar:**

1. Kumush kiyinib uydan chiqdi.(A.Q.).
2. Zamira shodon kulgancha uni quchoqlab oldi (O'.H.).
3. Hilola eshitmadni.
4. Marat egilib plashini oldi (O'.H.).
5. U hamon qog'ozdan bosh ko'tarmay, ko'z qiri bilan qarab qo'ydi (O'.H.)
6. Mana, to'rt kundirki, u o'zga bir olamda – o'z kitobining olamida yashayapti (O'.H.).
7. U kafti bilan peshanasini changallagancha so'radi. (O'.H.).
8. Bog'da ochilgan gullar rang-barang, xushbo'y.
9. Darsdan keyin o'rtog'im bilan buvimplarnikiga bormoqchimiz.
10. Darslarining vaqtida o'zlashtirsang, kelasi yili, albatta, universitet talabasi degan nomga ega bo'lsan.
11. Bugungi ishni ertaga qo'yma! (Maqol.)
12. Botirlar agrouchastka bog'iga ko'chat o'tqazishdi.
13. Nodir qari momoni yo'ldan o'tkazib qo'ydi.
14. Bog'da ochilgan gullarning xushbo'y isi kishi dimog'ini qitiqlaydi.
15. Tajribasizligi tufayli qoqildi (T.M.).

#### **VI. Ravish so'z turkumining morfologik tahlili:**

1. So'z turkumiga ko'ra.
2. So'rog'i.
3. Ma'nosiga ko'ra turi va grammatik vositasi.
4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
5. Gapdag'i sintaktik vazifasi.

### **Tahlil uchun misollar:**

1. Lekin chayla yoniga borganda qo'rqa-pisa yana to'xtadim. (O'.H.). 2. Latofat shosha-pisha etak bog'ichiga belini bog'lay boshladi (O'.H.). 3. Avvaliga unda hech bir shubha uyg'onmagan edi (T.M.). 4. Boyagina kerilib suzib yurgan qush endi qanonlarini suvgaga o'rib alam bilan chag'illardi. (T.M.). 5. Malol kelmasa, qabulxonada biroz kutib tursangiz (T.M.). 6. Hilola u tomonga salgina egilgandek, ishonchsiz bir qadam qo'ygandek bo'ldi (O'.H.). 8. Qorong'i tushgach, noiloj uyinni tugatishga majbur bo'ldik. 9. Vodiylarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi menda (X.O.). 10. Feruza o'ziga topshirilgan ishni vijdonan bajarardi.

### **VII. Yordamchi so'z turkumlarining morfologik tahlili:**

#### **A. Ko'makchi va uning morfologik tahlili:**

1. So'z turkumi ga ko'ra.
2. Qaysi kelishikdiragi so'zga bog'langan.
3. Ifodalagan ma'nosi.

**Misol.** Eshik odhilishi bilan xonaga sovuq havo kirdi.

**Tahlil namunasi:** bilan – ko'makchi, sof ko'makchi, bosh kelishikdiragi so'z bilan qo'llangan, payt ma'nosi ifodalangan.

#### **Tahlil uchun misollar:**

1. – Tergan paxtangiz uchun katta rahmat! (M.) 2. "Siz...o'shami?" deyilguniga qadar unda qasos o'ti mavjud edi. (T.M.) 3. Kun sayin shamol kuchayib, sovuq kunlar boshlandi. 4. Singlim uchun ko'ylak sotib oldim. 5. Xayrixohligingiz uchun tashakkur. 6. Dugonasiga kecha o'qigan kitobi haqida gapirdi. 7. Qiyinchiliklarga qaramay topshiriqni bajardi. 8. Saida ikki yildan keyin maktabga boradi. 9. Begoyim yer ostida ilon qimirlasa biladigan-ku, xotin.

#### **B. Bog'lovchi va uning morfologik tahlili:**

1. So'z turkumi ga ko'ra.
2. Qo'llanishiga ko'ra turi.
3. Vazifasiga ko'ra turi.
4. Nimalarni bog'lagan?

**Misol.** Go'dak dam qiyqirib kuladi, dam chinqirib yig'laydi.

**Tahlil namunasi.** "dam..., dam" – bog'lovchi, qo'llanishiga ko'ra takror holda qo'llanadigan bog'lovchi, vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilarning ayiruv bog'lovchisi turiga kiradi. Sodda gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarni bog'layapti.

### **Tahlil uchun misollar:**

1. Bir yarim yildirki, bo'lajak kitobining qahramonlari uning atrofida aylanib yurardi-yu, ammo tutqich bermasdi (O'.H.).
2. Ammo u parvo qilmadi. Hozir dashnom eshitishdan ham, ishdan haydalishdan ham cho'chimasdi (O'.H.). Havo aynidi, lekin yomg'ir yog'madi.
3. U na sovuqdan shikoyat qiladi, na yurib charchaydi.
4. Agar shunchaki gap bo'lganda, u bobillab gapirib tashlardi (S.A.)
5. Shuni bilib qo'yginki, onang seni deb yashayapti.

### **C. Yuklama va uning morfologik tahlili:**

1. So'z turkumiga ko'ra.
2. Tuzilishiga ko'ra turi.
3. Ma'nosiga ko'ra turi.

**Misol.** Darsga faqat Karim qatnasha olmadi.

**Tahlil namunasi:** **faqat** – yuklama, tuzilishiga ko'ra so'z yuklama, ma'nosiga ko'ra ayiruv yuklamasi.

### **Tahlil uchun misollar:**

1. Tut tagiga borib maxorka o'radi-da, joyidan qimirlamay tik turib qoldi (S.A.).
2. Hali nami ko'tarilmagan supaga ham bo'yra to'shab, sholcha yozilgan (S.A.).
3. — Ona qizim, buyoqqa kel-chi! — Jo'raqulov avvonda, elektr choynak oldida turgan Onaxonni chaqirdi (M.).
4. Nahotki, shunchalik bag'ritosh bo'lsanga?!
5. Qanday chiroyli-ya bu o'rmon!

### **VIII. Alovida olingan so'zlarning morfologik tahlili:**

#### **A. Undov so'zlar va uning morfologik tahlili**

1. Ma'nosiga ko'ra turi.
2. Tuzilishiga ko'ra turi.
3. Gapda bajargan vazifasi.

**Misol.** Allo, menga Bekobodni ulab bering.

**Tahlil namunasi.** **Allo** – kishilarning diqqatini tortish uchun qo'llanadigan haydash-chaqirish undovi, yakka holda qo'llangan, gapda kirish so'z bo'lib kelgan.

### **Tahlil uchun misollar:**

1. Ofarin, do'stlar, ishonchimni oqladingiz!
2. Balli, sendan xuddi shunday yaxshi gap kutgan edim, bolam.
3. Ehhe, hali qancha o'qishim kerak.
4. Bay-bay, qir shunday go'zal bo'libdiki, kishining bag'ri dili ochiladi!
5. Mosh-mosh, kel, senga non beraman.

## B. Modal so‘zlar va uning morfologik tahlili

1. Ma’nosiga ko‘ra turi.
2. Qaysi turkumdan kelib chiqqan.
3. Sintaktik vazifasi.

**Misol.** Tabiiyki, bu yilgi hosil mo‘l bo‘ladi.

**Tahlil namunasi:** tabiiyki – modal so‘z, sifat turkumidan kelib chiqqan, gapda kirish so‘z bo‘lib kelgan..

## Tahlil uchun misollar:

1. Balki bugun kelib qolar.
2. Shubhasiz, tadbir a’lo darajada o’tadi.
3. O’shanda u quvnoq edi, shekilli.
4. Har qalay, zamonamizda Farhodlar yo‘q emas..
5. So‘zsiz, buni hamma biladi-ku!
6. Mayda-chuyda kamchiliklar topildi, mazmuni.

## C. Taqlidiy so‘zlar va uning morfologik tahlili

1. Ma’nosiga ko‘ra turi.
2. Tuzilishiga ko‘ra turi.
3. Otlashgan-otlashmaganligi.
4. Gapda bajargan vazifasi.

**Misol.** U yuragining duk-dukini eshitdi.

**Tahlil namunasi:** **duk-dukini** – taqlid so‘z, ma’nosiga ko‘ra tovushga taqlid so‘z, tuzilishiga ko‘ra takror holda qo‘llanadigan taqlid so‘z, otlashib, egalik va kelishik qo‘sishmasini olgan, gapda to‘ldiruvchi bo‘lib kelgan.

## Tahlil uchun misollar:

1. Hanifaxon qizlarga yalt etib qarab qo‘ydi (M.).
2. Devor-toshlardan lip-lip alanga chiqadi. Nizomjon gapirolmas, dir-dir titrardi. Unga jovidirab boqqan Dildorning ko‘zlaridan duv-duv yosh oqardi. Boshini eggancha piq-piq yig‘lardi u.
3. U qalt-qalt titrar, ko‘zları qinidan chiqay deb opasiga o‘g‘rayib qarar edi.
4. Ummatali gup etib o‘zini yerga tashladi-da, hovliga kirdi (S.A.).

## Sintaktik tahlil (Таҳлили синтаксиси)

### I. So‘z birikmasi va uning sintaktik tahlili:

1. So‘z birikmalari aniqlanadi.
2. Bosh va ergash so‘zlar aniqlanadi.
3. Bosh va ergash so‘zlarning bog‘lanish usuli aniqlanadi (moslashuv, boshqaruv, bitishuv).
4. So‘z birikmasi ning tuzilish turi aniqlanadi.

**Misol.** Baland binolar qad ko'tarib turardi.

**Tahlil namunasi:**

1. So'z birikmasi – **baland bino** (qanday bino?)
2. **bino** – bosh so'z, baland – ergash so'z.
3. Ergash so'z bosh so'zga bitishuv usuli bilan bog'langan.
4. Ikkita mustaqil so'zdan tuzilgan sodda birikma.

**Tahlil uchun misollar:**

1. Hosil uchun kurash boshlandi.
2. Ota-onalar majlisi kechgacha davom etdi.
3. Sayilda shahar tomon ketishga oshiqayotgan odamlarga duch keldik.
4. Keng dalada ish qizib ketgan edi.
5. So'z boshi – salom, ish boshi – intizom.
6. Tongda esayotgan mayin shabada dillarga orom beradi.
7. Bu kitobni opam uchun oldim.
8. U yer ostidan qizning yuziga qaradi.
9. Uning niyati – talaba bo'lmoq.
10. Qalbim mening quvonchga to'ldi.

**II. Gap va uning sintaktik tahlili:**

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi.
2. Gapning tuzilishiga ko'ra turi.
3. Gapning to'liq yoki to'liqsiz ekanligi.

**Misol.** Halol mehnat kishini ulug'laydi.

**Tahlil namunasi:**

1. Ifoda maqsadiga ko'ra darak gap.
2. Tuzilishiga ko'ra sodda (yoqiq) gap.
3. To'liq gap, chunki fikrni ifodalash uchun zarur gap bo'laklarining hammasi ishtirok etyapti.

**Tahlil uchun misollar:**

1. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga.
2. Yaxshi oshini yeysi, yomon boshini (maqol).
3. – Hozir qayerda o'qiyapsiz? – Universitetda.
4. Odil imtihonga tayyorgarlik ko'ryapti.
5. Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.
6. Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor?
7. Singling nechanchi sinfda o'qiyapti?
8. Ko'cha harakati qoidalariiga rioya qiling!
9. Darsdan so'ng hamma kutubxonaga borsin!

**III. Sodda gap va uning sintaktik tahlili:**

1. Sodda gapning grammatik asosiga ko'ra turi.
2. Bir yoki ikki bosh bo'lakli gap bo'lsa, uning turi.
3. Gap bo'laklari.
4. So'z-gap mavjud bo'lsa, uning turi.

**Misol.** Ota-onalarga yordam berdik.

**Tahlil namunasi:**

1. Sodda gap. Grammatik asosiga ko'ra bir bosh bo'lakli gap.
2. Bir bosh bo'lakli gapning shaxsi ma'lum gaplar turiga kiradi (kesimiga qarab egani aniqlash mumkin): Ota-onalarga yordam berdik (**kim?** — Biz).
3. Yordam berdik — **nima qildik?** so'rog'iga javob bo'lib, kesim vazifasida kelgan; ota-onalarga — **kim ga?** so'rog'iga javob bo'lib, to'ldiruvchi vazifasida kelgan.
4. So'z-gap mavjud emas.

**Tahlil uchun misollar:**

1. Bahor. Atrof juda go'zal. 2. Sevish! Bu qanday baxt! 3. Mehnatsiz rohatga erishib bo'lmaydi. 4. Imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rdingmi? — Ha. 5. Insonni bilih uchun uni sevish kerak. 6. Kiyimni bo'yga qarab bichadilar. 7. Talabalar o'quv zaliga yig'iltilar. 8. Bahor keldi. 9. — A'lo baholarda o'qiyapman. — Barakalla. 10. Hayotni go'zalliksiz tasavvur etib bo'lmaydi.

**IV. Qo'shma gap va uning sintaktik tahlili:**

1. Mazmun munosabati va bog'lovchi vositalarning qo'llanishiga ko'ra qo'shma gapning turi aniqlanadi (bog'langan, ergash gapli, bog'lovchisiz).
2. Berilgan qo'shma gap bog'langan, ergash gapli yoki bog'lovchisiz bo'lsa, uning ham qaysi turga mansubligi aniqlanadi.
3. Bosh va ergash gaplar, ularni bog'lovchi vositalar aniqlanadi.

**Misol.** Odam qo'li tegdi-yu, tashlandiq yerlar obod bo'ldi.

**Tahlil namunasi:**

1. Ushbu gap bog'langan qo'shma gap hisoblanadi.
2. Bog'langan qo'shma gapning biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap turiga kiradi.

**Misol.** Tashlandiq yerlar obod bo'ldi — bosh gap, odam qo'li tegdi-yu — ergash gap. Ergash gap bosh gapga -yu yuklamasi vositasida bog'langan.

**Tahlil uchun misollar:**

1. Orzular buyukdir, umrlar qisqa. 2. Kim mehnatni sevs, uning qadri baland bo'ladi. 3. Sevinch esdan chiqadi-yu, qayg'u unutilmaydi. 4. Kimki birov larga sitam qilsa, o'zi ham uzoq yashamaydi. 5. Oftob tegmay, olma pishmas. 6. Yomg'ir tobora tezlashganligi uchun, paxtazor bo'shab qoldi. 7. Yillar o'tsa-da, yaxshilik urug'i hosil beraveradi. 8. O'qituvchi shunday kuldiki, ko'zları yoshlanib ketdi. 9. Istagim shu, o'shmasin yongan chirog'ing. 10. Nur borki, soya bor.

## V. Ega va uning sintaktik tahlili:

1. So‘rog‘i aniqlanadi.
2. Qaysi turkumdagи so‘z bilan ifodalangan?
3. Shartli belgisi.

**Misol.** Yoqimli shamol esmoqda.

### Tahlil namunasi:

1. Shamol so‘zi nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, ega vazifasida kelgan.
2. Ot turkumidagi so‘z bilan ifodalangan.
3. Shartli belgisi bitta to‘gri chiziq (\_\_\_\_\_).

### Tahlil uchun misollar:

1. Biz fan cho‘qqilarini egallaymiz. 2. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib. 3. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog‘in tishlar. 4. Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar. 5. Men qo‘schiqni zavq bilan tingladim. 6. Oyim, dadam va akam mehmonga ketishdi. 7. O‘rmon ichidan boltaning taq—tuqi eshitilardi. 8. Yurgan — daryo, o‘tirgan—bo‘yra.

## VI. Kesim va uning sintaktik tahlili:

1. So‘rog‘i aniqlanadi.
2. Qaysi turkumdagи so‘z bilan ifodalangan? ( ot-kesim yoki fe’l-kesim ekanligi aniqlanadi.)
3. Shartli belgisi.

**Misol.** Opam mакtabda o‘qituvchi.

### Tahlil namunasi

1. O‘qituvchi — (u) kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, kesim vazifasini bajargan.  
— dir kesimlik qo‘srimchasi tushib qolgan.
2. Ot turkumidagi so‘z bilan ifodalangan — ot-kesim ( sodda ot-kesim).
3. Shartli belgisi ikki to‘g‘ri chiziq bilan beriladi (\_\_\_\_\_)

### Tahlil uchun misollar:

1. Kitob ukamniki. 2. Inson mehnati bilan go‘zal. 3. O‘zbekistonning poytaxti — Toshkent. 4. U o‘qishdan keldi. 5. Qishlog‘imizda kichik korxona ishlay boshladи. 6. Uyat o‘limdan qattiq. 7. Qir yonbag‘ri pakana dublar bilan qoplangan. 8. Mehnat oddiy kunlarni ham bayramga aylantirib yuboradi. 9. So‘z — gul, ish — meva. 10. Nozim Tohirni ko‘rmoqchi bo‘lib kelgan ekan.

## VII. Aniqlovchi va uning sintaktik tahlili:

1. So'rog'i aniqlanadi.
2. Qaysi turkumdag'i so'z bilan ifodalangan?
3. Aniqlovchining turi (sifatlovchi-aniqlovchi, qaratqich-aniqlovchi) hamda tobelanishning qaysi usuli bilan bog'langanligi.
4. Shartli belgisi.

Misol. Poyonsiz dalalar oq libos kiydi.

### Tahlil namunasi

1. **Poyonsiz so'zi qanday?** so'rog'iga javob bo'lib, aniqlovchi vazifasida kelgan.
2. Sifat bilan fodalangan.
3. Aniqlovchining sifatlovchi-aniqlovchi turiga kiradi. **Poyonsiz** so'zi sifatlovchi, dalalar so'zi sifatlanmish bo'lib, tobelanishning bitishuv yo'li bilan bog'langan.
4. Shartli belgisi bitta to'lqinli chiziq bilan beriladi (\_\_\_\_\_).

### Tahlil uchun misollar:

1. Yoqimli shabada kishiga orom beradi.
2. Oq, qizil, pushti rang gullar quyosh nurida rang-barang tovlanadi.
3. Yaxshining so'zi – qaymoq, yomonning so'zi – to'qmoq (maqol).
4. Mening ukam o'quvchi.
5. Bizning butun qadr-qimmatimiz tafakkurda jamlangan.
6. Bilimdan qudratliroq kuch yo'q.
7. Buxoro ko'hna va navqiron shahar.
8. Qovunning oxiri shirin bo'ladi.
9. Odamning qo'shi gul.

## VIII. To'ldiruvchi va uning tahlili:

1. So'rog'i aniqlanadi.
2. Qaysi turkumdag'i so'z bilan ifodalangan?
3. To'ldiruvchining qaysi turiga kirishi (vositali, vositasiz, belgili, belgisiz qo'llangan) aniqlanadi.
4. Shartli belgisi.

Misol. Dug'onam gazeta o'qiyapti.

### Tahlil namunasi:

1. **Gazeta (ni)** so'zi **nimani?** so'rog'iga javob bo'lib, to'ldiruvchi vazifasida kelgan.
2. Ot turkumdag'i so'z bilan ifodalangan.
3. To'ldiruvchining vositasiz turiga kiradi. Belgisiz (tushum kelishigi qo'shimchasi tusnib qolgan holatda) qo'llangan.
4. Shartli belgisi siniq chiziq bilan beriladi (\_\_\_\_\_).

**Tahlil uchun misollar:**

1. Bu yil paxtalar mashina bilan terildi.
2. Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga (maqol).
3. Yaxshilik yomonlik bilan, haqiqat yolg'on bilan hech qachon kelishmagan.
4. Nodonga ulfat bo'lsa.
5. Mard nomardga tiz cho'kmas.
6. Bilimdan qudratliroq kuch yo'q.
7. Nazokatxon xushomad qilib, ko'nglimni olishga intilardi.
8. Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer (maqol).
9. Bo'sh vaqtingni bekor o'tkazma, kitob o'qi.

**IX. Hol va uning sintaktik tahlili:**

1. So'rog'i aniqlanadi.
2. Holning qaysi turiga kirishi aniqlanadi.
3. Shartli belgisini.

**Misol.** Xonadan boshini eggan holda chiqdi.

**Tahlil namunasi:**

1. **Boshini eggan holda – qay holda?** so'rog'iga javob bo'lib, hol vazifasida kelgan.
2. Holning tarz holi turiga kiradi. Ibora bilan ifodalangan.
3. Shartli belgisini ko'p nuqta bilan beriladi (.....)

**Tahlil uchun misollar**

1. Imtihonlar yozda bo'ladi.
2. Yer haydasang, kuz hayda (maqol).
3. O'n marta eshitgandan, bir marta ko'rigan afzal (maqol).
4. Bolalar maktabga ketishdi.
5. Xafaligidan o'zini chetroqqa olishga tirishdi.
6. Bolalar bir-birlarini turtishar, piqliq kulishardi.
7. Yo'ichi Unsinni eshik oldida to'xtatdi.(O.).
8. U o'qish niyatida shaharga keldi.
9. Ikkalasi do'stlarcha ko'rishishdi.
10. Ona juda ko'p qayg'urdi.

## LUG'AT

**Ma'nosi tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati**

**Afsungar** – sehrgar

**Af'ol** – fe'li, xarakter.

**Balog'at** – bolig'lik, o'spirinlik

**Bani odam** – Odam Ato farzandlari, olam ahli, odamlar, insoniyat

**Fasohat** – nutqning aniq va ravonligi

**Fozil** – olim

**Fuzalo** – fozillar, ziyolilar

**Hazin** – mungli, qayg'uli

**Harb** – urush, nizo, janjal

**Hirs** – zo'r istak, intilish, qiziqish

**Hudud** – chegara

**Iffat** – hayo, sharm

**Laylu nahor** – tun–u kun; shom–sahar

**Luqmon** – har qanday kasalni davolovchi

**Manba** – ilmiy hadqiqot ishlari uchun asos bo'lgan asar, hujjat

**Mansub** – qarashli, tegishli, taalluqli

**Mahsum** – taqsimlangan, bo'lingan, taqdir etgan

**Munofiq** – sam'miyligi yo'q, ikki yuzlama

**Munis** – sirdosh do'st, hamdam, mehribon

**Muruvvat** – saxovat, himmat

**Mahobat** – salobbat, ulug'verlik, vahm

**Mahvash** – oydek go'zal, oy jamol

**Mohitobon** – yorqin oy

**Nahs** – iflos, nopol

**Nodori ilm** – ilmsiz

**Obi hayot** – tifiliklik suvi

**Qayg'u** – g'a'm, anduh

**Qutlug'** kalom – tabrikli so'z

**Razolat** – qabib, tubanlik

**Ranji beshumor** – sanoqsiz ranj–azob

**Rakaat** – namozning bir qismi, bo'lagi

**Rahsipor bo'moq** – yo'lga tushmoq, yo'l olmoq

**Siza** – sizga

**Sa'y aylamak** – intilmoq, harakat qilmoq

**Tavoze** – xok'orlik, kamtarilik

**Tasarruf** – egalik, xo'jainlik

Talay qismi – bir qismi  
Tiri vahshat – vahshiylik o‘qi  
Totli – mazali, lazzatli, shirin  
Turq – aft, bashara, chehra  
Vositayi robitayi olamiyon – Olam ahli aloqa – aralashuv quroli, vositasi  
Xurshid – oftob  
Yaktoyi zamon – davr saralari, yaktolari  
Zillat – xo‘rlik  
G‘ayri til – chet tili

### O‘zbekcha-tojikcha so‘zlar lug‘ati

#### Hafta kunlari (рўзиҳои ҳафта)

Dushanba – душанбе  
Seshanba – сешанбе  
Chorshanba – чоршанбе  
Payshanba – паҷшанбе  
Juma – чумасъ  
Shanba – шанбе  
Yakshanba – якшанбе

#### Oylar (моҳҳо)

Yanvar – январь	Iyul – июль
Fevral – февраль	Avgust – август
Mart – март	Sentabr – сентябрь
Aprel – апрель	Oktabr – октябрь
May – май	Noyabr – ноябрь
Iyun – июнь	Dekabr – декабрь

#### Yil fasllari (фаслҳои сол)

Bahor – баҳор	Kuz -тирамоҳ
Yoz – тобистон	Qish – зими斯顿

#### Muchal (мучал)

Muchal – мучал, мӯлчар	Hlon – мор
Sichqon – муш	Ot – асп
Sigir – бақар, гов	Maymun – маймун, бўзина
Yo‘lbars – паланг	Tovuq – мурғ
Quyon – харғўш	It – car
Baliq – наҳанг, моҳӣ	To‘ng‘iz – хук

### Odam a'zolari (аъзоҳои одам)

Bosh – сар	Lab – лаб
Soch – мӯй, мӯй	Til – забон
Manglay – пешона	Tish – дандон
Qosh – абрӯй, қош	Tomoq – гулӯй
Ko'z – чашм	Tanglay – ком
Kiprik – мичгон	Teri – пўст
Yuz – рӯй, чекра	Qo'l – даст
Barmoq – ангушт	Kindik – ноф
Tirnoq – нохун	Qorin – шикам
Oyoq – по	Dumg'aza – думғоза
Panja – панча	Qon – хун
Oshqozon – меда	Tomir – раг
Jigar – чигар	Qabooq, qovoq – қабоқ
Quloq – гўш	Milk – мілк, вора
Burun – бинй	Qovurga – қабурга
Bo'yin – гардан	O't pufak – заҳра
Yelka – кифт	Tizza – боэу
Gavda – тана	Tirsak – оринч
Ko'krak qafasi – қафаси сина	Jag' – чоғ
Buyrak – гурда	Bel – миён
O'rka – шуш	Umurtqa – мӯҳраи аррапушт, мӯҳра, фиқра

### Urug - qarindoshlar (хешу таборон)

Ota – падар	Amma – амба
Ona – модар	Xolavachcha – холабача
Aka – бародар	Ammavachcha – амбабача
Uka – бародар	Amakivachcha – амакбача
Singil – хоҳар	Tog'avachcha – тағобача
Opa – хоҳар	Pochcha – язна, почҷо
Buvi – модаркалон, бибӣ	Qaynota – падарарӯс, падаршӯ
Bobo, buva – бобо	Qayinsingil – хоҳарарӯс
Tog'a – тағой	Qayni, qayinuka – додарарӯс
Amaki – амак	Duvara – фар абера
Xola – хола	Farzand – фарзанд
Nevara – набера	G'o'dak – қӯдак
Evara – abera	O'g'il – писар
Chevara – чевара	Qiz – духтар
Kelin – келин, арӯс	Yanga -- янга
Kuyov – домод	

### Uy-ro'zg'or asbob-anjomlari (асбобу анчомхой рүзгөр)

Qozon – дег	Sanchqi – чанғол
Choynak – чойник	Pichoq – корд
Piyola – пиёла	Togora – лаганд
Kapgir – кафгир	O' qlov – тири ош
Cho'mich – яқдаста, чойгардон	Bolg' a – путк, болға
Chavli – чүлпі	Arra – арра
Qoshiq – қошуқ	Bolta – табар
Tovoq – табақ	

### Oziq – ovqat mahsulotlari (маҳсулотхой хүрокворы)

Obinon – нони оби	Gazlangan suv – оби маъдан
Bo'lkanon – нони бўлка	Et – гүшт
Baton – батон	Baliq – моҳй.
Kulcha – кулча	Muzqaymoq – яхмос
Patir – фатир	Oq qand, chaqmoq qand – қанди сафед
Shakar – шакар	Saryog' – равғани зард
Holva – ҳалво	Guruch – биринч
Choy – чой	Makaron – макарон
Un – орд	Qand – қанд
Yog' – равған	Pechenyе – пичини
Tuz – намак	Non – нон

### Taomlar (таомҳо)

Sho'rva – шурбо	Chuchvara – тушбера
Ugra – оши орд	Moshxo'rda – мөшоба
Tuxumbarak – тухумбарак	Halim – ҳариса

### Mevalar (меваҳо)

Olma – себ	Olxo'ri – олы
Anor – анор	Gilos – гелос
Shaftoli – шафтолу	Anjir – анҷир
Nok – нок	Xurmo – хурмо
Behi – биҳӣ	Uzum – ангур
O'tik – зардолу	

### Poliz ekinlari (сабзавотҳои полиз)

Qovun – ҳарбуза	Pomidor – помидор.
Tarvuz – тарбуз	No'xat – нахӯд.
Qovoq – каду	Mosh – мош.

Handalak – зомуча  
Sabzi – сабзя  
Piyoz – пиёз  
Kashnich – кашнич  
Bodring – бодринг

Loviya – лўбиё.  
Qalampir – қаланфур.  
Baqlajon – бақалачон.  
Bodyon – бодиём.  
Sholg‘om – шалғам

### Sonlar (ададҳо)

#### Birliklar (якиҳо)

Bir – як  
Ikki – ду  
Uch – се.  
To‘rt – чаҳор  
Besh – панҷ

Olti – шаш  
Yetti – ҳафт  
Sakkiz – ҳашт  
To‘qqiz – нўҳ  
O‘n – даҳ

#### O‘nliklar (даҳиҳо)

Yigirma – бист  
O‘ttiz – си  
Qirq – чиҳил  
Ellik – панҷоҳ

Oltimish – шаст  
Yetmish – ҳафтод  
Sakson – ҳаштод  
To‘qson – наవад

#### Yuzlik (сада)

Yuz – сад  
Ikki yuz – дусад  
Uch yuz – сесад  
To‘rt yuz – чаҳорсад  
Besh yuz – панҷсад.

Olti yuz – шашсад  
Yetti yuz – ҳафтсад  
Sakkiz yuz – ҳаштсад  
To‘qqiz yuz – нўҳсад.

#### Minglik (ҳазорӣ)

Ming – ҳазор  
Ikki ming – ду ҳазор  
Uch ming – се ҳазор  
To‘rt ming – чаҳор ҳазор

Besh ming – панҷ ҳазор  
O‘n ming – даҳ ҳазор  
Yuz ming – сад ҳазор  
Million – миллион

#### O‘quv mashg‘uloti, ta‘lim-tarbiyaga aloqador so‘zlar

Dars – дарс  
Dars turi – навъи дарс  
Ma‘ruza darsi – дарси маърӯза  
Amaliy mashg‘ulot – машгулоти амалий  
Mustaqil ta‘lim – таълими мустақилона

Darsdan tashqari mashg'ulot – машғулоти берун аз дарс  
Yakka tartibdagи mashg'ulot – машғулоти яккатартиба  
Laboratoriya ishi – кори лабораторий  
Mavzu – мавзұ  
Reja – нақша  
Matn – матн  
Mashq – машқ  
Topshiriq – супориш  
So'roq – савол  
Og'zaki javob – ҹавоби даҳонӣ, шифоҳӣ  
Yozma javob – ҹавоби хаттӣ  
Matn mazmuni – мазмуни матн  
To'liq matn – матни пурра  
Noto'liq matn – матни нопурра  
Mustaqil topshiriq - супориши мустақилона  
Auditoriya mashg'uloti – машғулоти синфи  
Reyting nazoratlari – назоратҳои рейтинг  
Joriy nazorat – назорати ҷорӣ  
Oraliq nazorat – назорати миёна  
Yakuniy nazorat – назорати ниҳонӣ, ҷамъбастӣ  
Reyting daftarchasi – дафтарчайи рейтинг  
Reyting natijalari – натиҷаҳои рейтинг  
Sinov – санчиш  
Imtihon – имтиҳон  
O'tdi – гузашт  
O'tmadi – нагузашт  
Topshirdi – супорид  
Topshirmadi – насупорид  
Daftar – дафтар.  
Qalam – қалам  
Ruchka – ручка  
Qalamtarosh – қаламтарошак  
Chizg'ich – ҷадвал, линейка  
Sumka – сумка  
Portfel – портфел  
Qalamdon – қаламдон  
Kitob – китоб  
Albom – албом

- Daftар – дафтар
- Umumiy daftар – дафтари умумӣ
- Kichik yo‘lli daftар – дафтари раҳмайда
- Katta yo‘lli daftар – дафтари раҳкалон
- Ishchi daftар – дафтари корӣ
- Yig‘ma jild – муловай чилди ҳӯҷҷатҳо
- Teshgich – дракол
- Qistirгich – скрипка
- Qaydnoma – қайднома, ведомост
- Kundalik – рӯзнома
- Shaxsiy varaqа – шахсиятнома
- Talabalik guvohnomasi – гувоҳномаи донишҷӯй
- Talabalik nafaqati – стипендия
- Guruh jurnalи – журнали гурӯҳ
- Navbatchi – навбатчӣ, навбатдор
- Guruh sardori – сардори гурӯҳ
- Ism-sharif – ному наасаб
- Otasining ismi – номи падар
- Onasining ismi – номи модар
- Demografik (umumiy) ma‘lumoti – маълумот (умумӣ) демографӣ
- Pedagogik amaliyot – амалиёти педагогӣ
- Tadbir – тадбир
- Konferensiya – конференсия
- Munozara – мунозира, баҳс
- Suhbat – сӯҳбат
- Maqol – мақол
- Topishmoq – чистон
- Hikmatli so‘z – сӯхани пурҳикмат
- Bayt – байт
- Fard – фард
- G‘azal – газал
- Doston – достон
- Hikoya – ҳикоя
- Qofiya – қофия
- Radif – радиф
- Bayon – нақли ҳаттӣ,
- Yozma ish – кори ҳаттӣ
- Insho – инишо

Rejali insho – иниши нақшанок  
Rejasiz insho – иниши бенақшаша  
Diktant – диктант  
Ta'rif – таъриф  
To'garak – маҳфил  
Badiiy to'garak – маҳфили адаб  
Bilib oling – бояд бидонед  
Fonetik tahlil – таҳлили фонетики  
Leksik tahlil – таҳлили лексикӣ  
Morfologik tahlil – таҳлили морфологӣ  
Sintaktik tahlil – таҳлили синтаксисӣ  
Baho – баҳо<sup>1</sup>  
A'llo baho – баҳои аъло  
Yaxshi baho – баҳои хуб  
Qoniqarli baho – баҳои қаноатбахш  
Qoniqarsiz baho – баҳои ғайриқаноатбахш  
Talaba – донишҷӯй  
Odobli – боодоб, баадаб  
Odobsiz – беодоб, беадаб  
A'lochi talaba – донишҷӯй аълохон  
Savodli talaba – донишҷӯй басавод  
Savodsiz talaba – донишҷӯй бесавод  
Xushfe'l talaba – донишҷӯй хушфеъл  
Qaysar talaba – донишҷӯй якрав, гарданшах  
Bilim – дониш, илм  
Bilimdon – соҳибхирад, доно  
Bilimsiz – нодон, бекирад  
Hozirjavob talaba – донишҷӯй ҳозирҷавоб  
Darsga qatnashmagan talaba – донишҷӯй ба дарс иштироқ накарда

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILI HAQIDAGI  
QONUNI**  
(yangi tahrirda)

(1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995 yil 21 dekabrda Qonunga o'zgarish va qo'shinchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlangan)

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

**2-modda.** O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3-modda.** O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqa pogiston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqa pogiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarining turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq qidirlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomalala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'r ganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalgalash oshiriladi.

**5-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruuhlar zinch yashaydigan joylarda esa – ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

**6-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

**7-modda.** Davlat til rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'm tasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zinch yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan ñalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zlarini tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarni yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagij ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'iy nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirilik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta–telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra – boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi

20-modda. Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta’milnadi.

22-modda. Respublikaning ma‘muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahslashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xususmat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

## Taqvimiy-ta'limiy reja

*Amaliy mashg'ulot – 76 soat*

*Kuzgi jarayon – 38 soat*

*Bahorgi jarayon – 38 soat*

T/r	Bo'tim va mavzular	Ajratilgan soat
1.	O'zbek tili va uning qisqacha tarixi	2
2.	O'zbek tili yozuvlari. Lotin alifbosи	2
<b>Fonetika (tovush tizimi) 10 soat</b>		
3.	Tovush va harf	2
4.	Unli tovushlar	2
5.	Undosh tovushlar	2
6.	Jarangli va jarangsiz undoshlar	2
7.	Bo'g'in va urg'u	2
<b>Leksikologiya (so'zshunoslik) 10 soat</b>		
8.	Shakldosh so'zlar	2
9.	Ma'nodosh so'zlar	2
10.	Zid ma'noli so'zlar	2
11.	Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar	2
12.	O'z va o'zlashma so'zlar	2
<b>Leksikografiya (lug'atshunoslik) 4 soat</b>		
13.	Lug'at va uning turlari	2
14.	Bir tilli va ikki tilli lug'at	2
<b>Morfologiya 34 soat</b>		
15.	So'z turkumlari	2
16.	Ot so'z turkumi	2
17.	Atoqli va turdosh, aniq va mavhum otlar	2
18.	Ot so'z turkumining kelishik kategoriyalari	2
19.	Sifat	2
20.	Sifat darajalari	2
21.	Son	2
22.	Olmosh	2
23.	Fe'l	2
24.	Fe'l nisbatlari: aniq, orttirma, o'zlik, majhul, birqalik	2
25.	Fe'l zamонlari	2
26.	Fe'l mayllari	2
27.	Sifatdosh	2
28.	Ravishdosh	2
29.	Ravish	2
30.	Yordamchi so'z turkumlari	2
31.	Alovida olingan so'zlar: modal, undov va taqlidiy so'zlar	2
<b>Sintaksis 12 soat</b>		
32.	So'z birikmasi va gap	2
33.	Ega va uning ifodalanishi	2
34.	Kesim va uning ifodalanishi	2
35.	To'ldiruvchi	2
36.	Aniqlovchi	2
37.	Hol	2
<b>Imlo 2 soat</b>		
38.	O'zbek tili imlosi va imloviv qoidalar	2

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asar. II jild. Ilmiy asarlar. — Toshkent: "Ma'naviyat", 2000.
2. Abdullayev Y. Hamrohim. — Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
3. Abdullayev Y. Sog'va. — Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
4. Abdullayev Y., Yo'ldosheva Sh. Yangi alifbo va imlo. Toshkent, 2000.
5. Ayniy S. Qizbola yoki Xolida. Toshkent, 1964.
6. Айнә С. Куллайёг. Чилди 8. — Душанбе: "Ирфон", 1981.
7. Afoqova N. Insho yozishni o'tganining. — Buxoro: "Buxoro", 1995.
8. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
9. Allomalar ibrati Yozub oluvchi va nashrga tayyorlovchi Malik Murodov. Toshkent, 1982.
10. Алӣ Бобоҷон. Зардолуи маҳтобӣ. — Душанбе: "Адаб", 1988.
11. Algomish. Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi: Mahmud Zarifov. Nashrga tayyorlovchilar: Hodи Zarif va To'ra Mirzoyev. — Toshkent: "Sharq", 1998.
12. Aminov N. Yolg'onchi farishtalar. — Toshkent: "Sharq", 1997.
13. Amir Temur o'gitlari. — Toshkent: "Navro'z", 1992.
14. Anorboyev S. Sayli. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
15. Asqarov M, Abdurahmonov X. O'zbek tili grammatikasining praktikumi. — Toshkent: "O'qituvchi", 1972.
16. Bekinmachoq. Yoqut xalq ertaklari // Ruschadan O.Madayev tarjimasi. — Toshkent: "Ma'naviyat", 1998.
17. Berdiyorov Q., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. — Toshkent: "O'qituvchi", 1984.
18. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. — Toshkent: "O'qituvchi", 2003.
19. Boychechak. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: Oxunjon Safarov, Kamol Ochilov. Ko'p томлиқ. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
20. Davron X. Söhibqiron nabirasi. — Toshkent: "Sharq", 1995.
21. Fayziyev T. Temuriy malikalar. — Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
22. Фозилов М. Фарҳанги зарбулмасал, мақол ва афориэмҳои тоҷикию форсӣ. Чилди 2. — Душанбе: "Ирфон", 1977.
23. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. 1700 dan ortiq so'z. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1963.

24. Hamidjon Homidiy. Mahmud Hasaniy. Mashriqzamin – hikmat bo’stoni. – Toshkent: “Sharq”, 1997.
25. Hamid Toshpo’lat. Manzil. She’rlar, qo’shiqlar, dostonlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
26. Hoshimov O’. Bahor qaytmaydi. Qissalar va hikoyalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.
27. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”. Fors-tojik tilidan Najmuddin Komilov tarjimasi. – Toshkent: Abdulla Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
28. Ҳусейнов X., Шукрова К. Лугати терминҳои забоншиносӣ. – Душанбе: “Маориф”, 1983.
29. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo’raev N. Vatan tuyg’usi. – Toshkent: O’zbekiston, 1996.
30. Inson baxt uchun tug‘iladi. Nashrga tayyorlovchilar D.G’aniev., Z.G‘afurov. Toshkent: “Sharq”, 1998.
31. Ikromova R., Azizov A., Muhammedova D. - O’zbek tili. – Toshkent: O’qituvchi, 1983.
32. Irisov A. Abu Ali ibn Sino haqida afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar. Toshkent, 1980.
33. Ismoil M. Inson husni. - Toshkent: G‘afur Gulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
34. Jahon xalqlari ertaklari. Tarjimon A. Boboxonov. - Toshkent: Sharq, 1991.
35. Jomiy va Navoiy. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev. – Toshkent: Fan, 1966.
36. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. – Toshkent: “O’zbekiston”, 1997.
37. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. - Toshkent: O’zbekiston, 1998.
38. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - Toshkent: “Sharq”, 1998.
39. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. “O’zbekiston”: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
40. Kaykovus. Qobusnomma. Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “Istiqlol”, 1994.
41. Malika ayyor. Dostonlar. Aytuvchi: Fozil Yulduz o‘g‘li. Yozib oluvchi: Muhammadisa Ernazar o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi: Hodi Zarif. To‘ldirib, qayta nashrga tayyorlovchi Zubayda Husainova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
42. Malik T. Shaytanat. Birinchi kitob. – Toshkent: “Sharq”, 2006
43. Malik T. Murdalar gapirmaydilar. Qissalar. – Toshkent: “Sharq”, 1999.
44. Mahkamov Ulfat. Axloq – odob saboqlari. – Toshkent: “Fan”, 1994.
45. Miraziz A’zam. Yerga dovrug’ solamiz. She’rlar, dostonlar. Toshkent, 1976.
46. Mirzayev M va boshqalar, O’zbek tili. – Toshkent, 1978.
47. Мирсаид Миршакар. гунчаҳои ҳандон. – Душанбе: “Адиб”, 1988.
48. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. -Toshkent: “Fan”, 1991.
49. Mirvaliyev S. O’zbek adiblari. - Toshkent, 1996 yil.
50. Muhiddinova X., Yusupova M., Ikromova N., Akramova G. O’zbek tili. Ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: O’qituvchi, 2006.
51. Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent: “Kamalak”, 1991.
52. Muqimov K., Ne’matov H., Hamroyev F. O’zbek alifbosi va imlosi. Buxoro, 1992.
53. Ma’rufov A. Paronimlar lug‘ati. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1974.
54. Navoiy A. Devoni Foniy. Mukammal asarlar to‘plami. O’n sakkizinchı tom. – Toshkent: “Fan”, 2002.
55. Oripov A. Tanlangan asarlar. To‘rt jiddlik. Birinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
56. Olimov M. Risolayı sarf yoki an’anaviy morfologiya. – Toshkent: “Fan”, 2003.
57. Panasenko E.D., Umarov E.A. O’zbek tilining imlo lug‘ati. - T: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1998.
58. Qilichev E. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2005.
59. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
60. Qo‘ng‘irov R., Tixonov A. O’zbek tilining chappa lug‘ati. – Samarqand, 1968.
61. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1978.
62. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O’zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. 1800 ga yaqin antonim juftlik. / Qo‘chqortoyev I.K tahriri ostida. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1980.
63. Rahmatullayev Sh. O’zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. 497 omoifoda ostiga birlashuvchi 1160 dan ortiq leksema./ Qo‘chqortoyev I tahriri ostida. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1984.
64. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O’zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1995.

65. Rafiyev A. O'zbek tili. Ta'lim tojik tilida olib boriladigan umumta'lim mактабларининг 11-sinfи uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2005.
66. Rafiyev A. O'zbek tili. Ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan mактабларининг 9-sinfи uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.
67. Ramz Bobojon. Yusuf va Zulayxo. Dramatik doston. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
68. Rizayev S. O'zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug'ati. – Toshkent: "Fan", 1980.
69. Sirojiddinov R. Grammatik topishmoqlar. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995t.
70. Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: Gafur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
71. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: "Sharq", 1999.
72. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1998.
73. Sulton Jo'ra. Sog'inchli salom. She'rlar va ertaklar. – Toshkent: "Yulduzcha", 1988.
74. Tursunov U va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "O'zbekiston", 1992.
75. Таэкираи адабиёти бачагон. Чилди 2. Тартибидиҳандагон: Баҳром Фирӯз, Чонон Бобоқалонов. – Душанбе: Маориф, 1980.
76. Таэкираи адабиёти муосир барон құдакон. Чилди 2. Тартибидиҳанда: Назрullo Раҳматуллоев. – Душанбе: "Адаб", 1989.
77. Tolipova R, Yo'ldosheva N, Qosimxo'jayeva D. O'zbek tili. Ta'lim tojik tilida olib boriladigan umumta'lim mактабларининг 5-sinfи uchun darslik. To'ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: "Sharq", 2005.
78. Tolipova R., Tursunova I., Ochilova M. O'zbek tili. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim mактабларининг 7-sinfи uchun darslik. To'ldirilgan ikkinchи nashri. – Toshkent: "Sharq", 2005.
79. 333 ruboiy. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent: Nur, 1991.
80. Yoqubov O. Diyomat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
81. El desa Navoiyni. Hazrat Mir Alisher Navoijy haqida rivoyatlar. - Toshkent: "Cho'lon", 1991.
82. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. – Toshkent: "Sharq", 2000.
83. Zahiriddin Bobur. Devon. – Toshkent: Fan, 1994.
84. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4 том. – Toshkent: O'zME Davlat nashriyoti, 2003.
85. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5 том. – Toshkent: O'zME Davlat nashriyoti, 2003.

86. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2005.
87. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchillar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. Mat'ul muharrir: Sh.Turdiyev. – Toshkent: Sharq, 2005.
88. Shermuhamedov P., Tursunov J., Safarov O., Egamov X. O'zbek bolalar adabiyoti. Pedagogika institutlari boshlang'ich ta'lif metodikasi fakultetlari uchun darslik-xrestomatiya. – Toshkent: "O'qituvchi", 1976.
89. Shodiyev E. Alisher Navoiyining fors-tojik tilidagi asarlari. – Toshkent: Fan, 1990, 102 be.
90. Shoabduranmonov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.
91. Shuhrat. Bir kecha fojiasi. – Toshkent, 1976.
92. Shuhrat. Baxtning rangi. Saylanma. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
93. Cho'pon. Kecha va kunduz. – Toshkent: "Sharq", 2004.

## MUNDARIJA

1-mavzu. O'zbek tili va uning qisqacha tarixi .....	5
2-mavzu. O'zbek tili yozuvlari. Lotin alifbosi. ....	12
<b>Fonetika (tovish tizimi) .....</b>	<b>18</b>
3-mavzu. Tovush va harf .....	19
4-mavzu. Unli tovushlar .....	25
5-mavzu. Undosh tovushlar .....	32
6-mavzu. Jarangli va jarangsiz undoshlar .....	38
7-mavzu. Bo'gin va urg'u .....	43
<b>Leksikologiya (so'zshunoslik).....</b>	<b>52</b>
8-mavzu. Shakldosh so'zlar .....	52
9-mavzu. Ma'nodosh so'zlar .....	57
10-mavzu. Zid ma'noli so'zlar .....	63
11-mavzu. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar .....	69
12-mavzu. O'z va o'zlashma so'zlar .....	74
<b>Lug'atshunoslik (leksikografiya) .....</b>	<b>82</b>
13-mavzu. Lug'at va uning turlari .....	82
14-mavzu. Bir tilli va ikki tilli lug'atlar .....	89
<b>Grammatika .....</b>	<b>93</b>
15-mavzu. So'z turkumlari .....	93
16-mavzu. Ot so'z tirkumi .....	99
17-mavzu. Atoqli, turdosh, aniq va mavhum otlar .....	106
18-mavzu. Ot so'z turkumining kelishik kategoriyasi .....	115
19-mavzu. Sifat .....	124
20-mavzu. Sifat darajalari .....	130
21-mavzu. Son .....	136
22-mavzu. Olmosh .....	142
23-mavzu. Fe'l .....	148
24-mavzu. Fe'l nisbatlari: aniq, orttirma, o'zlik, majhul, birgalik .....	153
25-mavzu. Fe'l zamonlari .....	159
26 -mavzu. Fe'l mayllari .....	164
27-mavzu. Sifatdosh .....	169
28-mavzu. Ravishdosh .....	174
29-mavzu. Ravish .....	178
30-mavzu. Yordamchi sozlar .....	184
31-mavzu. Alohida olingan so'zlar: modal, undov va taqlidiy so'zlar .....	191
<b>Sintaksis .....</b>	<b>195</b>
32-mavzu. So'z birikmasi va gap .....	195
Bosh bo'laklar .....	203

33-mavzu. Ega va uning ifodalanishi .....	203
34-mavzu. Kesim va uning ifodalanishi .....	207
Ikkinch darajali qo'lo bo'laklari .....	211
35-mavzu. To'ldiruvchi .....	211
36-mavzu. Aniqlochchi .....	215
37-mavzu. Hol .....	219
<b>Imlo .....</b>	<b>223</b>
38-mavzu. O'zbek tili imlosi va imloviy qoidalar .....	223
<b>Ertaklar .....</b>	<b>235</b>
Og'zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi matnlar .....	247
Tarjimonlik mahorat va malakan oshirish uchun matnlar .....	255
Lingvistik (lisoniylah) tahlil .....	264
Lug'at .....	277

ISBN 978-9943-13-053-0



9 789943 130630